

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN
VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda
PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

2-son (fevral 2024)

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

Urganch – 2024

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent **YO‘LDOSHEV Ro‘zimboy**

TAHRIR HAY’ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
ABDULLAYEV O‘tkir, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, (UrDU),
AHMEDOV Oybek Saporbayevich, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, (UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYOZOV Zohid Otoboyevich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, (Ma’mun universiteti),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
KURAMBAYEV Sherzod Raimberganovich, texnika fanlari doktori, dotsent (UrDU),
MADRAXIMOVA Feruza Ruzimbayevna, pedagogika fanlari doktori, dotsent (UrDPI),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa’dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O‘zMU),
Sadullayeva Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O‘zMU),
SALAYEV San’atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o‘rnbosari, UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),
O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU),
O‘ROZBOYEV G‘ayrat, fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU),
G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul kotib, UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 2-son (fevral 2024)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti • Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan • **GUVOHNOMA № 1131.**

FIZIKA-MATEMATIKA

Shukurov Zoxid Kuchkorovich (SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi mudiri
“PhD); shukurovzoxid742@gmail.com),

Abdullayeva Sarvinoz Eshqobil qizi, Ergashyeva E’zoza Yusup qizi, Baxtiyorov Bekzod Xusniddin o‘g‘li
(SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali talabalari)

ELASTIK YOPISHQOQ SUYUQLIKLARNING STATSIONAR BO‘LMAGAN OQIMLARI HARAKATINI O‘RGANISHDA SHULMAN-XUSIDNING MODIFIKATSIIYA MODELINI QO‘LLASH

Annotation. Kanal va quvurlarda elastik yopishqoq suyuqliklarning statsionar bo‘lмаган va pulsatsiyalanuvchi oqimlarini o‘rganishda ularning murakkab reologik modellarini qo‘llash orqali aniq amaliy masalalarni yechish, analitik usullarni ishlab chiqish ishlari olib borilgan va ijobjiy natijalarga erishilgan. Ushbu maqolada biz kanallar va quvurlardagi elastik yopishqoq suyuqliklarning statsionar bo‘lмаган oqimlari harakatlarini o‘rganish uchun Shulman-Xusid modelining modifikatsiyasidan foydalanishni taklif qilamiz, bu model Nyuton va Maksvell modellarining umumiy holi ekanligini ko‘rsatamiz.

Keywords: elastik yopishqoq suyuqlik, kanal, quvur, statsionar bo‘lмаган oqim, model, reloksatsiya, spektr, modifikatsiya.

ПРИМЕНЕНИЕ МОДИФИКАЦИОННОЙ МОДЕЛИ ШУЛЬМАНА-ХУСИДА ПРИ ИССЛЕДОВАНИИ ДВИЖЕНИЯ НЕСТАЦИОНАРНЫХ ПОТОКОВ УПРУГИХ ВЯЗКИХ ЖИДКОСТЕЙ

Annotation. При исследовании нестационарных и пульсирующих течений упругих вязких жидкостей в каналах и трубах с применением их сложных реологических моделей проведены работы по решению конкретных практических задач, разработке аналитических методов и достигнуты положительные результаты. В данной статье мы предлагаем использовать модификацию модели Шульмана-Хусида для исследования поведения нестационарных течений упругих вязких жидкостей в каналах и трубах и показываем, что эта модель является общим случаем моделей Ньютона и Максвелла.

Keywords: упругая вязкая жидкость, канал, труба, нестационарное течение, модель, релоксация, спектр, модификация.

APPLICATION OF SHULMAN-KHUSID MODIFICATION MODEL IN STUDYING THE MOVEMENT OF NON-STATIONARY FLOWS OF ELASTIC VISCOUS FLUIDS

Annotation. In the study of non-stationary and pulsating flows of elastic viscous fluids in channels and pipes, by applying their complex rheological models, work was carried out to solve specific practical problems, to develop analytical methods, and positive results were achieved. In this article, we propose to use a modification of the Shulman-Husid model to study the behavior of non-stationary flows of elastic viscous fluids in channels and pipes, and we show that this model is a general case of the Newtonian and Maxwellian models.

Keywords: elastic viscous fluid, channel, pipe, non-stationary flow, model, reallocation, spectrum, modification.

Kirish (Introduction). Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Elastik yopishqoq suyuqliklarning matematik modeli, asosan, suyuqlik elastikligining o‘zgarishini hisobga olishga asoslangan. Eng umumiy holda muhit holatlarning reologik tenglamalari Koshi va Finger chekli deformatsiyalari tenzor bog‘lanishi bilan ifodalangan kuchlanishlar tenzori ko‘rinishida berilgan [14;15-b.]. Keyin elastik yopishqoq suyuqliklarning holatlari chiziqsiz reologik tenglamalari Maksvell modeli ko‘rinishida umumilashtirilgan [1,6,7,17,20]. U yerda relaksasion va integral tipdagisi holatlari chiziqsiz elastik yopishqoq reologik tenglamalarning matematik ekvivalentligi shartlari asosida aniqlanadi.

Yassi va halqasimon doiraviy kesimli uzun kanallarda elastik yopishqoq suyuqlik oqimi Z.P.Shulman, B.M.Xusidlar tomonidan tadqiq etilgan [17].

Bosim gradiyentining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi natijasidagi yopishqoq Nyuton suyuqliklarining laminear nostasionar va stasionar oqimlar masalalari [2,3,4,8] tadqiqot ishlarida qaralgan bo‘lsa, turbulent rejimdagi oqimlar [13;16-b.] ishlarda tadqiq qilingan. Nyuton suyuqligi harakatini ko‘pfazoli muhit sifatida qarash, bu sohadagi nazariy tadqiqot ishlaringning tajriba natijalariga yaqinlashtirish imkonini beradi, bunday tadqiqotlar [5;13-b.] ishda mukammal va amaliyotga tatbiqlari asosida keltirilgan.

Ammo nonyuton suyuqliklar harakatini o‘rganishda ko‘plab tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, hozirgi kunda Shulman-Xusid modeli yordamida masalalar yetarli darajada tadqiq qilinmagan va amaliyotga tatbiq etilmagan. Jumladan, elastik yopishqoq suyuqliklarning oqimida, bosim gradiyentining keskin

o'sishi va keskin kamayib nolga teng bo'lishidagi nostasionar oqimlarida sodir bo'ladigan gidrodinamik o'zgarishlar batafsil o'rganilmagan [10,14,17,18,19,20].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ma'lumki, ko'pchilik hollarda elastik yopish-qoq suyuqlik oqimi uchun Maksvellning bir o'chovli fazodagi klassik modeli elastik yopishqoq suyuqliklar oqimi uchun qo'lanilib kelgan [1,8,9]:

$$\tau + \lambda \dot{\tau} = 2\eta D, \quad (1)$$

bu yerda τ – kuchlanishlar tenzori; $\dot{\tau}$ – kuchlanishlar tenzorining vaqt bo'yicha hosilasi; η – suyuqlikning dinamik yopishqoqlik koeffitsiyenti;

$$\lambda = \frac{\eta}{E} \text{ – relaksatsiya koeffitsiyenti; } E \text{ – yopishqoq suyuqlikning elastiklik moduli; } D = \frac{1}{2} \frac{\partial u}{\partial y}$$

– muhitning siljish deformatsiyasi tezligi.

Biz Maksvell modeli ko'rinishidagi barcha elastik yopishqoq suyuqliklarning reologik modellarini topologik model shaklida umumlashtiruvchi Shulman-Xusidning modelida keltiramiz:

$$\begin{aligned} T &= \sum_{k=1}^{\infty} \left(1 + \frac{\varepsilon}{2} \right)' T_k^{(1)} + \frac{\varepsilon}{2} T_k^{(2)}, \quad T_k^{(1)} + \frac{g_k}{\lambda_k} T_k^{(1)} = 2 p_k D, \\ T_k^{(2)} &+ \frac{g_k}{\lambda_k} T_k^{(2)} = -2 p_k D, \quad \frac{D p_k}{D t} + \frac{g_k}{\lambda_k} p_k = \frac{\eta_k}{\lambda_k^2} f_k. \end{aligned} \quad (2)$$

Bu yerda yuqori konvektiv hosila ushbu ifoda orqali

$$T_k^{(1)} = \frac{DT_k^{(1)}}{Dt} - T_k^{(1)} \nabla V^T - \nabla V \cdot T_k^{(1)},$$

pastki konvektiv hosila esa quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$T_k^{(2)} = \frac{DT_k^{(2)}}{Dt} + T_k^{(2)} \nabla V + \nabla V^T \cdot T_k^{(2)}.$$

Yaumann hosilasi esa ushbu ko'rinishda berilgan: $\frac{DA}{Dt} = \frac{\partial A}{\partial t} + V \nabla A + WA - AW$,

bu yerda $\nabla V = D + W$, $D = \frac{1}{2} (\nabla V^T + \nabla V)$, $W = \frac{1}{2} (\nabla V - \nabla V^T)$ bo'lib,

D – deformatsiya tezligi tenzori; ∇V – deformatsiya tezligi gradiyenti; ∇V^T – transponirlangan deformatsiya tezligi gradiyenti; noldan farqli ikkinchi normal kuchlanishlar ayirmasini ifodalovchi ε parametr sifatida kiritilgan bo'lib, u quyidagi formula orqali aniqlanadi $\frac{\varepsilon}{2} = \frac{\Psi_2}{\Psi_1}$. Bu yerda

$\Psi_1 = (\sigma_{11} - \sigma_{22}) / \gamma^2$, $\Psi_2 = (\sigma_{22} - \sigma_{33}) / \gamma^2$ funksiyalar, mos ravishda, birinchi va ikkinchi, ikkinchi va uchinchi kuchlanishlar ayirmasi; p_k – tenglamaning o'zidan aniqlanuvchi parametr; $T_k^{(1)}$, $T_k^{(2)}$ – har

biri uchun to'qqizta elementdan tashkil topgan kuchlanish tenzorlari; $T_k^{(1)}$, $T_k^{(2)}$ – ixtiyoriy tanlangan koordinatalar sistemasida berilgan kuchlanish tenzorlari bo'lib, ular uchun belgilangan hosilalar, mos ravishda, yuqori va pastki konvektiv hosilalarni bildiradi [18-19].

Yuqorida keltirilgan (2) umumiyo ko'rinishdagi elastik yopishqoq suyuqliklar modeliga juda ko'p polimer suyuqliklar va boshqa elastik yopishqoq suyuqliklar modellari kiradi. Asosan, bu modellarning bir-biridan farqi, elastik yopishqoq suyuqliklar xususiyatlari qarab (2) tenglamaga kiruvchi $f_k(S_D(t'))$ va $g_k(S_D(t'))$ funksiyalarning aniqlanishidadir. Xususan, kichik deformasiyalarda $f_k = g_k = 1$ bo'lib, bu holda elastik yopishqoq suyuqliklar modeli chiziqli ko'rinishga keladi. Sonli hisob yuritishda λ_k va

η_k kattaliklar, jumladan, $\lambda_k = \frac{\lambda}{k^\alpha}$, $\eta_k = \frac{\eta}{\xi(\alpha)k^\alpha}$ ko‘rinishida olinadi, bu yerda η – boshlang‘ich holatdagi Nyuton suyuqligining dinamik yopishqoqlik koeffitsiyenti; λ – relaksasiya koeffitsiyenti (vaqt); α – relaksasiya vaqtiga taqsimlanish spektrini xarakterlovchi son; $\xi(\alpha)$ – Rimanning dzeta funksiyasi, u $\xi(\alpha) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{1}{k^\alpha}$ ko‘rinishidagi ifoda orqali aniqlanadi.

Shuni aytish kerakki, yuqori konvektiv hosila, pastki konvektiv hosila va Yaumann hosilasi ixtiyoriy koordinatalar sistemasida olingan bo‘lib, ular ortogonal Dekart va silindrik koordinatalar sistemalarida oddiy hosilalarga aylanadi.

Maksvell tipidagi modellarda $f_k = g_k = 1$ va $p_k = \frac{\eta_k}{\lambda_k}$ ekanligidan, yuqorida keltirilgan Shulman-Xusid modeli to‘liq chiziqli ko‘rinishga keladi. Shunday ekan, Shulman-Xusid modelini, ushbu ko‘rinishdagi modifikatsiyalangan model shakliga keltiramiz [10,11]:

Dekart koordinatalar sistemasi uchun ushbu ko‘rinishda:

$$T = \sum_{k=1}^{\infty} T_k, \quad \lambda_k \frac{\partial T_k}{\partial t} + T_k = 2\eta_k \mathbf{D}, \\ \mathbf{D} = \frac{1}{2} \frac{\partial \mathbf{u}}{\partial y}; \quad (3)$$

silindrik koordinatalar sistemasi uchun esa ushbu ko‘rinishda keltiramiz:

$$T = \sum_{k=1}^{\infty} T_k, \quad \lambda_k \frac{\partial T_k}{\partial t} + T_k = 2\eta_k \mathbf{D}, \\ \mathbf{D} = \frac{1}{2} \frac{\partial \mathcal{G}_x}{\partial r}. \quad (4)$$

Bu yerda keltirilgan modifikatsiyalangan Shulman-Xusid modelidan xususiy holda Nyuton, Maksvell modellari kelib chiqishini keltiramiz. Ryelaksasiya koeffitsiyenti λ nolga intilgan holatida xususiy hol sifatida Nyuton modeli kelib chiqadi. Haqiqatdan ham, (3) va (4) tenglamalarda $\lim_{\lambda \rightarrow 0} \lambda_k = 0$ desak, u holda Dekart koordinatalar sistemasi uchun

$$T = \eta \frac{\partial \mathbf{u}}{\partial y} \quad (5)$$

va silindrik koordinatalar sistemasi uchun

$$T = \eta \frac{\partial \mathcal{G}_x}{\partial r} \quad (6)$$

ko‘rinishda ifodalash qiyin emas.

Modifikatsiyalangan Shulman-Xusid modelining xususiy holi sifatida, relaksasiya vaqtiga spektrini taqsimlanishini xarakterlovchi son α cheksizlikka intilganda, Maksvell suyuqligi uchun reologik tenglama hosil bo‘ladi. Ya’ni, (3) va (4) tenglamalarda $\alpha \rightarrow \infty$ bo‘lganda, Dekart koordinatalar sistemasida

$$\tau + \lambda \dot{\tau} = \eta \frac{\partial \mathbf{u}}{\partial y} \quad (7)$$

tenglamani va silindrik koordinatalar sistemasida

$$\tau + \lambda \dot{\tau} = \eta \frac{\partial \mathcal{G}_x}{\partial r} \quad (8)$$

tenglamani hosil qilamiz. Bu tenglamalar Maksvell tenglamalarini ifoda qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Nyuton modelining kamchiligi suyuqlikning elastiklik xususiyatini e'tiborga olmasligida, afsuski, elastiklik xususiyatini o'z ichiga oluvchi suyuqliklar texnika va texnologik jarayonlarda juda ko'plab uchraydi [20].

Keltirilgan Maksvell modelining Shulman-Xusid modeliga nisbatan kamchiligi shundaki, bu yerda elastik yopishqoq suyuqlik bir jinsli suyuqlikdan iborat deb, faqat bitta relaksatsiya vaqtiga (koeffitsiyenti) orqali aniqlanadi. Shulman-Xusid modelining modifikatsiyasida esa elastik yopishqoq suyuqlik bir jinsli emas deb qaraladi va relaksatsiya vaqtiga (koeffitsiyenti) cheksiz ko'p yaqinlashuvchi ketma-ketlik sifatida ifodalanib, bular ichidagi eng katta relaksatsiya koeffitsiyenti tanlanadi, undan keyingi relaksatsiya koeffitsiyentlari esa uning ma'lum bir qonuniyatiga bo'yinuvchi ulushi sifatida aniqlanadi. Shu boisdan ham Shulman-Xusid modelining modifikatsiyasi Maksvell modelinining umumlashmasi sifatida qaraladi [17; 20-b.].

Xulosa (Conclusion). Yuqorida taklif etilgan Shulman-Xusidning modifikatsiya modeli orqali yassi kanalda elastik yopishqoq suyuqlikning stasionar bo'lmagan oqimi harakatini o'rganish Maksvell modelida elastik yopishqoq suyuqlikning stasionar bo'lmagan oqimi harakatini urganishdan bir qancha qulay va yaxshi natija berishini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- [1]. Астарита Ж., Маруччи Ж. Основы гидромеханики неньютоновских жидкостей. М., “Мир”, 1978, 309 с.
- [2]. Валиева Ю.П., Пурдин М.С. Гидродинамика и теплообмен пульсирующего ламинарного потока в каналах. Теплоэнергетика, 2015, с. 24–33.
- [3]. Колосов Б.В. О механизме неньютоновского поведения жидкости. Электронный научный журнал «Нефтегазовое дело», 2015, № 1, <http://ogbus.ru>. с. 56–61.
- [4]. Матвиенко В.Н., Кирсанов Ю.А. Структурное обоснование неньютоновского течения. Вестник Московского госуниверситета им.Ломоносова серия.2. Химия, 2017, т. 58, № 2, с. 105–113.
- [5]. Нигматулин Р.И. Основы механики гетерогенных сред. М., “Наука”, 1978, 336 с.
- [6]. Трусылев К. Первоначальный курс рациональной механики сплошных сред. М., “Мир”, 1975, 592 с.
- [7]. A.Begjanov, Z.K.Shukurov, B.Sh.Yuldashev, and. Pulsating flow of stationary elastic-viscous fluids in a flat-wall channel 26-y Mejdunarodnoy konferensii Construction The Formation Of Living Environment (FORM-2023) E3S Web of Conferences 401, 01030 (2023) CONMECHYDRO, 2023.
- [8]. Akilov Zh.A., Dzhabbarov M.S. and Khuzhayorov B.Kh. Tangential Shear Stress under the Periodic Flow of a Viscoelastic Fluid in a Cylindrical Tube. SSN 0015-4628, Fluid Dynamics, 2021, vol. 56, №2, p. 189 – 199.
- [9]. Chhabra R.P., Richardson J.F. Non-Newtonian Flow and applied rheology (Engineering applications). 2008, p. 518.
- [10]. Navruzov K., Sharipova Sh., Kujatov N., Begjanov A. General rheological model of elastic viscosity fluids. Novateur publications Journal NX-A Multidisciplinary peer reviewed Journal, ISSN 2581-4230.2020, vol. 6, p. 138–142.
- [11]. Navruzov K., Shukurov Z.K., Begjanov A.Sh. Method for determining hydraulic resistance during fluid flow in pipes. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training 2019-II ISSN 2181-9750, UDC, p. 532–542.
- [12]. Шукров З.К. Нестационарное течение в вязкоупругой жидкости в плоском канале при наличии перепада давления. Publishing House “Education and Science”. Praha, Czech Republic 2021, p. 29–31.
- [13]. Shukurov Z.K., Assistant Umarov N. Investigation of the hydraulic resistance of pulsating flows of a viscous fluid in an elastic pipe. Journal of Tianjin University Science and Technology ISSN (Online): 0493-2137 E-Publication: Online Open Access. Vol 65, Issue 4, 2022.
- [14]. Shukurov Z. Pulsating flows of a viscous fluid in a flat channel with variable walls. Asian Journal of Research №3, 2019, p. 169–174 (№ 35 CrossRef. Impact factor: 5.1).
- [15]. Шишлянников В.В. Теплообмен неньютоновских жидкостей в круглой трубе. Известия Волж. ГТУ, 2010, № 1, с. 53–56.
- [16]. Shukurov Zoxid Kuchkarovich. General rheological model of Maxwell-type elastic valuable fluids. European Journal of Molecular & Clinical Medicine. ISSN 2515-8260. Volume 07, Issue 05, 2020. p. 1716–1721. (01.00.00 (№3. Scopus. №35 CrossRef).
- [17]. Шульман З.Р., Хусид Б.М. Нестационарные процессы конвективного переноса в наследственных средах. – Минск, 1983, 256 с.
- [18]. Shukurov Zoxid, Sag'dullayev Otabek. Method for determining hydraulic resistance during fluid flow in pipes // Novateur publications international Journal of innovations in Engineering Research and Technology. Volume 8, Issue 12, Dec. 2021.
- [19]. К.Наврузов, М.Тураев, З.Шукров. Пульсирующие течения вязкоупругой жидкости в плоском канале на основе обобщенной модели максвелла. Международная научно-практическая конференция «Рахматуллинские чтения» 26 –27 мая, Ташкент, 2023, 75–76 с.

Erkinboyev Qutlimurot San'atbek o'g'li (UrDU "Matematik tahlil" kafedrasi tayanch doktoranti;
e-mail: qerkinboyev@gmail.com)

IKKINCHI TIP KLASSIK SOHA AVTOMORFIZMLARINING XOSSALARI

Annotatsiya. Bir jinsli sohalarda integral formulalar qurishda avtomorfizmlar gruppasidan foydalanildi. Bunda avtomorfizmlar gruppalari keng bo'lgan elementi matritsalardan iborat sohalar qaraladi. Matritsaviy sohalar bиринчи bo'lib E.Kartan va K.Zigel tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, ular to'rtta klassik soha avtomorfizmlarining umumiyo ko'rinishlarini tasvirlashgan. Bu maqolada Rudin [2] kitobidagi 2.2.2-teoremaning Kartanning ikkinchi tip klassik sohasidagi analogi keltirilgan.

Kalit so'zlar: bir jinsli soha, simmetrik soha, klassik soha, avtomorfizm.

Аннотация. В однородных областях группы автоморфизмов можно использовать для построения интегральных формул. Области с богатыми группами автоморфизмов часто реализуются как матричные области. Матричные области впервые были глубоко изучены Э.Картаном и К. Зигелем. В частности, они описали общие формы автоморфизмов четырех классических областей. В статье получен аналог Теоремы 2.2.2 из книги Рудина [2] для классических областей Картана второго типа.

Ключевые слова: однородная область, симметричная область, классическая область, автоморфизма.

Annotation. In homogeneous domains, the automorphism groups can be used to find integral formulas. Domains with rich automorphism groups are often implemented as matrix domains. Matrix domains were first deeply studied by E.Kartan and K.Ziegel. In particular, they described the general forms of automorphisms of four classical domains. In this paper, we obtain an analog of Theorem 2.2.2 from Rudin's [2] book for classical Cartan domains of the second type

Key words: homogeneous domain, symmetric domain, classical domain, automorphism.

Ma'lumki, Riman teoremasiga asosan, chegarasi bir nuqtadan ko'p bo'lgan ixtiyoriy bir bog'lamlili soha $U = \{z \in \mathbb{C} : |z| < 1\}$ birlik doiraga bigolomorf ekvivalent bo'ladi. Ammo $\mathbb{C}^n (n > 1)$ fazoda bunday xossa (xususiyat), umuman olganda, o'rinni emas. Masalan, shar va polidoira o'zaro bigolomorf ekvivalent emas. Shuning uchun \mathbb{C}^n fazoda bigolomorf sohalar sinfi muhim hisoblanadi.

1-ta'rif. Berilgan $D \subset \mathbb{C}^n$ soha bir jinsli soha deyiladi, agar bu soha avtomorfizmlari gruppasi $Aut(D)$ tranzitiv bo'lsa. Ya'ni, ixtiyoriy $z_1, z_2 \in D$ nuqtalar uchun shunday $\varphi \in Aut(D)$ avtomorfizm mavjud bo'lib, $\varphi(z_1) = z_2$ munosabat o'rinni bo'lsa.

2-ta'rif. Bir jinsli $D \subset \mathbb{C}^n$ soha simmetrik soha deyiladi, agar har qanday $\zeta \in D$ nuqta uchun shunday $\varphi \in Aut(D)$ avtomorfizm mavjud bo'lib, quyidagi munosabatlari o'rinni bo'lsa:

- 1) $\varphi(\zeta) = \zeta$, $z \neq \zeta$ nuqtalar uchun $\varphi(z) \neq z$;
- 2) $\varphi \circ \varphi = e$, bu yerda $e \in Aut(D)$ birlik akslantirish.

3-ta'rif. Chegaralangan $D \subset \mathbb{C}^n$ soha klassik soha deyiladi, agar bu sohaning golomorf avtomorfizmlari to'la gruppasi klassik Li gruppasini tashkil qilsa va tranzitiv bo'lsa.

Bir jinsli, simmetrik, qavariq va chegaralangan kompleks sohalar turli nuqtayi nazardan katta qiziqish uyg'otadi. Buning sababi shundaki, ular yordamida \mathbb{C}^n sohalarini uchun bir qator muhim, asosan, ko'p o'lchovli natijalar olingan ([1], [2], [3] va boshqalar).

Bir jinsli sohalarda integral formulalar qurishda avtomorfizmlar gruppasidan foydalananildi. Bunda avtomorfizmlar gruppalari [4], [5] keng bo'lgan elementi matritsalardan iborat sohalar [1], [6] qaraladi. Matritsaviy sohalar bиринчи bo'lib E.Kartan va K.Zigel tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, ular to'rtta klassik sohalar avtomorfizmlarining umumiyo ko'rinishlarini tasvirlashgan. Xua Lo-Ken esa klassik sohalar uchun ko'p kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasida garmonik analizni qurgan (1944–1957-yillarda) va ular bo'yicha natijalar Xua Lo-Kenning 1958-yilda xitoy tilida chop etilgan. 1959-yilda rus tilida chop etilgan [1] monografiyasida keltirilgan.

Klassik sohalarning Zigel sohalarini bilan bigolomorf akslantirish mavjudligi [7]da keltirilgan. Bunday bigolomorf akslantirishlar yozilgan va ularning chegaralanganmagan sohalarga golomorf davom qildirish-

lar masalalariga tatbiqlari keltirilgan [9], [10]. Shuning uchun klassik sohalar ko‘p o‘lchovli kompleks analizda muhim o‘rin tutadi.

Ikkinchi tip klassik $\mathfrak{R}_2(m, m)$ – sohaning har bir elementi ushbu

$$I^{(m)} - Z\bar{Z} > 0$$

munosabatni qanoatlantiruvchi m-tartibli simmetrik kvadrat matritsalaridan iborat.

Bunda $I^{(m)}$ – m-tartibli birlik kvadrat matritsa, \bar{Z} – Z ga qo‘shma matritsa.

$\mathfrak{R}_2(m, m)$ ikkinchi tip klassik soha avtomorfizmlari quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi [Xua]:

$$\varphi(Z) = (AZ + B)(\bar{B}Z + \bar{A})^{-1} = (ZB^* + A^*)^{-1}(ZA' + B'). \quad (1)$$

Bu yerda koeffitsiyentlar, mos ravishda,

$$\bar{A}A' - \bar{B}B' = I^{(m)}, \quad A'B = B'A \quad \text{va} \quad A^*A - B'\bar{B} = I, \quad A'\bar{B} = B^*A \quad (2)$$

shartlarni qanoatlantiradi.

Agar $A = R$, $A^{-1}B = -P$ deb belgilash kirlitsak, (1) akslantirishning quyidagi

$$\varphi(Z) = R(Z - P)(I - P^*Z)^{-1}\bar{R}^{-1}$$

ko‘rinishiga ega bo‘lamiz.

Ushbu

$$\varphi_P(Z) = R(Z - P)(I - P^*Z)^{-1}\bar{R}^{-1} \quad (3)$$

akslantirish quyidagi

$$Z \in \mathfrak{R}_2(m, m), \quad \bar{R}(I - \bar{P}P)R' = I^{(m)}, \quad RP + P\bar{R} = 0, \quad R = R^* \quad (4)$$

munosabatlar bilan berilgan bo‘lsin.

Teorema. $\varphi_P(Z)$ akslantirish uchun quyidagi xossalar o‘rinli:

$$1^0. \quad \varphi_P(P) = 0, \quad \varphi_P(0) = P;$$

$$2^0. \quad d(\varphi_P(P)) = RdZR', \quad d(\varphi_P(0)) = (R^*)^{-1}dZ\bar{R}^{-1};$$

3⁰. Ixtiyoriy $Z, W \in \mathfrak{R}_2(m, m)$ lar uchun ushbu

$$\det(I - \langle \varphi_P(Z), \varphi_P(W) \rangle) = \frac{\det(I - \langle P, P^* \rangle) \cdot \det(I - \langle Z, W^* \rangle)}{\det(I - \langle Z, P^* \rangle) \cdot \det(I - \langle P, W^* \rangle)}$$

munosabat o‘rinli;

4⁰. Ixtiyoriy $Z \in \mathfrak{R}_2(m, m)$ uchun

$$\det(I - \langle \varphi_P(Z), \varphi_P(Z) \rangle) = \frac{\det(I - \langle P, P \rangle) \det(I - \langle Z, Z \rangle)}{\det(I - \langle Z, P \rangle) \det(I - \langle P, Z \rangle)};$$

5⁰. $\varphi_P(\varphi_P(Z)) = Z$ (involutsiya bo‘lish xossasi);

6⁰. $\varphi_P(Z)$ – gomeomorfizm bo‘ladi va $\varphi_P(Z) \in Aut(\mathfrak{R}_2(m, m))$.

Isbot. 1⁰. $\varphi_P(Z)$ akslantirishning $Z = P$ va $Z = 0$ nuqtalardagi qiymatini hisoblaymiz:

$$\varphi_P(P) = 0, \quad \varphi_P(0) = -RP\bar{R}^{-1}.$$

Endi $RP + P\bar{R} = 0$ shartga ko‘ra, $P = -RP\bar{R}^{-1}$ tenglik o‘rinli. Bundan

$$\varphi_P(P) = 0, \quad \varphi_P(0) = P$$

ekani kelib chiqadi.

2⁰. $\varphi_P(Z)$ akslantirishning differensialini hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} d(\varphi_P(Z)) &= d(R(Z - P)(I - \bar{P}Z)^{-1}\bar{R}^{-1}) = \\ &= RdZ(I - \bar{P}Z)^{-1}\bar{R}^{-1} + R(Z - P)d((I - \bar{P}Z)^{-1})\bar{R}^{-1} = \end{aligned}$$

$$= RdZ(I - \bar{P}Z)^{-1} \bar{R}^{-1} + R(Z - P)(I - \bar{P}Z)^{-1} \bar{P}dZ(I - \bar{P}Z)^{-1} \bar{R}^{-1}$$

$\varphi_P(Z)$ akslantirish differensialining $Z = P$ va $Z = 0$ nuqtadagi qiymatlarini topamiz:

$$d(\varphi_P(P)) = RdZ(I - \bar{P}P)^{-1} \bar{R}^{-1}, \quad d(\varphi_P(0)) = R(I - P\bar{P})dZ\bar{R}^{-1}.$$

(4) munosabatlarga ko‘ra,

$$R(I - P\bar{P}) = (R^*)^{-1}, \quad (I - \bar{P}P)^{-1} \bar{R}^{-1} = R'$$

tengliklar o‘rinli bo‘ladi. Demak,

$$d(\varphi_P(P)) = RdZR', \quad d(\varphi_P(0)) = (R^*)^{-1} dZ\bar{R}^{-1}.$$

3⁰. Bu xossani isbotlash uchun avvalo ushbu

$$\varphi(Z) = (ZB^* + A^*)^{-1}(ZA' + B'), \quad \varphi(W) = (WB^* + A^*)^{-1}(WA' + B') \quad (A^*A - B'\bar{B} = I \text{ va})$$

$A'\bar{B} = B^*A$) munosabatlar uchun $I - \langle \varphi(Z), \varphi(W) \rangle$ ifodaning qiymatini hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} I - \langle \varphi(Z), \varphi(W) \rangle &= I - (ZB^* + A^*)^{-1}(ZA' + B')(AW^* + \bar{B})(BW^* + A)^{-1} = \\ &= (ZB^* + A^*)^{-1}((ZB^* + A^*)(BW^* + A) - (ZA' + B')(AW^* + \bar{B}))(BW^* + A)^{-1} = \\ &= (ZB^* + A^*)^{-1}(ZB^*BW^* + ZB^*A + A^*BW^* + A^*A - ZA'\bar{A}W^* - ZA'\bar{B} - B'\bar{A}W^* - B'\bar{B})(BW^* + A)^{-1} = \\ &= (ZB^* + A^*)^{-1}(Z(B^*B - A'\bar{A})W^* + Z(B^*A - A'\bar{B}) + (A^*B - B'\bar{A})W^* + A^*A - B'\bar{B})(BW^* + A)^{-1} = \\ &\quad (ZB^* + A^*)^{-1}(Z(-I)W^* + I)(BW^* + A)^{-1} = (ZB^* + A^*)^{-1}(I - ZW^*)(BW^* + A)^{-1} \end{aligned}$$

ya’ni

$$I - \langle \varphi(Z), \varphi(W) \rangle = (ZB^* + A^*)^{-1}(I - ZW^*)(BW^* + A)^{-1}$$

tenglik o‘rinli. Bundan esa

$$\det(I - \langle \varphi(Z), \varphi(W) \rangle) = \frac{\det(I - ZW^*)}{\det(ZB^* + A^*)\det(BW^* + A)} = \frac{\det(I - ZW^*)}{\det((ZB^*(A^*)^{-1} + I)A^*)\det(A(A^{-1}BW^* + I))}$$

munosabatning o‘rinli ekani kelib chiqadi. Agar $A^{-1}B = -P$ deb belgilash kiritib, $I - PP^*$ ning qiymati ni hisoblaydigan bo‘lsak,

$$I - PP^* = I - A^{-1}B(A^{-1}B)^* = I - A^{-1}BB^*(A^{-1})^* = A^{-1}(AA^* - BB^*)(A^{-1})^* = A^{-1}(A^{-1})^*$$

ya’ni

$$\det(I - PP^*) = \det(A^{-1})\det((A^{-1})^*) \tag{5}$$

munosabatga ega bo‘lamiz. Endi $A^{-1}B = -P$ belgilash uchun (5) tenglikning o‘rinli ekanidan ushbu

$$\det(I - \langle \varphi_P(Z), \varphi_P(W) \rangle) = \frac{\det(I - \langle P, P^* \rangle) \cdot \det(I - \langle Z, W^* \rangle)}{\det(I - \langle Z, P^* \rangle) \cdot \det(I - \langle P, W^* \rangle)} \tag{6}$$

munosabatning o‘rinli ekani kelib chiqadi.

4⁰. Bu xossani isbotlash uchun (6) tenglikda $W = Z$ deb almashtirish bajarishning o‘zi yetarli. Bu holda

$$\det(I - \langle \varphi_P(Z), \varphi_P(Z) \rangle) = \frac{\det(I - \langle P, P \rangle) \det(I - \langle Z, Z \rangle)}{\det(I - \langle Z, P \rangle) \det(I - \langle P, Z \rangle)}$$

munosabat o‘rinli bo‘ladi.

5⁰. $\varphi_P(Z)$ akslantirish (bu yerda $Z \in \mathfrak{R}_2(m, m)$, $\bar{R}(I - \bar{P}P)R' = I^{(m)}$, $RP + P\bar{R} = 0$, $R = R^*$) uchun $\varphi_P(\varphi_P(Z)) = Z$ o‘rinli ekanini ko‘rsatishimiz kerak.

$P \in \mathfrak{R}_2(m, m)$ bo‘lgani uchun $P^* = \bar{P}$. Demak, $\varphi_P(Z)$ akslantirishni

$$\varphi_P(Z) = R(Z - P)(I - \bar{P}Z)^{-1} \bar{R}^{-1}$$

ko‘rinishida ham yozishimiz mumkin. Endi $\varphi_P(\varphi_P(Z))$ ning qiymatini hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} \varphi_P(\varphi_P(Z)) &= R(R(Z - P)(I - \bar{P}Z)^{-1} \bar{R}^{-1} - P)(I - \bar{P}R(Z - P)(I - \bar{P}Z)^{-1} \bar{R}^{-1})^{-1} \bar{R}^{-1} = \\ &= R(R(Z - P) - P\bar{R}(I - \bar{P}Z))(I - \bar{P}Z)^{-1} \bar{R}^{-1} \bar{R}(I - \bar{P}Z)(\bar{R}(I - \bar{P}Z) - \bar{P}R(Z - P))^{-1} \bar{R}^{-1} = \\ &= R(RZ - RP - P\bar{R} + P\bar{R}\bar{P}Z)(\bar{R} - \bar{R}\bar{P}Z - \bar{P}RZ + \bar{P}RP)^{-1} \bar{R}^{-1} = \\ &= R((R + P\bar{R}\bar{P})Z - (RP + P\bar{R}))((\bar{R} + \bar{P}RP) - (\bar{R}\bar{P} + \bar{P}R)Z)^{-1} \bar{R}^{-1} \end{aligned}$$

(4) munosabatlarga ko‘ra, quyidagilar o‘rinli:

$$RP + P\bar{R} = 0, \bar{R}\bar{P} + \bar{P}R = 0, \bar{R} + \bar{P}RP = \bar{R}^{-1}, R + P\bar{R}\bar{P} = R^{-1}.$$

Demak,

$$\begin{aligned} \varphi_P(\varphi_P(Z)) &= R((R + P\bar{R}\bar{P})Z - (RP + P\bar{R}))((\bar{R} + \bar{P}RP) - (\bar{R}\bar{P} + \bar{P}R)Z)^{-1} \bar{R}^{-1} = RR^{-1}Z\bar{R}\bar{R}^{-1} = Z \\ \text{ya’ni, } \varphi_P(\varphi_P(Z)) &= Z. \end{aligned}$$

6⁰. $\varphi_P(Z)$ akslantirishning $Z = Z_1$ va $Z = Z_2$ nuqtadagi qiymatlarini, mos ravishda,

$\varphi_P(Z_1) = R(Z_1 - P)(I - P^*Z_1)^{-1} \bar{R}^{-1}$, $\varphi_P(Z_2) = R(Z_2 - P)(I - P^*Z_2)^{-1} \bar{R}^{-1}$ ko‘rinishlarda ifodalashimiz mumkin. Endi $\varphi_P(Z_1) - \varphi_P(Z_2)$ ayirmani hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} \varphi_P(Z_1) - \varphi_P(Z_2) &= R(Z_1 - P)(I - P^*Z_1)^{-1} \bar{R}^{-1} - R(Z_2 - P)(I - P^*Z_2)^{-1} \bar{R}^{-1} = \\ &= R((Z_1 - P)(I - P^*Z_1)^{-1} - (Z_2 - P)(I - P^*Z_2)^{-1})\bar{R}^{-1} = \\ &= R((Z_1 - Z_2)(I - \bar{P}Z_1)^{-1} + Z_2(I - \bar{P}Z_1)^{-1} - Z_2(I - \bar{P}Z_2)^{-1} + P((I - \bar{P}Z_2)^{-1} - (I - \bar{P}Z_1)^{-1}))\bar{R}^{-1} = \\ &= R((Z_1 - Z_2)(I - \bar{P}Z_1)^{-1} + (Z_2 - P)(I - \bar{P}Z_2)^{-1}((I - \bar{P}Z_2 - I + \bar{P}Z_1)(I - \bar{P}Z_1)^{-1}))\bar{R}^{-1} = \\ &= R((Z_1 - Z_2)(I - \bar{P}Z_1)^{-1} + (Z_2 - P)(I - \bar{P}Z_2)^{-1}((I - \bar{P}Z_2 - I + \bar{P}Z_1)(I - \bar{P}Z_1)^{-1}))\bar{R}^{-1} = \\ &= R(I + (Z_2 - P)(I - \bar{P}Z_2)^{-1}\bar{P})(Z_1 - Z_2)(I - \bar{P}Z_1)^{-1}\bar{R}^{-1} = \\ &= R(I + (Z_2 - P)(\bar{P}^{-1} - Z_2)^{-1})(Z_1 - Z_2)(I - \bar{P}Z_1)^{-1}\bar{R}^{-1} = \\ &= R(\bar{P}^{-1} - Z_2 + Z_2 - P)(\bar{P}^{-1} - Z_2)^{-1}(Z_1 - Z_2)(I - \bar{P}Z_1)^{-1}\bar{R}^{-1} = \\ &= R(I - P\bar{P})\bar{P}^{-1}\bar{P}(I - Z_2\bar{P})^{-1}(Z_1 - Z_2)(I - \bar{P}Z_1)^{-1}\bar{R}^{-1} = \\ &= R(I - P\bar{P})(I - Z_2\bar{P})^{-1}(Z_1 - Z_2)(I - \bar{P}Z_1)^{-1}\bar{R}^{-1}. \end{aligned}$$

Ya’ni

$$\varphi_P(Z_1) - \varphi_P(Z_2) = R(I - P\bar{P})(I - Z_2\bar{P})^{-1}(Z_1 - Z_2)(I - \bar{P}Z_1)^{-1}\bar{R}^{-1}.$$

Bu tenglikdan quyidagicha xulosa kelib chiqadi: $\varphi_P(Z_1) - \varphi_P(Z_2) = 0$ bo‘ladi, faqat va faqat shu holdaki, $Z_1 = Z_2$ o‘rinli bo‘lsa[8]. Bu esa $\varphi_P(Z) - \text{gomeomorfizm bo‘lishini ko‘rsatadi}$.

Endi $\varphi_P(Z) \in Aut(\mathfrak{R}_2(m, m))$ ekanini ko‘rsatishimiz kerak. Biz yuqorida ko‘rdikki, agar $A = R$, $A^{-1}B = -P$ belgilash kiritib, $\varphi(Z) - \text{ikkinchi tip klassik soha avtomorfizmlarini soddalashtirish orqali bu avtomorfizmlarning quyidagi}$

$$\varphi_P(Z) = R(Z - P)(I - P^*Z)^{-1} \bar{R}^{-1}$$

ko‘rinishiga ega bo‘lgan edik. Agar $A = R$, $A^{-1}B = -P$ belgilashlarni inobatga olgan holda (2), munosabatlarni soddalashtiradigan bo‘lsak, ushbu

$$\bar{R}(I - \bar{P}P)R' = I^{(m)} \quad (7)$$

tenglikga ega bo‘lamiz. Demak, ikkinchi tip klassik $\mathfrak{R}_2(m, m)$ soha avtomorfizmlari $\varphi_P(Z) = R(Z - P)(I - P^*Z)^{-1} \bar{R}^{-1}$ koeffitsiyentlari uchun (7) munosabat o‘rinli ekan. Bu esa, o‘z navbatida, $\varphi_P(Z) \in Aut(\mathfrak{R}_2(m, m))$ ekanini bildiradi.

Foydalanalgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Хуа Локен. Гармонический анализ функций многих комплексных переменных в классических областях. М., ИЛ, 1959, 163 с.
- (2). Рудин У. Теория функций в единичном шаре из \mathbb{C}^n . М., “Мир”, 1984, 456 с.
- (3). Krantz S.G. Harmonic and complex analysis in several variables. Cham: Springer, 2017. <https://doi.org/10.1007/978-3-319-63231-5>
- (4). Айзенберг Л.А. Формулы Карлемана в комплексном анализе. “Наука”, Новосибирск, 1990. Carleman formulas in complex analysis, Science, Novosibirsk, 1990.
- (5). Айзенберг Л.А., Южаков А.П. Интегральные представления и вычеты в многомерном комплексном анализе. Новосибирск, “Наука”, 1979, 366 с.
- (6). Худайберганов Г., Хидиров Б.Б., Раҳмонов У.С. Автоморфизмы матричных шаров. Вестник НУУЗ, 2010, № 3. с. 205–210.
- (7). Пятецкий-Шапиро И.И. Геометрия классических областей и теория автоморфных функций. М.: ИЛ., 1961.
- (8). Беллман Р. Введение в теорию матриц. М., “Наука”, 1976.
- (9). G.Khudayberganov, U.S.Rakhmonov, Z.Q.Matyakubov. Integral formulas for some matrix domains // Contemporary Mathematics, AMS, Volume 662, 2016, pp. 89–95.
- (10). Г.Х.Худайберганов, Б.Т.Курбанов, “Некоторые задачи комплексного анализа в матричных областях Зигеля”, “Наука–технология–образование–математика–медицина, СМФН, 68, № 1, Российский университет дружбы народов, М., 2022, с. 144–156.

Davletov Davronbek Egambergovich (Renessans ta’lim universiteti “Matematika va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, f.-m.f.n.; davletovdavron74@gmail.com),

Sharipova Shahlo Istamovna (Renessans ta’lim universiteti “Matematika va axborot texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi; shahlosharipova907@gmail.com)

DIFFERENTIAL HISOBNING BA’ZI TEOREMALARINING IQTISODIY MASALALAR DAGI TATBIQLARI

Annotatsiya. Maqolada matematikaning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan funksiya hosilasi tushunchasi, differensial hisobning asosiy teoremlarining iqtisodiy masalalarini hal qilishdagi tatbiq qilishning ba’zi usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: funksiya, funksiya hosilasi, differensial, funksiya maksimumi, minimum, Fermat teoremasi, Lagranj teoremasi, qavariqlilik.

ПРИМЕНЕНИЯ НЕКОТОРЫХ ТЕОРЕМ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО ИСЧИСЛЕНИЯ В ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗАДАЧАХ

Аннотация. В статье представлены некоторые способы применения понятия производной функции, которое является одним из основных понятий математики, основных теорем дифференциального исчисления при решении экономических задач.

Ключевые слова: функция, производная функции, дифференциал, максимум и минимум функции, теорема Ферма, теорема Лагранжа, выпуклость.

APPLICATIONS OF SOME THEOREMS OF DIFFERENTIAL CALCULUS IN ECONOMIC PROBLEMS

Annotation. The article presents some methods of applying the concept of the derivative of a function, which is one of the main concepts of mathematics, the main theorems of differential calculus in solving economic problems.

Key words: derivative, derivative of a function, differential, maximum and minimum of a function, Fermat’s theorem, Lagrange’s theorem, convexity.

Kirish. Iqtisodiyot jamiyatning rivojlanishi va uning faoliyatining obyektiv sabablari haqidagi fan sifatida turli miqdoriy xususiyatlardan foydalanadi, natijada turli xil matematik usullar va modellarni qo'llashni taqozo qiladi. Ulardan keng foydalanish iqtisodiy tahlilni takomillashtirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy matematikaning asosini tashkil etuvchi matematika fanlarining iqtisodiy qo'llanilishini o'rganish iqtisodiy masalalarni yechishda muayyan ko'nikmalarga ega bo'lish va bu bora-dagi bilimlarni chuqurlashtirish imkonini beradi.

Iqtisodiyot fani ba'zi tushunmovchiliklar tufayli gumanitar fanlar qatorida hisoblanadi. Darhaqiqat, bu fan, birinchi navbatda, miqdoriy jihatdan o'chanadigan miqdorlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar va ular orasidagi funksional yoki statistik bog'lanishlar, hisoblash formulalari va iqtisodiy qonunlar bilan ishlaydi. Zamonaviy iqtisodiyot – bu qat'iy bog'lanishlar va formulalar bilan ishlaydigan aniq.

Bundan kelib chiqadiki, iqtisodiy bilimlar asoslarini o'qitish, birinchi navbatda, boshqa amaliy fanlarni, masalan, fizika yoki kimyonni o'qitish texnologiyasi bilan umumiylar xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin (katta ehtimol bilan bo'lishi kerak). Xususan, ana shunday umumiylar xususiyat, bizningcha, iqtisod fanini o'qitishda va talabalarning o'quv materialini o'zlashtirishini tekshirishda matematik masalalardan keng foydalanishdir.

Biz ushbu maqolada iqtisodiy masalalarda keng qo'llaniladigan tushunchalardan biri bo'lgan hosila tushunchasining iqtisodiy ma'nosi va ba'zi iqtisodiy masalalarda hosilaning qo'llanilishi, differensial hisobning asosiy teoremlaridan bo'lgan Ferma, Lagranj teoremlarining iqtisodiy masalalarda tatbiqlari, shuningdek, funksiya qavariqligining iqtisodiy ma'nolari keltirilgan.

Iqtisodiyotda uchraydigan shunday masalalar borki, ularning ba'zilarini algebrlik usul bilan, ba'zilarini, hatto geometrik usul bilan hal qilsa bo'ladi. Ammo ba'zi masalalarni yechish uchun differensial va integral hisobdan foydalanmasa bo'lmaydi. Bu turdagisi masalalar ekstremal masalalarni yechishga keltiriladi. Bunday masalalarni yechish uchun matematikadan foydalanish qadimda, taxminan, 25 asr avval boshlangan. Ko'p ekstremal masalalar geometrik usul bilan yechilgan. Geron, Shvars, Shteyner masalalari va boshqalar shular jumlasidandir. Ammo uzoq vaqt davomida ekstremal masalalarni yechishning umumiylarini topilmadi. Shunga qaramasdan, eramizning X asrlariga kelib, Abu Rayhon Beruniy va uning shogirdlari o'z tadqiqotlarida kelajak (XVI–XVII asrlar)da hosila tushunchasiga olib kelgan mulohazalardan foydalanishdi. Ma'lumki, XVI–XVII asrlarda differensial va integral hisob keng ko'lamda rivojlandi. Endi ekstremal masalalarni yechish uchun umumiylar yaratishga imkoniyat tug'ilди va bunday usullari yaratildi ham. Har bir oila, korxona, mamlakat uchun iqtisodiy muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli iqtisodiy jarayonlar chuqur o'rganilib, ulaming matematik modellarini yaratish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib bora boshlandi. Bu sohada katta ishlar qilindi. XX asming birinchi yarmida L.V. Kantorovich (Rossiya) va Kupmanslar (AQSH) chiziqli dasturlash nomli matematikaning muhim bo'limini yaratishdi.

Hoziigi vaqtida iqtisodiy jarayonlarning matematik modellarini ko'plab yaratilgan va ishlab chiqarishgajoriy qilingan. Shu bilan biiga, modellarni tadqiqot qilishning qator usullari ham yaratilgan. Bu sohada yaratilgan adabiyotlar ichida Sh.Sharaxmetov, A.Naimjonovlarning "Iqtisodchilar uchun matematika", G'.Nasriddinovning "Iqtisodiy matematik modellar va usullar", Mirzayev A.N., Abduraxmanova Y.M.-larning "Iqtisodiy matematik usullar va modellar" nomli adabiyotlarini, xorijiy olimlardan V.S.Nemchinovning "Экономико-математические методы и модели", L.L.Terexovning "Экономико-математические методы" va S.A.Ashmanovning "Математические модели и методы в экономике" nomli kitoblami alohida ko'rsatib o'tamiz. Oxirgi yillar davomida matematikada yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi, ko'plab yangi-yangi iqtisodiy-matematik modellar, iqtisodiyjarayonlami o'iganishning yangi usullari vujudga kelmoqda.

Asosiy qism. Endi ba'zi iqtisodiy masalalarni yechishda differensial hisobning asosiy tushunchalarining tatbiqlarini ko'rib chiqamiz.

Hosilaning iqtisodiy ma'nosi: mehnat unumdorligi ishlab chiqarish hajmining vaqtga nisbatan hisoblasidir [2].

Ta'rif. Logarifmik funksiyaning $(\ln y)' = \frac{y'}{y}$ hosilasiga logarifmik hosila, funksiyaning nisbiy o'zgarish tezligi yoki funksiya tezligining o'zgarish darajasi deyiladi [3].

Masala. Ishchilar jamoasi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi

$$u = -\frac{5}{6}t^3 + \frac{15}{2}t^2 + 100t + 50, \quad 1 \leq t \leq 8, \quad (\text{bu yerda } t - \text{ish vaqt})$$

tenglama bilan berilgan. Mehnat unumdorligini va uning ish boshlanishidan bir soat o'tgach va tugashidan bir soat oldin o'zgarish tezligini hisoblang.

Yechish. Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi ko'rsatuvchi ifodadan hosila olamiz va mehnat unumdorligini topamiz:

$$y'(t) = -\frac{5}{2}t^2 + 15t + 100 = z(t)$$

Unumdorlikning o'zgarish tezligi va funksiyaning o'zgarish darajasi $z'(t)$ hosila va $T(z) = [\ln z(t)]'$ logarifmik hosila yordamida topiladi:

$$T(z) = [\ln z(t)]' = \frac{z'(t)}{z(t)} = \frac{-5t^2 + 15}{-\frac{5}{2}t^2 + 15t + 100} = \frac{2t - 6}{t^2 - 6t - 40}$$

Vaqtning berilgan $t_1=1$ va $t_2=8$, $t_2-t_1=7$ qiyatlarida, mos ravishda, quyidagilarga ega bo'lamiz:

$$z(1) = 112,5, z'(1) = 10, T_z(1) = 0,09, z(7) = 82,5, z'(7) = -20, T_z(7) = -0,24$$

Demak, quyidagi xulosaga kelamiz:

Ish kunining oxiriga kelib, mehnat unumdorligi sezilarli darajada kamayadi, bunda $z'(t)$ ning va logarifmik hosila ishorasining musbatdan manfiyga o'zgarishsi birinchi soatlarda mehnat unumdorligi oshgанинни ammo ish kunining oxirgi soatlarda qisqarganini ifodalaydi.

Hosilaning iqtisodiy ma'nosini ko'rsatuvchi yana bir tushuncha bilan tanishamiz.

x orqali biror mahsulotni ishlab chiqarish hajmini belgilaymiz, ishlab chiqarish xarajatlarini K bilan belgilaymiz. $K=f(x)$ ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarish xarajatlarini K ning ishlab chiqarish hajmi x ga bog'liqligini ko'rsatadi.

Agar ishlab chiqarish hajmi Δx birlikka oshsa, u holda ishlab chiqarish xarajatlari $\Delta K = f(x + \Delta x) - f(x)$ birlikka ortadi. $\frac{\Delta K}{\Delta x}$ nisbat xarajatlarning o'rtacha ortishini ifodalaydi.

Ta'rif. Marjinal (limit) xarajatlar deganda xarajatlarning o'rtacha ortishinining ($\frac{\Delta K}{\Delta x}$ ning) Δx cheksiz kichraygandagi limit holatiga aytildi, ya'ni

$$\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta K}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{f(x+\Delta x) - f(x)}{\Delta x}. \quad (1)$$

(1) tenglik ishlab chiqarish hajmining kichik birlikka oshganida mahsulotni qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlarini ifodalaydi, bunda dastlabki ishlab chiqarish hajmi x birlik [1].

Masala. Xarajatlar funksiyasi $K=2x+\ln(x+1)$. Ishlab chiqarish hajmining $x=2$, $x=9$ hajmiga mos keluvchi marjinal xarajatlarini toping.

Yechish. $K'(x) = 2 + \frac{1}{x+1}$. U holda $K'(2) = 2\frac{1}{3}, K'(9) = 2,1$.

Bularni taqqoslaydigan bo'lsak, $K'(9) < K'(2)$. Yani $x_2 > x_1$ bo'lganda, $K'(x_2) < K'(x_1)$. Bundan shunaqa xulosa kelib chiqadiki, ishlab chiqarish hajmi orib borishi bilan marjinal xarajatlar kamayib boradi.

Masala. Mahsulotga bo'lgan talabning uning narxiga bog'liqligi $d = \frac{100}{p+1}$ formula bilan ifodalanadi.

Agar mahsulot narxi 1 pul birligi, 4 pul birligiga teng bo'lganda talabning o'zgarish tezligini toping.

Yechish. Ixtiyoriy funksiyaning o'zgarish tezligi uning hosilasiga teng bo'lgani uchun $d'(p) = -\frac{100}{(p+1)^2}$ bo'ladi.

Endi narnning 1 pul birligi, 4 pul birligiga teng bo'lganda talabning o'zgarish tezligini topamiz:
 $d'(1) = -50, d'(4) = -4$.

Bu natijalardagi manfiy ishora mahsulot narxining oshishi bilan, unga bo'lgan talabning kamayishini bildiradi.

Endi differensial hisobning asosiy teoremlaridan ba'zilarining iqtisodiy ma'nolari bilan tanishamiz. Ferma teoremasining iqtisodiy ma'nosи.

Ferma teoremasi. $f(x)$ funksiya $(a; b)$ intervalda aniqlangan bo'lib, bu intervalning biror x_0 nuqtasida o'zining eng katta (eng kichik) qiymatiga erishsin. Agar funksiya C nuqtada chekli hosilaga ega bo'lsa, u holda $f'(x_0) = 0$ bo'ladi [4].

Ishlab chiqarish nazariyasining asosiy qonunlaridan biri quyidagicha: ishlab chiqarish uchun tovar chiqarishning optimal darajasi marjinal harajatlar va marjinal daromadlar tengligi bilan aniqlanadi.

$C(x)$ orqali foyda funksiyani belgilasak, $C(x)=D(x)-S(x)$ bo'ladi, bunda $D(x)$ -daromad funksiyasi, $S(x)$ -xarajatlar funksiyasi. Ravshanki, foyda maksimal bo'lgan holatda ishlab chiqarishning optimal darajasi hisoblanadi, ya'ni x_0 ning $C(x)$ funksiya maksimumga erishadigan qiymatida. Ferma teoremsiga ko'ra, bu nuqtada $C'(x)=0$. Ammo $C'(x)=D'(x)-S'(x)$ bo'lib, bundan $D'(x_0)=S'(x_0)$. x_0 -optimal chiqarish qiymatida $D(x_0)$ -marjinal daromadlar va $S(x_0)$ -marjinal xarajatlar teng bo'ladi [3].

Ishlab chiqarish nazariyasining muhim tushunchalaridan biri bu o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari minimal bo'lgan eng tejamkor ishlab chiqarish darajasidir. Bu iqtisodiy qonunni quyidagicha ifodalasa bo'-ladi: eng tejamkor ishlab chiqarish darajasi o'rtacha va marjinla xarajatlarning tengligi bilan aniqlanadi.

Bu shart ham Ferma teoremasining natijasi sifatida kelib chiqadi. O'rtacha xarajatlar $\frac{S(x)}{x}$ kabi aniqlanadi, ya'ni, ishlab chiqarish xarajatlarining ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbati. Bu kattalikning eng kichik qiymati $y = \frac{S(x)}{x}$

funksiyaning kritik nuqtasida bo'ladi: $y' = \frac{S'(x) \cdot x - S}{x^2} = 0$, bundan $S'(x) \cdot x - S = 0$ yani $S'(x) = \frac{S}{x}$

Lagranj teoremasining iqtisodiy ma'nosi.

Lagranj teoremasi. $f(x)$ funksiya $[a; b]$ kesmada aniqlangan va uzlusiz bo'lsin. Agar funksiya $(a; b)$ intervalda chekli hosilaga ega bo'lsa, u holda shunday $c \in (a; b)$ nuqta topiladiki,

$$f'(c) = \frac{f(b) - f(a)}{b - a}$$

bo'ladi [4].

Lagranj teoremasining iqtisodiy manosi. $y=f(x)$ funksiya y ning qandaydir aniq resursning x xarajatlariga bog'liqligini ifodalasin. Agar xarajatlar biror a birlikdan b birlikka o'zgarsa, u holda $f(b) - f(a)$ ayirma bu qiyatlarga mos mahsulot chiqarishning o'zgarishini bildiradi.

$$\frac{f(b) - f(a)}{b - a} \quad (2)$$

nisbat harajatlar bir birlikka oshganda mahsulot ishlab chiqarish o'rtacha qanday o'zgarishini anglatadi. Boshqacha aytganda (2) formula $[a, b]$ oraliqda biror mahsulotni ishlab chiqarish samaradorligini bildiradi. Resursning marjinal mahsuldorligi funksiya hosilasining xarajatlarning biror miqdoridaqi qiymatiga teng. Agar biror r resursning xarajatlari c birlikka teng bo'lsa, u holda $f'(c)$ miqdor r resursning unga mos keluvchi marjinal mahsuldorligi [2].

Lagranj teoremasiga ko'ra, $[a, b]$ da uzlusiz va (a, b) da differensiallanuvchi $y = f(x)$ funksiya uchun xarajatlarning kamida bitta c qiymati mavjudki, bu qiymatda unga mos resursning marjinal mahsuldorligi uning $[a, b]$ dagi o'rtacha mahsuldorligi bilan teng bo'ladi.

Funksiya qavariqligining iqtisodiy ma'nosi.

Teorema (daromadning kamayishi qonuni). Ishlab chiqarishning ortishi bilan har bir yangi resurs birligi uchun olingan qo'shimcha mahsulot ma'lum bir nuqtadan boshlab kamayadi.

Boshqacha aytganda, $\frac{\Delta y}{\Delta x}$ kattalik (bunda Δx resurs orttirmasi, Δy -ishlab chiqarish hajmini orttirmasi) x ortib borishi bilan kamayadi. Shunday qilib, daromadning kamayishi qonuni quyidagicha tavsiflanadi: mahsulot chiqishining kirish resursiga bog'liqligi qavariqligi bilan yuqoriga qaragan funksiyadir.

Teorema (foydalilikning kamayish qonuni). Mahsulotlar miqdori ortishi bilan uning har bir yangi birligidagi qo'shimcha foyda ma'lum bir nuqtadan boshlab kamayadi [3].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida biz ko'rib chiqqan differensial hisobning iqtisodiy masalalarda ba'zi tatbiqlarini bo'lg'usi iqtisodchilarga oqitiladigan amaliy matematika fanlarida orgatib borish talabalarda iqtisodiy masalalarda matematik usullarni qo'llay olish ko'nikma va mala-kalarini rivojlantiradi. Zero, matematik usullar va modellar zamonaviy iqtisodiy nazariyaning tabiiy, zaruriy elementlaridan iborat. Matematikadan foydalanish talabalarda iqtisodiy o'zgaruvchilar va o'rganilayotgan obyektlar orasidagi muhim bog'lanishlami tavsiflay olishni samarali amalga oshirishda yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalardan foydalanib, quyidagi turdag'i iqtisodiy masalalarni hal qilish mumkin:

1) korxona bir yilda biror mahsulotdan 1000 dona birlik ishlab chiqarishi kerak. Mahsulotning bir partiyasini ishlab chiqarish xarajatlari 320\$, bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari 8\$, uni saqlash xarajatlari 1\$. Bir partiyaga kiruvchi mahsulotlar miqdori x qanday bo'lganda, jami ishlab chiqarish va saqlash xarajatlari eng kam bo'lsin;

2) agar mahsulotga bo'lgan talabning narxga bog'liqligi $d = 200 + \frac{p-1}{p^2+3}$ formula bilan berilgan bo'lsa, narxning 1 pul birligiga, 3 pul birligiga, 10 pul birligiga mos keladigan talabning o'zgarish tezligini aniqlang;

3) biror mahsulot narxi 250000 so'mni tashkil qiladi. Bu mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlari $120x+x^2$ ga teng, bu yerda x – ishlab chiqarilgan mahsulot birliklari soni. Foydaning maksimal qiymatini toping;

4) biror bozordagi ayrim mahsulot uchun, mos ravishda, talab va taklif funksiyalari $p = 2x + 50$ va $p = -x + 200$ bo'lsin, bu yerda x – tovar birliklari soni. Faraz qilaylik, bir birlik mahsulot ishlab chiqarishning o'rtacha qiymati quyidagi funksiya bilan aniqlansin: $\bar{C}(x) = \frac{500}{x} + 70 + 2x$. Foydaning maksimal qiymatini toping.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Замков О.О. Математические методы в экономике. М., МГУ, 2008, 368 с.
- (2). Математические методы и модели в планировании. М., "Экономика", 2007, 353 с.
- (3). Карасева А.И. Руководство к решению задач с экономическим содержанием по курсу высшей математики. Под ред. А.И.Карасева и Н.Ш.Кремера. М., "Экономическое образование", 2006, 210 с.
- (4). Xudayberganov G., Vorisov A., Mansurov X., Shoimqulov B. Matematik analizdan ma'ruzalar. I q., "Voris" nashriyoti, T., 2010, 376-bet.
- (5). Toshmetov O'., Turgunbayev R., Saydamatov E., Madirimov M., Matematik analiz. I qism, T., "Extremum-Press", 2015, 408-bet.

Ismoilova Zamira Tuxtaevna (Navoiy davlat Konchilik va texnologiyalari universiteti;
Annotation. Nonadiabatic effects manifesting themselves in the energies of the positive parity states of the $^{182,184}W$ nuclear have been studied in the framework of a phenomenological model that takes into account the Coriolis mixing of low-lying rotational bands. The energies and structure of the states of the lowest bands built on internal 0^+ , 2^+ - and 1^+ -excitations are calculated. The calculated values of probabilities E2-transitions agree satisfactorily with the experimental data.

Key words: energy, nucleus, spin, positive parity, coriolis mixing, rotations, band.

Введение. ^{182}W многократно изучали в распаде ^{182}Ta , двух изомеров ^{182}Re и в ядерных реакциях [1,2]. Его уровни известны до энергии возбуждения 2,7 МэВ. Кажется, даже несколько удивительным, что уровни собраны в очень небольшое число ротационных полос. Это связано с двумя особенностями ^{182}W . Известно, что близко расположены уровни полос с $K_i^\pi = 0_2^+$, 2^+ и с

$K_i^\pi = 2_1^-$ и 4_1^- . Волновые функции пар состояний с одинаковыми I^π сильно смешаны и их разрядка отличается от данных предсказаний ротационной модели, что уже неоднократно было предметом обсуждения. Такое смешивание может быть и в области около 2 МэВ, так как вторая особенность ^{182}W заключается в том, что обнаружено много близких уровней с $I = 4 \div 6$. Их очень затруднительно рассортировать по ротационным полосам. В этом отношении ^{182}W похож на ^{180}Hf , для которого тоже обнаружено много состояний с $I = 4 \div 6$ и E около 2 МэВ. Известные полосы были идентифицированы в работе [2]. Энергии коллективных уровней с $K^\pi = 0^+$, 2^+ и 2^- близки к рассчитанным по сверхтекущей модели. Наиболее полные результаты по этому ядру представлены в работе [1,3]. Получены данные об уровнях ротационных полос с $K^\pi = 0_1^+$ до $I = 20\hbar$, $K^\pi = 0_2^+$ до $I = 4\hbar$, $K^\pi = 2^+$ – до $I = 8\hbar$ и несколько состояний с $K^\pi = 1_v^+$ [3].

Возбужденные уровни ^{184}W заселяются в распаде ^{184}Ta , 5^- , $T_{1/2} = 8,7\mu$, двух изомеров ^{184}Re , 5^- , $T_{1/2} = 38$ суть и 8^+ $T_{1/2} = 169$ суть и в многочисленных ядерных реакциях [2,4]. Более десятка ротационных полос идентифицировано для ^{184}W . Четыре полосы имеют $K^\pi = 0^+$ тогда, как сверхтекущая модель предсказывает только три полосы с энергией менее 2,5 МэВ [2]. Обнаружены две низко расположенные полосы $K^\pi = 2^+$. Наиболее полные результаты по этому ядру представлены в работах [3,4]. Получены данные об уровнях ротационных полос с $K^\pi = 0_1^+$ – до $I = 24\hbar$, $K^\pi = 0_2^+$ – до $I = 8\hbar$, $K^\pi = 2_1^+$ – до $I = 10\hbar$, $K^\pi = 2_2^+$ – до $I = 8\hbar$ и несколько состояний с $K^\pi = 1_v^+$ [3].

Анализ литературы. Экспериментальные данные энергии, вероятностей внутри полосных и межполосных электрических переходов, также отношения вероятностей переходов для $^{182,184}W$ указывают на наличие отклонения от правил Алаги.

В работе [5] с участием одного из авторов данной работы проведены исследования в рамках модели двойной диагонализации. Вычислены энергии, структура состояний и вероятности E2-переходов внутри ротационных полос положительной четности. Но не исследовались междуполосные E2-переходы и магнитные свойства состояний низко лежащих ротационных полос. Так как не учитывали влияние состояний магнитных дипольных угловых резонансов, т.е. не учитывали смешивания состояний $K^\pi = 1_v^+$ полос. Девять таких состояний наблюдаются в ^{182}W и шестнадцать в ^{184}W [3].

Модель исследования. В настоящей работе исследованы энергетические свойства состояний положительной четности ядер $^{182,184}\text{W}$ в рамках феноменологической модели [6; с.11], учитывая кориолисово смешивание состояний основной (0_1^+) и экспериментально известных $\beta - (0_2^+)$ и $\gamma - (K^\pi = 2^+)$ вибрационных, также $K^\pi = 1_\nu^+$ полос.

Выражение для приведенной вероятности E2-переходов из состояний I полосы K_i в состояния $(I-2)$ ротационной полосы с K_i имеет следующий вид:

$$B(E2; IK_i \rightarrow (I-2)K_f) = \frac{1}{2I+1} \langle (I-2)K_f | \hat{m}(E2) | IK_i \rangle \quad (1)$$

Матричный элемент оператора квадрупольного электрического перехода от $\hat{m}(E2)$ в (1) определяется формулой:

$$\begin{aligned} & \langle (I-2)K_f | \hat{m}(E2) | IK_i \rangle = \\ & (2I+1)^{1/2} \cdot \left\{ \sqrt{\frac{5}{16\pi}} \left[(Q_0^{gr} \psi_{0,K_f}^{I-2} \psi_{0,K_i}^I + Q_0^\beta \psi_{0_2,K_f}^{I-2} \Psi_{0_2,K_i}^I) C_{I0;20}^{I-2,0} + \right. \right. \\ & \left. \left. + Q_0^\gamma \psi_{2,K_f}^{I-2} \psi_{2,K_i}^I C_{I2;20}^{I-2,2} + Q_0^{1^+} \sum_{i=1}^v \psi_{1_i,K_f}^{I-2} \psi_{1_i,K_i}^I C_{I1;20}^{I-2,1} \right] + \right. \\ & \left. + \sqrt{2} \left[\psi_{0_1 K_f}^{I-2} \sum_n \frac{(-1)^{K_n} m_{K_n} \psi_{K_n, K_i}^I}{\sqrt{1+\delta_{K_n,0}}} C_{IK_n;2-K_n}^{I-2,0} + \psi_{0_1 K}^I \sum_n \frac{m_{K_n} \psi_{K_n, K_i}^{I-2}}{\sqrt{1+\delta_{K_n,0}}} C_{I0;2K_n}^{I-2,K_n} \right] \right\} \end{aligned} \quad (2)$$

Величины $m_{K_n} = \langle 0_1 | \hat{m}(E2) | K_n \rangle$ в (2)-это матричные элементы между внутренними волновыми функциями основной ($K_\nu^\pi = 0_1^+$) полосы и прочих полос, которые включены в базис гамильтониана (1); Q_0^K – внутренние квадрупольные моменты ротационных gr -, β -, γ - и $K^\pi = 1^+$ полос; $C_{I_i K_i; 2K_i + K_f}^{I_f K_f}$ – коэффициенты Клебша-Гордона.

Для внутриволосных переходов в формуле (2) основную роль играет члены с внутренними квадрупольными моментами. Член в последней средней скобке является незначительным. Поэтому формулу (2) для внутриволосных переходов можно написать в виде:

$$\begin{aligned} & \langle (I-2)K | \hat{m}(E2) | IK \rangle = \\ & = (2I+1)^{1/2} \cdot \left\{ \sqrt{\frac{5}{16\pi}} \left[(Q_0^{gr} \psi_{0,K}^{I-2} \psi_{0,K}^I + Q_0^\beta \psi_{0_2,K}^{I-2} \psi_{0_2,K}^I) C_{I0;20}^{I-2,0} + \right. \right. \\ & \left. \left. + Q_0^\gamma \psi_{2,K}^{I-2} \psi_{2,K}^I C_{I2;20}^{I-2,2} + Q_0^{1^+} \sum_{i=1}^v \psi_{1_i,K}^{I-2} \psi_{1_i,K}^I C_{I1;20}^{I-2,1} \right] \right\} \end{aligned} \quad (3)$$

В адиабатическом приближении для приведенной вероятности E2-перехода внутри ротационных полос справедливо следующее выражение:

$$B^{rot}(E2; IK \rightarrow (I-2)K) = \frac{5}{16\pi} (Q_0^K)^2 [C_{IK;20}^{I-2,K}]^2 \quad (4)$$

Численные расчеты и выводы. Вычислены внутренние E2-переходы в основной полосе $^{182,184}\text{W}$. При этом волновые функции ψ_{KK}^I брались из нашей работы [15]. Внутренние квадру-

польные моменты для всех полос считали одинаковыми $Q_0^{gr} = Q_0^\beta = Q_0^\gamma = Q_0^{1^+}$ и использовали экспериментальные значения для $Q_0 = 5,99$ барн ^{182}W и $Q_0 = 6,15$ барн для ^{184}W [1,4].




Рис. 1. Сравнение экспериментальных и теоретических значений.
 $B(E2; I_{gr} \rightarrow (I-2)_{gr})$ для изотопа ^{182}W (exp-лит.[13], exp^a-лит.[14]).




Рис. 2. Сравнение экспериментальных и теоретических значений.

$B(E2; I_{gr} \rightarrow (I-2)_{gr})$ для изотопа ^{184}W (exp-лит.[13], exp^b-лит.[14]).

На рисунках представлены вычисленные внутриполосные переходы в основной полосе для изотопов ^{182}W и ^{184}W , которые сравниваются с экспериментальными данными [13,14].

Список использованной литературы:

- (1). Balraj S. Nuclear Data Sheets, 2015, vol. 130, p. 21–126.
- (2). Григорьев Е.П., Соловьев В.Г. М., “Наука”, 1974.
- (3). Herzberg R.D., Zilges A., Von Brentano P., and et al. Nucl. Phys. 1993, vol. 563, p. 445–456.
- (4). Baglin Coral M. Nuclear Data Sheets, 2010. Intra-band reduced probabilities e2-transitions in isotopes $^{182,184}W$. Vol. 111, p. 275–523.
- (5). Begjanov R.B., Choriev B.Ch., Korjavov M.J., Muminov T.M. Nucl. Phys. 1994, A. 575, p. 237–250.
- (6). Usmanov P.N., Mikhailov I. N. Phys. Part. Nucl. 1997, v. 28, p. 348–373.
- (7). Usmanov P.N., Vdovin A.I., Yusupov E.K., Salikhbaev U.S. Phys. Part. Nucl. Letters. 2019, v. 19, p. 706–712.
- (8). Usmanov P.N., Okhunov A.A., Salikhbaev U.S., Vdovin A.I. Analysis of Electromagnetic Transitions in $^{176,178}Hf$. Phys. Part. Nucl. Letters. 2010, v. 7(3), p. 185–191.
- (9). Usmanov P.N., Okhunov A.A., Salikhbaev U.S., Vdovin A.I. Physics of Particles and Nuclei Letters 7, № 3, 2010, p. 185–191.
- (10). Okhunov A.A., Usmanov P.N., Torla Hj. Hassan, Abu El Sheikh. Available online www.sciencedirect.com. Science direct. Materials Today: Proceedings 17, 2019, p. 424–429.
- (11). Usmanov P.N., Yusupov E.K. IIUM Engineering Journal 21, № 1, 2021, p. 167–174.
- (12). Milner W.T., McGowan F.T., Robinson R.L., Stelson P.H. and Sayer R.O. Nucl.Phys. 1971, V.A177, p.1.
- (13). Kulessa R., Bengtsson R., Bohn H., and et al. Phys. Lett. B218, 1989, p. 421.
- (14). Wu C.Y., Cline D., Vogt E.G. and et al. Nucl. Phys. 1991, v. A533, p. 359.
- (15). Usmanov P.N., Коржавов М.Ж., Бокиев С.Б. Journal. NamDU.uz, 2022, Maxcyc сон, p. 3–11.

FALSAFA

**Halimov Sherzod Igamberdiyevich (Samarqand davlat Chet tillar instituti tadqiqotchisi;
sherzod.00@gmail.com)**

XALQARO MIGRATSIYANING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. Migratsiya insonlarning tug‘ilib o‘sgan yashash joyidan boshqa bir ma’muriy-hududiy birlikka ko‘chib o‘tishini anglatadi. Xalqaro migratsiya esa xalqlarning xorijiy davlatlarga ko‘chib borishi va u yerda doimiy yashab qolishini bildiradi. Global migratsiya qadimdan amalda bo‘lsa-da, ayniqsa, XX asrda juda tezlashib ketdi. Natijada global migratsiya umuminsoniy muammolardan biriga aylandi. Maqolada dunyoning barcha mamlakatlari, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining ko‘plab sohalari, ijtimoiy qatlamlar hamda guruhlarni qamrab olgan, umumjahon miqyosga ega bo‘lgan xalqaro migratsiyaning mohiyati falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: migratsiya, kommunikatsiya, makon, harakat, turizm, immigrant, demografiya.

Халимов Шерзод Игамбердиевич (научный сотрудник Самаркандского государственного института иностранных языков)

СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНОЙ МИГРАЦИИ

Аннотация. Миграция означает переезд людей из места своего рождения в другую административно-территориальную единицу. Международная миграция означает переезд людей в зарубежные страны и пребывание там на постоянной основе. Хотя глобальная миграция существовала с древних времен, в 20 веке она значительно ускорилась. В результате глобальная миграция стала одной из общечеловеческих проблем. В статье философски анализируется природа международной миграции, которая охватывает все страны мира, многие сферы социальной, экономической, политической и культурной жизни общества, социальных слоев и групп и имеет глобальный масштаб.

Ключевые слова: миграция, коммуникация, пространство, перемещение, туризм, иммигрант, демография.

Halimov Sherzod Igamberdiyevich (Researcher of the Samarkand State Institute of Foreign Languages)

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF INTERNATIONAL MIGRATION

Annotation. Migration means that people move from their place of birth to another administrative-territorial unit. International migration means people moving to foreign countries and staying there permanently. Although global migration has been in practice since ancient times, it accelerated significantly in the 20th century. As a result, global migration has become one of the universal human problems. The article philosophically analyzes the nature of international migration, which covers all countries of the world, many areas of social, economic, political and cultural life of society, social strata and groups, and has a global scale.

Key words: migration, communication, space, movement, tourism, immigrant, demography.

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

Kirish. Insoniyatning ilm-fan yutuqlariga tayanib, izlanishlar olib borishi natijasida butun dunyo bo‘ylab globallahuv kuchayib ketdi. Bu esa, o‘z navbatida, barcha davlatlarda migratsiyaning kuchayishiiga va butun dunyodagi innovatsiyalarga o‘z ta’sirini o‘tkaza boshladi. Insoniyatning yangiklarga intilishi jarayonida migratsiyaning xilma-xil ko‘rinishlari vujudga kelib, keyingi bir asr davomida barcha mintaqalar, jamiyatning turli qatlamlari va guruhlari, ijtimoiy hayotining turli sohalarini qamrab oldi. Buning ta’sirida migratsiya jarayoni ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim bo‘g‘ini sifatida rivojlanishiga olib keldi.

Insoniyat qadimdan yashab turgan joyidan o‘zi uchun qulay bo‘lgan ikkinchi bir hududga turli omillar ta’siri ostida ko‘chib yurgan. Migratsiya (lot. migratio) – ko‘chaman, joyni o‘zgartiraman ma’nosiga ega bo‘lib, dastlabki jarayonlari:

- 1) ob-havo va iqlim o‘zgarishi (qurg‘oqchilik, daryo o‘zanlarining o‘zgarishi, havoning sovib yoki isib ketishi, zilzila, vulqon, suv toshqinlari kabi tabiat injiqliklari);
- 2) aholi sonining oshishi bilan yangi yerlarni izlashi;
- 3) kasb-hunarini rivojlantirish (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik) natijasida paydo bo‘lgan.

Texnologiya va xalqaro kommunikatsiyaning rivojlanib borishi bilan migratsiya to‘lqini ham oshib bordi. Endilikda xalqaro migratsiyaning sabab va ta’sir etuvchi omillariga ko‘ra, bir qancha turlari ham paydo bo‘la boshladi. Z.A.Tolametovaning fikricha, “migratsiya” lotincha “migrans” so‘zidan olingan bo‘lib, u odamlarning doimiy yoki vaqtinchalik yashash uchun bir hududdan ikkinchi bir hududga ko‘chishini bildiradi. Uningcha migratsiya jarayoni qadimgi davr, ya’ni, dastlabki mehnat taqsimotining vujudga kelishi va chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi bilan bog‘liqdir [1;2-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugun migratsiyaning mohiyati, paydo bo‘lish sabablari va turlarini tadqiq qilish dolzarbligicha qolmoqda. Aynan bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlarni klassik va zamonaviy nazariyalarga ajratish mumkin. Klassik tadqiqotlar voqelikdan ajralgan holda, nazariy fikrlarni ilgari sursa, zamonaviy tadqiqotlar evristik darajada olib borilganligi bilan ajralib turadi. “Shuning uchun hozirgacha migratsiya turlari to‘g‘risida aniq metodologiya mavjud emas. Biroq, migratsiya muammolariga oid adabiyotda tipologiyaning uzundan-uzoq ro‘yxatini ko‘rish mumkin. Ular migration modellar, shaxslarning motivatsiyasi, maqsadlari va strategiyasining barcha xilma-xilligini aks ettiradi”. [2: 71]. Migratsiya odamlarning doimiy yoki vaqtincha yashash joyini o‘zgartirish maqsadida bir hududdan ikkinchi hudunga ko‘chib o‘tishini anglatuvchi tushuncha sifatida ko‘p ishlatiladi. Migratsiya tasnifi mutaxassislarning doimo diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Aslida, migratsiya nafaqat aholi ko‘chishi, qolaversa, jarayonlarga nisbatan ham ishlatiladi. Migratsiya, birinchidan, aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi (aholi migratsiyasi), ikkinchidan, hayvonlarning yashash hayoti yoki rivojlanish sikli o‘zgarishi bilan bir geografik hududdan ikkinchisiga ko‘chishi (hayvonlar migratsiyasi), uchinchidan, kimyoviy elementlarning yer qobig‘ida yoki yer yuzasida o‘z joyini o‘zgartirishi (elementlar migratsiyasi), to‘rtinchidan, energiyaning bir zarrachadan boshqasiga o‘tishi (energiya migratsiyasi), kapitalning qo‘simecha qiymat olish va siyosiy maqsadlarda bir mamlakatdan boshqasiga montazam chiqib turishi tushuniladi.

Aholi migratsiyasi – aholining yashash joyini o‘zgartirishi bilan bog‘liq ko‘chishi hisoblanadi. Aholi migratsiyasi aholining muhim muhammolaridan biri bo‘lib, u kishilarning oddiy mexanik ko‘chishi harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ko‘p tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi.

Ribakovskiy insonlaring bir hududdan ikkinchi joyga ko‘chib o‘tishini, makondagi harakatining mohiyatidan kelib chiqib, uch xil oqibatini asoslashga harakat qiladi:

- birinchidan, migratsiya deganda maqsadlaridan qat‘i nazar, aholining makondagi harakatini va doimiy yashash o‘rinlarini o‘zgartirishi tushuniladi. Bu insoniyat ijtimoiy-madaniy xilma-xilligining aralashuviga olib keladi;

- ikkinchidan, migratsiya aholining tug‘ilib o‘sgan yeridan boshqa hududga borishini va shu yangi makonda doimiy yashashini, shu bilan birga, ona vataniga vaqt-vaqt bilan borib turishini bildiradi. Ushu migrantlar madaniyat tashuvchilar hisoblanadilar;

- uchinchidan, migratsiyaga aholining makondagi harakatining shunday jarayoni kiradiki, bu esa pirovardida yerlar va mol-mulkarning qayta taqsimlanishiga olib keladi [3;21–22-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Migratsion jarayonlarni o‘rganishda migratsiyani turizmdan ajratib olish zarur, chunki ba’zida turizm migratsiyaning bir ko‘rinishi sifatida talqin etiladi. Migratsiyani turizmdan farqlash uchun quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

- birinchidan, tashqi migratsiya jarayoni kamida uch oy muddatda bo‘lishi talab etiladi, turistik sayohatlar esa aksariyat holatlarda bundan ancha kam vaqtida sodir bo‘ladi;

- ikkinchidan, migrantlar, odatda, immigrant davlatda doimiy yoki vaqtinchalik turar joyga joylashadi, turistlar esa mehmonxonalariga murojaat qiladi;

- uchinchidan, turizm ortga qaytuvchi jarayon, migratsiya esa har doim ham migrantning vataniga qaytishi bilan yakunlanmasligi mumkin;

- to‘rtinchidan, turistlar o‘zлari tashrif buyuradigan davlatning g‘aznasi boyishiga xizmat qiladi, migrantlar esa hamisha ham iqtisodiy foyda keltirmaydi. Shu bilan bir qatorda, uch oydan ortiq davom etgan turistik tashrifni migratsiya sifatida qayd etish mumkin. Ba’zida esa turistlar migratsion tartiblarni buzib, noqonuniy tarzda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishadi va nolegal migrantlarga aylanishadi [4;16-b.].

Tahlil va natijalar. Shundan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, migratsiya jarayonining hozirgi bosqichi oldingilaridan ko‘lami, geografik xususiyatlari, transformatsiyalashuvi va integratsiyalashuvi jihatdan dinamik ko‘rsatkichlari, ijtimoiy-demografik tarkibi bilan farqlanib turadi. Migratsiya oqimlarining yo‘nalishi dunyo miqyosida o‘zgarib bormoqda. Bugun dunyoda migratsiyada ishtirok etayotganlarning soni keskin oshib borayotganini kuzatish natijasida yaqin kelajakda ularning soni yanada ortishi xorijiy sotsiologik va iqtisodiy tadqiqotlarda bashorat qilingan.

Migratsiya ko‘lami kengayishiga kambag‘allik, ishsizlik, inson huquqlarining poymol qilinishi, kelajakka nisbatan umidsizlik va tushkunlikka tushish, turli xil nizolar, urushlar tufayli notinchlik, qo‘rquv kabi omillar sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, ishchi kuchi migratsiyasining mamlakatimiz hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holatiga hamda aholining sotsiomadaniy rivojlanish darajasiga jamiyat ijtimoiy e’tiborini maqsadli yo‘naltirilishiga asoslanganligi bilan izohlanadi.

Har qanday migratsiya harakati, mohiyat e’tiboriga ko‘ra, oila instituti mazmunini o‘zlashtirishi va etnik jamoalarning shakllanishiga olib keladigan migratsiya tarmoqlarini yaratishi mumkinligi asoslangan.

Migratsion jarayonlarni tahlil etishda uning muhim muammolari mavjudligini ham inobatga olish zarur. Xususan, aksariyat hollarda, migrantlar ekspluatatsiya qilinib, ularning huquqlari poymol etiladi. Migrantlarning joylashgan mamlakatlari madaniyati va turmush tarziga moslashuvi, integratsiyalashuvi qiyin kechadi. Ularni qabul qilayotgan davlatlar tub aholisini ish joylaridan mahrum etadi. Bu esa, o‘z navbatida, mahalliy aholining migrantlarga nisbatan salbiy munosabatini shakllantiradi. Ushbu va boshqa ko‘plab sabablarga ko‘ra, migratsiya muammosini har tomonlama, shu jumladan, ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganish talab qilinadi.

Shuni aytish joizki, migratsiya shaxs yoki guruhning muayyan ehtiyojlarini qondirish usuli, qaror qabul qilish mexanizmi asosiy o‘rinni egallagan xulq-atvor harakati sifatida qaraladigan nuqtayi nazar tobora kuchayib bormoqda.

Xulosa. Xullas, xalqaro migratsiyasi tarixan insoniyat populatsiyasining zaruriy sharti bo‘lgan bo‘lib, u globallashuv davrida ko‘p qirrali global mohiyat kasb etmoqda. Ushbu fenomenning ijtimoiy-axloqiy muhitga ta’siri madaniyatlar transformatsiyasining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Migratsiya jarayoning ishtirokchilari hisoblanuvchi muhojirlar o‘zлari yashab kelgan ijtimoiy-axloqiy muhitning vakillari bo‘lish bilan bir qatorda, donor jamiyatning axloqiy qadriyatları, normalari, ideallarining tashuvchisi vazifasini ham bajaradi.

Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Толаметова З.А. Халқаро меҳнат миграцияси ва унинг ўзига хос хусусиятлари. “Иқтисод ва молия”, “Экономика и финансы”, 2016, № 3, 2-бет.
- (2). Франк Дювель. Пространственная мобильность населения: индикаторы, категории и типологии. Методология и методы изучения миграционных процессов. Междисциплинарное учебное пособие. Под ред. Жанны Зайончковской, Ирины Молодиковой, Владимира Мукомеля, Центр миграционных исследований, М., 2007, с. 71.
- (3). Рыбаковский Л.Л. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. М., “Наука”, 1987, с. 21–22.
- (4). Дудаев Г. Понятие, сущность и структура миграции как экономической категории. “Московский экономический журнал”, М., 2016. №. 2, с. 16.

Xusanov Bahodir Ergashevich (Namangan davlat Pedagogika instituti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent; e-mail: xbaxodir970@gmail.com; ORCID ID: orcid.org-0009-0008-4628-5220)

ESTETIK TARBIYANING GLOBAL MUAMMOLARINI KLASTER TIZIMI ASOSIDA O‘RGANISH OMILLARI

Annotatsiya. Maqolada globallashuv jarayonlari natijasida yuzaga keladigan estetik muammolarni aniqlash va ularni klaster tizimi orqali tafakkur va dunyoqarashni boyitish, tarbiya klasterlarining subyektiv va obyektiv omillarini aniqlashga oid mulohazalar ilmiy bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: estetik tarbiya, global muammo, klasterlash, estetika, bo‘sh vaqt, toqatsizlik, qadriyatlar.

Хусанов Баҳодир Эргашевич (Наманганский государственный педагогический институт, кандидат философских наук, доцент; e-mail: xbaxodir970@gmail.com; ORCID ID: orcid.org-0009-0008-4628-5220)

ФАКТОРЫ ИЗУЧЕНИЯ ГЛОБАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация. В статье научно изложены соображения, связанные с выявлением эстетических проблем, возникающих в результате процессов глобализации и обогащения мышления и мировоззрения посредством кластерной системы, а также определением субъективных и объективных факторов образовательных кластеров.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, глобальная проблема, кластеризация, эстетика, свободное время, нетерпимость, ценности.

Xusanov Bahodir Ergashevich (Namangan State Pedagogical Institute, Candidate of Philosophy, Associate Professor; e-mail: xbaxodir970@gmail.com; ORCID ID: orcid.org-0009-0008-4628-5220)

FACTORS OF STUDYING GLOBAL PROBLEMS OF AESTHETIC EDUCATION BASED ON THE CLUSTER SYSTEM

Annotation. In the article, the considerations related to the identification of aesthetic problems arising as a result of the processes of globalization and the enrichment of thinking and worldview through the cluster system, and the determination of the subjective and objective factors of educational clusters are scientifically described.

Key words: aesthetic education, global problem, clustering, aesthetics, free time, intolerance, values.

Kirish. Jahonda globallashuv sur'atlari, fan va texnika taraqqiyoti estetik dunyoqarashni boyitishga bo'lgan ehtiyojning turkumlari, shakl va vositalar ko'lami kengayishiga olib keladi. Bu jarayon, o'z navbatida, jahonda umuminsoniy estetik qadriyatlarni ro'yobga chiqarish va uni falsafiy-estetik kontekstda tadqiq etishni hamda yangi standartdagi badiiy-ijodiy yondashuvning dolzarbligini keltirib chiqaradi. Globallashuvning bosh obyekti bo'lgan insonni kamol toptirish uchun esa estetik tarbiya omillari, vositalari va usulularini yanada takomillashtirish zarurdir. Bu jarayonning nazariy-amaliy asoslari estetik tarbiya klasterlari vositasida konkretlashadi. Klasterlash esa estetik bilimlarni takomillashtirishga, estetik tarbiyani rivojlantiruvchi metodologiyani yaratishga hamda estetik dunyoqarashni boyitishga xizmat qiluvchi omil, vosita va usullarni falsafiy jihatdan ilmiy tadqiq qilish zaruriyatini paydo qiladi.

Materiallar va metodlar. Yaqin kelajakda klasterlash tizimini ta'lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta'minlashga qaratilgan yaqin istiqboldagi eng muhim tizim sifatida ko'rish mumkin. Bu tizim ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, yoshlarga insoniylikka sadoqat ruhini chuqur singdirish hamda tashabbuskorlik va bir maqsad yo'lida harakat qilish, faoliyat yuritishni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish, amalga oshirishga xizmat qiladi. Estetik tarbiyani isloh qilish, madaniy hayotning o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan estetik bo'shliqlarni ratsional va irrasional, nazariy va amaliy, aksiologik va praksiologik yo'naliishlarda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Buyuk Britaniyaning "Estetik tadqiqotlar Markazi"da klaster va san'at transformatsiya-sining estetik bilimlar rivojiga ta'siri, Rossiya Federatsiyasining "Rossiya Estetika jamiyatasi" tomonidan estetikaning falsafiy mohiyatini klaster yondashuv yondoshuv asosida tahlil qilishning metodologik asoslari estetik tarbiyaning ijtimoiy ong darajalarini yuksaltirishda estetik madaniyatlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlari tadqiq etilmoqda.

Asosiy qism. Inson ehtiyojlarining paydo bo'lishi va to'xtovsiz o'sib borishi global muammolarni keltirib chiqaruvchi eng asosiy sabablardandir. Global muammolar estetik tarbiyaning muammolari bilan qiyoslansa, uning markazida estetikani "Insonning voqelikka estetik munosabati masalasi" qonuniyati muhim o'rin tutishini tasavvur qilish qiyin emas. Bu qonuniyat dogma emas, balki estetik tarbiya omillari – inson (millat, xalq), tabiat (o'simlik, hayvonot) jamiyat (muassasa, birlashma) o'rtasidagi o'zaro munosabat oqibatida takomillashib boradi. Shundan kelib chiqqan holda, estetikaning global muammolari quyidagi omillarni o'rganish va tahlil qilishni taqozo etadi.

Birinchisi, sayyoramizda nafosatga asoslangan estetosfera muhitini yaratish omili. Insoniyatning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari kengayib borayotgan bir davrda, ularning estetik muhitga ehtiyoji mislsiz ortib bormoqda. Qolaversa, globallashuv davri aynan estetik tarbiyani taqozo etadi. Globallashuvni idrok etishga bo'lgan harakatlar "jahon hududining asta-sekin zamonaviy institutlarning rivojni ta'minlovchi va ularning o'zaro munosabatlari mexanizmlarini takomillashtirib boruvchi kapital, tovar va xizmatlar to'siqsiz harakatlanadigan, g'oyalar ularni ifoda etuvchilar erkin tarqaladigan bir butun makonga aylanishi jarayoni" sifatida talqin etilmoqda [1]. Bu borada Frensis Fukuyama [2], Ulrix Bek [3] kabi siyosat falsafasi vakillari postindustrial jamiyatlar erishgan texnik va iqtisodiy taraqqiyotning ulkan yutuqlari jamiyat ma'naviyatidagi shunga muvofiq taraqqiyotga olib kelmayotgani haqidagi fikrni bildiradi.

Ikkinchisi, chegaralanmagan individualizm madaniyatining oldini olish omili. Chunki individualizm madaniyatining asosiy qoidasi asrlar mobaynida shakllangan estetika qonuniyatlari va prinsiplarini buzishdan iborat. Bu muammolarning o'zagini – jamiyatni tartibga soluvchi turli ijtimoiy toifa va guruhlarni umummaqsad yo'lida birlashtiruvchi, demak, uning yashovchanligini ta'minlovchi muhim "ijtimoiy kapital" bo'lgan ijtimoiy qadriyatlarning parchalanishi tashkil etadi. Bu parchalanishni F. Fukuyama "chegaralar yo'q" shioriga tayangan va "pop-madaniyat" orqali singdirilayotgan "pop-psixologiya" ta'minlanayotgani ni aytadi [4]. "Ommaviy madaniyat"ning asosiy unsuri bo'lgan "pop-psixologiya" jamiyat oldidagi mas'uliyatni o'ldiradi. Zero, uning tayanchi – "daromad, foyda g'oyasi va butun hamma narsani, hayot va sog'liqni ham sotib olish mumkinligiga bo'lgan ishonch"dir. Bu mafkurani ommalashtirish vazifasini dunyoda hozirgi kunda, avvalo, ommaning "tarbiyachisi" vazifasini zimmasiga olgan televiedeniya bajarmoqda.

Uchinchisi, "bo'sh vaqt"ning estetik mazmunini boyitish va estetik tarbiyaning asosiy fenomeniga aylantirish omili. Qiyomiddin Nazarov ijtimoiy vaqtning mavjudlik shartlari, ijtimoiy vaqtning mazmudagi ustuvorlik va konstantalari haqida mulohazalarini bayon etar ekan, yaxlit organizm sifatidagi jamiyat ham o'z vaqt munosabatlari va rivojlanish ritmlariga ega ekanligini ta'kidlaydi. Ular ijtimoiy o'zgarishlar, ishlab chiqarish va fanning rivojlanishiga qarab yo'tezlashishi, yo sekinlashishi mumkin. Bularning hammasi makon, zamon va materiya jarayolari o'zaro bog'liq ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi, degan fikri ilgari suradi [5]. Aslida, vaqt ijtimoiy-falsafiy tushuncha bo'lsa-da, u estetik mohiyatga ham ega bo'lib, u "bo'sh vaqt"ning estetik munosabatlar jarayonidagi o'rni bilan bog'liq. Falsafiy tushunchalar izohiga oid adabiyotlarda "Bo'sh vaqt – mehnatga, zaruratlarga sarflangan vaqtidan tashqari vaqt bo'lib, kuch-quvvatni tiklashga, jismoniy va ma'naviy taraqqiyotga sarf qilinadi", deyiladi [6]. "Bo'sh vaqt"ning estetik mazmuni

insonning estetik munosabatdagi erkin ishtiroki, turmush estetikasini yaratishi, madaniy-estetik hordiq chiqarishi, badiiy-estetik faoliyat orqali go‘zallik va ulug‘vorlikni yaratishga sarflangan vaqtidir. Shu ma’nda, “Estetika”ni nafaqat inson hayot faoliyatining mustaqil shakli, balki jamiyatning estetik madaniyati darajasini ifodalovchi ilm, desak, xato bo‘lmaydi.

To‘rtinchisi, estetik tarbiyani rivojlantirish omili. Estetik tarbiyaning bosh maqsadi – insonda estetik madaniyatni yuksaltirishdan iborat. Bu jarayon: a) idrok; b) hissiyot; d) ehtiyoj; e) did; f) ideal kabi komponentlar yordamida takomillashadi. Ma’lumki, ta’lim o‘z oldiga barkamol shaxsni shakllantirishni muhim vazifa qilib qo‘yadi. Baramollik esa estetikaning fundamental kategoriyasi hisoblanadi. Klasterlash subyekt (odam)da olamni estetik idrok etish ko‘nikmasini shakllantirish orqali ijtimoiylashish hamda hayotdagi estetik bo‘shliqni to‘ldirish imkoniyatini paydo qiladi. Ya’ni, tabiatga estetik munosabatni to‘g‘ri yo‘naltilish orqali subyektda ekologik mas’uliyat motivatsiyasini, o‘simplik va hayvonot olamiga oqilona yonda-shuvni paydo qilish mumkin. Biroq tarbiya klsteri tuzilmasida jamiyatning barcha bo‘g‘ini – oila, mahalla, ta’lim muassasasi, davlat xizmatlari va boshqa tashkilotlar ishtiroki ham talab etiladi.

Beshinchisi, ijtimoiy toqatsizlikka barham berishga qaratilgan omillarni estetik zararini kamaytirish. Hozirda odamlar orasida ijtimoiy toqatsizlikning avj olishi natijasida ming yillar davomida shakllangan milliy madaniyatga putur yetish ehtimoli kuchayib boradi. Bu masalada, ta’lim sifati uchun o‘qituvchi mas’uliyati va javobgarligini belgilash muammo yechimining tayanch nuqtasidir. Hozirgi paytda estetika fanining tadqiqot sohasi shu qadar kengayib bormoqdaki, u deyarli barcha sohalarda, jumladan, sog‘lioni saqlash tizimida – tibbiyot estetikasi, ekologiya sohasida – ekologik estetika, texnikaviy taraqqiyot sohasida – texnika estetikasi (dizayn) kabi sohalarning yuzaga kelgani shular jumlasidandir. Qolaversa, jamiyat ma’naviy hayotini yuksaltirish ham estetika fani oldiga qator vazifalarini qo‘ymoqda. Keyingi paytlarda fetishestetika (yengil-yelpi, yaltiroq estetika), “ommaviy madaniyat”ning inson maishiy turmushi bilan bog‘liq saytlari shunchalik ko‘payib ketdiki, ular yoshlarning estetik didini pasaytirishga va estetik dunyoqarashini to‘poslashtirishga olib kelayotganligini bugungi kunda guvohimiz. Talaba-yoshlarga bu kabi g‘ayriestetik g‘oyalar va ko‘rinishlarning salbiy oqibatlarini tushuntirib beradigan ilmiy nazariy asosni aynan etika va estetika fanlaridan topish mumkin. Zero, etikaning muhabbat va ezunglik, vijdon vaadolat, halollik va inson-parvarlik, estetikaning mo‘jizaviylik, xayoliylik va qiziqarlilikning nazariy asoslari haqida mustahkam bilim berish milliy axloq falsafasi va nafosat falsafasi uchun yangi yo‘nalishdir.

Xulosa. Estetik tarbiya klasterlarining falsafiy mohiyati va metodologik asosi “inson – jamiyat – davlat” degan g‘oya hayotiyligining ilmiy-nazariy va ilmiy amaliy ahamiyatiga tayanadi. Bu g‘oya vositasida Yangi O‘zbekistonni «ijtimoiy davlat» tamoyili asosida qurishning falsafiy-estetik mazmunini ochiq-lantiradi. Estetik tarbiya klasterlari o‘z navbatida, taraqqiyotga bilim va tarbiya tufayli erishishning ilmiy konseptual asoslarini o‘rgatish uchun ilmiy-amaliy makon yaratadi. Ayniqsa, “ijtimoiy axloq”ning inson qadri, jamiyat taraqqiyoti va davlat barqarorligini ta’minlashdagi amaliy asoslarini o‘rgatish hamda estetik muhitni mustahkamlashning yangi paradigmalarini hosil qiladi. Zamonaviy taraqqiyotda estetika fanining hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek muhitni vazifasi ham borki, bu muammo-lardan eng muhimi, sayyoramizda nafosatga asoslangan estetosfera muhitni yaratish bilan bog‘liq. Chunki texnogen sivilizatsiya davrida texnika, texnologiya, umuman noosfera insonning yashash muhitiga aylanib qolgan. Binobarin, insoniyatning tabiiy ehtiyojlari qondirish imkoniyatlari kengayib borayotgan bir davrda ularning axloqiy va estetik muhitga ehtiyojlari ortib bormoqda. Qolaversa, hozirgi zamon axloqiy va estetik tarbiyani taqozo etadi. Binobarin, davrning o‘zgarishi bilan insonning jamiyatga, tabiatga bo‘lgan mu-nosabati ham o‘zgarib bormoqda. Bu esa, shubhasiz, insonning tafakkuri bilan bog‘liq jarayondir.

2021–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettiha ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, o‘z navbatida, estetik tafakkurni yangilash va boyitishni taqozo etadi. Zero, insonni taraqqiy ettirish, shaxsni har tomonlama kamol toptirish va jamiyatni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar mavjud bo‘lgan joyda hissiyot, tuyg‘u va tasavvur takomilini taqozo etuvchi estetik tarbiyaga ehtiyoj mavjuddir. Shu bilan bir qatorda, tarbiya klasteri ta’lim muassasalarida “ustoz-shogird an‘analari” asosida ilmiy, ijodiy va sog‘lom ma’naviy muhitni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy muam-molarni hamjihatlikda amalga oshirish imkonini beradi. Buning uchun pedagogik ta’lim muassasalarida ta’lim yo‘nalishlarining har biri bo‘yicha aniq maqsadli chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirib borish maqsadga muvofiq.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi maskuralar (ma’naviyatga tahdid soluvchi illatlar). Toshkent, “Turon-zamin ziyo”, 2015, 86-bet.
- (2). Фукуяма Френсис. Конец истории и последний человек. Пер. с англ. М.Б.Левина. М., Т, 2007, с. 588.
- (3). Бек Ульрих. Общество риска: на пути к другому модерну. Москва, “Директ-Медиа”, 2007, с. 720.

- (4). Фукуяма Френсис. Конец истории и последний человек. Пер.с англ. М.В.Левина, М., AST, 2007, 371 с.
- (5). Nazarov Q. Falsafa asoslari. Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiyoti, 2012, 257–258-betlar.
- (6). Falsafa. Qomusiy lug'at. Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiyoti, "Sharq" nashiyotmatbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004, 66-bet.

Toshbekova Mohira Xasanovna (Fan va texnologiyalar universiteti Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i)

MAFKURAVIY TAHDID TEXNOLOGIYALARINI O'RGANISHNING METODOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada faylasuf olimlarning mafkuraviy jarayonlarga oid qarashlari, O'zbekistonda ijtimoiy hayotda mafkuraviy tahdidbardoshlikni takomillashtirish borasida ko'plab ilmiy izlanishlarining tahlili natijalariga ko'ra, hozirgi kungacha mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etishning ijtimoiy-siyosiy mexanizmlari va milliy g'oyaning dialektik aloqadorligi yetarlicha tadqiq etilishi xususida ilmiy qarashlar shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: mafkura, mafkuraviy jarayonlar, mafkuraviy tahdid, ijtimoiy-siyosiy mexanizmlar, milliy g'oya.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ УГРОЗЫ

Аннотация. В данной статье представлены взгляды философов и ученых на идеологические процессы, по результатам анализа многих научных исследований по повышению толерантности к идеологической угрозе в общественной жизни Узбекистана, научные взгляды на то, что социально-политические механизмы устранение идеологических угроз и диалектическая связь национальной идеи достаточно исследованы и к настоящему времени сформированы.

Ключевые слова: идеология, идеологические процессы, идеологическая угроза, общественно-политические механизмы, национальная идея.

METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE STUDY OF IDEOLOGICAL THREAT TECHNOLOGIES

Annotation. In this article, the views of philosophers and scientists on ideological processes, according to the results of the analysis of many scientific researches on the improvement of ideological threat tolerance in social life in Uzbekistan, scientific views on the fact that the socio-political mechanisms of eliminating ideological threats and the dialectical connection of the national idea have been sufficiently researched to date is formed.

Key words: ideology, ideological processes, ideological threat, socio-political mechanisms, national idea.

Kirish. O'zbekistonda ijtimoiy hayotda mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etishning ijtimoiy-siyosiy mexanizmlarini aniqlash yo'llari o'rganilishi va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning samarali siyosiy vositalari tasnifi batafsil aniqlanlanishi lozimligi maqolada ifodalanib, O'zbekistonda ijtimoiy hayotda mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etishning ijtimoiy-siyosiy mexanizmlarini aniqlash, bu jarayonda milliy g'oya rolini yangi konseptual yondashuv nuqtani nazaridan tadqiq etishga va hozirgi davrdagi ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan. Bugungi rivojlanayotgan dunyoning mafkuraviy manzarasiga nazar tashlar ekanmiz, biz unda turli xildagi katta va kichik mafkuraviy inqirozlar, iqtisodiy bo'hronlar va qurolli mojarolar ko'payib borayotganini e'tirof etishimiz mumkin. XXI asr insoniyatning texnologiyalashgan davri bo'lib, bir qancha chegara bilmaydigan muammollar, jumladan, urush va qo'poruvchilik, etnik ziddiyatlar, global isish, ma'naviy qaramlik, narkobiznes, terrorizm kabilarga duch keldi. Hozirgi tahlikali davrda o'zining siyosiy maqsadlarini amalga oshirishda mafkuraviy va g'oyaviy vositalar asosida o'zining ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan kuchlar, guruhlar va harakatlarlari orqali tajovuzkor millatchilik va shovinism, kommunizm va diniy ekstremizm, aqidaparastlik, nigelizm, kosmopolitizm mafkuralari to-bora kuchayotganligi, ayniqsa, tashvishlidir. Bir qarashda tarix saxnasidan tushib ketganday tuyulgan g'ayriinsoniy xarakterga ega bo'lgan neofashizm va irqchilikdek mafkuralar ham yangidan bosh ko'tara boshlaganini ta'kidlash zarur. Kurrai zaminning turli hududlarida insonlar qalbi, ongi va tafakkurini egallash (ekspansiya) maqsadiga qaratilgan kurashlar tobora avj olib bormoqda. Bunday shiddatli jarayonlar esa bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasini namoyon etmoqda. Oqibatda jahon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olish harakatlari kuchaymoqda. Jahon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar.

1. Siyosiy (buyuk davlatchilik shovinizmi).
2. Diniy (diniy ekstremistik va aqidaparastlik, panislomizm).

3. Badiiy (G‘arb va Amerikacha turmush tarzini ya’ni, zo‘ravonlik, yovuzlik va boshqa axloqsizliklarni targ‘ib qiluvchi).

Dunyoning mafkuraviy manzarasini anglab yetishda uning, avvalo, g‘oyaviy inqirozlarini, iqtisodiy to‘qnashuvlarini, mafkuraviy tahdid poligonlari va texnologiyalarining xususiyatlari hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga, jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan ham mazkur maqolada mafkuraviy tahdid texnologiyalarini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari, mafkura, mafkuraviy tahdid poligonlari va texnologiya tushunchalarini tadqiq etish mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning o‘ziga xos shakli ekanligi hamda jahonda va dunyoda mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish texnologiyalarining umumiy va farqli jihatlari nazariy-metodologik tahlil qilingan. Jahonda mafkuraviy xavfsizlikni ta’minalash ijtimoiy taraqqiyotga erishish, aholining siyosiy hushyorligini oshirish va ma’naviy madaniyatini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni takomillashtirish, mafkuraviy xavfsiz makon yaratish davlat siyosatining bosh vazifasiga aylamoqda. Ayni paytda, ijtimoiy tarmoqlardagi turli mafkuraviy xurujlar odamlarda tushkunlik kayfiyatini shakllantirmoqda. Shu bois mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash modellarini yaratishda xalqaro hamkorlikga tayanish va uning yo‘nalishlarini aniqlash dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda inson ongiga ta’sir qiluvchi buniyodkor va buzg‘unchi g‘oyalarning paydo bo‘lishi, ularning ta’sir darajasini va mafkuraviy bo‘shliqning oqibatlarini o‘rganish, mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mafkuraviy tahdidlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga baho berish va aholi turli qatlamlari ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning zarurligi ilmiy asoslanmoqda. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning yangi modellarini yaratish bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj oshmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘-risida», 2017-yil 5-iyuldagagi PF-5106-sonli «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli [1]. «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagagi PQ-3160-sonli, «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohoni rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida» [2], 2018-yil 14-avgustdagagi PQ-3907-sonli, «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida» [3]. 2019-yil 3-maydagagi PQ-4307-sonli «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi [4] qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga oid qarashlar metodologik manba bo‘lib belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekistonda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash vositasi sifatida aholining ijtimoiy himoyasini ta’minalash, salomatligini asrash, ularning bandligini ta’minalash, ijtimoiy faol odamlarning ilmiy va ijodiy faoliyati natijalarini rag‘batlantirish, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish uchun sharoit yaratishga e’tibor qaratilmoqda. Iqtisodiy ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish ijtimoiy taraqqiyot mexanizmi va mafkuraviy profilaktika sifatida amal qilmoqda, aholining dunyoviy va diniy bilimlarni egallashi uchun sharoitlar yaratilmoqda. Jamiyatning barcha sohalaridagi yangilanish jarayonlari «mafcura sohasida bo‘shliq»ni bartaraf etish vositasi sifatida amal qilmoqda. Ayni paytda, ba’zi odamlarning destruktiv g‘oyalari ta’sirida turli ekstremizm, radikalizm yo‘liga kirayotganligi bois, mafkuraviy tahdidlarni aniqlash va ularning profilaktikasini takomillashtirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuvning jarayon sifatida ijobjiy ta’sirini umumtaraqqiyot: ilm-fan, texnika va texnologiyaning yuqori darajada rivojlanishi va uning kurreyi zaminda jadal sur’atlar bilan keng yoyilganida ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli ham aksariyat ilmiy manbalarda globallashuvning milliy ma’naviyat, madaniyat, qolaversa, mentalitetlarga nisbatan paydo bo‘layotgan xatarlari diqqat-e’tibordan chetda qolib ketmoqda [5]. Axborotlashgan jamiyatda globallashuvning avj olishi, nafaqat demokratik davlat, milliy ma’naviyat, shuningdek, madaniyat, iqtisod, siyosat, inson va boshqa omillarga o‘tkazayotgan ta’sirlarning yangi ikkita o‘ta ziddiyatlari qirralari ham yuzaga kelmoqda. Ularni tizimli, izchil tahlil qilish zaruriyati ortib bormoqda. Yangi O‘zbekistonda fuqarolar, xususan, yoshlarning tashabbus-korligini oshirish va ularni ijtimoiy-siyosiy qo‘llab-quvvatlashda ma’naviy-madaniy, mafkuraviy-siyosiy omillarning o‘rnini va ahamiyati benihoya kattadir. Shuning uchun ham ijtimoiy hayotda jamiyat mafkuraviy sohasini rivojlantirish orqali jamiyatni yanada erkinlashtirish, barqarorlashtirish va isloh qilish, innovatsion g‘oyalarni, kreativ faoliyikni yuksaltirish jarayonlari davlat siyosati darajasida davom ettirilmoqda. Amaliyotga tatbiq etilayotgan madaniy-ma’naviy, mafkuraviy sohalardagi keng ko‘lamli islohotlar hamda chora-tadbirlar fuqarolarda Yangi O‘zbekistonning ertangi kuni – kelajagiga ishonch kayfiyatini ya-

nada oshirish orqali faol fuqarolik pozitsiyasini qat’iy mustahkamlaydi, davlat taraqqiyoti va jamiyat rivojida har bir kishining ishtirokini kengaytiradi, xalq manfaatlari yanada kengroq e’tirof etiladi [6].

Tahlil va natijalar. O’zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo’lga kiritgan ilk yillardan jamiyatda milliy-ma’naviy tiklanish, milliy o’zlikni anglash, sobiq ittifoqning mafkuraviy tazyiqlaridan voz kechishning yangi mexanizmlarini yaratish bo'yicha tarixchilar, siyosatchilar va faylasuflar olimlar bu jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratishga harakat qilganlar. Ma’naviy tiklanishning zarur tarkibiy qismi madaniy faoliyat hisoblanib, u bashariyatning ma’naviy-axloqiy, estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir. Shu boisdan aholining ma’naviy-axloqiy, estetik ehtiyojlarini ta’minlash uchun qulay imkoniyat yaratish, xususan, ma’naviy-madaniy tadbirlar tashkil etish va o’tkazish, kreativ ijodkorlarni, ularning ijodiy qobiliyatlarini, iste’dodlari va faoliyatlarini moddiy-ma’naviy qo’llab-quvvatlash, rivojlantirish va shu kabi vazifalar aynan madaniyat sohasi vakillari va tashkilotlarning zimmasidadir. Ma’naviy tiklanish asosida yet mafkuralardan voz kechish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, madaniyat sohasi xodimlarining mehnatini yuksak qadrlashga yo’naltirilgan amaliy sa’y-harakatlar va chora-tadbirlar, albatta, barchaga yaxshi ma’lum [7]. Ayni vaqtida, bunday keng ko’lamli ishlarmiz biz boshlagan islohotlarning faqat bir qismi, dastlabki qadamlar ekanini ta’kidlash lozim... O’tgan davrdan, barchamizga ma’lumki, sobiq sho’rolar hukmronligi davrida nashr etilgan va e’lon qilingan ilmiy va badiiy adabiyotlarda, manbalar da «ma’naviyat» iborasi madaniyat tushunchasining asosisi qismi sifatida tahlil qilinib kelgan.

Madaniyat – bu ijtimoiy xususiyatga ega bo’lib, jamiyat, insonlarning ijodiy kuch va qobiliyatlarini tarixiy taraqqiyotining muayyan qatlami sifatida e’tirof etadi. «Madaniyat» so’zining «shaharlik», «shaharga oid» «shaharga mansub» lug’aviy ma’nosidan kelib chiqib, uning ma’naviy izohi «odob-axloq»ni anglatadi. Bundan ayon bo’ladiki, Yangi O’zbekistonni yaratishdek ulkan maqsad bugungi zamonaviy, innovatsion jamiyatda milliy madaniyatni, yuksak ma’naviyatni, g’oyaviy yaratuvchanlik va mafkuraviy kurashuvchanlikni yanada rivojlantirish jamiyat uchun g’oyat muhimdir. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: «Biz Yangi O’zbekistonni yetuk ma’naviyatlari jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz lozim. Faqat jismoniy jihatdan baquvvat insonni tarbiyalash unchalik qiyin emas. Ammo insonni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan kamol top tirish g’oyat murakkab vazifa [8]. Ayniqsa, bugungi kunda – mafkuraviy kurashlar goh, oshkora, goh pin hona tus olgan nozik, qaltis sharoitda, hozirgi tahlikali zamonda bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega». Ma’naviyat ko’proq inson qalbiga, botiniy tomonga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Shu nuqtayi nazardan «ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg’ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg’otadigan be-qiyos kuch» Yuqorida ta’kidlangan ma’naviy ehtiyojlardan kelib chiqib, mamlakatimiz ziyyolilari, olimlari o’rtasida «ma’naviyat» tushunchasining mazmun-mohiyati, tamoyillari va mezonnari hamda rivojlanish qonuniyatlariga bag’ishlangan qizg’in munozaralar, muzokaralar olib borilmoqda. Buning yagona sababi ma’naviyatning serqirra tushuncha ekanlidir. Ma’naviyat-bu inson faoliyatining barcha qirralarini, uning yaqqol ko’zga tashlanuvchi zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) ruhiy-yashirin, tomonlarini ham qamrab olganligidadir [9]. Ayni paytda ham bu borada keskin munozaralar davom etmoqda, matbuotda esa ushbu mavzuga bag’ishlangan qator maqola, risola va mulohazalar e’lon qilinmoqda, qo’llanmalar va kitoblar chop etilmoqda.

Xulosa. O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining tajribasi ma’naviyat sohada olib borilgan davlat siyosatining haqqoniy va hayotiy, izchil va tizimli samarali va davomiy ekanligini to’laqonli isbotladi. Davlat Mustaqilligining dastlabki davrida O’zbekiston Respublikasi suverenitetligini to’la ta’minlaydigan, xalqimiz va millatimizni yakdil qila oladigan milliy mafkuraning mazmuni, mohiyati, o’ziga xos xususiyatlari, amalga oshirilish masalalari bo'yicha mamlakatimizda, majlislarda, yig’inlarda, ilmiy-amaliy konferensiyalarda, ommaviy axborot vositalarida qizg’in muhokama qilingan edi. Milliy mafkura xususida iqtidorli olimlar, iste’dodli shoir va yozuvchilar, yetuk jamiyatshunoslar, ziyyolilar, rahbar xodimlar o’zlarining qimmatli fikr mulohazalarini bayon etganlar. Bugungi kunda milliy mafkuramiz shakllandi va tobora rivojlanib bormoqda [10]. Ana shu eng muhim g’oyalarni chuqr idrok etish, o’rganish, ulardan amaliyotda foydalanish foydadan xoli emas.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida»gi PF-60-sonli farmoni.
- (2). O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-yuldagи «Ma’naviy-ma’rifiy ishlар samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko’tarish to’g’risida»gi PQ-3160-sonli qarori.
- (3). O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagи «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora tadbirlari to’g’risida»gi PQ-3907-sonli qarori.

(4). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4307-soni qarori.

(5). Toshbekova M.X. Concept basis of the study of problems of national ideology in the context of globalization. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), № 4, vol 10, Issue 4, Impact Factor: SJIF, 2021, 7.699.

(6). Toshbekova M.X. Современные правовые основы борьбы против духовно-идеологических угроз. Вопросы политологии. Москва, № 4, 2020, с. 2823–2828.

(7). Toshbekova M.X. The ideological confrontation and its consequences in the context of globalization. Journal «Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research», № 6 (8), 2020, p. 54–62.

(8). Toshbekova M.X. Interethnic harmony as a factor in combating interethnic harmony as a factor in combating ideological threats in the context of globalization. The Light of Islam, № 1, 2020, p. 74–82.

(9). Toshbekova M.X. Jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda milliy mafkura ahamiyati. "Falsafa va huquq", Toshkent, 2019, 2-son, 179–185-betlar.

(10). Toshbekova M.X. Ma'naviyatga qarshi tahdidlar va ularni bartaraf etish yo'llari. "O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy axborotnomasi", Toshkent, 1/8-son, 2023, 190–193-betlar.

**Usmonov Shoxrux Shokir o'g'li (Samarqand davlat Chet tillar instituti tadqiqotchisi;
shoxruxusmonov4@gmail.com)**

MADANIYATLARARO MULOQOT JAMIYATNING MA'NAVİY-AXLOQİY OLAMI SİFATIDA

Annotatsiya. Madaniyatlararo muloqot bugungi dunyoda ahamiyatli mavzu bo'lib, jamiyatning ma'naviy-axloqiy olamiga o'z ta'siri borligi tadqiq qilingan. Bu muloqotning ma'naviy-axloqiy boyliklarga o'z ta'siri, insonlar orasidagi aloqalarni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Madaniyatlararo muloqot jamiyatning ma'naviy-axloqiy olami sifatida muhimligi va ta'siri, o'zgaruvchanliklari va bu o'zgaruvchanliklarning jamiyatga ta'siri ko'rsatilgan. Bu maqola jamiyatning ma'naviy-axloqiy olami va madaniyatlararo muloqotning o'z ta'sirini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: madaniyat, muloqot, axloq, adabiyot, san'at, odob, tarix, begonalashuv, muhit, "ofarin", "balli", "yashang", "unday qilmang", "uyat bo'ladi", "sabob bo'ladi", globalizatsiya, texnologiya, iqtisodiy, qadriyat, ijtimoiy, jamiyat, axborot, iqtisodiy, madaniy meros, urf-odatlar.

**Usmonov Shoxrux Shokir o'g'li (научный сотрудник Самаркандского государственного института
иностранных языков; shoxruxusmonov4@gmail.com)**

МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОММУНИКАЦИЯ КАК ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКИЙ МИР ОБЩЕСТВА

Аннотация. Межкультурная коммуникация является важной темой в современном мире, изучается ее влияние на духовно-нравственный мир общества. Влияние этого общения на духовно-нравственное богатство играет важную роль в укреплении отношений между людьми. Показаны значение и влияние межкультурной коммуникации как духовно-нравственного мира общества, ее изменения и влияние этих изменений на общество. В данной статье анализируется духовно-нравственный мир общества и влияние межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: культура, общение, мораль, литература, искусство, нравы, история, отчуждение, окружающая среда, «молодец», «балли», «живи», «не делай этого», «стыдись», «дело», глобализация, технологии, экономика, ценность, социальная, общество, информация, экономика, культурное наследие, традиции.

**Usmanov Shokhrukh Shakir oghli (Researcher of the Samarkand State Institute of Foreign Languages
shoxruxusmonov4@gmail.com)**

INTERCULTURAL COMMUNICATION AS A SPIRITUAL AND ETHICAL WORLD OF SOCIETY

Annotation. Intercultural communication is an important topic in today's world, and its influence on the spiritual and moral world of society has been studied. The impact of this communication on spiritual and moral wealth plays an important role in strengthening relations between people. The importance and influence of intercultural communication as a spiritual and moral world of society, its changes and the impact of these changes on society are shown. This article analyzes the spiritual and moral world of society and the impact of intercultural communication.

Key words: culture, communication, morals, literature, art, manners, history, alienation, environment, "well done", "balli", "live", "don't do it", "shame on you", "cause", globalization, technology, economic, value, social, society, information, economic, cultural heritage, traditions.

Kirish. Madaniyatlararo muloqot shakllanish jarayonida jamiyatdagi siyosiy bilim, huquqiy mada-niyat, axloqiy ideal va ma'naviy omillar muhim hisoblanadi. Bunda yoshlarning harakatchanligi va intilish-

lari muayyan bilimlar negizida yangilanib, ularning inovatsion rivojlanishiga ishlab chiqarish, adabiyot, san'at, madaniyat, ma'naviyat, til orqali tas'ir etadi. Bular madaniyatlararo muloqot ma'naviy-axloqiy assolarini shakllantirishda, ma'rifat g'oyalarini yaxshiroq tushunishda muhim rol o'ynaydi. Bu g'oya mehnatsevarlik, qat'iy iroda, sabr-toqat, mehr-oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzat, yaxshilarga ergashish, yomon-dan qochish singari xalqimizga xos fazilatlarning yanada sayqal topishiga xizmat qiladi” [1;17-b.]

Adabiyotlar tahlili. Muloqot madaniyati va madaniyatlararo muloqot rivojlanirishning axloqiy va falsafiy ildizlarini mustaqillik yillarda respublikamiz olimlaridan G'.Mirzayev, I.Saifnazarov, N.B. Abdul-layeva, E.Qodirov, A.Ochilidiyev, R.H.Murtazayeva, O.P.Musayev, C.H.Yusupova, A.Hasanov, B.R. Karimov, S.Karimov, I.Karimov, E.Karimova, T.Maxmudov, A.S.Ochilidiyev, S.O.Otamuratov, V.Qo'ch-qorov, Z.R.Qodirova, U.Saidov, J.To'lanov, X.X.Xonazarov, Z.Xusniddinov, X.Yunusova, E.Y.Yusupo-valar o'rganishgan. Bu jarayonda millatlararo munosabatlarning teng huquqlilik, o'zaro hurmat, do'stlik va hamkorlikka asoslangan zamonaviy tendensiyalarning o'rnatilishi natijasida qo'yilgan maqsad sari intilish mumkin ekanligini ochgan. D.Lokk, J.J.Russo, R.Myullerson, K.Popper, B.Spinoza. D.Truman yozgani-dek, jamiyatni tanazzuldan, saqlab qolish va barqarorlikni saqlab turish bu faqat ochiq jamiyatning mezoni bo'lib, madaniyatlararo muloqot va bag'rikenglik bilan bog'liqligini yoritib bergen.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada bugungi globalalshib borayatgan jamiyatda madaniyatlararo muloqotni rivojlanirish yo'llari muhokama qilinadi. Yangi O'zbekistonda «madaniyatlararo muloqot», «axloqiy madaniyati» kategoriyalariiga oid falsafiy qarashlarini o'rganish, ularining falsafiy va axloqiy tafo-vutlari, o'xshashlik va farq mazmunini o'rganish hamda o'zaro bog'liqligi tahlili qilindi. Madaniyatlararo muloqotni yuksaltirishning dunyoviy va axloqiy ko'rinishlarini nazariy-falsafiy mohiyati o'rganildi.

Tahlillar va natijalar. Madaniyatlararo muloqot turli xil muloqot muhitidagi odamlarni birlashtirishga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Ular bir-birlari bilan muloqot qiladilar va bir-birlarini o'zgartiradilar, so'ngra odamlarning hamkorlikda istiqomat qilishga olib keladi. Odamlar ma'lum sharoitlarda gapirish usullarini moslashtiradigan yoki o'zgartiradigan ko'plab holatlar mavjud. Madaniyatlararo muloqot odamlarning kundalik hayotining ko'p jabhalariga kirib bordi. Uning umumiyy nazariy tafakkuri shundan iboratki, bizni o'rab turgan deyarli har bir munosabat o'ziga xos manaviy-axloqiy munosabatlarga moslashtish zaruratin keltirib chiqaradi. Misol uchun, biz bolalar bilan gaplashganda, biz gapirish uslubimizni moslashtiramiz, hatto bitta so'z ham gaplashayotgan odamga bog'liq. Biz, keksalar bilan gaplashganimizda, biz, ko'pincha, o'zaro munosabatimizni o'zgartiramiz, jumladan, til shakllarimiz, xulq-atvor, ehtimol, ko'proq hurmat, odamlar professional intervylarda shaxsiy ma'lumot berganda, ular uning tilini vaziyatga va suhbatdoshiga moslashtirishga moyil bo'ladilar; odamlar unga o'xshab yo'l tuta olmaydilar. xo'jayin bilan xuddi shunday gaplashadi. Odamlar ota-onalari bilan tengdoshlari bilan gaplashgandan farqli o'laroq, gaplashishadi. Bu nazariya uchta hodisaga e'tibor qaratadi. Birinchisi, assimilatsiya hodisasi, ya'ni, shaxslar turli xil o'zaro ta'sirlar ostida boshqalarga moslashish uchun o'zlarining til modellarini o'zgartiradilar. O'zaro ta'sir muhitida boshqa odamlarga ma'qulligini ko'rsatish uchun shaxslar ko'rsatishi mumkin yaqinlashish tendensiyasi. Ikkinchidan, begonalashish hodisasi. Begonalashuv uchrashuvi bu tillari, madaniyati va boshqa kelib chiqishi turlicha bo'lgan ikki guruh o'rtasida sodir bo'ladi. Suhbat davomida bir tomon o'zi gaplashayotgan shaxsga mos kelmaydigan xususiyatlarni ta'kidlaydi. Uchinchidan, hodisani saqlab qolish. Madaniyatlararo muloqot har xil muloqot muhitida odamlarning tili va xulq-atvorining har bir jihat o'zarmasligini ta'kidlaydi. Har doim turli suhbatlarda barqaror xususiyatlar saqlanib qoladigan vaziyat mavjud. “Xizmat ko'rsatish” – bu shaxs muayyan aloqa xatti-harakati yoki ish faoliyatini o'zgartirmaganda yuzaga keladigan hodisa. Misol uchun, yaqin do'stlari bilan tez-tez hazillashib yuradigan kishi suhbat assimilatsiya paytida uning bo'lajak boshlig'i bo'lishi mumkin bo'lgan odam bilan hazillashmasligi mumkin, lekin uning oilasi uni o'sha do'sti bilan tanishtirganda, yangi do'sti bilan hazillashishi mumkin. Shuning uchun “xizmat ko'rsatish” ularning madaniyatlararo muloqot xatti-harakatlarining o'ziga xos jihatidir. “Xalqimiz orasida keng tarqalgan, taqiq va rag'bat ruhini o'zida mujassam etadigan “ofarin”, “balli”, “ya-shang”, “unday qilmang”, “uyat bo'ladi”, “sabob bo'ladi”, “uvol bo'ladi” kabi so'z va iboralarda bunday munosabat o'zining yaqqol ifodasini topadi” [2;26-b.].

Madaniyatlararo muloqotning ma'naviy-axloqiy olami, jamiyatning axloqiy-ma'naviy olami va insonlarning bu olamda tashkil etgan aloqalari, qadriyatları, qarorları va aks etkazgan amallari bilan bog'liq. Bu olam, insonlar orasidagi munosabatlarni, insonning dunyoqarashini, ma'naviyatini, axloqiy qadriyatlarini, qonunlarni, normativlarni, qo'llab-quvvatlovchi asoslar va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Globalizatsiya, texnologik rivojlanish, va insonlar orasidagi yo'qotishmaydigan aloqalar, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, internetning ro'yxatdan o'tishi, ijtimoiy tarmoqlarning o'sish hamda turli sohalarda madaniyatlararo almashishlar, jamiyatlararo muloqotni muhim ahamiyatga ega qiladi. Bu o'zgarishlar jamiyatning ma'naviy-axloqiy ola-miga ta'sir ko'rsatadi, uning mazmunini, o'zgarishlarini va qarorlarini shakllantiradi. Shu boisdan “etnik

va millatlarro munosabatlarning ijtimoiy-siyosiy va g‘oyaviy jihatdan odilona hal qilinishi, eng avvalo, har bir mamlakat ijtimoiy-sisiy barqarorligi va milliy xavfsizligini ta’minlashda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi” [3;73-b.]

Madaniyatlararo muloqot jamiyatning axloqiy-ma’naviy o‘zgarishlariga, qarorlariga va ko‘plab muammolarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu muloqot jamiyatning ma’naviy-axloqiy olami bilan bog‘liq qiyinchiliklarni hal qilishda, o‘zaro fahmlash va ta’til jihatdan o‘zgarishlarni kuzatishda katta ahamiyatga ega. Masalan, turizm, madaniyatlararo almashishlar, iqtisodiy hamkorliklar, ijtimoiy tashqi munosabatlar jamiyatning ma’naviy-axloqiy olamiga ta’sir ko‘rsatadi.

Madaniyatlararo muloqotning jamiyatning ma’naviy-axloqiy olamiga o‘z ta’siri bor. Bu muloqotning muhimligi, o‘zgaruvchanligi va jamiyatga ta’siri jamiyatning o‘zgarishlarini shakllantirishda katta rolgaga ega. Insonlar orasidagi munosabatlarni, fahmlashni va o‘zgarishlarni kuzatishda madaniyatlararo muloqot muhim ahamiyatga ega. “Shu ma’noda olib qarasak, umuminsoniy qadriyatlar keng qamrovga ega tu-shuncha, moddiy va ma’naviy madaniyat, axloq, odob, tarix, san’at, texnika, adabiyot, madaniy meros, urfodatlar, diniy aqidalarni qamrab olish bilan bir qatorda, bevosita inson tafakkuri bilan bog‘liq dialektik aloqadorligini ham unutmaslik lozim” [4;9-b.]. Axloq – bu insonning amaliy faoliyati va muloqotida uning ma’naviy yo‘nalishi, odamlarga munosabati va ichki qabul qilingan, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlarga asoslangan haqiqat.

Yoshlar orasida muloqot jarayonida faqat axborot uzatish emas, balki ayrim yangi olingan axborotlarning shu asosda birgalikda rivojlanishi kuzatiladi. M.S.Kaganning so‘zlariga ko‘ra, “Muloqot – bu odamlar bilan muloqot qilish va ularning jamiyatiga tug‘ilish (yoki ushbu jamiyatning darajasini oshirish) uchun umumiy bo‘lgan yangi axborotni ishlab chiqish jarayonidir” [5;149-b.]. U inson jamoasining shakllanishiiga yordam beradi va shu bilan muloqot madaniyatining shakllanishiga va fuqarolik jamiyat qurilishiga yordam beradi.

Muloqot madaniyati yoshlar hayotida muhim rol o‘ynaydi. Axloqiy, iqtisodiy va boshqa omillar yoshlarning mavqeyiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun haqiqiy muloqot madaniyatida keng doiradagi davlat masalalari bo‘yicha hukmlar, baholar va ko‘p o‘lchovli pozitsiyalar solishtiriladi. Muloqot madaniyatida ijtimoiy muloqotning ko‘plab kanallari, qonunga tayanish va jamoat birlashmalarining keng doirasi, guruh motivasiyasini turli xil axborot qo‘llab-quvvatlash va ko‘rib chiqish, odamlarning butun ijtimoiy tajribasi qo‘llaniladi. Uning yordamida ijtimoiy manfaatlar muvofiqlashtiriladi, harakatlar muvofiqlash-tiriladi, vazifalar keng subyektlar tomonidan hal etiladi. Turli ijtimoiy-madaniy yo‘nalishdagi ko‘taruvchilar o‘rtasidagi muloqot ijtimoiy keskinlik darajasini pasaytiradi, fuqarolik jamiyatni va barcha ijtimoiy kuchlarning, jumladan, yoshlarning hamkorligini mustahkamlaydi.

Muloqot madaniyatining mazmuni muayyan qadriyat – me’yoriy asoslar bilan bog‘liq. Uning madaniy parametrlari ishtirokchilarning shaxsiy munosabatlari bilan ham, muloqot jarayonining o‘zi, uning psixologik asoslari va ishlatiladigan vositalar bilan ham belgilanadi. Kelishilgan masalalarning juda ko‘pligi muloqot madaniyati, fuqarolik yetukligi va tomonlarning o‘zaro tasarruf etish darajasini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkich vazifasini bajaradi.

Yoshlarda muloqot madaniyatining to‘laqonli bo‘lishi uchun shart-sharoitlar o‘z maqsad va manfaatlarini, qadriyat va g‘oyalarini erkin ifoda etadigan hamkorlarning ochiqligi va bag‘rikengligi bo‘lib, ishonch munosabatlarini o‘rnatish imkonini beradi, xabardorlik va pozisiyalarni muvofiqlashtirish imkoniyatini beradi. Bu, ko‘pincha, ijtimoiy birlik, rejimning barqarorligi, demokratiyaga sadoqatini ifodalash bilan belgilanadi. Voqelikni chuqur anglashga, muqobil dasturlarni ishlab chiqishga, ijtimoiy maqsad va vositalarni belgilashga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, muloqot madaniyatiga bo‘lgan ehtiyoj, ko‘pincha, turli ijtimoiy guruhlarning ta’sir o‘tkazish uchun kuchaygan raqobati, harakatlari raqiblarni zararsizlantirish yoki ularning ta’sirini cheklashga qaratilgan bo‘ladi. Shu bilan birga, ijobjiy samara ham bor: “oqilona tarzda tashkil etilgan raqobat jamiyat hayotidagi ijobjiy o‘zgarishlarga rag‘bat” [6;46-b.] sanaladi. Madaniyatlararo muloqot, turli xil jamiyatlar va mamlakatlar orasidagi aloqalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan muhim bir vosita hisoblanadi. Bu muloqotning ma’naviy-axloqiy olamga ta’siri, insonlar orasidagi aloqalarni kuchaytirishda kritik muhimlikka ega. Ma’naviy-axloqiy olam, jamiyatning ma’naviy va axloqiy qadriyatlari, normativlari, qarorlari bilan bog‘liqdir. Bu olam insonlarning dunyoqarashini, qarorlarini olish va amal qilish usullarini va o‘zaro munosabatlarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda muloqot madaniyati uchun zarush shart-sharoitlar axborot almashish va shartnomalarga erishishda kommunikativ faoliyat barcha tomonlarning manfaatlarini aks ettirishi lozim. Muloqot ishtirokchilari tomonidan birgalikda ba’zi asosiy qadriyatlari va qoidalar qabul qilinishi, hamkorlik munosabatlari va ishtirokchilar o‘rtasida ishonzh o‘rnatish, muayyan manfaatlarini va pozitsiya va shaxslar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar va ijtimoiy rollar tizimi asosida shakllantirish, muloqotni targ‘ib qiladigan va unga tegishli maqomni beradigan muayyan tashkilot institutional shakllardan foydalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Мирзаолимов Б. Ёшлар онгида миллй гояни шакллантириш. Т., “Янги аср авлоди”, 2008, 17-бет.
- (2). Куронов М. Мафкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси. Тошкент, “Академија”, 2008, 26-бет.
- (3). Сафарова Н. Терроризм: манбалар, мақсади ва глобаллашув жараёни (тарихий-фалсафий таҳлил). Тошкент, “Фан”, 2006, 73-бет.
- (4). Каримов Ҳ. Истиқлол ва бадиий тафаккур равнақи. Самарқанд, “Зарафшон”, 2003, 9-бет.
- (5). Каган М.С. Мир общения: проблема межсубъектных отношений. М., 2002, с. 149.
- (6). Василенко И.А. Политический консенсус в гуманитарном диалоге культур. “Вопросы философии”, 1996, № 9, с. 46.
- (7). Yunus Ortikovich Kholikov. (2021). The education of young people on the basis of a spiritual, moral and tolerant culture in the educational process. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(2), p. 63–68.
- (8). Ortigovich, Xoliqov Yunus. “Миллатлараро бағрикенглик, маданиятининг ахлоқ билан үйғунлiği”. E Conference Zone. 2023.
- (9). Xoliqov, Y. “The role of ethics and education in the development of tolerance relations between uzbekistan and the nation in the process of development”. International Conference on Problems of Improving Education and Science. Vol. 1, № 02. 2022.
- (10). Kholikov, Yunus Ortikovich. Philosophical Fundamentals Of The Culture Of Tolerance. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3.09 (2021), p. 48–51.

**Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich (Urganch davlat Pedagogika instituti katta o‘qituvchisi;
sardorbek8828@gmail.com)**

OILA VA NIKOH IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA VUJUDGA KELISHINING TARIXIY-FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada oila va nikohning kelib chiqishi, ularning mazmun mohiyati, jamiyatda er va xotin munosabatlari shakllanishini tarixiy ildizlari, oilaning ijtimoiy institut sifatida tashkil topishi haqidagi olimlarimiz qarashlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, nikoh, jamiyat, qadriyat, er va xotin munosabatlari, ijtimoiy institut, turmush.

ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ВОЗНИКОВЕНИЯ СЕМЬИ И БРАКА КАК СОЦИАЛЬНОГО ИНСТИТУТА

Аннотация. В статье описывается происхождение семьи и брака, их сущность, исторические корни формирования супружеских отношений в обществе, взгляды наших ученых на становление семьи как социального института.

Ключевые слова: семья, брак, общество, ценность, отношения мужа и жены, социальный институт, брак.

HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL BASIS OF THE EMERGENCE OF THE FAMILY AND MARRIAGE AS A MAIN PART OF SOCIAL INSTITUTION

Annotation. The article describes the origin of family and marriage, their essence, the historical roots of the formation of husband and wife relationships in societies, and the views of our scientists on the formation of the family as a social institution.

Key words: family, marriage, society, value, husband and wife relationship, social institution, matrimony.

Kirish. Tarixiy taraqqiyot shuni ko‘rsatadiki, oila jamiyat va davlat taraqqiyotining muhim omili ekanligi, insoniyat taraqqiy etishi natijasida oilaning ijtimoiy funksiyalari ham o‘zgarib, jamiyatdagi o‘rni mustahkamlanib borishi tahlil etilgan. Bizda azal-azaldan oila eng muqaddas, mo‘tabar maskan hisoblanib, jamiyat uchun yetuk hamda komil shaxslarni tarbiyalash ajdodlarimizning yuksak burchi va mas’uliyati sanalgan. Demak, oila jamiyatning tabiiy hujayrasi, ijtimoiy asosidir. Oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo‘lib, tez rivojlanadi. Jamiyat va shariatdagi huquqiy ko‘rsatmalar inson hayotini muayyan tartibga solib turuvchi mezonlar hisoblanadi. Inson hayotda yolg‘iz yashay olmaydi. Juft holda, er-xotin bo‘lib yashashning qonun-qoidalarini, shar‘iy hukmlarini teran anglab olish o‘sha oilaviy hayotning baxt-saodatini ta’min etishi mumkin. Jamiyat tayanchi va asosi bo‘lgan oila institutining mustahkamligini ta’minlovchi asos – bu nikoh. Avvalo, shuni aytish joizki, nikoh shartnomasi tarixi uzoq moziya borib taqaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Oilaviy munosabatlarining dunyoviy va diniy muammolari doimo olimu fuzalolar, tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga jalb etib kelgan. Oilaning milliy, diniy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar tizimida tutgan o‘rni, barkamol avlodni tarbiyalashdagi roli klassik va hozirgi zamon falfasifi tafakkur taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Mazkur masalaning tarixiy ildizlari: “Aves-

to”, “O’rxun-Enasoy bitiklari”da hamda Aflatun, Aristotel, Konfutsiy qarashlarida, Sharq mutafakkirlari - Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Abdurahmon an Nasoiy, Hakim Termizi, Sulaymon Bo-qirg’oniy, Ahmad Yassaviy, Muhammad Huzuriy, Rizouddin ibn Faxruddin, Amir Temur [1] kabi arboblar va allomalarning ko‘plab asarlarida alohida o‘rin olgan. Ayniqsa, o’sha davrda yashab ijod etgan Ahmad Yugnakiy, Imom G‘azzoliy, Farididdin Attor, Husayn Voiz Koshifiy, Maxdumi A’zam, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida oilada milliy, diniy tarbiya masalalariga oid ibratli fikrlar bayon qilingan. Diniy manbalarda oilaning mohiyati, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ota va onalarning mas’uliyatlari, farzandlarning burchi, oiladagi odob-axloq, odob tarbiyasining teologik nazariy-metodologik asoslari ko‘rsatilgan. Qur’oni karim, Hadislarning mustaqillik davrida o‘zbek tilida nasr etilishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Demokratiya, fikr erkinligi, e’tiqodiy bag‘rikenglikka katta e’tibor berilayotgan hozirgi kunda oila munosabatlariga asos bo‘lgan umuminsoniy-dunyoviy va diniy qadriyatlarni falsafiy tahlili zaruriy holga aylanmoqda. Zero, oila munosabatlarini sof dunyoviy yoki diniy hodisa sifatida qarash ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish masalaga bir tomonlama yondashishdir. Oilaning paydo bo‘lishi va uning rivojlanishi tendensiyalari O’rta Osiyo xalqlari shakllanishi jarayonida quyidagi ko‘rinishda vujudga kelgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar oilaning ijtimoiy institut sifatida tashkil topishi haqidagi tarixiy manbalar olimlarimiz tomonidan quyidagi bosqichlarga bo‘lib o‘rganilgan:

- birinchi bosqich – Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelgungacha mavjud bo‘lgan ta’limotlar (yahudiylik, zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik);
- ikkinchi bosqich – IX–XII asrlarda, ya’ni, islom Uyg‘onish davridagi ta’limotlar (Qur’oni karim, Hadislari, pandnomalar, mutafakkirlarning ta’limotlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino);
- uchinchchi bosqich – XIV–XV asrlar, ya’ni, Amir Temur va temuriylar davrida mavjud bo‘lgan ta’limotlar;
- to‘rtinchi bosqich – xonliklar davridagi ta’limotlar (XVI–XIX asrlar);
- besinchi bosqich – Markaziy Osiyo Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingen davrdagi ta’limotlar (XIX asr 60-yillarining oxiri va 1917-yilning Oktabr inqilobi davrigacha mavjud bo‘lgan ta’limotlar);
- oltinchi bosqich – Ittifoq davridagi ta’limotlar (1917-yil Oktabr inqilobidan 1991-yil avgust oyiga gacha mavjud bo‘lgan ta’limotlar);
- yettinchi bosqich – Mustaqillik davri, ya’ni, 1991-yilning sentabr oyidan 2016-yilga qadar bo‘lgan davr;
- sakkizinchi bosqich – 2017-yildan hozirgi davrgacha bo‘lgan islohotlar.

“Avesto”da oila va uning vazifalari haqida ahamiyatli ma’lumotlar mavjud. Qadim ajdodlarimiz tabiat bilan uyg‘unlikda yashagan, o‘zlarini atrof-muhit bilan bir tan, bir jon deb hisoblagan. “Yosh kelin eriga go‘dak hadya etganiday, er ham uni chap va o‘ng qo‘li bilan parvarish qilgan odamga mo‘l-ko‘l hosil beradi. Ishlov berilmagan va ekilmagan yer, ersiz va farzandsiz johil qiz kabi baxtsizdir. Qiz yaxshi erni orzu qilganiday, er ham yaxshi qo‘shchiga ilhaq” [2]. “Avesto”da oila mustahkamligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotinning majburiyati, nikoh tuzish va bekor qilishning qonun-qoidalari batafsil qayd qilingan. Unda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik, ota-on, keksalar maslahatiga qulqoq tutish kabi fikrlar berilgan.

Oilaning tarixiy asoslari haqida so‘z yuritganda, diniy qadriyatlар va xalq ijodiyotiga oid manbalar muhim ahamiyatga ega. G‘oyat uzoq taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati IX–XII asrlarda yangi kamolot pallasiga qadam qo‘ydi. Bu davr Sharq Uyg‘onishi deb atalib, uning mohiyatini islom madaniyati tashkil etadi. Islom madaniyati (yoki ba’zi manbalarda islom mintaqa madaniyati) turkiy, eroniy va arabiylar yashagan ulkan hududda siyosiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy hamkorlikni vujudga keltirdi, xalqlarni bir-biriga tanitdi va yaqinlashtirdi. Ularga mansub bo‘lgan arabiylar, forsiy va turkiy tillar o‘rtasida assimilasiya jarayoni yuz berib, tillarning lug‘at tarkiblarida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Fanda jahon ilmiy yutuqlariga suyangan yangi yo‘nalish va ta’limotlar vujudga keldi. “Bu yagona mintaqa madaniyatini birlashtirib turgan ichki bosh ma’naviy omil tavhid e’tiqodini borgan sari teranroq va mukammalroq tushunishga intilish edi” [3].

Johiliyat davrida, ya’ni, islomdan oldingi zamonlarda erkak va ayolning, oilaning jamiyatda tutgan o‘rni bahsli munozaraga aylangan. Ayollar jinsiga past nazar bilan qaralganini eslasak, “Qur’on”dagi ilohiy hukmlarning ahamiyati beqiyos. Oyatlarda oiladagi er va xotinning shar‘iy o‘rni belgilab berilgan. Shariat hukmiga ko‘ra, er, birinchi navbatda, oilaning barcha moliyaviy va ma’naviy masalalariga mas’ul bo‘lib, turli-tuman xurujlardan himoya qiladigan shaxsdir. Erkak tadbirkorlik, vazminlik, og‘ribbosiqlik kabi xislatlari tufayli oilaning boshlig‘i hisoblanadi. Xotin iffat va diyonathi, o‘z erining xonadonini obod qiluvchi hamda unga bir umr sodiq bo‘lgan pok umr yo‘ldoshidir. Qur’oni karimda erkak va ayol o‘rtasida bahs yoki kelishmovchiliklar sodir bo‘lishi mumkinligi ham ta’kidlanadi. Har bir erkak va ayol Allah taolo tomonidan berilgan iqtidorini ishga solib, shunday hollar yuz bermasligiga harakat qilishi kerak. Nizo va kelish-

movchiliklar oiladek muqaddas birlikning tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘ladi. Bundan jamiyat ham zara ko‘radi. Oilaviy munosabatlarning buzilishi bolalar taqdirini xavf-xatarga qo‘yadi. Islom ta’limotida nikoh va taloq masalasiga jiddiy e’tiborni talab qiladi. Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asarida barcha oilaviy masalalar “Nikoh” kitobi va “Taloq” kitobi” [4] deb nomlangan ikki yirik bo‘limda keltirilgan. Oilaning jamiyatda tutgan o‘rni, oila tarbiyasi, ota-onva farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, oilaning pokligi va mustahkam bo‘lishiga oid qimmatli fikrlar hadislarda muhim o‘rin egallaydi.

Forobiy oila, shaharni inson tanasidagi a’zolarga qiyoslaydi. A’zolar tabiatini, holati va harakatiga ko‘ra turliche bo‘lib, yagona maqsad, ya’ni inson tanasi faoliyatini ta’minalash maqsadida o‘zining ma’lum ishini bajarishi haqida ma’lumot beradi. Demak, biror mamlakatda o‘nlab shaharlar, bu shaharlarning har birida yuzlab va minglab oila va xonadonlar yashashi tabiiy hol bo‘lib, garchi bu uy yoki shaharlar har xil, biri ikkinchisini takrorlamaydigan bo‘lishiga qaramay, ular o‘zaro birikib, shahar yoki mamlakatni tashkil etadilar hamda uni takomillashtiradilar [5].

Natija va muhokama. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, yer yuzida bundan 4 milyard yillar muqaddam hayot nishonalari, jonzodlar yuzaga kelgan. Hozirgi zamona odamlarining dastlabki ibtitidoyi aj-dodlari (Homo-sapiens) fikirllovchi odam bundan 3 million yillar muqaddam shakllangan. Uzoq muddat davom etgan ibtidoiy taraqqiyotdan so‘ng asta-sekinlik bilan ibtidoiy jamoalar, kishilik jamiyatlar yuzaga kela boshlagan va odamlar o‘rtasida dastlabki o‘zaro munosabatlar, muloqotlar shakllana borgan. Lekin ularni hali tom ma’noda insoniy munosabatlar deb bo‘lmash edi.

Umuman, erkak va ayollarning bir-birlariga nisbatan qarama-qarshi jins vakillari sifatida o‘zaro munosabatlarining ilk ko‘rinishlarida, ya’ni, nikoh munosabatlarining yuzaga kelishining ilk bosqichlarida jinslar o‘rtasidagi munosabatlar, asosan, biologik omillar bilan boshqarilgan. Xuddi maymunlarda bo‘lgani kabi, ibtidoiy odamlarning ayollarini ham vaqt-i-vaqt bilan, qisqa muddatli (oy davomida 4–5 kungacha, faqat ayrim turlardagina 19 kungacha) «estrus» degan holatni, estrus davrini his qilganlar (estrus – qo‘shilishga moyillikning shiddatli, kuchli nomoyon bo‘lishi). Bunday kunlarda ayollar kimni xohlasa, o‘shalar bilan farqlab o‘tirmay qo‘shilaveragan, qolgan kunlari esa qo‘shilish bo‘Imagan. Odamlarning tik yurishga o‘tishi bilan odam organizmida ro‘y bergen o‘zgarishlar, «ilk ayollarni» ko‘z yorish jarayonida ko‘p nobud bo‘lishiga va oqibatda odamlar to‘dasida ularni sonining keskin kamayib ketishiga olib kelgan. Shu tufayli erkaklar o‘rtasida ko‘plab nizolar yuzaga kelgan, ularning ko‘philigi qonli to‘qnashuv ishtirokchilaridan birining nobud bo‘lishi bilan tugagan. Bunday tabiiy tanlanish estrus hodisasi uzoqroq muddat davom etgan urug‘larning ko‘proq yashab qolishiga olib kelgan.

Tadqiqotda hozirgi odam tushunadigan, his qiladigan “sevgi” hissining ilk elementlari, ayollarning shu holati xususiyati evaziga insoniyat ruhiyatiga singib borgan. Shulardan so‘ng, asta-sekinlik bilan, garchi hech qanday ijtimoiy me’yorlar bilan boshqarilmasa-da, bir-birlarini shahvoniy ma’qul ko‘radigan juftlardan iborat unchalik katta bo‘Imagan guruuhlar tashkil topa boshlaydi. Shunday qilib, estrusning uzayishi hamma uchun ham qulay, ma’qul bo‘Imagan. Bu esa urug‘ tarkibiga kiruvchi erkaklar o‘rtasida yana janjalilar, qon to‘kilishlarga sabab bo‘ladigan holatlarni keltirib chiqargan. Odamlar jamoasi xo‘jalik faoliyatining jiddiy buzilishi, urug‘ning yashab qolishi uchun xavfning ro‘yobga chiqishiga olib keldi. Shu tarzda yuzaga kelayotgan jamiyatda, urug‘ ichidagi jinsiy muloqotni boshqarish, biologik instinkt, zoologik individualizmni jilovlash uchun maxsus ijtimoiy me’yorlar shakllana boshladidi. Ana shunday ijtimoiy me’yorlardan biri mazkur urug‘ ichida erkak va ayollarning jinsiy muloqotlarini ma’lum bir muddatga (ovga tayyorlanish, ov vaqtlarida) taqiqlovchi “jinsiy tabular” (taqiqlash)ning yuzaga kela boshlaganligidir.

Tabu [6] – axloqiy me’yorlarga qaraganda ancha jiddiy va qattiq taqiq. Axloqiy me’yorlarni buzuv-chilarni jamaoa jazolashi, uni yo‘q qilib yuborishi ham yoki kechirib tirik qoldirishi ham mumkin. Ko‘pincha, esa “tabu”larni buzganlar, ular buni bilib qilganmi yoki bilmaymi bundan qat’i nazar, so‘zsiz, jazolangan, yo‘q qilib yuborilgan. Ishlab chiqarishdagil jinsiy “tabu”larning yuzaga kelishi urug‘o‘rtasida erkak va ayolni maishiy ajratib qo‘yish bilan kuzatiladi. Tabu vaqtida erkaklarga nafaqat ayollarga teginish, balki ularga qarash, ular bilan gaplashish, ular tayyorlagan ovqatni iste’mol qilish, hatto ular bilan bir tom ostida, ya’ni «bir uyda» bo‘lish taqiqlangan. Dehqonchilikning yuzaga kelishi, mavsumiy dala ishlarning ortib borishi bilan jinsiy tabulardan xoli vaqtlar borgan sari kam muddatli bo‘lib boravergan. Erkaklarda ham, ayollarda ham jinsiy zo‘riqishning jadalligi ortib borgan. Shuning uchun tabulardan holi qolgan vaqt oraliq‘i o‘ziga xos shahvoniy aysh-u ishratlarga aylana borgan. Atoqli psixolog Z.Freyd bu davrni, o‘z navbatida, bayramlarga qiyoslagan. Chunki aksariyat bayramlarda, boshqa kunlari taqiqlangan deyarli barcha nar-saga ruxsat beriladi. Bu bayramlarda hech nima bilan cheklanmagan, jo‘shqin jinsiy muloqotlar amalga oshirilgan. Shunday qilib, qisqa muddatli estrus yuzaga kelgan, biroq endi bu estrus biologik sabablar bilan emas, ijtimoiy sabablar bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu vaqtarda hali na nikoh va na oila mavjud bo‘Imagan. O‘z navbatida, tabular, keyinchalik, nikohning ilk turlaridan bo‘lmish ekzogam nikohlarni yuzaga keltiradi (ekzogam nikoh – urug‘lararo, qabilalararo nikoh). Chunki tabular faqat o‘z urug‘i uchungina taalluqli bo‘lib,

unda qon-qarindoshlar o'rtasida jinsiy muloqot taqiqlangan, boshqa qabila yoki urug‘ a’zolariga esa taalluqli bo‘lmagan. Shuning uchun erkaklarga qayerdadir, ovloq joyda boshqa urug‘ga mansub bo‘lgan ayolni uchratib qolib, undan shahvoniy obyekt sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan. Mabodo, erkaklar uzoq muddat qishloq xo‘jalik ishlari bilan band bo‘lgan vaqtlarida biron-bir begona erkak bilan ayollar ham bu ishni qilishgan. Tabu davom etayotgan davrda bir urug‘ erkagi o‘z ayollaridan uzoqda, o‘z kulbasida boshqa urug‘ga mansub ayolni saqlashi mumkin bo‘lgan. Keyinchalik, bu tasodifiy aloqalar qabila qoidalarida odatiy, zaruriy, ko‘zda tutilgan odatlarga aylanib bordi. Bu o‘rinda odamlarga, bu «boshqa urug‘dagilar» bilan bo‘lgan aloqalardan tug‘ilgan nasllar nisbatan bo‘ydor, baquvvat abjir ekanligi sezilib bordi. Bu aynan hozirgi zamon odami gomosapiens shakllana boshlagan davrga, taxminan, bundan 42–45 ming yillar muqaddamga to‘g‘ri keladi. Shunday qilib, endogamiya (faqat bir urug‘ vakillari o‘rtasidagi jinsiy aloqa)dan, agomamiya, ya’ni, jinsiy munosabatlarning vaqtinchalik taqiqlanishi orqali ekzogamiya (turli qabila vakillari o‘rtasidagi muntazam jinsiy aloqa) yuzaga keldi. Bundan nikohning guruhli nikoh (dualno rodovoy) turi yuzaga kelgan. Guruhli nikohda bir urug‘ erkaklari boshqa urug‘ning barcha ayollari uchun er va aksincha, ikkinchi urug‘ning erkaklari birinchi urug‘ ayollarining erlari hisoblangan. Guruhli nikohning yuzaga kelishi qaytanga nikoh juftlari doirasini ma’lum bir guruh a’zolari bilangina chegaralab, birmuncha, qisqartiradi. Bunday hollarda boshqa urug‘dagi «erkak» bu qabilaga faqat bitta maqsadda, «nikoh» maqsadidagina kelar edi, o‘zlar esa ona oilalarida yashardi va ishlashardi, ular o‘zlarining «xotin»lari yashaydigan oilada hech qanday huquqqa ega emas edilar.

Sivilizatsiyalar tarixi shuni ko‘rsatadiki, oila – jamiyat va davlat taraqqiyotining asosi. Insoniyat paydo bo‘lishi va rivojlanishini tahlil etish jarayonida ma’lum bo‘ldiki, uni shakllanishi va taraqqiy etishida oila institutining ahamiyati kattadir. Qadimgi davrda oila insonni himoya qilish (ko‘payish, ovqatlanish, yirtqichlardan himoya) vazifasini bajarib kelgan. Tarixiy taraqqiyotni o‘zgarishi najijasida oilaning ijtimoiy funksiyasi ham o‘zgarib, jamiyatdagi o‘rni mustahkamlanib bordi. Bizda azal-azaldan oila eng muqaddas va mo‘tabar maskan bo‘lib, jamiyat uchun yetuk shaxslarni tarbiyalash mas’uliyati hisoblangan. Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan shiddatli axboriy o‘zgarishlar, hayotimizga kirib kelayotgan kommunikatsion yangilanishlar oilalarimizdagi asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan yuksak insoniy an‘analarimizga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Hozirgi davrda bola tarbiyasida, ayniqsa, qalbida vatanparvarlik, odamiylik, iymone-tiqod tuyg‘ularini uyg‘otib, oila qarshisidagi mas’uliyatni his qilishi, oilaviy hayotning murakkab jihatlarini anglash, har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tishiga o‘rgatishimiz lozim. Oila fuqarolik jamiyatining harakat nuqtasi, barqaror va tinch tuzilmasidir. Chunki bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunyoga keldi, balki u ma’nab va axloqan tarbiya topadi. Oila jamiyatning tabiiy hujayrasi, ijtimoiy asosidir.

Oila, uning jamiyatdagi o‘rni to‘g‘risida mutafakkir va mutasavviflar turli xil fikrlar bergen. Bu borada jadid ma’rifatparvarlarining qarashlari alohida o‘ringa ega. Jadid namoyandalari inson va mamlakatning taqdiri, yuksalishi yoki tanazzuli oilaviy muhitga uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy maqolalarida jamiyatning ma’naviy qiyofasi oilalarga bog‘liqligi atroficha tahlil etilgan. Abdurauf Fitrat o‘zining “oila yoki oila boshqarish tartiblari” risolasida “Kim badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga katta dushmanlik qilgan bo‘ladi” degan edi [8].

Agar oilada sog‘lom turmush tarzi ustuvor bo‘lib, farzand har jihatdan to‘g‘ri tarbiya topgan bo‘lsa, u shubhasiz o‘zidagi ijobjiy fazilatlarni xizmat jarayoniga ko‘chiradi, ijtimoiy mehnat faoliyatida qo‘llaydi, natijada jamiyatdagi barcha munosabatlarga ta’sir o‘tkazadi. Oila go‘zal odob-axloq, xushmuomalalik, samimiylilik, mehnatsevarlik, ilm-ma’rifat asosiga qurilsa, ijtimoiy munosabatlarga muntazam ta’sir etib,unga kuch-quvvat beradi. Tarbiyali insonning so‘zi, fikri, odobi, xulqi, axloqi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar xarakteriga ta’sir etib, Forobiy ta’kidlaganidek, fozil odamlar jamoasining shakllanishiga zamin hozirlaydi. Behbudiyning “Hifzi sihati oila” (“Oila sog‘lig‘ining himoyasi”), Abdusalom Azimiyning “Ta’lim va tarbiya”, Ibratning “Millatni kim isloh etar?” kabi maqolalari oila tarbiyasiga oid muhim muammolarni ko‘tarib chiqqan [9]. Abdusalom Azimiyning “...bolaga ona birinchi omil va murabbiydir. Onani ta’siri bolaga, otani ta’siridan ziyodadur. Chunki ona bolani bir necha oylar qani birla g‘izolanturur. Bahdaz tavallud sana-larcha suti birla parvarish etar. Muddatlarcha og‘ushi mushfiqonasiga tarbiya etar. Bu sababli bola ona tarbiyasida bo‘lg‘usi ovonlarda muhitiga muvofiq holda tabiatlanur, ki bul tabiat va odat agar nomahqul holda bo‘lunsa, katta bo‘lganidan so‘ng islohi mushkuldir” [10].

Jadidchi ma’rifatchilar yangi davr va yangi tuzum uchun kurashni, eng avvalo, oilani isloh qilishdan boshlamoq zarur, deb hisobladilar. Oila asosini to‘g‘ri qurmoy turib va yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog‘liq [11].

O‘zbek xalqining oilaviy turmushga xos tarixiy taraqqiyot davomida orttirgan tajribasi, turmush tarzini maqsadga muvofiq tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi Y.I.Semenovning “Nikoh

va oilaning kelib chiqishi” asarida oila shakllanishining tarixiy bosqichida ishlab chiqarish faoliyati yaxshi bo‘lishi uchun munosabatlarining ma’lum tizimi bo‘lishini talab qilgan. Ya’ni, xususiy mulkchilik munosabatlari, nafaqat taqsimlash, balki ishlab chiqarish birlashma a’zolari o‘rtasida jinsiy munosabatlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan [12].

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, oilada qadriyatlarimizning mazmun-mohiyati chuqr tasavvurlar shakllantirilsa, yoshlar ongi, tarbiyasi, ularning dunyoqarashi va turmush tarzida ijobjiy o‘zgarishlar bo‘ladi. Oilada yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyati tizimini takomillashtirishga innovatsion yondashuv jamiyatning ma’naviy-axloqiy, ta’lim-tarbiya taraqqiyotida muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda [13]. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida “...yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqsadlari, hayotiy manfaatlari, avvalambor, uning farzandlari timsoldida namoyon bo‘ladi, ro‘yobga chiqadi”, degan fikrlari yosh avlod tarbiyasiga har doimgidan ham ko‘proq mas‘uliyatli va befarq bo‘lmaslikni talab etadi [14]:

- oila – jamiyat va davlat taraqqiyotining muhim omilidir;
- insoniyat taraqqiy etishi najijasida oilaning ijtimoiy funksiyalari ham o‘zgarib, jamiyatdagi o‘rni mustahkamlanib bordi;
- oilaga bo‘lgan e’tibor har qaysi davrda ham, jamiyatda ham dolzarb bo‘lgan;
- oila instituti avlodlar orasidagi vorisiylik ko‘prigidir;
- aynan oiladagi vorisiylik, dunyo tamaddunining asosi bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). “Avesto”. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. T., “Sharq”, 2001.
- (2). Платон. Соч. в 3-х томах, М., 1871, т. 3, ч. 1.
- (3). Аристотел. Сочинения. В 4-томах, М., “Мысль”, 1983.
- (4). Beruniy Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, 1-jild, T., 1968.
- (5). Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. T., 1993.
- (6). Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1-jild, tuzuvchilar: U.Karimov, H.Hikmatullaev. T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1992, 3-jild.
- (7). Al-Buxoriy. Al-Jomi as-sahih (ishonarli to‘plam). 4 jildlik, T., Qomuslar bosh tahririyati, 1991–1999.
- (8). At-Termizi. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993.
- (9). Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992.
- (10). Rizouddin Ibn Faxruddin. T., “Cho‘lpon”, 1993.
- (11). Amir Temur Ko‘ragon. Zafar yo‘li. T., “Nur”, 1992.
- (12). Mahmudov T. “Avesto” haqida. Toshkent, «Sharq», 2000, 38-bet.
- (13). Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T., «Sharq», 1998, 160-bet.
- (14). Marg‘inoniy B. Hidoya, 1-jild. Nikoh kitobi. 645-bet; Taloq kitobi. 763-bet; Toshkent, «Adolat», 2000.
- (15). Forobi. Risolalar. Toshkent, “Fan”, 1975; Forobi. Fozil odamlar shahri. Toshkent, A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
- (16). Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. 1915, 24-bet.
- (17). Oyina. Toshkent, “Akademiya”, 2001, 4–41–49-betlar.
- (18). Alimova D. Oila poydevori haqida risola (asarning ikkinchi nashriga kirish so‘zi). Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2000, 4-bet.
- (19). Семенов Ю.И. Происхождение брака и семьи. М., 1974.
- (20). Davronova D.S. Oilada yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish tizimiga innovatsion yondashuv muhim ijtimoiy masala sifatida. T., 2017, 24 – 25-betlar.

IQTISODIYOT

Navruzov Anvarbek Kuralboevich (Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi) TIJORAT BANKLARINING KREDITLAR, MUAMMOLI KREDITLAR VA ULARNING O'ZGARISHINING TAHLILI MASALALARI

Annotatsiya. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitiida tijorat banklarining muddati o'tgan qarzlarini kamaytirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Keyingi yillarda muammoli kreditlarning salmog 'ining oshayotganligi, ularning vujudga kelishining ichki va tashqi sabablarini ochib berish va kredit portfelini sog'lom-lashtirish asosida banklar raqobatbardoshligini oshirish ularning boshqarishning eng samarali usuli ekanligi asoslangan. Shuningdek, kredit portfelidagi mavjud muammoli kreditlar tahliliga tayanib, ularni kamaytirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank faoliyati barqarorligi, kreditlash, muddati o'tgan qarz, muammoli kredit, kredit monitoringi, kredit xatari.

Аннотация. Анализируются пути снижения просроченной задолженности коммерческих банков в условиях либерализации экономики. В последние годы увеличение веса проблемных кредитов, выявление внутренних и внешних причин их возникновения, повышение конкурентоспособности банков на основе здоровья кредитного портфеля базируется на том, что это наиболее эффективный способ управления ими. Также на основе анализа существующих проблемных кредитов в кредитном портфеле разработаны практические предложения и рекомендации по их сокращению.

Ключевые слова: стабильность деятельности банков, кредитование, просроченная задолженность, проблемный кредит, мониторинг кредитов, кредитные риски.

Annotation. The ways of reducing overdue debt of commercial banks in the context of economic liberalization are analyzed. In recent years, the increase in the weight of problem loans, the identification of internal and external causes of their occurrence, and the increase in the competitiveness of banks based on the health of the loan portfolio is based on the fact that this is the most effective way to manage them. Also, based on an analysis of existing problem loans in the loan portfolio, practical proposals and recommendations for their reduction have been developed.

Key words: banking stability, lending, overdue debt, problem loan, credit monitoring, credit risk.

Kirish. Iqtisodiyotning qon tomirlari hisoblangan banklar hozirgi davrda eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan tizimlardan biridir. Samarali bank faoliyatida uning aktivlar sifati va hajmi, xususan, kredit risklarni kamaytirish, asosan, turli sabablar bilan yuzaga keladigan muammoli kreditlar bilan ishlash usullarini takomillashtirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2024-yil boshida "Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar" yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu masalaga katta e'tibor qaratgan. Banklar faoliyatidagi resurslar yetishmasligi yoki foizlar yuqoriligidan ham o'tkir masala, bu muammoli kreditlar bo'lib, ular "muammoli kreditlarni undirishni o'zidan 25 trillion so'mlik kreditga resurs topsa bo'ladi" deb ko'rsatdi [1].

Muammoli kreditlar xavfini boshqarish, birinchi navbatda, bank mutaxassislari tomonidan mijozlar tarkibi, ularning kreditbardoshlik layoqatini aniq baholash kredit loyihasining asoslilagini aniqlashning samarali usuli hisoblanadi. Bu usullar, tijorat banklarining kredit portfelidagi mavjud muammoli kreditlarni undirish amaliyotini takomillashtirishni taqozo qiladi va bank tizimini rivojlantirishning muhim shartlariдан biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiyotda bozor munosabatlarining shakllanishi bilan tijorat banklaridagi muammolligi kreditlar sohasida tadqiqotlar o'tkazishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Bank tizimida muammoli kreditlar tahlilini turli usullar yordamida tadqiq etish xorijiy tadqiqotchilaridan Xerring R.Dj., Greppe Dj.M., Karele G.V., Riddou T.Dj., Viatt SB., Grivz R. shuningdek, MDH tadqiqotchilaridan Lavrushina Y.S., Nurzat O.A., Lykova N.M., Kovanyov A.A., Yashin M.V., Slavyanskiy A.V., Kuznisov S.V.lar nomlari bilan bog'liq.

Mamlakatimizda tijorat banklaridagi kredit xavfi va muammoli kreditlarni boshqarish hamda ularning sonini minimallashtirish, modellashtirish va prognozlash bilan bog'liq muammolar T.M.Karaliev, U.A.Tuxtabayev, K.A.Muxamedjanov, A.T.Doschanov va boshqalar tomonidan tahlil qilingan.

Tadqiqotchi Kuznisov S.V. (2008) ilmiy ishida shunday deydi: "Muammoli kredit – bu qarzdor o'z majburiyatlarini bank bilan qabul qilingan bitimlar va kelishuvlarga muvofiq, to'liq bajara olmaydigan kreditdir, shuning uchun qarzdorning kredit majburiyatları bo'yicha muddati o'tgan to'lovlar bank uchun qisman yoki to'liq yo'qotish xavfi mavjud demakdir" [2].

Y.Y.Platonov va S.Y.Zaychenkolar (2011) tadqiqotlari natijasidan kelib chiqib, muammoli kreditlar sonining ko‘payishi bank kredit portfeli sifatining yomonlashuviga, qo‘shimcha xarajatlar, kam foyda yoki yo‘qotishlarga olib kelishi mumkinligini hamda muammoli aktivlarni boshqarish ishlarini eng samarali vositalardan foydalangan holda tashkil etish lozimligi bildirishgan [3].

Muammoli kreditlar sohasidagi tadqiqotchi A.V.Slavynskiyning (2009) fikriga ko‘ra, “Muammoli kredit” – bu qarz oluvchi qarzni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarish bo‘yicha kredit shartnomasi shartlarini bajar-magan, shuningdek, bank ham shartnomaga shartlarini qarzdor tomonidan bajarilmasligiga yetarli asoslarga ega bo‘lgan kreditdir” [4].

O.A.Yusupovaning (2016) ilmiy maqolasida muddati o‘tgan qarz nafaqat qiyin moliyaviy yoki kutilmagan holatlар tufayli, balki mijozning chalg‘ishi tufayli ham yuzaga kelishini, natijada u pul mablag‘lari va imkoniyatga ega bo‘la turib, to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshirishni unutishini asoslagan [5]. Qoida tariqasida, bunday holatlarda muddati kechikkan qarz ko‘pi bilan besh – yetti ish kunida kredit inspektori tomonidan qarz oluvchiga yo‘llangan SMS xabarnomasi yoki telefon qo‘ng‘irog‘i orqali yetkazilgan xabar orqali bartaraf etiladi.

V.V.Mazurinning (2016) ilmiy maqolasida muddati o‘tgan kredit qarzdorning joriy shartnomasi bo‘yicha qarzni to‘liq va o‘z vaqtida qaytarmaslini ta’kidlagan. Shu bilan birga, muammoli kredit tushunchasi, asosan, qarz oluvchining kreditga noto‘g‘ri yondashuvi tufayli bank uchun moliyaviy zararlarning yuqori darajasi bilan bog‘liqligi va bu holat, ko‘pincha, qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashishi bilan bog‘liqligini ta’kidlab o‘tgan [6].

Bazel qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, muammoli kredit – bu qarz oluvchining bank oldidagi majburiyatlarini bajarish muddatlarining sezilarli darajada buzilishi, qarz oluvchining moliyaviy ahvolining sezilarli darajada yomonlashuvi va garov sifatining sezilarli darajada pasayishi yoki, hatto yo‘qotilishi bo‘lgan kreditdir [7].

U.A.Tuxtaboyev va A.T.Doschanovlar muammoli kreditlarni korreksion-regression modellar asosida omilli tahlilini tadqiq qilganlar [8;9-b.].

Yuqoridagilarni inobatga oлган holda, ayni davrda mamlakatimiz tijorat banklaridagi muammoli kreditlar bilan bog‘liq holatlар jiddiyashgani nomi keltirilgan tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlar ham dolzarbligini ko‘rsatadi.

Darhaqiqat, tijorat banklaridagi mavjud muddati o‘tgan va muammo tusini oлган bunday kreditlar nafaqat aktivlar sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki kreditlarni qaytarmaslik xavfini kuchaytirish bilan birga, banklar barqarorligi va xavfsizlik reytingini ham keskin tushirib yuboradi.

Tahlil va natijalar. Bank tizimida muammoli kreditlar (NPL) ulushi 2024-yil 1-yanvar holatiga 3,5 foizni tashkil etgan va ko‘rilgan bir qator chora-tadbirlar asosida bu ko‘rsatkich 2022 va 2023-yillarning mos davriga nisbatan 1,7 va 0,1 bandga pasaygan [10].

I-jadval

Tijorat banklarining kreditlar, muammoli kreditlar va NPLlarning jami kreditlardagi o‘zgarish dinamikasi

| Sana | Kreditlar | | | Muammoli kreditlar (NPL) | | | Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda | | |
|------------|-----------|------------------------------|----------------|--------------------------|------------------------------|----------------|--|------------------------------|----------------|
| | jami | shundan | | jami | shundan | | jami | shundan | |
| | | davlat ulushi mavjud banklar | boshqa banklar | | davlat ulushi mavjud banklar | boshqa banklar | | davlat ulushi mavjud banklar | boshqa banklar |
| 01.01.2020 | 211 580,5 | 186 630,3 | 24 950,2 | 3 169,1 | 2 809,0 | 360,1 | 1,5 | 1,5 | 1,4 |
| 01.01.2021 | 276 974,8 | 244 483,9 | 32 490,9 | 5 784,8 | 5 167,6 | 617,2 | 2,1 | 2,1 | 1,9 |
| 01.01.2022 | 326 385,6 | 280 073,6 | 46 311,9 | 16 974,0 | 15 068,8 | 1 905,2 | 5,2 | 5,4 | 4,1 |
| 01.01.2023 | 390 048,9 | 324 680,8 | 65 368,2 | 13 992,4 | 12 643,3 | 1 349,1 | 3,6 | 3,9 | 2,1 |
| 01.01.2024 | 471 406,0 | 333 298,0 | 138 108,0 | 16 621,0 | 13 267,0 | 3 354,0 | 3,5 | 4,0 | 2,4 |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, jami kredit qo‘yilmalarining 2024-yil 1-yanvar holatiga qoldig‘i 2020 yilga nisbatan 2 karra, 2021-yilga 70,2 foizga, 2022-yilga 44,5 foizga va 2023-yilga nisbatan esa 20,9 foizga o‘sgan. Shu bilan birga, muammoli kreditlar 2020-yilga nisbatan 5 karra, 2021-yilga 3 karra, va 2023-yilga 18,9 foizga o‘sgan, faqat 2022-yilga nisbatan 2,1 foizga kamayishga erishilgan.

2024-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklar kesimida muammoli kreditlar to‘g‘risida ma’lumotlar tahlili

| Nº | Bank nomi | Kredit portfeli | Muammoli kreditlar | Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda |
|----|-------------------------------------|-----------------|--------------------|--|
| | JAMI | 471 406 | 16 621 | 3,5% |
| | Davlat ulushi mavjud banklar | 333 298 | 13 267 | 4,0% |
| 1 | O‘zmilliybank | 99 423 | 3 098 | 3,1% |
| 2 | O‘zsanoatqurilishbank | 57 124 | 1 283 | 2,2% |
| 3 | Agrobank | 54 483 | 2 071 | 3,8% |
| 4 | Asakabank | 39 213 | 1 731 | 4,4% |
| 5 | Xalq banki | 24 549 | 1 855 | 7,6% |
| 6 | Biznesni rivojlantirish banki | 21 801 | 1 935 | 8,9% |
| 7 | Mikrokreditbank | 14 437 | 865 | 6,0% |
| 8 | Turon bank | 11 894 | 271 | 2,3% |
| 9 | Aloqa bank | 10 294 | 157 | 1,5% |
| 10 | Poytaxt bank | 79 | 2 | 2,3% |
| | Boshqa banklar | 138 108 | 3 354 | 2,4% |
| | <i>shundan:</i> | | | |
| 1 | Ipoteka bank | 37 264 | 1 733 | 4,7% |
| 2 | Garant bank | 922 | 43 | 4,7% |
| 3 | Madad invest bank | 292 | 39 | 13,2% |
| 4 | Oktobank | 249 | 212 | 85,2% |
| 5 | Eron Sedirat bank | 22 | 4 | 17,6% |

Yuqoridaagi jadvallardan ko‘rinib turibdiki, o‘tgan yilga nisbatan tijorat banklari kredit portfeli 81,4 trln. so‘mga oshgan. Kredit portfeli qoldig‘i o‘tgan yilga nisbatan eng ko‘p oshgan banklar: Kapital bank (11,1 trln. so‘m), Agrobank (10,6 trln. so‘m) va O‘zmilliybank (10 trln. so‘m). Faqtgina Garantbank va Oktobank (Sobiq Ravnaqbank) kredit portfellari qoldig‘i o‘tgan yilga nisbatan kamayib ketgan.

Respublikamiz kredit portfelida davlat ulushi mavjud banklar ulushi 71 foizni tashkil etmoqda. O‘tgan yilga nisbatan davlat ulushi mavjud banklar jami kredit portfeldagi ulushi 12 foizga kamayib, mos ravishda, boshqa tijorat banklari ulushi 17 foizdan 29 foizgacha oshgan. Iqtisodiyotda davlat ulushi mavjud banklar o‘z o‘rnini xususiy banklarga bo‘shatib berishga majbur bo‘lmoqda. Qayd etish lozimki, respublikada eng yirik kredit portfel O‘zmilliybank hissasiga to‘g‘ri keladi (21 foiz).

Muammoli kreditlar borasida esa davlat ulushi mavjud banklar ko‘rsatkichlari umumiy 10 foizga yaxshilanib, 80 foizni tashkil etgan bo‘lsa, o‘z navbatida, boshqa banklarning muammoli kreditlari qoldig‘i 10 foizga oshib, jami muammoli kreditlarning 20 foizini tashkil etgan.

Davlat ulushi mavjud banklarda muammoli kreditlar ulushi o‘tgan yilga nisbatan 0,1 bandga ko‘paygan. Boshqa banklardan esa muammoli kreditlar ulushi 0,3 bandga oshgan.

Tijorat banklari yillik hisobotlari tahlili 2024-yil 1-yanvar holatiga Asakabank, Xalq banki, Biznesni rivojlantirish banki, Mikrokreditbank, Ipoteka bank, Garant bank, Madad invest bank, Oktobank, Eron Soderot banklarning muammoli kreditlar ulushi respublika darajasidan yuqori bo‘lgan.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotlarimizga ko‘ra, tijorat banklaridagi muammoli kreditlarni undirish hamda sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyi quyidagi xulosa va takliflarni berishga asos bo‘ladi:

- banklarning kredit portfeli tarkibidagi davlati ulushi mavjud banklar va boshqa banklardagi loyihamdar sifatini oshirish choralarasi shakllantirish;

- banklarning kredit portfelida mavjud kreditlarga nisbatan stress-test amaliyotini qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish;

- muammoli kreditlarni tasniflar kesimida batafsил tahlil qilib, kredit portfeli sifatini saqlab qolish bo‘yicha samarali mexanizmini ishlab chiqish;

- tijorat banklari kredit portfellari va ular tarkibini xatlovdan o‘tkazilib, qiyin ahvolga tushib qolgan har bir mijozning moliyaviy imkoniyatlarini tiklash bo‘yicha aniq muddatli choralarini ishlab chiqish. Shuningdek, kredit portfelidagi mavjud muammoli kreditlar ulushini bartaraf etish hamda salmog‘ini kamaytirishga quyidagi samarali holatlarga e’tibor qaratilishi lozim bo‘ladi:

- qo‘sishma pul resurslari, jumladan, qo‘sishma kafolatlar yoki kafililiklar hamda mol-mulk yoki ko‘chmas mulk garovi kabi imkoniyatlardan keng foydalanish;

- garov mulkini sotish;

- mijozning aktivlarini sotish orqali kreditni qarz yoki foiz to‘lovlarini qaytarish, kam daromadli aktivlarga sarmoya jalg qilinishining oldini olish;
- layoqatsiz mijozlarga nisbatan iqtisodiy va huquqiy choralar qo‘llash;
- qarz oluvchidan qo‘shimcha mablag‘ va moliyaviy yordam jalg qilish yo‘li bilan uning kreditni qaytarish.

Umuman, bunday chora-tadbirlar qarz oluvchi va qarz beruvchilarning muammoli kreditlari banklar tomonidan ham mijozlar tomonidan boshqarilish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu yerda muammoli kreditlarni barvaqt aniqlashga, monitoringga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, shakllantirilgan barsha tavsiyalarni bank amaliyotida qo‘llash mumkin, bu muammoli kreditlarni boshqarish jarayoni samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 16-yanvardagi “Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘iliishi.
- (2). Кузнецов С.В. (2008). Судная задолженность кредитных организаций: проблемы и инструменты ее урегулирования. Автореф. дисс канд. экон. наук, М., с. 14.
- (3). Платонова Ю.Ю., Зайченко С.Е. (2011). Инструменты управления портфелем проблемных кредитов в современных условиях. “Финансы и кредит”, 4 (436), с. 29.
- (4). Славянский А.В. (2009). Управление проблемной задолженностью банка. “Аудит и финансовый анализ”, № 1, с. 303–308.
- (5). Юсупова О.А. (2016). Организация администрирования проблемной задолженности в кредитном портфеле коммерческого банка. Финансовая аналитика: проблемы и решения, 10 (292), с. 54–66.
- (6). Мазурин Владимир Викторович (2016). Механизм работы с просроченной и проблемной задолженностью розничном кредитном портфеле российских банков. Вестник университета, (6), 120.
- (7). Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining tavsiyalari. Bazel, 2001.
- (8). To‘xtabayev U.A. Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasi dissertatsiyasi avtoreferati, T., O‘zbMA, 2007.
- (9). Doschanov A.T. Muammoli kreditlarni ko‘p omilli iqtisodiy-statistika modellari yordamida tahlil qilish. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida Quyi Amudaryo mintiqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish omillari, respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Urganch, 2011.
- (10). O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik bulletini.

TILSHUNOSLIK

Kamolova Sanobar Jabborovna (O‘zbekiston davlat Jahon tillari uiversiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); e mail: sanobar6399@mail.ru)

O‘ZBEK ANTOPONIMLARINIG TARIXIY-LUG‘AVIY MA’NOLARINING IFODALANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek badiiy asarlarda qo‘llangan tarixiy antroponomilar, ya’ni ismlar, o‘zbek antoponimlarinig tarixiy-lug‘aviy muammolarini o‘rganish haqida fikrlar bayon etilgan. Maqolada o‘zbek antroponimlarining leksik-semantik xususiyatlari, ularning lug‘aviy ma’nolari va tarixiy ismlar ochib berilgan

Kalit so‘zlar: antroponim, lug‘aviy ma’no, referensiya, lisoniy birlik, onomastik leksika, onomastik ma’no, ism.

ИСТОРИКО-СЛОВАРНОЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЗНАЧЕНИЙ АНТРОПОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. В данной статье описаны исторические антропонимы, используемые в узбекских произведениях искусства, то есть названия, историко-лексические проблемы узбекских антропонимов. В статье раскрываются лексико-семантические особенности узбекских антропонимов, их словарные значения и исторические названия.

Ключевые слова: антропоним, справочник лексического значения, языковая единица, ономастическая лексика, ономастическое значение, имя.

HISTORICAL AND DICTIONARY DEFINITION OF THE MEANINGS OF ANTONYMS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation. This article describes historical anthroponyms used in Uzbek works of art, that is, names, historical-lexical problems of Uzbek antonyms. The article reveals the lexical-semantic features of Uzbek anthroponyms, their dictionary meanings and historical names.

Key words: anthroponym, lexical meaning reference, linguistic unit, onomastic lexicon, onomastic meaning, name.

Kirish. Keyingi yillarda mamlakatimizda onomastikaning nazariy va amaliy muammolarini o‘rganishga alohida ahamiyat berilmoqda. Masalan, Birgina Toshkent shahridagi ko‘chalarning nomlarini o‘qib, beixtiyor qaysi mamlakatda yurganingizni bilmay qolar edingiz: Lunacharskiy, Kirov, Voroshilov, Lopatin, Jukovskiy va hokazo. Bularning barchasi zamirida sovet mafkurasiga xos bo‘lgan, odamzotni tarixiy xotira, Vatan tuyg‘usidan judo qilishga qaratilgan g‘arazli intilishlar mujassam ekanini anglash, tushunish qiyin emas.

Holbuki, ajodolarimiz o‘zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e’tibor bergan. Misol uchun, Toshkentning o‘n ikki darvozasiga berilgan chuqur ma’noli, go‘zal nomlarni olaylik. Samarcand, Beshyog‘och, Ko‘kcha, Chig‘atoy, Sag‘bon, Labzak, Taxtapul, Qorasaroj, Kamolon, Qo‘ymas, Qo‘qon, Qashqar darvoza degan nomlar, avvalambor, o‘zining aniq tarixiy-jug‘-rofiv ma’nosini bilan ajralib turadi.

Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o‘z aksini topgan. Masalan, Toshkentning Eski shahar qismidagi Pichoqchilik, Charxchilik, Ko‘nchilik, Degrezlik, Taqasi, Egarchi, O‘qchi, Zargarlik, Parchabof singari mahalla nomlari bu yerda hunarmandchilik naqdalar rivojlanganidan, xalqimizning azaldan o‘troq hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo‘lganidan dalolat beradi.

Adabiyotlar tahlili. Shu nuqtai nazardan qaraganda, keyingi yillarda poytaxtimizda milliy tariximizga begona bo‘lgan, yuqorida zikr etilgan yasama, siyosiy nomlar o‘rniga Mirobod, Rakat, Mingo‘rik, Darxonariq, Shayxontohur, Yakkasaroy, Zarqaynar, Uchtepa kabi asl nomlarning tiklanganini, eng muhimmi, bunday ishlar mamlakatimizning barcha mintaqasi va hududlari miqyosida amalga oshirilayotganini ta’kidlash joiz”. Tarixiy nuqtayi nazardan mujassamlanuvchi atoqli otlar oldinroq, avvalroq vujudga kelgan. Masalan, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi antroponomilar bu nazariyaga ko‘ra mujassamlanuvchi atoqli otlar guruhibiga kiradi, chunki ular mamlakatimiz davlatchiligi tarixi, madaniyatida juda katta o‘rin tutgan mashhur shaxslar haqidagi timsollarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ota-onalar o‘z bolalarini ana shunday mashhur shaxslarga o‘xshashini orzu qilib qo‘yan Temur, Temurbek, Ulug‘bek, Alisher, Bobur kabi antroponomilar esa mujassamlanuvchi atoqli otlar sirasiga mansubdir.

Taniqli tilshunos M.I.Steblin-Kamenskiy qadimgi island adabiyoti materiallari asosida onomastik leksikani mujassamlanish nuqtayi nazaridan o‘rganar ekan, island adabiyotida qo‘llangan onomastik leksi-kada umuman “mujassamlanish” hodisasi bo‘limganligini qayd qiladi. Uning fikricha, har qanday atoqli ot muayyan denotatni, ma’noni ifodalab kelgan.

Bu fikrga teskari qarashlar ham mavjud, ya’ni, atoqli otlar, so‘z bo‘lgani uchun xuddi turdosh otlar kabi, xilma-xil xususiyatlarga egadir. Bunday qarash o‘z vaqtida faylasuf-stoiklar tomonidan asoslangan edi, keyinchalik, XIX asrda X.Djozef, Dj.Mill, XX asrda O.Yespersen kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi. Masalan, Daniya olimi O.Yespersenning ta’kidlashicha, “atoqli otlar turdosh otlarga nisbatan ko‘proq xususiyatlarga egadir.

Tadqiqot metodlogiyasi. Atoqli otlar o‘zida juda ko‘plab belgi-xususiyatlarni konnotatsiya qiladi”. R.Xudoyberganov o‘zbek antroponimiyasi tizimidagi variantdorlik xususiyatlari (Reyim//Rahim, Reyimbay//Rahimboy, Sharifa//Sherifa kabi) ismlarning leksik-semantik xususiyatlarini olib bergan. Ushbu maqolada bir nechta imslarning leksik-semantik xususiyatlarini olib beriladi.

Sherali//Sherali. Tarkibi sher (fors-tojik)+ali (a). Sherli ismli kishi, dastlab, hovli, qo‘rg‘on qurib, qishloq tashkil bo‘lishiga asos solgan, chorvachilik bilan shug‘ullangan, badavlat, boy, obro‘yli kishi bo‘lgan. Qishloq shu kishining ismi bilan atalgan. Xalifa Alining jasurligi, dovyurakligi uchun sherga o‘xshatgan va ollo sheri deb atagan. Qovchinlarning sherali degan urug‘i bo‘lgan degan mulohaza ham mavjud.

Eshonquduq//Eshonquduq. Tarkibi eshon+quduq. Dastlab, quduq nomi bo‘lgan. Quduq yonida tashkil qilingan qishloq ham shu nom bilan atalgan. Eshon – o‘tmishda din odami, dindorlar orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan shaxs, unvon, kishi ismi. Eshonquduq – Eshon ismiga ega bo‘lgan kishi qazdirgan quduq (yonidagi qishloq), eshon unvonli kishi qazdirgan quduq atrofidagi qishloq kabilar.

Alpomish dostonida Barchin antroponimining lug‘aviy va motivasion asosi turlicha talqin etiladi. Hozirgi ismlar lug‘atida Barchin ismi o‘zbekcha “shoyi, mato, ipak mato, parchin yoki barchin” ma’nosidagi so‘zdan olingen bo‘lib, qizlarga qo‘yilishi, “go‘zal, zebo qiz” degan ma’nolarga egaligi ko‘rsatilgan. O.Madayev, B.Do‘sqrarevvarning qayd etishicha, Barchin ismi yovvoyi o‘rdakning urg‘ochisini anglatuvchi “bovurchin” so‘zi bilan bog‘liq. Eski o‘zbek tilida “o‘rdakning makiyon” bo‘rchin deb atalgan: Da-g‘i turk o‘rdakning erkagin “so‘na” va tishisin “bo‘rchin” der (A.Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayin). Bizningcha, antroponimga ana shu bo‘rchin so‘zi lug‘aviy asos bo‘lgan. Ismning lisoniy shakllanishi quyida gicha: bo‘rchin >barchin>Barchin.

Antroponimlarga quyidagicha izoh va talqinlar berish mumkin. Boybo‘ri antroponimi boy va bo‘ri so‘zlarining qo‘shiluvidan yasalgan sof o‘zbekcha qo‘shma tarkibli ism. Boy so‘zi “davlatli, badavlat yoki hukmdor, hokim” degan ma’nolarning anglatadi. Bo‘ri so‘zi turkiy xalqlar, qadimiy odatiga ko‘ra, sog‘, mahkam bo‘lsin deb bo‘rining jag‘idan (terisidan) o‘tkazib olingen bolaga yoki tishi bilan tug‘ilgan bolaga qo‘yilgan. Boybo‘ri “sog‘, mahkam, davlatli, hukmron” kishi degani. Boysari antroponimi esa boy va sari so‘zlarining qo‘shiluvidan yasalgan. Sari so‘zi sariq so‘zining varianti sifatida “sariq rangli, sariq sochli yoki taniqli, mashhur, oqsuyaklar, aslzodalar avlodiga mansub” ma’nolarini anglatadi. Boysari “aslzodalar avlodiga mansub boy kishi” degani. Bizningcha, Boybo‘ri bo‘ri totemiga asoslangan, Boysari sari, ya’ni sariq etnonimlari asosida yuzaga kelgan deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Demak, Boybo‘ri “bo‘ri urug‘iga mansub bek, bo‘ri urug‘ining begi”, Boysari “sari urug‘iga mansub bek, sari urug‘ining begi” antroponimik ma’nolariga ega. Toychaxon antroponimiga toy so‘zining kichraytirish-erkalash shakli toycha lug‘aviy asos bo‘lgan. Ismning Toychixon varianti tarkibidagi xon so‘zi “hukmdor, boshliq, podshoh”, ismlar tarkibida ulug‘ martabali, e’zozli, obro‘li; ulg‘ayib elga bosh bo‘lsin ma’nolarini anglatadi.

Tahlil va natijalar. Demak, Toychixon antroponimi “erkatoy ulug‘ martabali, e’zozli, obro‘li podshoh” onomastik ma’nosiga ega. Masalan, Qultoy antroponimi tarkibidagi qul so‘zi o‘zbekcha bo‘lib, “xizmatchi, tobe, banda; erksiz” degan ma’nolarni anglatadi. Ism so‘zning Allohga, dinga, payg‘ambarga, sohibiga fidoyi semalari asosida shakllangan. Qultoy antroponimi “Allohning erka, suyukli bandasi yoki erka quli” degan antroponimik ma’noga ega. Qultoy timsolining hayoti va faoliyatida hambu jihat ko‘zga tashlanadi. U Boybo‘rining sodiq va erka quli, Alpomishga qul bo‘lsa-da, otadan. Kayqubod ismining lug‘aviy asoslari forscha. Antroponim tarixiy manbalarda Kubod, Qubod, Kayqubod variantlarida uchraydi va “sevimlishoh”, “haqiqat”, “adolatli shoh” ma’nolarini anglatadi. Kayqubod, dastlab, qul timsoli sifatida berilsa-da, Alpomishning yordami bilan doston oxirida shohlik martabasiga erishadi.

Demak, ismda uning kelajak taqdiri o‘z ifodasini topgan. Ko‘rinadiki, asardagi har bir timsol ismi sohibining taqdiri, xarakteri va boshqalar haqida “gapirib” turadi. Surxayil mastonning katta o‘g‘li ismi – Ko‘kaldosh lug‘aviy asosi va tarixiy-etimologik manbasiga ko‘ra, qadimgi turkiy tilga mansubdir. Odatda, bunday ism bir onani emishgan bolalarga qo‘yiladi, “emukdosh, bir onani emishgan bola, qarindosh” ma’nolarini anglatadi. Nominasion-motivasion asosiga ko‘ra, tasviriy ismlarga mansub tashqi fizioligik belgi-xususiyatlar ifodasi sifatida yuzaga kelgan qalmoq pahlavonlariga xos Ko‘kqashqa, Boyqashqa, Toyqashqa antroponimlari bir xil modelda yasalgan seriyali ismlar guruhini tashkil etadi. Bu ismlarning ikkinchi komponenti qashqa lug‘aviy birligi tarixiy-etimologik jihatdan o‘zbekcha, ko‘p ma’noli bo‘lib, “ot yoki mol peshonasidagi oq joy, oq nishona, shunday nishonali ot, mol” va ko‘chma “betning ko‘rinadigan yerida uri-

lishdan qolgan nishona, yara, chaqa” hamda ayrim so‘zlarga qo‘silib, salbiy “hamma biladigan, taniydi-gan” ma’nolarini anglatadi.

Surxayil mastonning katta o‘g‘lining ismi – Ko‘kaldosh lug‘aviy asosi va tarixiy-etimologik man-basiga ko‘ra, qadimgi turkiy tilga mansubdir. Odatda, bunday ism bir onani emishgan bolalarga qo‘yiladi, “emukdosh, bir onani emishgan bola, qarindosh” ma’nolarini anglatadi.

Xulosa qilib ayganda, o‘zbek antroponimlarinig lug‘aviy ma’nolari katta ahamiyat kasb etadi, ay-niqsa, chaqaloq tug‘ilganida ham nom berishda (ism qo‘yganda) ham ota-onha jbularni hisobga olgan. Biroq hozirgi kunda zamонави yoki boshqa tillardan o‘zlashtirilgan turli ismlar qo‘yilmoqda. Tarixiy ismlar kam-dan kam uchraydi. Nazarimizda, zamонави ismlar qo‘yamiz deb ba’zilar boshqa tillardan o‘zlashtirilgan ismlarni qo‘yishyapti, biroq bu ismlarning ma’no va mazmunini uning nechog‘lik zarur ahamiyatga ega ekanligini bilmaydilar. Shuni aytish joizki, islomiy, sharqona ismlar ham ko‘payib bormoqda. Ism qo‘ygan-da har tomonlama o‘ylab, uning ma’nosiga e’tibor berilsa, yaxshi bo‘lardi. Misol uchun, Albina, Sabina, Takmina, Amaliya, Tanzila va shunga o‘xshash. Juda eskirib ketgan ismlar emas, balki o‘z ma’nosiga ega chiroyli ismlar qo‘yilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Foydalilanligan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). S.Kamolova. Antroponim referenlarining komporativ konstruksiyalarda voqelanishi. “Ilm sarchashmalar”, Urganch davlat universiteti ilmiy-metodik jurnali, № 12, 2019, 120–123-betlar.
- (2). S.Kamolova. Fransuz antroponimlarining diskursiv-pragmatik xarakteristikasi. Falsafa doktori (PhD) il-miy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Samarqand, 2020, 28 – 30-betlar .
- (3). Yuldashev D. Topoindikatorlarning antropotsentrik talqini. O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari, respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari, Toshkent, 2018, 110–114-betlar.
- (4). Yuldashev D. O‘zbek va tojik antroponimlari tizimida tafakkur tarzi umumiyligi. Adabiy aloqalar va mada-niyatlarning o‘zaro ta’siri. Xalqaro ilmiy anjuman maqolalar to‘plami, Termiz, 2018, 189–191-betlar.
- (5). Yuldashev D. Tarixiy antroponimlarning antropotsentrik talqini. O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent, 2019, 315–320-betlar.

Rajabbaeva Feruza Rajabbaevna (Urganch Innovatsion universiteti “Ijtimoiy-gumanitor fanlar va tillar” kafedrasi o‘qituvchisi; feruza.rajabboeva@mail.ru)

MEDIADISKURSNING SEMANTIK TIPOLOGIYASINING O‘RGANILISH TARIXI

Annotatsiya. Ushbu maqola mediadiskursning semantik tipologoyasining tarixiy tadqiqiga, media-vositalariga, ommaviy axborot vositalarining ko‘p o‘lchovli bo‘lishi, ularning mohiyati to‘g‘risida turli, nazariyalar va fikrlarni shakllantirishga, ommaviy axborot vositalarida suhabat chog‘ida so‘zlarning o‘z ma’nosini yoki ko‘chma ma’nosini ifodalovchi tadqiqotlarga bag‘ishlangan va bir qancha olimlarning tad-qiqot ishlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: media, televedeniya, leksema, sememe, internet, radio.

Раджаббаева Феруза Раджаббаевна (Ургенчский инновационный университет преподаватель кафедры “Социально-гуманитарные науки и языки”; feruza.rajabboeva@mail.ru)

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ СЕМАНТИЧЕСКОЙ ТИПОЛОГИИ МЕДИАДИСКУРСА

Аннотация. Данная статья посвящена историческому изучению семантической типологии медиадискурса, медиаинструментов, многоаспектности средств массовой информации, формирования различных теорий и мнений об их сущности, употребления слов во время разговора в средствах массовой информации, исследованием, выражавшим собственный смысл или переносный смысл, и проанализировал исследовательские работы ряда ученых.

Ключевые слова: медиа, телевидение, лексема, семема, интернет, радио.

Rajabbaeva Feruza Rajabbaevna (Urganch Innovation University Department of Social and humanitarian sciences and languages; feruza.rajabboeva@mail.ru)

HISTORY OF THE STUDY OF MEDIA DISCOURSE’S SEMANTIC TYPOLOGY

Annotation. This article is dedicated to the historical study of the semantic typology of media dis-course, media tools, the multidimensionality of mass media, the formation of different theories and opinions about their essence, the use of words during a conversation in mass media devoted to the researches that express its own meaning or figurative meaning and analyzed the research works of several scholars.

Key words: media, television, lexeme, sememe, internet, radio.

Kirish. Bugungi kunni biz mediavositalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Bizni qurshab turgan dunyonagi lab yetishimizda, unga bo‘lgan qiziqishlar va dunyo bo‘ylab kerakli ma‘lumotlarni olish uchun bizga, albatta, mediavositalari juda zarur. Shu boisdan ham media sohasiga bo‘lgan qiziqish, dastlab, Buyuk Britaniyaga borib taqalgan va butun dunya bo‘ylab yildan yilga rivojlanmoqda.

Xo'sh media o'zi nima? Media atamasi lotincha so'zdan olingen bo'lib, medium, ya'ni, vosita, vositachi, usul degan ma'noni va turli ko'rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi.

Media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy auditoriya o'rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi. Ommaviy axborot vositalarining ko'p o'lchovli bo'lishi ularning mohiyati to'g'risida turli, nazaryalar va fikrlarni shakllantiradi. Ommaviy axborot vositalarining nutqi juda dolzarb hodisalarini aks ettiradi. Ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilgan barcha og'zaki va yozma nutqlar mediadiskurs deb ataladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mediadiskurs borasidagi tadqiqot ishlarining tarixi Buyuk Britaniyaga borib taqaladi. Bu borada bir qancha tadqiqot ishlari, konferensiylar bo'lib o'tgan. Bu boradagi qarashlar media sohasining rivojlanishiga juda katta hissa qo'shgan. Darhaqiqat, mediaga bo'lgan qiziqish bugungi rivojlanayotgan mamlakatlarda muhim rol o'yamoqda. Ayniqsa, internet, televiedeniya, radio, gazeta, jurnallar insonlarning hayotida axborot almashish vositasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, internet sohasidagi qarashlar juda ko'plar yoshlarning axborot maskani hisoblanadi. Shuning uchun ham biz muloqot chog'ida rasmiy va norasmiy leksik birliklardan, leksemalardan, sememalardan, iboralardan foydalanamiz. Bularning barchasi grammatik qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Masalan, televedeniyada yangiliklarda jurnalistlar, albatta, rasmiy uslubda foydalanadilar, ya'ni ommaga yetkazib berilayotgan nutq qay uslubdaligiga, so'zlarning ma'nolariga, ularni qo'llash tartibiga rioya qiladilar. Bunda so'zlarning semantik tadqiqi juda muhum ahamiyat kasb etadi va nutqni qay darajada boy va to'g'ri qo'llanilishini ko'rsatib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, media sohasidagi tadqiqotlar, dastlab, bu-yuk britanyalik tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan, mediadiskursning semantik tipologiyasi borasida jahon tilshunosligida ham bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, G.Lakoff¹ tomonidan 1969-yildagi olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, media sohasidagi kontekstual ma'lumotlar asosini grammaticumlarda muhim rol o'ynashini ko'rsatib beradi. O'sha davrning ko'plab tilshunoslari ma'no bilan bir qatorda, grammatikaning roli juda muhimligi haqida bir qancha nazaryalarni keltirib o'tadilar. Ya'ni axborot yoki muloqotning asosiy negizini so'z tashkil qiladi. So'z atamasi leksemaga nisbatan ham qo'llaniladi va leksik so'z deb yuritiladi. Masalan, "so'z yasalishi", "yasama so'z" birikmalarida "so'z" xuddi shu ma-noda qo'llaniladi. So'z ma'noga ega bo'lishi, ya'ni, muayyan til egalari shu tovushlar vositasida biror narsani anglashi yoki bir-biriga anglatishi kerak. Shuning uchun semantik tadqiqotlarda keltirilganidek, media sohasida ishlatiladigan axborotlar me'yoriy qolibga solingan va grammatik qonun-qoidalar asosida tashkil topishi lozim deb qaralgan.

S.Ostinning² 1962-yildagi olib borgan *performative tahlili* natijasiga ko'ra, "Axborot almashish uchun, ya'ni tildan foydalanuvchi asosiy vosita bu so'zlardir, bu tabiiy ravishda kontekstual o'zaro bog'-liqlikni talab qiladigan to'g'ri yoki yolg'on bayonotlar qilish uchun foydalanilmaydi", deb ta'kidlaydi.

Charles Fillmorning³ tadqiqotlari natijasidan shuni ko'rishimiz mumkunki, uning semantikaga bo'lgan qiziqishini ko'rsatib berdi. Ch.Fillmor so'z ma'nolari va ularning munosabatlari haqidagi bilimlarimizni leksik ramkalarda ifodalashni taklif qildi. Charles Fillmort lingvistik semantikani ensiklopedik bilimlar bilan bog'laydi. Asosiy g'oya shundan iboratki, bitta so'zning ma'nosini shu so'z bilan bog'liq bo'lgan barcha muhim bilimlarga ega bo'lmasdan, tushunib bo'lmaydi.⁴ Masalan, bank haqida hech narsa bilmasdan turib, kredit so'zini tushunib bo'lmaydi, bu boshqa narsalar qatorida qarzdor, likvidlilik, omonat, xodim, pul o'tkazmalar, plastik karta va pul o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, so'z o'zi tegishli bo'lgan aniq tushunchaga tegishli semantik bilim doirasini rivojlantiradi.

Shuningdek, yana tadqiqotchi tilshunos olimlardan biri V.Labovning⁵ nazaryalari esa insonning mu-loqot tiliga qaratilgan. Xususan, og'zaki diskursning "intensivlik" deb atalgan effektiv diskurs tahlilga asos solgan.

¹ Lakoff, George. On generative semantics. In D.D. Steinberg and L.A.Jakobovits (eds), Semantics: An Interdisciplinary Reader. New York, Cambridge University Press, p. 232–96.

² Ogden, C.K. and Richards, I.A. (1923). The Meaning of Meaning. London, Routledge.

³ Fillmore, Charles J. (1985). Frames and the semantics of understanding. Quaderni di Semantica: Rivista Internazionale di Semantica Teorica e Applicata, 6, p. 222–54.

⁴ Fillmore, Charles J., and Collin F.Baker. "Frame semantics for text understanding". Proceedings of WordNet and Other Lexical Resources Workshop, NAACL, 2001.

⁵ Labov William. (1984). Intensity. In D. Schiffrin (ed.), Meaning, Form, and Use in Context (Georgetown University Roundtable on Languages and Linguistics, 1984). Washington, DC: Georgetown University Press, p. 43–70.

H.Grice¹ ma'ruzachilariga asoslangan ma'no nazariyasini qo'llab-quvvatladi va u kontekstning, hatto mantiqiy bog'lovchilarning ma'nolariga qanday ta'sir qilishini ko'rsatishni davom ettirdi. Shuningdek, Grisning implikatsiya tushunchasi tilshunoslarga m'noning inferensial modellarini ishlab chiqish yo'lini berdi. H.Grice uchun muloqot kamida ikkita usuldagagi fikr yuritishni o'z ichiga oladi. Birinchi navbatda, implikaturaning kelib chiqishi deb qaralsa, ya'ni, ma'ruzachi va tinglovchi o'rtasidagi oqilona hamkorlikka bog'liq, ikkinchidan, implikaturalar fikrlash jarayoni orqali olinishi kerak. Umuman olganda, H.Grice ta'kidlaganidek, so'zlovchi ma'nosini tahlil qilish sabablarga murojaat qilishni o'z ichiga oladi, ya'ni biror narsa so'zning ma'nosini deb hisoblanishi uchun, so'zlashuvchi so'zlashda ushbu ma'noni yetkazishni maqsad qilgan deb o'ylash uchun asos bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, M.Reddi² "Transmitted metaphor" (metofara orqali yetkazish) degan tushunchani kiritgan. Ya'ni, mediadiskurs sohasidagi axborotlarni yetkazishda yoki axborotlarni qabul qilishda berilgan ma'lumotlar qanday ko'rinishdaligi yoki televideniyaga namoyish qilinayotgan tok shovlardagi diskurslar o'z ma'nosidami yoki uni ko'chma ma'noda qo'llaganmi kabi nazaryalar ustida tadqiqotlar olib borgan. Ko'p hollarda, u o'z ma'nosida qo'llanila olmaydigan axborotlarni metafora orqali yetkazishni aytib o'tgan. Nihoyat, M.Reddi aloqaning "Transmitted metaphor" deb ataladigan narsani tan olishi bizning an'anaviy "xabar modelimiz" lingvistik o'zaro ta'sirning muhim kamchiliklarini ochib berdi.

Shu bilan birga, H.Sacks va boshqa sotsiologlar 1960-yilda Jakobsonning "Metalingual nutqida" televidenya yoki rodiqdagi har kungi muloqotni doimo ta'riflash mumkin bo'lган, balki faktik mazmun va lingvistik shaklni aniqlash va tuzatish mexanizmlarini o'z ichiga olganligini aytib o'tadilar.

Britaniyalik tilshunoslar A.Duranti, M.Gudvin va E.Shevglar muzokaralar jarayoniga e'tibor qaratishadi. 1983-yillarda Lehrer va Ochs birgalikda so'zlarni ma'nolaridan kelib chiqqan holda darajalarga bo'-lishadi. Shegleff ommaviy axborot vositalaridagi suhbat chog'ida so'zlearning o'z ma'nosini yoki ko'chma ma'nosini ifodalovchi bir qancha suhbatlardan parchalar keltirib o'tgan.

M.Holiday va B.Malinovskiy³ semantik nazarya g'oyaviy ma'no bilan bir qatorda, ma'noning shaxslar aro ta'sirini ham ko'rib chiqqan. Aytaylik, intervyu berishda kishiga qanday ta'sir qilish yoki unda qanday taassurot qoldirish yoki televedeniyada efirga uzatilayotgan dunyo yangiliklarini insonlarga qanday ta'sir qilishi ularning emotsiyonal xususiyatlarining ifodalari kabi ko'rinishlar yoki shu yangilikka qanday ta'sir ko'rsatishi bu media sohasidagi so'zlearning semantik ta'siri, ya'ni shaxsga ta'siri hisoblanadi.

M.Halliday, Malinovski va Firthdan keyin mediadiskursning semantik nazariyasida g'oyaviy ma'no bilan bir qatorda, ma'noning shaxslararo va matnga bog'liqli tomonlarini ham tahlil qilishga kirishgan.

Tahlil va natijalar. Demak, tadqiqot natijalaridan biz shuni anglashimiz mumkunki, tadqiqotchi filolog Nunberg bu sohada har qanday taqdim qilinayotgan axborotdan ko'p ma'nolilik va metofara qo'lashga diqqat qaratish orqali axborot yetkazuvchining maqsadini va axborot qabul qiluvchining unga munosabatini aniqlashga erishgan. Xuddi shu nuqtayi nazardan, ko'plab tilshunoslar jumla turlari, jumlalar, konstruksiyalar, hatto so'zlar uchun da'vo qilingan nutqdan mustaqil ma'nolarni tasvirlashga urinishdan ko'ra, kontekstual ma'noni aniqlash uchun nutq strategiyalarini aniqlashga erishgan.

Shuningdek, Stalnaker, Koul, Grin va Morganlarning nazaryalariga ko'ra, lingvistik tavsiflarning yaxlit nazariyasida pragmatik tamoyillarning mavjudligi semantika va sintaksisiga yuklangan funksiyalarni aniqlashgan. Demak, Montague nazaryalaridan kelib chiqib xulosa qilsak, mediadiskursda semantika qo'lash orqali pragmatikani farqlash qiyinlashadi.

Bar-Hillel tildagi nutqni qayta ishlashda yuzaga keladigan muammolar majmuasi juda katta. Ba'zi muammolarni batafsilroq ko'rib chiqishdan oldin, biz bunday muammolarni muhokama qilishda ustunlik qiladigan indekssizlik hodisasini muhokama qilishimiz kerak deb ta'kidlab o'tadi. U tilda indekslilikni kiritadi, bunda u deklarativ jumlarining 90% birinchi va ikkinchi olmoshlar men, siz, demonstrativlar kabi iboralarda so'zlovchi, qabul qiluvchi, vaqt yoki so'z joyining yashirin murojaatlarini o'z ichiga oladi, deb taxmin qiladi. Uning fikricha, indekslilik badiiy tilning ajralmas qismi hisoblanadi. Shunday qilib, Bar-Hillel ko'rsatkichlilik (yoki deyxis) va anaforaga e'tiborni qaratdi, bu haqiqat funksional semantikadan tashqari, so'zlovchining referentlar haqida xulosa chiqarishni talab qiladigan ma'no aspektlaridir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, media sohasiga bo'lган qiziqish ancha ilgari boshlangan bo'lib, hozirgi kunda juda global sohalardan biriga aylanib bormoqda. Tadqiqot natijalaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, media sohasidagi semantik ma'nolar va stilistik tahlillar bir qancha tadqiqot-

¹ Grice, H.Paul. (1978). Further notes on logic and conversation. In P.Cole (ed.), Syntax and Semantics, vol. 9: Pragmatics. New York, Academic, p. 113–27.

² Reddy Michael J. (1969). A semantic approach to metaphor. Papers from the Fifth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, p. 240–51.

³ Malinowski, Bronislaw. (1923). The problem of meaning in primitive languages. In C.K.Ogden and I.A.Richards, The Meaning of Meaning. London, Routledge, p. 296–336

larni va yangi g‘oyalarni vujudga keltirgan. Masalan, indekslilik, anafora, grammatic qoidalarni yuzaga keltirdi.

Media inson evolutsiyasida ahamiyat kasb etish bilan birga, millionlab yillar davomida shakllangan va shakllanmoqda. Media odamlarga turli xil ommaviy axborot vositalari, janrlar va shakllardagi xabarlarini tahlil qilish, baholash va yaratish imkonini beradigan ko‘nikma va qobiliyatlar to‘plami hisoblanadi. Shuningdek, media vositalari yordamida biz dunyonи o‘rganamiz, undagi axborotlardan xabardor bo‘lamiz. Shuning uchun bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamdo‘stlik munosabatlarini o‘rnatish va zamon bilan hamnafas bo‘lish uchun media sohasini yanada rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Lakoff, George. On generative semantics. In D.D.Steinberg and L.A.Jakobovits, Semantics: An Interdisciplinary Reader. New York, Cambridge University Press, p. 232–96.
- (2). Ogden, C.K. and Richards, I.A. The Meaning of Meaning. London: Routledge. 1923, p. 276–285.
- (3). Fillmore, Charles J. Frames and the semantics of understanding. Quaderni Semantica: Rivista Internazionale di Semantica Teorica e Applicata, 1985, p. 222–54.
- (4). Fillmore, Charles J., and Collin F. Baker. “Frame semantics for text understanding”. Proceedings of Word Net and Other Lexical Resources Workshop, NAACL. 2001.
- (5). Labov William Intensity. In D. Schiffriin (ed.), Meaning, Form, and Use in Context Georgetown University Roundtable on Languages and Linguistics. Washington, DC, Georgetown University Press, 1984, p. 43–70.
- (6). Grice, H. Paul Further notes on logic and conversation. In P.Cole (ed.), Syntax and Semantics, vol. 9, Pragmatics. New York, Academic, 1978, p. 113–27.
- (7). Reddy, Michael J. A semantic approach to metaphor. Papers from the Fifth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, 1969, p. 240–51.
- (8). Malinowski, Bronislaw The problem of meaning in primitive languages. In C.K.Ogden and I. A.Richards, The Meaning of Meaning. London: Routledge, 1923, p. 296–336.

Yuldashev Akmal Gulamjanovich (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, 1-ingliz tili fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, dotsent, akmal1909@mail.ru)

IDIOMATIK QO‘SHMA SO‘ZLARDA MILLIY MADANIYLIKNING AKS ETISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi idiomtaik qo‘shma so‘zlarning milliy-madaniy xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ikki tildagi idiomatik qo‘shma so‘zlar tematik guruhlarga ajratilgan holda, ularning lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: idiomatik qo‘shma so‘z, lingvokulturologiya, motivatsiya, madaniyat.

ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В ИДИОМАТИЧЕСКИХ СЛОЖНЫХ СЛОВАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются национально-культурные особенности идиоматических сложных слов английского и узбекского языков. Также разработаны тематические группы идиоматических сложных слов и раскрыты их лингвокультурологические особенности.

Ключевые слова: идиоматичные сложные слова, лингвокультурология, мотивация, культура.

REFLECTION OF NATIONAL-CULTURE IN IDIOMATIC COMPOUND WORDS

Annotation. This article analyzes the national and cultural characteristics of idiomatic compound words in English and Uzbek. It also identifies thematic groups of idiomatic compound words and reveals linguo-cultural features.

Key words: idiomatic compound words, linguo-cultural, motivation, culture.

Kirish. Tilshunoslikda yangi yo‘nalish maqomini olgan lingvokulturologiya haqida so‘z boshlashdan avval so‘z mulkining sultonı A.Navoiyning so‘zga bergan quyidagi ta’riflarini keltirishni lozim topdik:

So‘zning turlari shu qadar ko‘pki, o‘ylab va tasvirlab chiqish mumkin emas. Agar mubolag‘a qilmasdan yuzaki bayon qilinsa va qisqalik bilan yozib chiqilsa, yetmish ikki navga bo‘linib, yetmish ikki xil xalqning so‘ziga aylanishida hech bir so‘z yo‘q, lekin bundan ham ko‘pdir. U shundayki, yer yuzining yetti iqlimining har birida necha mamlakat bor, har bir mamlakatda necha shahar, shaharcha va kent bor va har dashtda necha xio sahronishin xalq, har bir tog‘ning kamarlarida va yuqorisida, har bir daryoning orolida va qirg‘og‘ida necha guruh odamlar bor. Har bir jamoaning tillari o‘zgalaridan va har guruhnning so‘zla-shuvlari yana birlaridan o‘zgacha va bir necha xususiyatlar bilan farqlidirki, bu ayirma o‘zgalarda yo‘qdir.¹

¹ Алишер Навоий. Мухокамат ул-лугатайн. 1–2-бетлар. www.ziyouz.com kutubxonasi; Alisher Navoiy. Muhakama tul-lug‘atain. Tashkent, 1940, 16-бет.

So‘zga berilgan mazkur ta’rifdan shunday xulosa qilish mumkinki, har bir xalq o‘z madaniyatiga ega, shuning bilan birga, bu madaniyat shu xalqning tilida ham o‘z ifodasini topadi. So‘zga berilgan mazkur ta’rif orqali til va madaniyat aloqasi muammosi nafaqat XXI asrda dolzarb, balki XIV asrda hazrat Alisher Navoiy davrida ham e’tiborga molik bo‘lganligini anglash mumkin.

Tilshunoslikda yangi yo‘nalish hisoblangan lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va lingvistika oraliq‘ida paydo bo‘ldi.¹ Uning vazifasiga til va madaniyat munosabatlarini, tilda madaniyatning aks etishi, madaniyatlararo muloqotni o‘rganish kiradi. Bu masalalar avval ham ilgari surilgan,² ammo bu oraliq fanning paydo bo‘lishi shu masalalarni izchil ilmiy o‘rganishga olib keldi, yangi tadqiqot metodlarini topishga majbur qildi. Anglashiladiki, qiyosiy-tipologik tahlil so‘zlar semantikasining milliy-madaniy o‘ziga xosligini aniqlashning samarali usulidir. Ko‘rsatilgan omillarni biz gomogen tizim deb hisoblama yozish, ular ko‘proq geterogen omillar majmuyidir, aynan ular madaniyatga ko‘proq aloqador va shu boisdan, birinchi navbatda, tadqiq qilinishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilshunoslikning hozirgi rivojlanish bosqichida til semantikasi muammosining tillarni qiyosiy o‘rganish jarayonida aniqlanadigan milliy-madaniy o‘ziga xosligi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilishiga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Leksikaning milliy-madaniy o‘ziga xosligini belgilash amaliy tilshunoslik va lingvistik nazariya uchun ham birdek muhim. Lingvistik tahliliga yana bir o‘lchov – ijtimoiy o‘lchovni kiritish til tabiatiga teranroq kirib borish, uning amal qilish shartlari va rivojlanish dinamikasini yanada to‘laroq aniqlash imkoniyatini yaratib, ijtimoiy hodisa sifatidagi tilning ontologik manzarasini yangi jihatdan tasavvur etishga imkon beradi.

Darhaqiqat, har bir tilga “o‘ziga yarasha tanovor xos”, aks holda, u milliy madaniyatning o‘ziga xosligini ifodalab bera olmasdi. Milliy-madaniy o‘ziga xoslik tilning barcha sathlari: fonetik, leksik, frazeologik, so‘z yasalishi, sintaktik sathlarida namoyon bo‘ladiki, bunda tilning turli birliklari har xil darajadagi milliy-madaniy o‘ziga xoslikka ega bo‘ladi. Tadqiqotchilar qayd qilishganidek, milliy-madaniy o‘ziga xoslik tilni bizning tevarak-atrofimizdagagi vogelik bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri va bevosita bog‘langan leksik tizimida namoyon bo‘ladi. Agar biz tilning milliy-madaniy koloriti haqida gapirishga haqli bo‘lsak, unda uni, avvalo, leksikadan, ayniqsa, hayotning ijtimoiy-etnik va milliy-madaniy o‘ziga xos xususiyatlari va til egalarining “istiqomat sohasi” bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri va bevosita bog‘langan sohalaridan izlashimizga to‘g‘ri keledi.

Turli tillardagi so‘zlar denotativ ma’nolarida bir-biriga mos tushsa-da, milliy madaniylik belgilariga ko‘ra farqlanishi mumkin. So‘zlarning ma’nolaridagi tafovutlar tashqi omillar: turli mamlakatlar xalqlariga xos madaniy-etnografik o‘ziga xoslik, ekologik sharoitlardagi farqlar, jamiyatning ijtimoiy, kasbiy va yoshga oid belgilariga ko‘ra tabaqlanishi bilan izohlanadi.

Hozirda antroposetrik paradigma nuqtai nazaridan til *egasi* tushunchasi o‘z millatining milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi, uni namoyon etuvchi shaxs, muayyan til vakilini anglatmoqda. Har bir tilning o‘ziga xos leksik qatlami bo‘lib, uning asosida ma’naviy qadriyatlar, axloqiy, psixologik, diniy qarashlar yotadi. Ular, shubhaisiz, tillararo ilmiy paradigma chegarasidagi tafakkur uslubi kabi etnomadaniyatli deb qayd qilindi.³ Til birliklaridagi madaniy axborot madaniy konnotatsiya, milliy-madaniy komponent, madaniy semalar, madaniy fon (hayotiy voqealar va tarixiy faktlarni bildiruvchi so‘z va frazeologizmlar), fon bilimlari orqali namoyon bo‘ladi.⁴

So‘z semantikasining milliy-madaniy komponenti (madaniy konnotatsiya) bevosita til egalari madaniyati, mentaliteti bilan bog‘lanadi. So‘zning milliy-madaniy komponentida madaniyatning bazaviy toifalari aks etadi, masalan, makloni o‘zlashtirish uslullari, tabiat bilan o‘zar o‘sish, kiyim-kechak, oziq-ovqat, mehnat bilan bog‘liq an‘analar shular jumlasidandir.⁵

So‘zning madaniy semantikasi har bir tilda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi, chunki u nomlanayotgan predmet til-madaniyat egasi tomonidan turlicha idrok etilishidan dalolat beradi.⁶

Til birliklarining milliy-madaniy o‘ziga xosligi nazariyasi keng rivojlanayotganiga qaramasdan, uning tushunchaviy-terminologik apparati endi shakllanmoqda. Ushbu bilim sohasining milliy-madaniy o‘ziga xoslik, milliy-madaniy ma’no va ma’noning madaniy komponenti kabi bir qator asosiy tushunchalari turlicha talqin etib kelinmoqda. Milliy-madaniy o‘ziga xoslik, milliy-madaniy ma’no, ma’noning madaniy komponenti, milliy-madaniy konnotatsiyalar tadqiqotimiz konseptual apparatini tashkil etadi. Shubhaisiz,

¹ Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. Москва, 1997, с. 23.

² Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Три лингвострановедческие концепции: лексического фона, рече-поведенческих тактик и сапиентемы. Москва, “Индрик”, 2005, с. 10.

³ Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Москва, “Языки русской культуры”, 1997, с. 28–32.

⁴ Собитова З.К. Лингвокультурология. М., “Наука”, 2013, 119-бет.

⁵ Собитова З.К. Кўрсатилган асар. 120-бет.

⁶ Собитова З.К. Кўрсатилган асар. 142-бет.

ajratib ko'rsatilgan tushunchalar o'zaro aloqador va bir-biriga bog'liq. Biroq ular o'rtasida tadqiqtomiz maqsadi uchun relevant bo'lgan muayyan tafovutlar ham amal qiladi.

Milliy-madaniy ma'no terminini biz qaysidir ma'noda shartli ravishda ishlatalamiz, chunki u so'zning to'laligicha milliy-madaniy mazmunga ega bo'lgan denotativ-signifikativ ma'nosini bildiradi. Tillarni qiyosiy-tipologik o'rganish jarayonida aniqlanadigan va har xil madaniyatlarga xizmat qiladigan muqobilsiz leksika ana shu so'zlar guruhiga kiradi.

Idiomatik qo'shma so'zarning (IQS) milliy-madaniy o'ziga xosligi, shuningdek, stilistik konnotatsiyalar darajasida ham namoyon bo'lishi mumkin. Bunday holda milliy-madaniy konnotatsiya termini ishlataladi. Shuni qayd etish kerakki, til birliklarining milliy-madaniy xususiyatlari mazkur til birliklarining hosil bo'lishida, albatta, motivlashuv katta ahamiyatga ega. Chunki til birliklarining motivlashuvida ushbu til egasining olamni idrok etishiga bog'liq bo'ladi va bu jarayonda unga yaqin bo'lgan atrof-muhit, madaniyat, tarix va iqlim o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu holat IQSlarning milliy o'ziga xosligini belgilaydi.

So'z va uning motivlashuvi xususiyati orasidagi murakkab aloqa ko'pgina mualliflar tomonidan qayd etiladi. A.Smirniskiyning fikricha, qandaydir yasalishda idiomatiklikning turli jihatni uning qurilishining asoslanganligini cheklaydi va uni bartaraf qilishi mumkin.¹ Motivlashuv kuzatilmaydigan qo'shma so'zlar haqida so'z borganda leksik (lug'aviy) va tizimiylidagi idiomatiklikni farqlash zarur. Masalan, ingliz tilidagi *haircut IQSi* ("the difference between the market value of a security and the amount lent to the owner using the security as collateral") (hair – соч, cut – кесмоq) [DBF. 2005;164] *bozor va kredit narhlari o'rtasidagi farq* ma'nosini anglatadi. *Graveyard IQSi esa* ("a market where prices are low and no one is buying because investors prefer to remain liquid") (*grave – qabr, yard – hovli*) [DBF. 2005;160] *xaridori yo'q bozor* ma'nosiga ega.

O'zbek tilidagi *bo'riog'iz* "tanglay to'qimalarining bitishmay qolishi oqibatida tanglay o'rtasida paydo bo'lgan va og'iz bo'shilg'ini burun bo'shilg'i bilan tutashtirib qo'ygan yoriq"ni anglatadi. [TTIL.I, 2003;47]. *Tuyapaypoq* (sin. yassioyoq) "oyoq panjasining deformatsiyasi; kaft gumbazining yassilanishi va hatto butunlay tekislanib yo'qolishi"ni anglatadi [TTIL. I, 2003; 236].

Tadqiqot metodologiyasi. Tahsil etilgan IQSlarda idiomatiklikning turli jihatni kuzatiladi. Leksik birlik semantikasida milliy-madaniy o'ziga xoslikni aks ettirishning bir-biridan jiddiy farq qiladigan usullari so'zning semantik tarkibida ma'noning komponenti sifatida va leksik birlikning doimiy assosiativ aloqalari darajasida (konnotatsiyalar) chegaralab qo'yish imkonini beradi.

Yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash zarurki, *milliy-madaniy ma'no, madaniy komponent* va *milliy-madaniy* konnotatsiyalar tushunchalari leksik birliklar semantikasining milliy-madaniy o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishga ko'ra so'zning semantik tuzilmasida taqdim etilishi bo'yicha chegaralanadi va binobarin, ular eksplikatsiyasining har xil usullarini taqozo etadi.

Shunisi qiziqliki, IQSlarning shakllanishi turli tillarning ichki imkoniyati, shu bilan birga, milliy-madaniy belgisi bilan ham bog'liq. Sababi o'zbek tilida bor bo'lgan IQS ingliz tilida mayjud yoki qisman mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilida *head* komponentiga ega bo'lgan IQSlar o'zbek tiliga nisbatan sermahsul. Bu haqda quyiroqda batafsil to'xtalamiz.

IQSlarni semantik jihatdan tasniflab o'rganish, uning yasalishida voqelikning qaysi jihatni asos qilib olinganligini tasavvur qilish imkonini yaratadi. So'z yasalishining aniq modelini o'rganish uni nomlash mohiyatini tahlil qilishga yordam beradi, chunki har bir andoza bizni o'rabi turgan borliqdagi mavjud munosabatlarning barchaga ma'lum turlarini umumlashtiradi.

Tahsil va natijalar. Tadqiqtomiz davomida ingliz va o'zbek tillaridagi IQSlarni lingvokulturologik xususiyatiga ko'ra, quyidagi mavzuiy guruhlarga ajratdik:

O'simlik dunyosi nomlarini anglatuvchi IQSlar. Bu turga ingliz va o'zbek tillaridagi quyidagi IQSlar kiradi: *beardtongue* – "any of large genus of chiefly north American plants of the figwort family", ya'ni, *pentastemon* (*beard – soqol, tongue – til*); *foxglove* – "a tall plant with purple or white flowers shaped like bells" [OALD. 2010;615] (*fox – tulki, glove – qo'lqop*). Bu IQS dorivor o'simlik nomini anglatadi; *fox-tail* – "a common meadow grass that has soft brush-like flowering spikes" (*fox – tulki, tail – dum*) [ABBYY Lingvo x5]. Ushbu qo'shma so'zning o'zbek tilidagi muqobili ham IQS tarzida: *tulkiquyruq*; *ayiqtovon* – "ko'p yillik, kamroq bir yillik o'tsimon o'simliklar tukumi" [O'RO'LS. 1973;136]; *itog'iz* – "sigirquyruq-doshlar oilasiga mansub, ko'p yillik o'tsimon o'simlik" [O'RO'L.S 1973;136]. Ingliz tilida bu o'simlik *snapdragon* deb nomlanadi (*snap – xalqum, dragon – ajdar*); *tuyatish* – "doni yirik, yirik donli" (anor, bug'doy haqida) [O'TIL. III, 2007;224]. Ingliz tili bu don turi *pomegranate* deb ataladi.

¹Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. М., Филологический факультет МГУ им.М.В.Ломоносова, 1998, с. 147.

Hayvonot dunyosi nomlarini anglatuvchi IQSlar. Bu turga ingliz va o‘zbek tillaridagi quyidagi IQSlar mansub: *sottontail* – “an American rabbit which has a speckled brownish coat and a white underside to the tail” (*cotton – paxta, tail – dum*) [OALD. 2010;34]. O‘zbek tilida quyonning bu turi *xonaki quyon* deb yuritiladi; *spoonbill* – “a large bird with long legs, a long neck and a beak that is wide and flat at the end” (*spoon – qoshiq, bill – hisob*) [OALD.2010;1491]; *pichoqtish* – “pichoqtish jag‘laridagi yaxlit plastin-kachadan iborat tishlari bilan dengiz kirpisi, mollyuska kabi o‘ljalarini toshlardan uzib, kesib oladi” gan baliq turi. Ingliz tilida bu baliq *knifejaw* deb nomlanadi (*knife – pichoq, jaw – jag*’); *boltatumshuq* – “chumchuqsimonlar turkumining targ‘ilboshlilar oilasiga mansub danakxo‘r sayroqi qush” [O‘TIL. I, 2006;310]. Ingliz tilida mazkur qush *oak-beak* deb nomlanadi (*oak – eman, beak – tumshuq*); *g‘ozkaptar* – “bot-qoqlarda suv bo‘yida yashaydigan kichkina suv qushi” [O‘TIL.V,2008;453]. Ingliz tilida bu qush *sand-piper* tarzida nomlanadi (*sand – qum, piper – naycha*).

Inson tana a’zolari nomlarini anglatuvchi IQSlar. Bu turga ingliz va o‘zbek tillaridagi quyidagi IQSlar kiradi: *ponytail* – “long hair that is tied at the back of the head and hangs down”, ya’ni, *ayollar soch turmagi* (*pony – toti ot, to ‘pichoq, tail – dum*) [OALD. 2010;1175]; *oshqozon* – “inson va hayvonlar-ning qopchasimon ovqat hazm qilish a’zosi” [O‘TIL.III, 2007;175]. Bu so‘z ingliz tilida *stomach* ekvivalen-tiga ega; *beshikso ‘poq* – “beshikda bir tarzda, bir vaziyatda yotaverib, boshi yapasqi bo‘lib qolgan” [O‘TIL. I, 2006;246] ma’nosini anglatadi, ingliz tilida bu hodisani nomlovchi so‘z mavjud emas.

Insonning fe’l-atvori va xatti-harakatini ifoda etuvchi IQSlar. Bu turga quyidagi IQSlar kiradi: *bezbet* – “uyat-andishasi, or-nomusi yo‘q” [O‘TEL.I, 2000;42] Mazkur ma’no ingliz tilida quyidagi yasama so‘z orqali ifoda etiladi: *shameless* (*shame – uyat, less – suffiks*). Qo‘shma so‘z tarkibidagi *less-* suffiksi *yo‘qlik, kamlik, yetishmaslik* ma’nolarini bildiradi; *betgachopar* – “andisha qilmaydigan, ko‘ngilga og‘ir botadigan gapni tikka betga aytadigan” [O‘TIL.I, 2006;240]. Ushbu ma’no ingliz tilida yasama so‘z orqali ifoda etiladi: *unblushing* (*un – preffiks, blushing – mulohaza*). Ingliz tilida *un-* preffiksi inkor, salbiy ma’no ni angalatishi bilan xarakterlanadi; *ichkuyar* – “chin ko‘ngildan g‘amxo‘r” [O‘TIL.II,2006;251]. Ingliz tilida mazkur ma’noni ifodalashda *devoted* yasama so‘zi qo‘llanadi (*devote – o‘zini boror narsaga bag ‘ish-lamoq, yed – suffiks*); *lattachaynar* – “bir gapni takrorlavera radigan, ezma”. Bu ma’no ingliz tilidagi *blabber* (*blab – behuda gap, er – suffiks*) IQS orqali ifoda etiladi. Ushbu ma’no *blabbermouth* qo‘shma so‘zi orqali ham ifodalanadi (*blabber – behuda gap gapiruvchi, er – suffiks, mouth – og ‘iz*); *devyurak* – “mard, bahodir, jo‘mard” [O‘TIL.I,2006;590]. Ingliz tilda bu ma’no *brave* sodda so‘zi orqli ifoda etiladi (*brave – mard, bahodir*); *sho‘rpeshona* IQSi “baxtsiz, omadsiz kishi” ma’nosini anglatadi [O‘TIL.V,2008;14]. Ingliz tilida bu ma’no *unhappy* (*un – preffiks, happy – baxtli*) yasama so‘zi orqali ifoda etiladi; *sho‘rtumshuq* – “odamga el bo‘lmaydigan, odamovi” [O‘TIL.V, 2008;14]. Inglizlar bu ma’noni ifoda etish uchun *unsociable* yasama so‘zidan foydalanishadi (*un – preffiks, sociable – kirishimli, dilkash*); *qattiqqa ‘l* – “tartib-intizomni yaxshi ushlaydigan, talabchan” [O‘TIL.V,2008;265]. Bu so‘zning ingliz tilidagi ekviva-lenti *strict* (*strict – talabchan*).

Tashqi ko‘rinishni ifoda etuvchi IQSlar. Bu turga ingliz va o‘zbek tillaridagi quyidagi IQSlar kiradi: o‘zbeklar ayol kishining cho‘zinchoq holda do‘mpayib turuvchi qovog‘iga *bodomqovoq* deb atashgan, inglizlar bunday ko‘z qovog‘iga almond-shaped eyes (almond – bodom, shaped – aniq shaklga ega bo‘lgan, eyes – ko‘zlar) deb nom berishadi. Shuningdek, ingliz tilidagi “yoshiga nisbatan jussasi kichik bola” ma’nosini anglatuvchi *peanut* IQSi ham (“a young child who is small for his age”) [<http://www.finedictionary.com/peanut.html>] (*pea – no ‘xot, nut – yong ‘oq*) shakliy o‘xhashlik asosida hosil qilinadi.

Shaxsga nisbatan munosabatlarni ifoda etuvchi IQSlar. Bu turga ingliz va o‘zbek tillaridagi quyidagi IQSlar kiradi: *ikkiyuzlamachi* – “ikki tomonga ikki xil muomala qiladigan, munofiq, riyokor” [O‘TIL. II,2006;186]. Ingliz tilida bu ma’no *hypocrite* sodda so‘zi bilan ifoda etiladi; *nonko ‘r* – “yaxshilikni bilmaydigan odam, ko‘rnamat” [O‘TIL.III,2007;58]. Ingliz tilida bu ma’noning ifodasi uchun *scoundrel* (*razil odam, yaramas, ablah, nobakor*) IQSi qo‘llanadi; *tekintomoq* – “birovning ovqatini yeb qo‘yadigan kishi” [O‘TIL.IV,2008;55], ingliz tilida esa bu ma’no *parasite* (*sig ‘indi, tekinko ‘r*) IQSi orqali ifoda etiladi.

Insonning intellektual salohiyatini ifoda etuvchi IQSlar. Ushbu guruhgaga mansub IQSlar o‘zbek tiliga nisbatan ingliz tilida salmoqli o‘rinni egallaydi.

O‘zbek tilida insonga nisbatan qo‘llanuvchi *xomkalla* IQSi “hech narsani tushunib yetmaydigan, qovushmagan, befarosat odam” ma’nosini anglatadi [O‘TIL IV, 2008:408]. Ingliz tilida bu IQS anglatgan ma’no *blunderer* yasama so‘zi bilan ifoda etiladi (*blunder – qo ‘pol xato, er – suffiks*). O‘zbek tilidagi *xumkalla* IQSi esa quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1) boshi beo‘xshov katta kalla; 2) miyasi yo‘q [O‘TIL.IV, 2008;422].

Largeheaded so‘zining birinchi ma’nosini ingliz tilida *large-heade* qo‘shma so‘zi (*large – katta head – kalla, ed – suffiks*) orqali, ikkinchi ma’nosini *emptyheaded* – “unable to think or behave in an intelligent way” [OALD. 2010;98] qo‘shma so‘zi orqali beriladi (*empty – bo ‘sh, head – kalla, ed – suffiks*).

Endi mazkur kichik mavzuiy guruhga kiruvchi ingliz tilidagi IQSlarni tahlil qilamiz.

Airhead – “a stupid person” [OALD.2010;33] (*air – havo, head – kalla*). Ingliz tilida mazkur IQS badiiy uslubda qo’llaniladi. O’zbek tilida esa u anglatgan ma’no *esi yo ‘q odam* so‘z birikmasi orqali ifoda etiladi. *Big-headed* IQSi “a person who is too proud and considers himself/herself so clever” ma’nosini anglatadi [OALD.2010;135] (*big – katta, head – kalla, ed – suffiks*). Bu IQS o’zbek tilida *takabbur, dimog ‘-dor* sodda so‘zlar bilan beriladi. *Blockhead* IQSi “a very stupid person” ma’nosini anglatadi [OALD. 2010; 150] (*block – to ‘nka, chig ‘ir, head – kalla*). O’zbek tilida uning ma’nosini *ahmoq* so‘zi orqali beriladi. *Bone-head* IQSi “a stupid person”ni anglatadi [OALD.2010;161] (*bone – suyak, head – kalla*). O’zbek tilida bu so‘z o‘jar, *qaysar* so‘zlariga to‘g‘ri keladi. *Deadhead* (*dead – o ‘lik, head – kalla*) IQSi quyidagi ma’nolarni ifoda etadi: “1) stupid person; 2) someone who uses a free ticket to go to an event or to travel, to remove dead flowers from a plant” [OALD. 2010;387]. IQSning bиринчи ma’nosini o’zbek tilida *zehni past* so‘z birikmasi orqali; keyingi ma’nosini *imtiyozli, imtiyozi bor* birliklari orqali beriladi. *Egghead* IQSi “a person who is very intelligent and is only interested in studying” ma’nosini anglatadi [OALD 2010:488] (*egg – tuxum, head – kalla*). Bu qo’shma so‘z o‘zbek tilida *aqli* sodda so‘zi bilan ifoda etiladi. *Fathead* IQSi esa “stupid person” (*fat – semiz, head – kalla*) ma’nosiga ega. Bu qo’shma so‘z ifoda etgan ma’no o’zbek tilida *nodon* sodda so‘zi orqali beriladi. *Loggerhead* IQSi “in strong disagreement” ma’nosiga ega [OALD. 2010;907] (*log – to ‘nka, er – suffiks, head – kalla*). Bu so‘z o‘zbek tilida ahmoq, galvars muqobiliga ega. *Talkinghead* IQSi “a person on television who talks straight to the camera” ma’nosini anglatadi [OALD. 2010;1580] (*talking – so ‘slash, head – kalla*). Uni o’zbek tilida *diktor, suhandon* sodda so‘zlar bilan ifoda etish mumkin. *Hardheaded* IQSi “practical and realistic; not sentimental” ma’nosini anglatadi [OALD. 2010;708] (*hard – qattiq, head – kalla, ed – suffiks*). Ushbu IQS ma’nosini o’zbek tilida *ishbilarmoq* qo’shma so‘zi yoki *tajribali odam* so‘z birikmasi orqali ifoda etish mumkin. *Hothead* IQSi “a person who is impetuous or easily becomes angry and violent”ni anglatadi [OALD. 2010;754] (*hot – issiq, head – kalla*). *Hothead* IQSi o’zbek tilida *qiziqqon, jizzaki* so‘zlar orqali ifoda etiladi. *Headhunter* IQSi “a person who tries to persuade someone to leave their job and take another job which has better pay and more status” ma’nosiga ega [OALD.2010;717] (*head – kalla, hunt – ovlamoq, er – suffiks*). Bu IQSning ma’nosini o’zbek tilida *tarjibali xodimlarni izlovchi* so‘z birikmasi orqali ifoda etish mumkin.

Keltirilgan misollardan ma’lum bo‘ladiki, ingliz va o’zbek tillaridagi IQSlar allomorf hisoblanadi. Chunki asosiy hollarda bir tildagi IQSning ma’nosini ikkinchi tilda sodda so‘z yoki so‘z birikmasi orqali ifoda etiladi.

Kasb-korni anglatuvchi IQSlar. Bu turga ingliz va o’zbek tillaridagi quyidagi IQSlar kiradi: *oq-soch* – “boylar, zodagonlar oilasida yollarib xizmat qiluvchi ayol, xizmatkor ayol, cho‘ri” [O‘TIL.III, 2007; 182], ingliz tilida bu ma’no *servant* sodda so‘zi orqali ifoda etiladi; o’zbeklar qishloq fuqarolar yig‘inlari va shaharlar mahalla qo’mitalari raisini *oqsoqol* deb atashadi, inglizlarda bunday lavozim bo‘lmaganligi sababli ayni IQS muqobil variantiga ega emas.

Tibbiyotga oid IQSlar. Bu turga ingliz va o’zbek tillaridagi quyidagi IQSlar kiradi: tanglay to‘qmalarining bitishmay qolishi oqibatida tanglay o‘rtasida paydo bo‘lgan va og‘iz bo‘shlig‘ini burun bo‘shlig‘i bilan tutashtirib qo‘ygan yoriq; tug‘ma nuqsonga *bo ‘riog ‘iz* deb nom berishgan, inglizlar esa bu nuqsonni *heaven palate* (*heaven – jannat, palate – tanglay*) tarzida nomlashadi: *filoyoq* “limfanning to‘qimalarda barqaror dimlanib turishi oqibatida oyoqlar hajmining yo‘g‘onlashib anchagina kattalanishi, zalvorli tus olishi” [TTIL.I, 2006;252] bo‘lib, ingliz tilida elephantiasis (fil kasalligi) deb nomlanadi.

Marosim nomlarini anglatuvchi IQSlar. Bu turga ingliz va o’zbek tillaridagi quyidagi IQSlar kiradi: *hen-party* IQSi “a party for women only, especially one held for a woman who will soon get married” ni anglatadi [OALD. 2010;727] (*hen – tovuq, party – kecha*). Bu IQSning ma’nosini o’zbek tilida *qiz bazmi* birikmasiga to‘g‘ri keladi.

O’zbek tilidagi *beshqarsak* IQSi “erkaklar davra o‘yin qo‘shig‘i” [O‘TIL.I, 2006;247]ni ifoda etadi. Ingliz tilida bunday tushunchani anglatuvchi leksik birlik mavjud emas.

O’zbek tilida marosim nomini anglatuvchi IQSlardan yana biri – *mozorbosdi*. Bu IQS “uzoqdan, boshqa joydan kelgan, tabarruk” (yegulik haqida) ma’nosini anglatadi [O‘TIL II, 2006:607]. *Kiyimqoqdi, kiruyvdi* IQSlari ham marosim nomini anglatadi. Bu qo’shma so‘zlar “kishi dafn qilingandan keyin uchinchi kuni bo‘ladigan birinchi marosim”ni ifoda etadi [O‘TIL.II, 2006;376]. Bunday IQSlar ham ingliz tilida muqobilsiz leksika hisoblanadi.

Taom nomlarini anglatuvchi IQSlar. Bu turga ingliz va o’zbek tillaridagi quyidagi IQSlar kiradi: *ladyfinger* IQSi “a small spongecake shaped somewhat like a finger” [OALD.2010;861]ni ifoda etadi. (*lady – xonim, finger – barmoq*). Bu IQS o’zbek tiliga *tort* tarzida tarjima qilinadi. *Double-decker* IQSi “a sandwich with two layers of filling and three slices of bread” lug‘aviy ma’nosiga ega [OALD.2010; 454] (*double – ikkilangan, decker – ko ‘p yarusli*). Bu qo’shma so‘z o‘zbek tilida *buturbrot* tarzida ifoda etiladi. *Hotdog*

IQS_i quyidagi ma'nolarni anglatadi: 1. "A hot sausage served in a long bread roll". 2. "A person who performs clever or dangerous tricks while skiing, snowboarding or surfing" [OALD 2010: 754] (*hot – issiq, dog – kuchuk*). IQSning birinchi ma'nosini o'zbek tilida *sosiskali buturbrodn* angatsa, ikkinchi ma'nosini *epchil sportchi* ma'nosiga ega. *Moonshine* IQS_i "strong alcoholic drinks made and sold illegally" ma'nosini anglatadi [OALD 2010: 993] (*moon – oy, shine – nur*). Bu taom nomining ingliz tilida bu tarzda atalishiga uning noqonuniy yo'l bilan tunda tayyorlanishi sabab bo'lgan. Ushbu IQSning ma'nosini o'zbek tilida *qo'l bola aroq* so'z birikmasiga to'g'ri keladi. *Cocktail* IQS_i "an alcoholic drink consisting of a spirit or spirits mixed with other ingredients, such as fruit juice or cream" lug'aviy ma'nosiga ega [OALD. 2010; 283] (*cock – xo'roz, tail – dum*). Bu IQS o'zbek tilida *kokteyl* (*konyak, likyor, vino va sh. k. aralashmasidan shakar va ziravorlar qo'shib tayyorlangan shirin, xushbo'y ichimlik*) tarzida ifoda etiladi.

O'zbek tilidagi quyidagi IQSlar taom nomlarini anglatadi: *beshbarmoq* "to'rburchak shaklida kesilgan, dumbayog' solib pishirilgan xamir"ni bildiradi [O'TIL.I, 2006:245]. Ingliz xalqi bu taomni pishirmaydi, shuning uchun tilda uni ifoda etuvchi nom mavjud emas. *Qushtili* – "yupqa xamrdan uchburchak, to'rburchak yoki romb shaklida kesib, yog'da pishirilgan ovqat" [O'TIL.V, 2008:394], *beshpanja* – "sixga maxsus tayyorlangan go'shtni ko'mir cho'g'i yordamida pishiriladigan toam". Bu IQSlar ham ingliz tili lug'at tarkibida mavjud emas.

Osmon jismlarini anglatuvchi IQSlar. Bu turga ingliz va o'zbek tillaridagi quyidagi IQSlar kiradi: *peacock*¹ IQS_i "between Grus and Triangulum Australe. Its brightest star is itself"ni anglatadi. [ABBYY. Lingvo x5] (*pea – no'xot, cock – xo'roz*). Bu IQS o'zbek tilida *pavlin* so'zi bilan beriladi. O'zbek tilidagi *oltin qoziq* yoki *temirqoziq* IQSlari "qutb yulduzi"ni anglatadi [O'TIL.III,2006:119]. Ingliz tilida esa bu IQSlar *pole star* leksik birligi bilan ifoda etiladi.

Uy-ro'zg'or buyumlari nomlarini anglatuvchi IQSlar. Bu turga ingliz va o'zbek tillaridagi quyidagi IQSlar kiradi: *nightstand* IQS_i "a small low bedside table, typically having drawers" ma'nosini anglatadi. [OALD.2010:1032] (*night – tun, stand – turmoq*). O'zbek tilida bunday buyumni nomi mavjud emas. *Cupboard* IQS_i "a recess or piece of furniture with a door and usually shelves, used for storage" ma'-nosini anglatadi. (*cup – chashka, board – yog' och*) [OALD.2010:371]. Bu IQS ifoda etgan ma'no o'zbek tilida *bufet* leksemasi orqali beriladi.

O'zbek tilidagi *tarnovcho* 'p IQS_i "tizzaga qo'yib, ustiga chok tikiladigan tarnovchasimon kosib-chilik asbobi"ni anglatadi [O'TIL.II,2006:684]. *Zardevor* IQS_i esa "devorga osib qo'yiladigan mato"ni bildiradi. [O'TIL III, 2006:136].

Yil mavsumi va iqlimi anglatuvchi IQSlar. Bu turga ingliz tilidagi quyidagi IQSlar kiradi: ingliz tilidagi *brass-monkey* IQS_i "British extremely cold" ma'nosini anglatadi [OALD 2010:175] (*brass – jes, mis va ruh quyushmasi, monkey – maymun*). O'zbek tilida bu IQS *qora sovuq* ma'nosiga ega. *Dog-days* IQS_i "the hottest period of the year" lug'aviy ma'nosiga ega [OALD. 2010:448] (*dog – kuchuk, day – kun*). O'zbek tilida u *jazirama* leksemasi bilan ifoda etiladi. *Honeymoon* IQS_i "A holiday/vacation taken by a couple who have just got married. The period of time at the start of a new activity when nobody is criticized and people fell enthusiastic" ma'nosiga ega [OALD. 2010:747] (*honey – asal, moon – oy*). Bu IQS anglatgan ma'no o'zbek tilida *asal oyi* birikmasi bilan ifoda etiladi.

O'zbek tilida quyidagi IQSlar yil mavsumi va iqlimi anglatadi: *beshqo 'noq* IQS_i "hamal oyida (aprelda) bo'ladigan sovuq kunlar"ni anglatadi. Odatda, bunday kunlar aprel boshida bo'lib, 4-5 kundan oshmaydi [GIL,1979:25]. *Iliguzildi* IQS_i "erta bahorda ko'r-qut tugagan, hali hech narsa pishmagan kishi organizmi darmonlarga ehtiyoj sezadigan davr"ni bildiradi [O'TIL II, 2006:191]. *Ayamajiz* "qishning oxirgi haftasi" ma'nosiga ega. *Ayamajiz* so'zi "ayyom ajuz" (kampir kuni) so'zlarining talaffuzda qisqarib ketishidan hosil bo'lgan. "Ayamajiz olti kun, qahr aylasa, qattiq kun" degan naql bor [GIL.1979:19].

Kiyim-kechak nomlarini anglatuvchi IQSlar. Bu turga ingliz tilidagi quyidagi IQSlar kiradi: *clotheshorse* IQS_i: 1) a frame on which to hang laundry for drying or airing; 2) informal a dandy" ma'-nolarini anglatadi [OALD.2010:278] (*clothes – kiyim, horse – ot*). Bu IQS o'zbek tilida *yuvilgan kiyim - kechakni osish uchun dor* tarzida tarjima qilinadi. *Housecoat* IQS_i "a woman's long, loose, lightweight robe for informal wear around the house" ma'nosini anglatadi [OALD.2010:757] (*house – uy, coat – palto*). Mazkur IQS *ayollar xalatini* anglatadi. *Shoehorn* IQS_i: 1) a curved instrument used for easing one's heel into a shoe; 2) force into an inadequate space" ma'nolariga ega [OALD.2010:1414] (*shoe – oyoq kiyim, horn – shox*). Bu IQS anglatgan ma'noni o'zbek tilida *oyoq kiyim kiyish uchun qoshiqcha* birikmasi orqli ifoda etish mumkin.

O'zbek tilida kiyim-kechak nomlarini anglatuvchi IQSlar uchramadi.

¹<http://www.astromyth.ru/Astronomy/ConstellationNames.htm>

Ish-anjom nomlarini anglatuvchi IQSlar. Bu turga ingliz va o‘zbek tillaridagi quyidagi IQSlar kiradi: ingliz tilidagi *handcar* IQSi “a railway vehicle operated by large handles pushed or pulled by hand» ma’nosini anglatadi [LDELС.2006;631] (*hand – qo‘l, car – mashina*). Bu IQS anglatgan ma’noni o‘zbek tilida *temir yo‘lda yuradigan arava* drezina birikmasi bilan ifoda etish mumkin. *Handrail* IQSi “a long narrow bar that you can hold onto for support, for example when you are going up or down stairs» ma’nosiga ega [OALD. 2010;703] (*hand – qo‘l, rail – to ‘siq*). Bu IQSning ma’nosini o‘zbek tilida *suyanchiq* leksemasi orqali voqelanadi. *Homeroom* IQSi “a room where ss go at the beginning of each school day” ma’nosiga ega. [OALD. 2010;745] (*home – uy, room – xona*). O‘zbek tilida bu ma’no *sinf* leksemasi bilan ifoda etiladi.

Harbiy sohaga oid IQSlar. Bu turga quyidagi IQSlar kiradi: ingliz tilidagi *bridgehead* IQSi “a strong position secured by an army inside enemy territory from which to advance or attack” ma’nosini anglatadi [OALD.2010;181] (*bridge – ko ‘prik, head – kalla, bosh*). Bu qo‘shma so‘z ifoda etgan ma’no o‘zbek tilida *plasdarm* (*harbiy operatsiyaga tayyorgarlik ko‘riladigan maydon*) leksemasi orqali ifoda etiladi. *Cockpit* IQSi “place where a battle or other conflict takes place” ma’nosiga ega [OALD.2010;283] (*cock – xo‘roz, pit – o‘ra*). Bu IQS ifoda etgan ma’no o‘zbek tilida *jang maydoni* birikmasi orqali voqelanadi. *Foxhole* IQSi “a hole in the ground used by troops as a shelter against enemy fire or as a firing point” ma’nosini anglatadi [OALD.2010;615] (*fox – tulki, hole – tuynuk*). Ushbu IQSning ma’nosini o‘zbek tilida *o‘q otish yacheykasi* birikmasi orqali yuzaga chiqadi. *Gunboat* IQSi “a small fast ship with guns mounted on it, for use in shallow coastal waters and rivers” ma’nosiga ega [OALD.2010;692] (*gun – miltiq, boat – qayiq*). Bu IQS anglatgan ma’no o‘zbek tilida *kanonerka* (*bir necha o‘rta kalibrli to‘p bilan qurollangan kichik harbiy kema*) leksemasi orqali voqelanadi.

Geografik joy nomlarini anglatuvchi IQSlar. Bu turga ingliz va o‘zbek tillaridagi quyidagi IQSlar kiradi: ingliz tilidagi *pigpen* IQSi “a very dirty or untidy place” ma’nosini anglatadi [OALD.2010;1146] (*pig – cho ‘chqa, pen – ruchka*). Bu IQS anglatgan ma’no o‘zbek tilida *ivirsigan* (*iflos*) uy birikmasi orqali ifoda etiladi. *Vineyard* IQSi “a plantation of grapevines, typically producing grapes used in winemaking” ma’nosiga ega [OALD.2010;1718] (*vine – vino, yard – Angliyada 91,44 santimetrga teng uzunlik o‘chovi, hovli*). Bu IQS o‘zbek tilida *uzumzor* leksemasi bilan beriladi. *Tollgate* IQSi “a barrier across a road where drivers or pedestrians must pay to go further” ma’nosini ifoda etadi [ABBYY.Lingvo x5] (*toll – ibodatga chorlovchi qo‘ng‘iroq ovozi, gate – darvoza*). Ushbu IQS anglatgan ma’no o‘zbek tilida *shlagbaum, ko‘tarma g‘ov* birliklari bilan voqelanadi.

O‘zbek tilidagi *yolg‘izoyoq* IQSi “faqat piyodalar yurishi mumkin bo‘lgan tor yo‘l”ni anglatadi. [O‘TIL.II, 2006;33]. *Yetimtob*, *yetimcho ‘qqi* IQSlari “boshqa tog‘lardan ajralib turgan ikki cho‘qqi, tog‘ni anglatadi. [GIL, 1979: 56]. *Supatog* IQSi “usti tekis yoki salgina qir, yonbag‘irlari kesilgandek tik tushgan yakka-yakka tog‘, tepe qir”ni ifoda etadi [GIL.1979;119]. *Tovoqsoy* IQSi “yer yuzidagi hamma tomondan balandliklar bilan o‘ralgan yoki daryo oqib o‘tsa, u keladigan va chiqib ketadigan joyda tashqari bilan yo‘lak (vodiyl, dara) orqali tutashgan botiq joy”ni anglatadi [GIL.1979;127].

Ta’lim sohasiga oid IQSlar. Bu turga quyidagi IQSlar kiradi: ingliz tilidagi *blackboard* IQSi “large board with a smooth dark surface attached to a wall or supported on an easel and used by teachers in schools for writing on with chalk» ma’nosini ifoda etadi [OALD.2010;143] (*black – qora, board – taxta*). Ushbu IQS anglatgan ma’no o‘zbek tilida *sinf doskasi* birikmasi orqli voqelanadi. *Keyboard* IQSi “a panel to type information into a computer» ma’nosini anglatadi [OALD.2010;848] (*key – kalit, board – taxta, yog ‘och*). Ushbu IQS ifoda etgan ma’no o‘zbek tilida *klaviatura* leksemasi orqli voqelanadi. *Whiteboard* IQSi “an area common to several users or applications, where they can exchange information, in particular as handwriting or graphics» ma’nosini anglatadi [OALD.2010;1758] (*white – oq, board – taxta*). Bu IQSning ma’nosini ham o‘zbek tilida *sinf doskasi* birikmasi orqli yuzaga chiqadi. *Yardstick* IQSi “a measuring rod a yard long, typically divided into inches” ma’nosiga ega [OALD.2010;1789] (*yard – xovli, stick – cho ‘p*). O‘zbek tilida bu ma’noni *o‘chov, lineyka* leksemalari ifoda etadi. *Timetable* IQSi “a chart showing the departure and arrival times of trains, buses, or aircraft” ma’nosini anglatadi [OALD.2010;1623] (*time – vaqt, table – stol*). O‘zbek tilida bu ma’no *dars jadvali* birikmasi orqli ifoda etiladi.

Sport sohasiga oid IQSlar. Bu turga quyidagi IQSlar kiradi: ingliz tilidagi *handspring* IQSi “a jump through the air on to one’s hands followed by another on to one’s feet salto” [OALD.2010;704] (*hand – qo‘l, spring – bahor, prujina*), ya’ni *havoda umbaloq oshish* ma’nosini anglatadi. *Leapfrog* IQSi “a game in which players in turn vault with parted legs over others who are bending down” ma’nosini anglatadi [OALD.2010;876] (*leap – sakramoq, frog – qurbaqa*). Bu o‘yin turi o‘zbek tilida *cheharda, to‘nka-to‘nka o‘yini* (*bir-birining ustidan sakrab o‘tish o‘yini*) deb nomlanadi. Ingliz tilining Amerika variantida *pigskin* IQSi “the ball used in AMERICAN FOOTBALL”ni anglatadi [OALD.2010;1146] (*pig – cho ‘chqa, skin – teri*). O‘zbek tilida bu sport anjomi *koptok* leksemasi bilan nomlanadi. *Springboard* IQSi “a strong, flexible

board from which someone may jump in order to gain added impetus when performing a dive or a gymnastic movement” ma’nosini anglatadi [OALD.2010;1494] (*spring - bahor, prujina, board – taxta, yog ‘och*). O’zbek tilida bu sport anjomi *trampolin* (*sakrashda balandroq ko’tarilishga yordam beradigan moslama*) leksemasi bilan nomlangan.

Xulosa. Tahlil etilgan misollardan ko‘rinadiki, ingliz va o‘zbek tillaridagi IQSlar xalqlarning milliy-madaniy qadriyatlari bilan bog‘liq holda hosil bo‘lgan. Shu bois IQSlarda turli madaniyatlarga xos belgilarni ham ko‘zga tashlanib turadi. Quyida tadqiqotda aniqlangan ingliz va o‘zbek tillaridagi IQSlarning statistik tahlilini qayd etamiz.

Ma’noning madaniy komponenti sifatida namoyon bo‘luvchi va IQSlarning semantik tuzilmasida kuzatiluvchi farqlovchi belgilarni, xususan, o‘zaro mos tushmaydigan va qisman mos tushadigan tuzilmalardagi motivlashtiruvchi belgilarni milliy-madaniy o‘ziga xoslikning lingvistik negizini tashkil qiladi. IQSlarning hosil bo‘lish mexanizmi turli tillarda o‘zaro mos tushganida milliy o‘ziga xoslik konnotatsiyalar darajasida namoyon bo‘ladi. IQSlar milliy o‘ziga xosligining ekstralingvistik negizini quyidagilar tashkil qiladi: 1) xalq xo‘jaligi, geografik holat va turmush shart-sharoitlarining o‘ziga xos xususiyatlari; 2) har bir xalqning turmush tarzi, an’analari, urf-odatlari va udumlari; 3) milliy madaniyat, adabiy va folklor an’analari, og‘zaki rivoyatlar va afsonalarning o‘ziga xos xususiyatlari. IQSlarning yasalishida komponentlar tub aholi leksik zahirasidan tanlab olinadi, o‘zga tillardan so‘zlar olinmaydi. Bu holat IQSlarda milliy-madaniy xususiyatlar yorqin aks etishini anglatadi.

Foydalanimanadabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Алишер Навоий. Мухокамат ул-луғатайн. www.ziyouz.com kutubxonasi; Alisher Navoiy. Muhamamat ul-luq‘atani. T., 1940, 54-b.
- (2). Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Три лингвострановедческие концепции: лексического фона, рече-поведенческих тактик и сапиентемы. М., “Индрік”, 2005, 1040 с.
- (3). Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. М., 1997, 331 с.
- (4). Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. М., Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, 1998, 259 с.
- (5). Собитова З.К. Лингвокультурология. М., “Наука”, 2013, 523 с.
- (6). Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. М., Языки русской культуры, 1997, 824 с.
- (7). <http://www.astromyth.ru/Astronomy/ConstellationNames.htm>

Lug‘tlar:

- (1). Oxford Advanced Learner’s Dictionary. Eighth edition. Uk/India. Oxford University Press, 2010, p. 1796 (OALD).
- (2). Кораев С., Гуломов П., Рахимбеков Р. Географиядан изоҳли лугат. Т., “Ўқитувчи”, 1979, 156-бет (ГИЛ).
- (3). Қосимов А.И. Тиббий терминлар изоҳли лугати. Тошкент, Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2003, 472-бет (ТТИЛ).
- (4). Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 1-жилд, Тошкент, Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2006, 680-бет (ЎТИЛ).
- (5). Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2-жилд, Т., Ўзбекистон Миллый энциклопедияси, 2006, 672-бет.
- (6). Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 3-жилд, Т., Ўзбекистон Миллый энциклопедияси, 2007, 688-бет.
- (7). Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 4-жилд, Т., Ўзбекистон Миллый энциклопедияси, 2008, 608-бет.

Islomov Dilshod Shomurodovich (BuxDU katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD); e-mail:islomovdilshod77@gmail.com; ORCID: 0000-0001-8793-8031)

TILSHUNOSLIKDA FONOPSIXOLOGIYA ATAMASINING KIRIB KELISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada fonetika, fonostilistika, psixologiya fanlarining rivojlanish tarixi, ularning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi hamda fonopsixologiya tarmog‘ining paydo bo‘lishi haqida olim-larning ilmiy-nazariy qarashlari o‘rganildi va ularga munosabat bildirildi. Jonli so‘zlashuv nutqidagi turli holatlardagi diskurslar psixik jarayon, holat va xususiyatlar bilan uyg‘unligi jadvallarda aks ettirildi hamda izohlab berildi.

Kalit so‘zlar: fonetika, fonostilistika, psixologiya, fonopsixologiya, urg‘u, intonatsiya va ohang, supersegment vositalar, inson ruhiyati, fonologiya, psixofonetika, psixika, inson psixikasi, aql, idrok, tafakkur.

ВВЕДЕНИЕ ТЕРМИНА ФОНОПСИХОЛОГИЯ В ЛИНГВИСТИКУ

Аннотация. В данной статье рассматривается история развития фонетики, фоностилистики и психологии, их взаимосвязь, а также научно-теоретические взгляды ученых на возникновение сети фонопсихологии и реакция на них. В таблицах показана и объяснена совместимость дискурсов в различных ситуациях живого разговора с психическим процессом, состоянием и характеристиками.

Ключевые слова: фонетика, фоностилистика, психология, фонопсихология, ударение, интонация и тон, суперсегментарные средства, психика человека, фонология, психофонетика, психика, психика человека, разум, восприятие, мышление.

INTRODUCTION OF THE TERM PHONOPSYCHOLOGY IN LINGUISTICS

Annotation. This article examines the history of the development of phonetics, phonostylistics, and psychology, their interrelationship, and the scientific-theoretical views of scientists about the emergence of the phonopsychology network and reacts to them. The connection between discourses in different situations in live conversation with mental process, state and characteristics was shown and explained in the tables.

Key words: phonetics, phonostylistics, psychology, phonopsychology, stress, intonation and tone, supersegmental means, human psyche, phonology, psychophonetics, psyche, human psyche, mind, perception, thinking.

Kirish. Hozirgi kunda barcha sohalarning rivojlanib borayotganligi tufayli bu sohalarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borish muhimligini taqozo qilmoqda. Shu bilan birga, tilshunoslik va psixologiya ham bundan mustasno emas.

Tilshunoslikdagi ilmiy izlanishlar shu sohadagi yutuqlarni ko'rsatish bilan birga, kamchiliklarni ham namoyon qilmoqda. Bugungi kunga kelib, fonetika, fonologiya, fonostalistika, diskurs va pragmatikani psixologiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki talaffuz jarayonidagi urg'u, intonatsiya va ohang kabi supersegment vositalar inson ruhiy holati bilan bevosita bog'liqdir. Inson ruhiy holatidagi o'zgarishlar esa psixologiya fanining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilk bor yaratilgan fonema nazariysi rus, polyak va fransuz olimi Ivan Aleksandrovich Boduen de Kurtenega tegishli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur olim tilshunoslik tarixida birinchi marta fonemalarining psixologik va morfologik izohini, ya'ni, "Fonema" tovush tushunchasining kishi ongida his etilgan birligidir deb baho berdi. Ushbu izohlar zaminida, keyinchalik, Moskva va Peterburg fonologiya maktablari vujudga kelganligi fonetika, fonostalistikaning psixologiya bilan uzviy bog'liq ekanligining yana bir isbotidir. Y.D.Polivanov esa ilmiy tadqiqot ishlarida: "Til hodisalarini psixologik nuqtayi nazardan o'rganib, tilni ijtimoiy hodisa, deb qaraydi. Keyinchalik, u fonologiyani psixofonetika, deb nomlashi barcha munozaralarga oydinlik kirdi" [1;30-b.].

Bugungi kunda psixologiya fanining juda ko'plab fanlar bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanib bora-yotganligi, fanlararo integratsiya, psixologiyaning fanlar tizimidagi o'rnini belgilab bermoqda. Bizga ma'lumki, mavjud fanlar gumanitar, tabiiy va falsafiy turlarga bo'linadi. Psixologiya mustaqil fan sifatida namoyon bo'ladi. U inson ruhiy faoliyatining tabiiy, tarixiy va ijtimoiy tomonini o'rganadi.

Darhaqiqat, "Psixologiya barcha turdag'i fanlar orasida muhim o'rinni egallaydi. Psixologiya tilshunoslik, falsafa, tarix, san'atshunoslik, texnika, pedagogika fanlari bilan uzviy chambarchas bog'liq. Shunga muvofiq psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi" [2;156-b.].

"Psixologiya" ikkita yunon so'zidan – "psyche" – jon, ruh va "logos" – ta'limot, ilm so'zlaridan iborat bo'lib, an'anaviy ma'noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlarni o'rganuvchi fan hisoblanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, psixologiya fani har birimizning tashqi olamni va o'z-o'zimizni bilishimiz, anglab yetishimiz, idrok etishimiz asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlarni yuzaga chiqishida va shakllanishida asosiy vosita hisoblanadi.

Muhokama. Hozirgi kungacha psixologiya fani haqida qator darslik, o'quv qo'llanmalar yozilgan bo'lsa-da, shu bilan bu fanning jamiyat hayotida tutgan o'rni yuqorilab ketdi, deb ayta olmaymiz. Psixologiya, eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo'l mish ong va o'zini-o'zi anglashni tadqiq etuvchi fan hisoblanadi. Antik davrdan boshlab psixologik bilimlar falsafa va tibbiyot fanlari negizida rivojlanib kelgan. Bunga misol qilib, yunon shifokorlari Gippokrat, Erasistrat psixikaning organi miya ekanligini bilgalar va inson jonini koinotning ashyoviy bo'lagi sifatida talqin qilganlar. Ularning g'oyalari Platonning jon abadiyligi to'g'risidagi ta'limotiga qarama-qarshi qo'yilgan. Aristotel „Jon to'g'risida“gi asarida psixologik tushunchalar tizimini ishlab chiqdi. O'rta asrlarda psixikaga nisbatan har xil ko'rinishdagi g'ayritabiy qarashlar hukmronlik qildi. Shu tufayli psixologik bilimlar rivojlanmay qoldi. Ammo ba'zi faylasuflar va shifokorlar (Ibn Sino va boshqalar) asarlarida bu sohada olg'a qadam qo'yildi. Inson xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar qadimgi qo'lyozmalar, yodgorliklarda o'z aksini topa boshladи. Turli mamlakatlarda va shaharlarda tuzilgan akademiyalarda (Xorazm, Samarqand, Kiyev, Moskva va boshqa shaharlarda) psixologiya yuzasidan tinglovchilarga saboq berilgan" [2;156-b.].

XXI asr bo'sag' asida Yevropa davlatlarda bo'lgani kabi, dunyo xaritasida munosib o'rin olgan mustaqil O'zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini


har qachongidan yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog'ladi.

Psixologiya fani va sohasini nukammal o'rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil voqeа-hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmasdan, har bir insonning aqliy va ruhiy faoliyatini ham o'stirishga yordam beradi, yangi bilim va ko'nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal qilish qobiliyatini shakllantiradi, o'z fikrlarini nutqda to'g'ri ifodalay bilishida o'z ifodasini topadi.

Manbalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy psixologiya ko'p tarmoqli psixologik bilimlar tizimidan tashkil topgan fan bo'lib, o'zining tadqiqot predmetiga ega bo'lgan ko'plab sohalardan tashkil topgan. Ilmiy tadqiqotlar natijasida olimlar psixologiyani bir qancha turlarga ajratgan, jumladan, umumiy psixologiya, aviatsiya psixologiyasi, harbiy psixologiya, differential psixologiya, psixofiziologiya, muhandislik psixologiyasi, kosmik psixologiya, huquq psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, neyropsixologiya, patopsixologiya, pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, sport psixologiyasi, maxsus psixologiya, ijodiyot psixologiyasi, menejment psixologiyasi, marketing psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, yosh psixologiyasi, tashkiliy psixologiya, din psixologiyasi, oila psixologiyasi, psixologiya tarixi, genetik psixologiya, amaliy psixologiya, eksperimental psixologiya, kasb psixologiyasi, psixolingvistika, siyosiy psixologiya va boshqa psixologiyaning tarmoqlarga ajralishining asosiy sababi uning tarkibida tatbiqiy sohalar vujudga kelishidir. Psixologiya sanoatda, jamiat boshqaruvida, ta'lif tizimida, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, transport, radio, televide niya va boshqa tuzilmalarda muhim masalalarni hal qilishda faol ishtirok qilmoqda. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, psixologiya dunyodagi barcha fanlar bilan uzviy bog'liq desak, mubolag'la bo'lmaydi. Bu fanning barcha sohalar bilan uzviy bog'liq ekanligi, u o'rganadigan jarayonlar va hodisalar murakkab ekanligi va xilma-xilligini ko'rsatadi.

Natijalar. Psixologiya fanini boshqa fanlar bilan bog'liqligini o'rganadigan bo'lsak, avvalo, tilshunoslik fani aloqasini tilga olsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu ikki fan borliqdagi voqeа-hodisalarni, o'zgarishlarni, yaxshi va yomon narsalarni idrok etishda va ularni boshqalarga to'g'ri yetkazib berish uchun ham bu fanlar dunyo chorrahasida kesishmasligini, to'qnashmasligining iloji yo'q. Inson ko'zi bilan ko'rgan voqeа-hodisalarni boshqalarga tushuntirib berish uchun, albatta, his-tuyg'lulardan foydalanadi. Bu esa o'z-o'zidan insonlar o'rtasida turli xildagi diskurslarni paydo bo'lishiga zamin bo'ladi. Aynan shu tomonlama psixologiya fonetika, fonostistikka bilan hamkorlikda ish ko'radi. Bu holatlar tilshunoslikdagi denotativ va konnotativ ma'nolarning yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Og'zaki nutqda fonostistik vositalarning paydo bo'lishida inson ruhiy holati, ruhiy kechinmalari alohida ahamiyatga ega. Inson ruhiyati psixologiya fanining obyekti hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarni tahlil qiladigan bo'lsak, fonetika va psixologiya fanlari o'zaro bog'liqdir. Fonopsixologiya yo'nalishi fonetika va psixologiya fanlarining o'zaro kesishuvini natijasida paydo bo'lgan.

Fransuz va o'zbek tillari jonli so'zlashuv nutqida so'zlarning denotativ va konnotativ ma'nolarini ko'rsatib berish uchun urg'u, ohang, intonatsiya, ekspressiv-emotsional xususiyatlar muhim ahamiyatga. So'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari og'zaki nutqdagagi turli xil diskurslarda yaqqol namoyon bo'ladi" [4; 8-11-b.].



Yuqoridagi birinchi jadvalda so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari og'zaki nutqdagagi turli xil diskurslarda yaqqol namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. Ikkinci jadvalda shaxs psixikasiga oid jadvalni analiz qiladigan bo'lsak, psixologiya predmetlari (psixik jarayonlar, psixik holatlar, psixik xususiyatlar) inson ruhiy holatlari, aqli, idroki, tafakkuri, qobiliyatlarini o'z ichiga olgan. Shu bilan birga, mazkur predmetlarni

o‘zbek va fransuz tillaridagi fonostilik vositalar orqali og‘zaki nutqda yuzaga chiqarishimiz mumkin. Xursandchilik, ma‘yuslik, hayratlanish, xafa bo‘lish, kinoya kabi diskurslar bevosita psixik holatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, fonetikadagi segment va supersegment vositalar to‘g‘ridan to‘g‘ri psixik xususiyatlar bilan bog‘liqligi yuqorida jadvalni tahlil qilish jarayonida aniqlandi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, psixologiya har birimizning tashqi olamni va o‘z-o‘zimizni biliшимизнинг асосида ўтган jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlarni yuzaga chiqishida va shakllanishida асосиъ vosita hisobланади hamda an’anaviy ma’noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlarni o‘rganuvchi fan hisobланади. Fonetika esa fonetik nutq apparati, bo‘g‘in va ularning tuzilishini tekshiradi, shuningdek, adabiy talaffuz normalarini, tovushlar o‘zgarishlarini, urg‘u, intonatsiya va uning turlarini o‘rganuvchi fan hisobланади. Inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlarni fonostilik vositalar orqali og‘zaki nutqda yuzaga chiqarilishi fonopsixologiya tarmog‘ida o‘рганилади.

Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Chigarevskaia N. *Traité de phonétique française*. Cours théorique. Moscou, 1982, p. 30.
- (2). Sh.R.Barotov, L.Y.Olimov, O.R.Avezov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Toshkent, 2019, 156-bet.
- (3). Sh.R.Barotov, L.Y.Olimov, O.R.Avezov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Toshkent, 2019, 156-bet.
- (4). A.A.Haydarov. Fonetik uslubiy vositalar. O‘quv qo‘llanma, “Buxoro” nashriyoti, 8–11-betlar.
- (5). Islomov, D.Sh. “The Definition of The Concepts of “Phoneme” and “Phonostylistics” Middle European Scientific Bulletin 9.4 (2021).
- (6). Islomov, D. (2023). On phonetics, phonostylistics and phonetic means. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 28 (28). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8800.
- (7). D.Sh.Islomov. “Similarity aspects of uzbek and french phonetics”. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, vol. 10, № 10, Nov. 2023, <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/253>.
- (8). D.Sh.Islomov. (2023). The articulation of sounds in french. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(10). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/251>
- (9). D.Sh.Islomov. (2023). The differentiation aspects of uzbek and french phonetics. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(11), 47–51. Retrieved from <http://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/424/>
- (10). Islomov, D. (2023). About Alliteration in French. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 28(28). Извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8798/](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8798)
- (11). Islomov, D.S. “The role of sonors in enhancing phonetic resonance and melody in uzbek poetry”. International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding. Vol. 1, № 1, 2022.
- (12). Islomov, D. “Жизнь Абдуллы Кадири и его вклад в узбекскую литературу”. Центр научных публикаций (buxdu. Uz) 6.2 (2021).
- (13). Islomov, D. (2022). Француз тили фонетикаси. Француз тили фонетикасининг ўзига хос жиҳатлари. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4108.
- (14). Islomov, D. (2021). Научно-теоретические взгляды на понятия фонемы и фоностилистики. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 1(1). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/560.

**Saydaliyeva Dilzodaxon Bohodirovna (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti tadqiqotchisi;
Saydaliyevad1974@gmail.com)**

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SISTEMAVIY YONDASHUV BO‘YICHA QARASHLAR

Annotatsiya. Olam o‘zaro shartlangan bir-birini taqozo etadigan elementlar munosabatidan tashkil topgan yaxlit bir sistema sifatida kichik butunliklarga bo‘linuvchan xususiyatga egadir. Obyektiv olam odidiydan murakkabga qarab sinflarga birlashuvchi va ayni chog‘da, bo‘laklarga bo‘linish xususiyatiga ega bo‘lgan murakkab sistema sanaladi. Bu bo‘linish inson ongida umumlashgan tarzda aks etadi va tilda o‘z ifodasini topadi hamda tilning obyektiv olam bilan ong orqali uzbviy bog‘lanishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: lingvistika, sistemaviy yondashuv, idrok, ong, maydon nazariyasi, fonologik birliklar, lingvistik birlik.

Аннотация. Вселенная как целостная система, состоящая из взаимоотношений взаимозависимых элементов, имеет свойство разделяться на малые целые. Объективный мир рассматривается как сложная система, объединяющая классы от простого к сложному и в то же время обладающая свойством разделяться на части. Это разделение отражается в сознании человека в общем виде, находит свое выражение в языке и показывает целостную связь языка с предметным миром через сознание.

Ключевые слова: лингвистика, системный подход, восприятие, сознание, теория поля, фонологические единицы, языковая единица.

Annotation. *The universe as a whole system consisting of the relationship of mutually dependent elements has the property of being divided into small wholes. The objective world is considered a complex system that combines classes from simple to complex and at the same time has the property of being divided into parts. This division is reflected in the human mind in a general way and finds its expression in the language and shows the integral connection of the language with the objective world through consciousness.*

Key words: linguistics, systematic approach, perception, consciousness, field theory, phonological units, linguistic unit.

Kirish. Obyektiv olamning inson ongida aks etishi va tilda o‘z ifodasini topishi sistemaning muayyan mavzu guruhlarga bo‘linishi orqali namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham til sistemasini maydon sifatida o‘rganish til – ong – borliq dialektik munosabatini ochishda katta ahamiyatga ega.

Jahon, jumladan, o‘zbek tilshunosligiga maydon nazariyasining kirib kelishi, til mazmuniy sistemasiga maydon sifatida qarashning ma’lum afzalliklari, maydonning xususiyatlari, uning o‘ziga yondash boshqa hodisalardan farqlanishi, o‘zbek tili mazmuniy sistemasida ma’lum o‘rin tutuvchi ayrim mikromaydonlar borasida fikr yuritish o‘zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev haqidagi so‘zdan boshlanadi [1].

XX asming 70-yillaridan boshlab strukturalizm o‘zbek tilshunosligiga ham kirib kela boshladi. Bu sohada o‘zbek tili leksik birliklarini makro va mikrosistemalariga bo‘lib, ularning bir qator mikrosistemalarini monografik tadqiqot obyekti sifatida o‘z shogirdlariga tavsiya etgan professor Sh.Rahmatullayevning xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. I.Qo‘chqortoyev esa Sh.Rahmatullayev g‘oyalarini rivojlanrib, bu sohada keng ilmiy tadqiqotlar olib bordi [2]. Til va nutq farqlanishi, til birliklarida shakl va mazmun munosabati, F.de Sossyurning lingvistik konsepsiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlari o‘zbek tilshunosligida struktur yo‘nalishning shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Fonologik sathda sistemaviylik turkiy tillar materiallari asosida A.M.Shcherbak tomonidan ilk bor o‘chib berilgan edi [3]. Unda fonologik birliklar fonologik zidlanishlar asosida tadqiq etiladi. Fonemalar funksional jihatidan atroflicha o‘rganiladi.

O‘zbek tili fonologik sathidagi sistemaviylik professor A.Abduaizov tomonidan, dastlab, «Umurniy tilshunoslik» kitobida ko‘rsatib beriladi. Unda o‘zbek tilidagi unli va undosh fonemalarning farqlovchi (diferensial) va farqlamaydigan (nodifferensial) belgilari, fonemalar o‘rtasidagi zidlanishlar va ularning turlari atroflicha yoritiladi. Bu tadqiqot maydonga kelgunga qadar V.V.Reshetovning «O‘zbek tili. Fonetika» (1960) hamda F.Abdullayevning «Xorazm shevalari fonetikasi» (1960) kitoblarida ham fonema va uning variantlari haqida bat afsil ma’lumot berilgan va bu bilan fonetik sathda til va nutq munosabatini yoritishga harakat qilingan bo‘lsa ham, lekin hali bu davrda o‘zbek tilshunosligiga strukturalizm nazariysi yetib kelmagan edi. Fonema va uning variantlari masalasi L.V.Shcherba, A.A.Reformatskiy kabilar qarashlari ta’sida bayon qilingan edi.

Sistemaviy-struktur tadqiqotlarning keng tarqalishi 80-yillarga to‘g‘ri keldi. Bu davrda o‘zbek tili fonologiyasi, leksikologiyasi, sintaksisini sistemaviy-struktur nuqtayi nazaridan tadqiq etuvchi qator asarlar maydonga keldi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbek tilining barcha sath birliklarining sistemaviy-struktur tadqiq etishga da’vat H.Ne’matov, N.Mahmudov va A.Nurmonovlar tomonidan e’lon qilingan maqoladan boshlandi [4;134-b.]. Natijada o‘zbek tilshunosligida sistemaviy tadqiqotlarga “hujum” davri boshlandi deyish mumkin. Shundan so‘ng o‘zbek tili fonologik sistemasiga bag‘ishlangan A.Nurmonovning «O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi» (1992), A.Abduaizovning xuddi shu nomdag‘i kitobi (1994), o‘zbek tilining morfem paradigmatisasi va sintagmatikasiga bag‘ishlangan T.Mirzaqulovning monografiyasi (1994), o‘zbek tili sistem leksikologiyasiga bag‘ishlangan H.Ne’matov va R.Rasulovlarning «O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari» (1995), morfoloqik sistemasiga bag‘ishlangan R.Rasulovnmg «O‘zbek tili fe’llarining semantik strukturasi» (1990), mualliflar guruhining «O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfoloziya» (2001), O‘zbek tili sintaktik sistemasiga bag‘ishlangan «O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi», «O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis», A.Berdialiyevning «Ergash gapli qo‘shma gap konstruksiylarida semantik-signifikativ paradigmata» (2001), M.Qurbanova, R.Sayfullayevalarning «O‘zbek tilining struktural sintaksisi» (2004), N.Turniyozovning «Funksional sintaksisga kirish» (2003), til va nutq dixotomiyasiga bag‘ishlangan H.Ne’matov va O.Bozorovlarning «Til va nutq» (1989), lingvistik birliklar darajalanishiga bag‘ishlangan O.Bozorovning «O‘zbek tilida darajalanish» (1997), lingvistik belgiga bag‘ishlangan A.Nurmonovning «Lingvistik belgi va uning xususiyatlari» (2008) kabi ishlari va boshqa bir qancha monografik tadqiqotlar va ilmiy maqolalar e’lon qilindi.

Shuningdek, Sh.Shahobiddinovning «O‘zbek tili morfoloziyasi umumiylilik-xususiylik dialektikasi talqinida» (1994), Sh.Iskandarovning «O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon asosida o‘rganish»

(1998), B.Mengliyevning «Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar» (2001), M.Hakimovning o‘zbek tili pragmatikasiga bag‘ishlangan «O‘zbek tili ilmiy matnining pragmatik tadqiqi» (2001), N. Mahkamovning «O‘zbek tilida pleonazm» (1988), A.Sobirovning «O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi sifatida tadqiq etish» (2005), D.Nabiyevaning «O‘zbek tilining turli sathlarida umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo‘lishi» (2005), D.Nurmonovaning «O‘zbek tilida paradigma a’zolari o‘rtasidagi zidlanishning mo‘tadillashuvi» (1998), L.Nigmatovaning «O‘zbek tilida privativlik» (2020), M. Abdiyevning «Sohaviy leksikaning sistem tahlili» (2005), J.Eltazarovning «So‘z turkumlari paradigmasi-dagi o‘zaro aloqa hamda ko‘chish hollari» (2006), D.Lutfullayevaning «Gapni semantik-sintaktik qolip-lashtirish muammolari» (2005) singari qator tadqiqotlari maydonga kelishi o‘zbek tilshunosligida sistemiyy-struktur yo‘nalishning chuqur ildiz otishiga olib keldi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligida ikki yo‘nalishda bab-barobar ilmiy tadqi-qotlar olib borilgan. Ularning birinchisi an‘anaviy yo‘nalishda, ikkinchisi sistemaviy-struktur yo‘nalishda. Bu ikki yo‘nalish, Mahmud Koshg‘ariy ta‘biri bilan aytganda, “ikki uloqchi otdek o‘zbek tilshunosligi aravasini barobar tortgan” [5;137-b.]. Bu ikki yo‘nalish bir-birini mutlaqo inkor etmagan. Aksincha, ularning biri ikkinchisiga tayangan va biri ikkinchisidan oziqlangan.

O‘zbek tilshunosligida sistemaviy-struktur tilshunoslikning «formal-funksional yo‘nalishi»dan bir-oz farq qiladigan ikkinchi yo‘nalish ham vujudga keldi. Bu yo‘nalish quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

1. Tilni o‘rganishda induktiv va deduktiv tamoyillarning hamkorligi.
2. Nutqiy faoliyatda til-nutq dixotomiyasining amal qilishi, invariant-variantlilik munosabatini belgilash.
3. Til sistemasining iyerarxik tuzilishi. Bir sath birliklari va sathlararo birliklar munosabati.
4. Lingvistik birliklarning belgili tabiat. Lingvistik belgida shakl va mazmun munosabati.
5. Nutqiy faoliyatda lingvistik va ekstralingvistik vositalar hamkorligi.
6. Tilning ijtimoiy funksiyalari (kommunikativ, ekspressiv).

Bu tamoyillar asosida hozirgi kunda o‘ndan ortiq monografiyalar, yuzdan ortiq maqolalar maydonga keldi [6].

O‘zbek tilshunosligidagi struktur yo‘nalishlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Ulardan birinchisi o‘zlarining tadqiq yo‘nalishini «formal-funksional yo‘nalish» deb nomladilar va bu yo‘nalishning tadqiq tamoyillari asosida M.Qurbanovaning “O‘zbek tilshunosligida formal-funksional yo‘nalish va sodda gap qurilishining talqini” mavzusidagi monografik tadqiqoti ham maydonga keldi [7;137-b.]. Bu monografiyada o‘zbek tilshunosligidagi formal-funksional yo‘nalishning ildizlari va asosiy tamoyillari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Unda qayd etilishicha, formal-funksional yo‘nalish struktur tilshunoslikning funksional tarmog‘i va S.Ivanovning substansional konsepsiyasidan oziqlanadi va 5 ta asosiy tahlil tamoyillariga asoslanadi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) lisoniy birlikning zotiy (substansional) tabiat;
- 2) har bir lisoniy birlikning kamida ikki paradigmaga mansubligi;
- 3) lisoniy birlikning barcha bosqichlarida oraliq uchinchining mutlaqligi;
- 4) lisoniy tizimning iyerarxik (pog‘onaviy) qurilishi. bu iyerarxiyada har bir bo‘g‘inning nisbiy mustaqilligi va uzvlarining gipo-giperonimik munosabatlar bilan ochiq mikrosistema sifatida o‘zaro bog‘lanishi;

5) har bir lisoniy birlikning o‘z xususiy sinonimik va graduonimik qatorga ega bo‘la olishi va bu qatorlarning umumiyligi lisoniy sistema va mikrosistemalarga, ularning strukturasiga bevosita aloqador emasligi.

Bu tamoyillarning birinchisi va to‘rtinchisi L.Yelmslevning deduktiv tamoyili ta’sirida shakllanganligi ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda til birliklari sifatida faqat uchta birlikni-fonema, morfema va konstruksiyaning e’tirof etilishida deskriptiv lingvistikaning ham ta’siri seziladi.

Xulosa. Yuqorida bayon qilingan tamoyillardan ko‘rinib turibdiki, sistemaviy-struktur yo‘nalishlarining har uch tarmog‘iga xos eng ratsional tomonlarni va sharq falsafasining obyektni fahmiy va idrokiy bilish haqidagi ta’limotlarini o‘zida mujassam etgan. Bu yo‘nalish lingvistik birliklarning ichki stukturasi va funksiyasiga ko‘proq e’tibor beradi. Shuning uchun uni «struktur-funksional yo‘nalish» deb nomlash maqsadga muvofiqdir. Struktur tilshunoslikda substansiya va shaklning farqlanishi hamda bu ikki tomonning qaysinisiga e’tibor tortilishi struktur tilshunoslikning turli matablarga bo‘linishiga sababchi bo‘ldi.

Foydalanimadabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Rahmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. Toshkent, “Universitet”, 2007.
- (2). Qo‘chqortoyev I. F.de Sossyurning lingvistik konsepsiysi. Toshkent, 1976.
- (3). Ne‘matov X. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992, 5-bet.
- (4). Щербак А.М. Введение в сравнительное изучение тюркских языков. Sankt-Peterburg, 1994.

(5). Нурмонов А. Структур тишлинуослик илдизлари ва йўналишлари. Тошкент, ”Таълим”, 2009, 134-bet; Неъматов Ҳ. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков. “СТ”, 1984, №5, с. 3–10.

(6). Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. ДДА, Тошкент, 1997; Мирзакулов Т.У. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масаллари. Тошкент, 1994.

(7). Qurbonova M. O’zbek tilshunosligida formal-funksional yo‘nalish va sodda gap qurilishining talqini. T., 2001, 51-bet.

**Uralova Oysuluv Poyon qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti, f.f.f.d. (PhD), dotsent)
INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA ZOOLEKSEMALI MAQOLLAR SEMANTIKASI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o’zbek tillaridagi zooleksemali maqollarning ikki tildagi semantik xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mashhur yozuvchi va olimlarning maqollar ustida olib borgan ishlaridagi xulosalari va maqollarning inson hayotidagi o‘rni, ahamiyati keltirib o‘tilgan. Turli tillardagi maqollarni qiyoslab o‘rganganimizda, ular o‘rtasidagi farq va o‘xhashliklar aniqlandi.

Kalit so‘zlar: maqol, zooleksema, semantika, qiyoslash, madaniyat.

СЕМАНТИКА ПОСЛОВИЙ С ЗООЛЕКСЕМОЙ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются семантические особенности английских и узбекских пословиц с зоолексемами в обоих языках. В данной статье представлены выводы известных писателей и ученых в их работах о пословицах, а также о роли и значении пословиц в жизни человека. Когда мы сравнили пословицы на разных языках, мы выяснили различия и сходства между ними.

Ключевые слова: пословица, зоолексема, семантика, сравнение, культура.

SEMANTICS OF PROVERBS WITH ZOOLEXEMA IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. This article examines the role of “proverbs” in English and Uzbek cultures. In this article, several ideas about proverbs and their peculiarities have been done by famous writers and researchers. This article will be useful in my own research as I develop a clear theoretical framework for the role of proverbs in English and Uzbek cultures.

Key words: proverb, zoolexema, semantics, comparison, culture.

Kirish (Introduction). Xalq yaratgan ma’naviy madaniyatning yaxlit bir butunligi bu, albatta, o’sha xalqning maqollari hisoblanadi. Har bir xalqning og‘zaki yoki o‘zma yodgorligini olib qaraylik, unda bani bashar xotirasida elas-elas saqlanib kelayotgan asotir afsonalar, uzoq tarix qa’ridagi ibtidoiy tasavvur va tushunchalar, asrlar davomidagi kuzatishlardan hosil bo‘lmish hayotiy hikmatlar qaymog‘i-insoniy tafakkur tajribasining in’ikosini ko‘ramiz. Ingliz va o’zbek xalq maqollari ham ana shunday ming yillar ichida yig‘ilib, sayqal topgan ilmiy-badiiy tafakkur hosilasi sifatida yuzaga kelgan, xalq orasida aytilib, puxtalaniib, avloddan avlodga eng yaxshi ma’naviy meroslardan biri bo‘lib o‘tib keladi. O‘tmishda yaratilib va ishlatilib kelinayotgan eng yaxshi maqollar, xalq donishmandlarining namunasi sifatida, hozir ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bunday maqollar va hikmatli so‘zlar har bir xalqning ma’naviy boyligining qimmatbaho xazinasini tashkil etadi [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylilik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Ingliz va o’zbek tillarida maqollarning milliy-madaniy va universal xususiyatlari haqida qisqacha tahlil olib borildi. Пермяков Г.Л. “Основы структурной паремиологии, Кухарева Е.В. Типологически-универсальное и национально-специфическое в арабских пословицах и поговорках” nomli o‘quv qo‘llanma metodologik manba qilib belgildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Alisher Navoiy, Bobir, Muqimiyy, Furqat, Zavqiy, Lutfiy kabi shoir va yozuvchilar xalqqa tushunilishi oson bo‘lsin deb xalq ijodidan samarali foydalaniganlar. Yozuvchi M.Gorkiy ham maqqollarga yuksak baho berib: “Eng ulug‘ donolik so‘zning soddaligadir. Maqollar va qo‘shiqlar har vaqt qisqa bo‘ladi. Ularda butun-butun kitoblar mazmuniga teng keladigan fikr va sezgilar mavjud bo‘ladi” degan edi. Maqollarni chuqurroq tahlil etish va ularning turli tillardagi milliy-ma’daniy hamda umumbashariy qadriyatlarining aks etishi orqali o‘rganish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb muammosi bo‘lib kelmoqda. Qiyoslab o‘rganadigan bo‘lsak, dunyodagi barcha tillar o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Aynan shu fenomen turli tillarni bir-biridan ajratadi. Lekin shu narsa ma’lumki, til o‘rganuvchilar o‘ziga begona bo‘lgan tilni ona tili va shu til o‘rtasida ma’lum bir bog‘liqlik asosida o‘zlashtiradi [2]. Bu tillar ma’lum bir kategoriylar ostida birlashadi. Bu kategoriyalarda grammatik kategoriylar, leksik-semantik kategoriylar, funksiyanal kategoriyalarga o‘xshagan lisoniy belgilari kiradi.

Demak, umumlashtiruvchi kategoriylar tillardagi universallikni ta'minlaydi. Shu asnoda, maqollar har bir tilda uchraydigan o'ziga xos til birligi ekan, ularda ham umumiylilik mavjud. Shu haqda G.L. Permiakov quyidagicha fikr yuritadi: "Holatlarni umumiylashtirish xususiyati, ya'ni, bir xil yoki o'xshash holatlarni birlashtirish turli xalqlar maqollarida uchraydi. Maqollardagi shu bir xillik universallikni ta'minlaydi va ko'p holatlarda alohida mantiqiy ma'noga ega bo'ladilar. Bundan kelib chiqadiki, maqol dunyosi jahon sivilizatsiyasi bilan bog'liqdir, uni faqat bir millatga tegishli deyish mutlaqo noto'g'ri. Maqollardagi universallik paremiologyaning asosiy qirrasi bolib, u maqollardagi o'xshash va bir xil holatlarni umumlashtiradi, hatto qarindosh bo'limgan tillarda, ularning tarixiga, etnosiga qaramay uchraydi. Shuni aytib o'tish kerakki, ko'plab maqollarning har xil tillardagi shakllarida ham shaklan, ham ma'no jihatdan yoki umumiylar funksiyalaridan o'xshashlik topsa bo'ladi" [3]. O'zbek tilidagi ayrim maqollar ingliz maqollariga funksional jihatdan mos keladi. Masalan, *First think, then speak* maqolini o'zbek tilidagi muqobil varianti *Avval o'yla – keyin so 'yla* maqoliga to'g'ri keladi, chunki bu maqol har ikkala tilda aynan bir xil ma'noga ega hamda uning grammatik tizimi ham ancha yaqin. Shu bilan birga, ma'lum bir tildan ikkinchi tilga berilgan o'girishlarda maqollarning aynan o'xshashini topish qiyin bo'ladi. Shunda izohlarga yoki ikkinchi bir adekvat variantga murojaat qilinadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbek tilidagi maqollarning ingliz tilida yoki ingliz tilidagi maqollarning o'zbek tilidagi muqobil variantini topish ancha mushkul, bu borada maqollarga o'rni kelganda izoh berib o'tish tarjimaga putur yetkazmaydi, balki uni to'ldiradi va boyitadi. So'zlaguvchi nodon bo'lsa, eshitguvchi dono bo'lsin, maqolinining aynan nusxasi inglizchala yo'q bo'lgani holda bu maqolni uning yaqinroq ekvivalenti bilan berish mumkin. Lekin uni If speaker is fool listener should be wise deb tarjima qilinsa uning o'zbekcha qoloriti saqlanib qoladi va bu hammaga tushunarli bo'ladi. Xuddi shu so'zlarini Qassob moy qayg'usida, echki – jon qayg'usida maqoliga ham qo'llab, uni The butcher grieves for bacon, and the goat – for its life qabilida berilsa ma'qul bo'ladi. Qizi borning nozi bor maqolini ingliz tiliga Who has a daughter that has a whim qabilida berilsa, Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek urfodatlaridan bexabar ingliz o'quvchisi uni butunlay tushunmasligi mumkin. Ingliz tiliga uni Parents of the bride may be capricious (they can expose their own terms) deb ag'darishdan boshqa chora yo'q [4].

Boshqa yo'li. Bu maqol mazmunini beruvchi boshqa maqol topish lozim deb hisoblaymiz. Bir-birlariga ma'no va stilistik vazifa jihatlaridan mos bo'lib, so'z tartibida kamdan kam mos bo'lsa, sonda kamdan kam farq qiladilar, leksik tarkib jihatidan farq qiladigan muqobil variantlar. Ularning ko'pchiligi shaklan milliy, mazmunan baynalmilaldirdar. Ular shakli bilan o'zlarining muayyan milliy tilga mansubliklarini tasdiqlasalar, mazmuni bilan jahon madaniyati va sivilizatsiyasi mahsuli ekanliklarini namoyon qiladilar. Pigeon's milk–Anqoning urug'i, Every dog is a lion at home–Har kim o'z uyida bek, orzu qilib yetib bo'l-maydigan narsani inglizlar "Pigeon's milk" (kabutarning suti), ruslar «Ptiche moloko» desalar, o'zbeklar "anqoning urug'i" (afsonaviy qush tuxumi) deydilar. Odamlardan allaqachon barchaga ma'lum sirni yashirishning bexudaligini obrazli ifodalash uchun ruslar "Shila v meshke ne utonesh" maqoliga murojaat qilsalar, o'zbeklar ushbu o'rinda "Oyni etak bilan yopib bo'lmash" maqolidan foydalanadilar. "Bedana tezotar" bo'lsa, O'z boshini o'zi yer». Ingliz idiomalari orasida ba'zi birlari *cat gets one's tongue* – tiliga mushuk kirib qolmoq tarjima jarayonida ekvivalentga almashtirilgani ma'qul. Sababi ozzbek olam milliy manzarasi uchun biroz yot bo'lgan bu iboraning tilimizda mum tishlagan, og'ziga talqon solib olgan degan ekivivalentlari mavjudki ularni, qo'llash o'quvching matn mazmunini teranroq tushunishiga yordam beradi, o'zbeklar «Zag'izg'on sog'ligidan o'lmash, suqligidan o'lar» deydilar. Ma'lumki, har bir xalq o'z e'tiqodi, milliy xususiyati, o'ziga xos fantastik obrazlari, turli tuman ko'chma manoli birikmalari uchun asos qilib olingan misollari bor. Shu kabi V.Shekspir asarlardagi maqol va matalarda ham yuqoridagi jihatlar o'z ifodasini topgan. Tillardan tillarga tarjima qilish mumkinligini asoslaydigan narsa jahon xalqlari, garchi turli tuman tillarda so'zlashsalar, ammo ularning taffakkur qonunlari bir xildir. V.Shekspir asrlaridagi maqol va matallar ham o'z davri turmushining xalq taffakkuri asosida yuzaga degan tushunchalarini o'zida mujassam qiladi. E.V.Kuxareva arab va rus maqollar bo'yicha tadqiqotlar olib borib, shunday xulosa qiladiki, aksariyat maqollar mavzu va holatlarga nisbatan umumiylikka ega ekan. Bu umumiylikni paremiologlar turlicha asoslar ekanlar, bir guruh olimlar maqollardagi o'xshashlikni etnik kelib chiqish va qarindoshligi bilan asoslasa, boshqa olimlar yangi maishiy va ma'daniy aloqalarning kirib kelishi va qabul qilinishida deyidilar, uchunchi guruh olimlari esa tarixiy rivojlanish pog'onalarini natijasi va g'oyalar uyg'unligida deb asoslaydilar.

"Universaliya" atamasi lotincha "universalis" so'zidan olingan bo'lib, "umumiy", degan ma'nolarni anglatadi va u deyarli barcha tillardagi xususiyatlarni qamrab oladi. Universaliyalar ikki ko'rinishda bo'ladi: deduktiv universaliyalar shunday til xususiyatlariki, ular barcha tillarda uchraydi va aniq ifodalanadi. Bularga, asosan, gaplarning har xil strukturaviy turlarining ishlatalishi kiradi, induktiv universaliyalar esa deyarli barcha mashhur tillarda mavjud.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib shuni izohlaymizki, maqollar ta’rifi barcha xalq madaniyatiga mos kelishi va ularni qoniqtirishi kerak ekan. Maqollari turli madaniyatga xos bo’lsa ham, ya’ni, biri ingliz milliy madaniyatiga va ikkinchisi o’zbek milliy madaniyatiga oid til birikmalari bo’lsa-da, ulardagi mantiqiy mazmun deyarli bir xil, ya’ni kasalni yashirsang isitmasi oshkor qiladi. Turli til va milliy madaniyatdagi universallik esa yuqoridagi maqollarda ochiq ko’rinib turibdi. K.Y. Alibekov shuni ta’kidlaydiki, hozirgi kunda maqollar faqatgina xalq og’zaki ijodi namunasi sifatida emas, balki lingvomadaniyatning birligi sifatida o’rganilmoqda. U “sog’liq” va “gigiyena” konseptlarini rus, o’zbek va qozoq tillarida qiyoslab o’rganib, shunday xulosaga keladiki, rus madaniyatida “sog’lik” va “gigiyena” konseptlari qimmatbaho zaruratni kasb etsa, o’zbek va qozoq tillarida bu konseptlar boylik bilan tenglashadi. Bo’ndan ko’rinib turibdiki, uch xalqning milliy madaniyatida mazkur konseptida bir-biriga deyarli yaqin ma’nolarni anglatadi [5]. K.Tumanishvili maqollar millatning tarixiy o’y-fikrlari natijasi bo’lib, ularni ma’lum bir guruhning “avtobiografik” xotirasi deb nomlaydi. Maqollar milliy shakl namunalari bo’lib, millat ongida uyg’unlikda va milliy fikrlash tizimi asosida joylashgandir. Bu esa etnik guruhning qirralarini tabiiy ravishda namoyon etadi va genetik axborot natijasida quriladi.

Demak, maqollarning universal va milliy xususiyatlari egaligi haqida ko’p tadqiqotlar olib borilgan. Universal xususiyatlар maqollarning tuzilishida, bir ma’noviylik va ko’p ma’noviylikligida hamda mavzularida namoyon bo’lsa, buning sababi tarixiy rivojlanish, xalqaro aloqalarning kuchayishi va umumbashariy qadryatlarning o’sishi hisoblanadi. Milliy xususiyatlар – milliy fe'l-atvor, milliy ruh aksi bo’lib, muayyan bir etnosga tegishli xususiyatlар. Muayyan bir etnosning yashash joyi, tarixi va milliyligi kabi zaruriy qirralarini bilmasdan turib, uning maqollari mag’zini, ma’nosini tushunish mutlaqo mumkin emas. Maqollar xushyor bo’lishga, do’stni dushmanidan farq qilishga, insonparvar, xushfe'l, shirin so’z, sadoqatli bo’lishga, ota-on, qarindosh-urug’ va do’stlarni qadrlashga, kattalarni hurmat qilishga, kichiklarga nisbatan shafqatli bo’lishga o’rgatadi: “Zag’cha sigirdan qo’rqmas”, “Itda jiyan yo‘q, Baqada – qayin”, “Itdan suyak ortmas” kabi maqollar xalqimizda keng tarqalgan bo’lib, eng yaxshi ma’naviy meroslarimizdandir. Shunday ekan, milliy istiqlol g’oyasini yoshlar ongiga singdirishda, ularni barkamol avlod etib tarbiyalashda talabalgarda tushinilishi oson bo’lsin deb dono fikrlarni o’z ichiga olgan maqollar bilan suhabatlarimizni bezash va samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Tumanishvili. The specific and the Universal in the Proverb Genre. Rustaveli Institute of Georgian Literature. Volume 1, 2007.
- (2). Mirzayev T. O’zbek xalq maqollari. Toshkent, “Sharq”, 2012.
- (3). Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида “оила” бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс., Самарқанд, 2021, 25-bet.
- (4). Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц (на материале русского, узбекского и казахского языков). Ташкент, “Фан”, 2006, 297 с.
- (5). Uralov, O.P.Q. (2021). Lexico-semantic features of the proverbs by the names of beverages and vegetables in english, russian and uzbek languages. Theoretical & applied science учредители: теоретическая и прикладная наука, 12, p. 1165–1169.
- (6). Uralova Oysuluv Poyan qizi. Adequate characteristics of English and Uzbek proverbs with zoocomponent. International conference of natural and social humanitarian sciences, 21.01.2024/universalconference.us.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Amirkulova Zebuniso Mustafakulovna (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti “Pedagogika” kafedrasiga dotsenti, p.f.f.d. (PhD); e-mail: zebuniso.amirkulova@mail.ru)

HIKOYADA TARIXIY VOQELIK VA BADIY TALQIN

Annotatsiya. Ushbu maqolada hikoyanavis Xayriddin Sultonovning “Panoh” hikoyasida tarixiy voqelik va badiy talqinining o‘zaro uyg‘unlashuvining tarixiy voqealar asosida bayon qilinganligi ifodalangan.

Kalit so‘zlar: tarix, hikoya, adabiyot, obraz, mustaqillik, ijodkor, muallif, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ahmad Tanbal, Jahongir Mirzo.

Амиркулова Зебунисо Мустафакуловна (Термезский университет Экономики и сервиса, доцент кафедры «Педагогика»; e-mail: zebuniso.amirkulova@mail.ru)

ИСТОРИЧЕСКАЯ РЕАЛЬНОСТЬ И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация. В данной статье описывается сочетание исторической реальности и художественной интерпретации на основе исторических событий в рассказе писателя Хайриддина Султана «Панах».

Ключевые слова: история, повесть, литература, образ, независимость, творец, автор, Захирiddin Muhammad Babur, Ahmad Tanbal, Jahongir Mirza.

Amirkulova Zebuniso Mustafakulovna (Termiz University of Economics and Service Associate professor of the “Pedagogy” (PhD)

HISTORICAL REALITY AND DIVINE INTERPRETATION

Annotation. This article describes the combination of historical reality and artistic interpretation in the story “Panah” by the story writer Hayriddin Sultanov on the basis of historical events.

Key words: history, history, literature, image, independence, creator, author, Zakhiriddin Muhammad Babur, Ahmad Tanbal, Jahongir.

Kirish. Badiiy adabiyotda tarixiy shaxslar mavzusida asarlar yaratish muhim o‘ziga xos o‘rin tutadi. Tarixiy shaxslar haqida asarlar mavzusi jahon adabiyotida ham ijodkorlarning diqqat-e’tiborini jalb qilib keladi. Mustaqillik bu sohada katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Natijada o‘zbek adabiyotida ham tarixiy shaxslar mavzusida yozilgan qator badiiy asarlar yuzaga keldi. Ma’lumki, mustaqillikkacha bo‘lgan davr adabiyotida bu soha tubdan g‘oyaviy-badiiy jihatdan farq qilar edi. Bu farq shundaki, u davorda tarixiy faktlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, tanqidiy nuqtayi nazardan yoritilar, ijod yo‘llari berk edi.

Tarixiy shaxslar mavzusidagi hikoyalarning ufqi ancha keng, ularda ifodalangan hayot lavhalari rang-barang yaratilgan. Ulardagi qahramonlar har xil xarakter egalar, turli yoshdagi kishilardir. Ular orasiда shohlar-gadolar, ijod ahli, yosh-u keksalarni uchratish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hikoyanavislarmiz Rahimjon Otayev “Saddi Iskandariy”, “Diyдор”, “Qorasuv”, “Mahmudlar” turkumi, Luqmon Bo‘rixon “Aldoqchi tunlar”, Shoim Bo‘tayev “Hisomiddin al-Yog‘iy”, Xurshid Do‘stmuhammad “Qazo bo‘lgan namoz” kabi hikoyalarida tarixiy shaxslar obrazlari galereyasini yaratdilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarixiy shaxs qismatida butun bir jamiyat, xalq qismati aks etgan bo‘ladi. Bu tipdagи hikoyalar qahramonlari siyomosi atrofida yozuvlar, fazilatli insonlar, ahmoqlar yoki ijodkorlar ham bo‘lishi tarixiy haqiqat.

Tahlil va natijalar. Istiqlol tufayli qayta tiklanayotgan milliy tariximizni to‘g‘ri anglash uchun uni badiiy adabiyotda haqqoniy aks ettirish talab etiladi. Ijodkorlarimiz shu mas’uliyatni chuqur his qilib, ijodiy erkinlikdan foydalangan holda, tarixiy mavzuda ko‘plab asarlar yozdilar. Ularda Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamashshariy, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimiz obrazlari mahorat bilan yaratildi.

Ana shunday ajdodlarimizning hayot yo‘lini o‘z asarlarida mahorat bilan tasvirlagan ijodkorlardan biri Xayriddin Sultonovdir. Ushbu ijodkor “Panoh” hikoyasida tarixiy mavzuda yangicha munosabat bilan bir qator hikoyalar yozdi. Xususan, ijodkor o‘z asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur obrazini jonli va ishonchli tarzda ifodalashga harakat qilgan.

Asar muallifi 1992-yili boburiylar izlarini izlab Eron, Turkiya, Suriya, Iordaniya, Saudiya Arabiston, Birlashgan Arab Amirliklari, Pokiston, Afg‘oniston mamlakatlari bo‘ylab tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiya tarkibida ishtirok etdi. Safar taassurotlari, xotira va hayajonlari, ular davomida ajdodlarimizning bemisl madaniy merosi, ularning zafar-fojialari, kechmish-iztiroblari, kelgusi nasllarga qoldirgan umr saboqlari, muqaddas ziyyoratgohlar haqida to‘plangan ko‘plab muhim ma’lumotlar muallif uchun “Oy botgan palla-da”, “Panoh” hikoyalari, “Tavba”, “Boburning tushlari” badiali, niyoyat, “Saodat sohili” qissasi “Boburnoma” ma’rifiy romani yaratilishida adabiy-estetik zamin vazifasini o‘tagan. “Boburnoma” ma’rifiy roma-

nining yaratilishida asos bo‘lgani, shubhasiz [1;21–24-b.]. Tarix haqiqatini avlodlar ongiga singdirishning eng ta’sirchan usuli uni badiiy asarlar tiliga ko‘chirmoqdir. Binobarin, shonli tariximizni, benazir ajdodlarimizning ibratga loyiq hayot yo‘lini badiiy asarlar orqali avlodlar ma’naviy mulkiga aylantirish yozuvchi va shoirlarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Taniqli adib Xayriddin Sultonovning “Panoh” hikoyasi ana shu maqsadga xizmat qilishi jihatidan muhim ahamiyatga ega.

Hikoya kompozitsiyasi o‘ziga xos. Asarda moziy va zamonamiz voqealarini almashinib keladi. Hikoya voqealarining bu tarzdagagi ichki qurilishi o‘quvchining e’tiborini bir maromda ushlab turadi. Natijada kitobxon mutolaa jarayonida toliqmaydi, aksincha, qiziqishi tobora ortib boradi. Asar sujetida Jahongir Mirzo, Sulton Ahmad Tanbal, Qosimbek kabi tarixiy shaxslar obrazi voqelar silsilasida namoyon bo‘ladi. Eng faol obrazlardan biri – Bobur obrazi. Muhimi, har bir obraz, har bir badiiy detal yagona maqsadga – Boburning shaxs, shoir, shoh va mutafakkir sifatidagi siyemosini ifodalash etishga xizmat qiladi. Bu uslub asar voqealarini, garchi turli zamon va makonlarda kechgan bo‘lsa-da, yaxlit bir tizimga birlashtirib turadi.

Hikoya Zahiriddin Muhammad Bobur hayotining eng qiyin, ziddiyatlari bir pallasi voqealarini tasvirlash jarayoni bilan boshlanadi: “Hijriy to‘qqiz yuz yettinchi yilning qahraton qishida temuriyzoda hukmdor Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning ishlari taraqqiyidan tanazzulga yuz tutgan edi. Kech kuzakning rutubatli, sovuq izg‘irinlari esa boshlaganda u uch oydan ortiq davom etgan qamal so‘ngida – ochlik, miskinlik, xor-zorlik nihoyasida, yer yuzining sayqali bo‘lmish shahri azim Samarqandni g‘addor dushmani Shayboniyxonga tashlab chiqdi. . .” [2;11-b.].

“Saltanat va harb-u zarb borasida hali achchiq tajribalar orttirib ulgurmagan yosh hukmdor omon qolgan yetmish-sakson chog‘li navkari bilan najot izlab ota yurti Andijonga otlandi. Ammo Samarqand sarhadlaridan chiqib ulgurmaslaridan oq, Andijondan noxush xabar yetdi: Zahiriddin Muhammadning inisi Jahongir Mirzo toj-u taxtni egallab, og‘asini qilich yalang‘ochlab kutmoqda emish” [2;12-b.].

Voqealar rivojiga e’tibor qaratar ekanmiz, Bobur shaxsining naqadar irodali va chidamli ekanligiga amin bo‘lamiz. Zero, Zahiriddin Toshkent hokimi Yunusxonning qizi Qutlug‘ Nigorxonim va Umarshayx mirzonig farzandi sifatida o‘zini munosib tutdi. Bejizga ulug‘ bobosi Toshkent hokimi Yunusxon u dunyoga kelganda “Qutlug‘ bo‘lsin, ulug‘larning ismi. Nasib etsa, inshoollo, yo‘lbarsday bahodir bo‘lg‘usidir. Inchunin, “Bobur”, ya’ni, “yo‘lbars” deb chaqirsak ham, bo‘lar ekan”, demagan edilar. Boburning xayolida shunday muammoli fikrlar g‘ujg‘on oynagan bir paytda choparning o‘ktam ovozi fikrlarini butunlay tarqatib yubordi.

Bobur Mirzo Qosimbekning o‘ktam ovozidagi sezilar-sezilmas toqatsizlik ohangini payqab, xirgoh keragasicidan ko‘zini oldi. Padari buzrukvorining xizmatida ham ko‘p saodatlar ko‘rsatgan bir qari, sohib tajriba bekning tulki tumoq ostidagi do‘ng qanshari asabiy tirishib turardi” [2;12-b.].

– Amirzodam, afv etsinlar, biroq qulingiz hech vaqt tezfahmlik da’vosini qilg‘an emas! – dedi Qosimbek yupqa lablari gezarib.

– Chakki qilursiz! Arkoni davlatga, siyosat dag‘dag‘asig‘a mansub har kimsa beistisno tezfahm bo‘l-mog‘i lozim, – dedi Bobur xiyol yumshab. – Zero, har ishning zaminida yuz ming mulohaza vojib. Bir be-mulohaza hukm tufayli ne balolarga duchor bo‘ldik, endi ko‘zni ochmoq darkor” [2;12-b.].

Mirzo Boburning bunday tarzda mulozimiga muomala qilishi bejizga emasdi, albatta. Chunki Qosimbek hiyla o‘ziga xos tabiatli kishi edi. Bu borada uning zukkoligi va tezfahmligiga tan bermaslikning hech ham iloji yuq! Ammo Bobur mulozimining bir muddat tez mulohaza qilganligidan ranjidi. Bunday javobni kutmagani Qosimbekning

– Qaysi bemulohaza hukm, amirzodam? –degan savoliga biroz ranjidi, shekilli, tezda mulohaza qilishning oqibati haqida quyidagi bir voqeani eslab o‘tdi.

Voqealar rivoji shuni ko‘rsatadiki, Qosimbek bu achchiq kinoyalarga hayronlik nazari bilan qaraydi, ammo bu yerda Mirzo Bobur tamomila haq edi. Hayoti davomida juda ko‘p bora xiyonatlarni ko‘rgan, taqdirning achchiq zarbalaridan ko‘zi ochilgan amirzoda uchun bu kunlar ham bir sinov va undan juda ehtiyyotkorlikni talab qilardi. Mirzo Boburning Qosimbekdan yana bir ranjigan tomoni Qosimbekdek mulozimning Ahmad Tanbaldek bir makkor tulkinining shirin so‘zlariga uchib turgani edi. Shu o‘rinda Bobur hazratlari Qosimbekka tezda mulohaza qilishning oqibatini bildirish maqsadida bu voqeani eslab o‘tdi.

“– Bu achchiq kinoyalalar emas, Qosimbek, – dedi Bobur o‘ychan, – bu achchiq haqiqatlar, xolos. Sizga kinoya qilmoq xayoli xotirimg‘a ham kelgan emas. Faqat, Sulton Ahmad Tanbaldek makkor tulkinining shirin so‘zlariga inonib o‘tirganingiz bizni behad taajjubga solayotir,” – deya javob berdi [3;15-b.].

Haqiqatdan, Bobur mirzoning xavotiriga asos bor edi. Voqealar rivoji shuni ko‘rsatadiki, Ahmad tanbal xoinlik qildi.

Tong qorong‘isida hamma Qanbar Alibekning jonholatdagi qichqirig‘idan uyg‘onib ketdi:

– Yog‘iy yetti, qo‘pung! [2;15-b.].

– Ah, it emgan Tanbal! Ko‘ppak Tanbal, haromnamak ekansan! – deb qichqirdi u va shu ondayoq dubulg‘asi boshidan uchib ketdi... [2;15-b.]

Shu o‘rinda “uron” terminiga e‘tiborimizni qaratamiz: O‘ron – “o‘z”, “o‘zimizniki” ma’nolaridagi mo‘g‘ulcha “o‘r”, “o‘rov” so‘zlaridan bo‘lishi mumkin, ammo bu so‘zni turkiylarga begona deb bo‘lmaydi. Mirzo Ulug‘bek “To‘rt ulus tarixi”da mo‘g‘ul tili ilgari turkiy tilga yaqin edi, deb yozadi. Qolaversa, turkiy xalqlarda azaldan har bir qabilaning o‘z belgisi bo‘lgan [4;89-b.].

E‘tibor qilinsa, Boburning “o‘ron” so‘ziga bergan mazkur izohi hamda “parol” so‘ziga “O‘zbek tili”ning izohli lug‘ati”da keltirilgan sharh deyarli bir xil. Ya’ni, ikkalasi ham: “o‘z kishilarini tanish uchun uchrashganda aytildigan va oldindan belgilab qo‘yiladigan shartli maxfiy so‘z” [4;52-b.].

“– Sayram! – dedi u qat‘iy, keskin ohangda. – Sayram!

Soqchiboshi birdan bo‘shashib, o‘qoyini yerga qo‘yarkan, pastga qarab po‘ng‘illadi:

– Darvozani oching!”

Va nihoyat, Toshkanddan o‘zlariga panoh topdilar...

Ushbu hikoyani o‘qir ekansiz, go‘yo usha davr silsilasiga tushib qolganday bo‘lasiz. Bosh qahramonning ko‘nglida kechgan o‘y-xayollar og‘ushida suza boshlaysiz. Unda kechgan iztiroblar ko‘lankasi sizning ham qalbingizni o‘rtay boshlaydi.

Muallif hikoya peyzajini boyitishda Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Husayn Boyqaro, Mir Alisher Navoiy, Jahongir Mirzo, Ahmad Tanbal, Qosimbek, Qanbar Alibek kabi tarixiy shaxslar obrazidan unumli foydalangan. Ushbu o‘rinda muallif “Maschoh va O‘ratepaga, undan esa tog‘ oshib Dakhat kentiga qarab chekinmoqqa majbur bo‘ldi”, deya o‘sha paytdagi joy nomlarini ham keltirib o‘tadi.

Asar tilini tahlil qiladigan bo‘lsak, hikoyada *padari buzrukvor, mutaassirligi, tajahhuli orifona, so-vut-sadog‘i, inonmoq, sha‘nu shukuh,g‘addor* kabi tarixiy so‘zlardan ham unumli foydalilanilgan.

Xulosa. Bu hikoyada eng faol obrazlardan biri – Bobur obrazi. Intiho sifatida shuni aytishimiz mumkinki, muallif bu asarda “Bobur” obrazini o‘zgacha bir yondashuv asosida ifodalangan. Xususan, undagi ichki faryod va tug‘yonlarni inson qalbining tub-tubigacha yetib borgan holda ochib bergen. Ushbu hikoyani o‘qir ekanmiz, Bobur shaxsingina naqadar nozik tabiat sohibi bo‘lganligiga, umrining aksariyat yillari rutubatli va xavf-xatarli o‘tganligiga yana bir bora ishonch hosil qilamiz.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Sh.Sirojiddinov, N.Jabborov. Bobur shaxsiyatining jozibasi. Saviya.uz.
- (2). X.Sultonov. Panoh. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
- (3). “Toshkent” deya atalur. Metodik-bibliografik qo‘llanma, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
- (4). Boburnoma. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2002.
- (5). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2001.

**Jo‘rayeva Dilorom G‘aybullayevna (Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi;
d.g.jurayeva@buxdu.uz)**

O‘ZBEK ADABIYOTIDA FEMINIST IJODKORLARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek zamonaviy adabiyotiga feminism oqimining kirib kelishi hamda uning feminist ijodkorlar asarlaridagi o‘rni borasida so‘z yuritiladi. Feministik nasr va she’riyat bo‘yicha ortirilgan badiiy-estetik tajribalar feministik janrning kelib chiqishiga ham ta’sir ko‘rsatgani kuzatiladi. Buni ayollar hayoti va obrazi aks etgan badiiy asarlarning tur va janriy rang-baranglik nuqtayi nazaridan poetik tadrijiy takomilga erishgani ayonlashtiradi.*

Kalit so‘zlar: feminism, ayollar erki, feministik janrlar, sarlavha, gender tenglik, Zulfiya, S.Zunnunova.

РОЛЬ ФЕМИНИСТСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. В данной статье говорится о внедрении феминизма в современную узбекскую литературу и его месте в творчестве художниц-феминисток. Отмечается, что на возникновение феминистского жанра повлиял и художественно-эстетический опыт, полученный в феминистской прозе и поэзии. Это объясняется тем, что художественные произведения, изображающие жизнь и образы женщин, постепенно совершенствовались в видовом и жанровом разнообразии.

Ключевые слова: феминизм, свобода женщин, феминистские жанры, звание, гендерное равенство, Зульфия, С.Зуннунова.

THE ROLE OF FEMINIST CREATORS IN UZBEK LITERATURE

Annotation. This article talks about the introduction of feminism into modern Uzbek literature and its place in the works of feminist artists. It is observed that the artistic and aesthetic experiences gained in feminist prose and poetry also influenced the origin of the feminist genre. This is explained by the fact that

artistic works depicting women's lives and images have gradually improved in terms of type and genre diversity.

Key words: feminism, women's freedom, feminist genres, title, gender equality, Zulfiya, S. Zunnunova.

G.B.Rustamova taqrizi ostida

Kirish. Ayollar ba'zan o'z sharoitlari va huquqlariga qiziqish bilan qarasalar, ba'zan uni e'tiborsiz qoldirishgan. Ayollarning an'anaviy burchlari borligi ma'lum. Ularning ana shu burch va hquqlariga munosabati esa ijodkorligida ham namoyon bo'ladi. Xususan, feminist ijodkorlar o'z jinsidan kelib chiqib, jinsdoshlarini tez va oson anglaydilar. Ko'pincha, ular ayollar huquqlarining himoyachisi sifatida maydonga chiqadilar. Buning uchun, o'rni kelsa, ayollar obrazini yumoristik yoki satirk tarzda ham umumlashtiradilar.

O'tmishda ayollar o'rnatilgan qattiq qoidalar, jamiyatdagi cheklovlar, rasmiy ta'lim yo'qligi, adabiyot va bilimlarga kirishning cheklanganligi ufyali katta qiyinchiliklarga duch kelishgan, ammo bularni yengib o'tib, ulkan yutuqlarga erishgan shoirlar ham bor. Agar erkak yozuvchi va shoirlar badiiy ijodni nafaqat o'z iste'dodi samarasini bilan, balki ko'proq tirikchilik vajidan ham amalga oshirgan bo'lsa, ayollar uni ko'ngil xushi, dard izhori shaklida ado etishgan.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek folklorshunosligida G'alina Musina, qiyosiy adabiyotshunosligimizda H.E.Muxammedova, A.I.Zoirova tadqiqotlari ayollar obrazni tadqiqiga bog'liqligi bilan alohida e'tiborni tortadi.

O'zbek adabiyotshunosligida Y.Eshmatova istiqlol davri o'zbek qissachiligidagi ayol ruhiyatining xilma-xil badiiy talqini, yozuvchi mahorati, yangicha ruhiy tahlil vositalarini, X.Lutfiddinova yozuvchining estetik ideali hamda ayollar obrazini "O'tkan kunlar" va "Kecha va kunduz" romanlari asosida, H.Ahmedova "Armon asirisasi" romanida ayol taqdirini, Q.Qahramonov shoirlar ijodida ayol ruhiyatini o'rgangan. O'zbek tilshunosligida Sh.Gulyamova erkak va ayolning milliy mentalitetiga xos xususiyatlarini umumlashdirib, ularni bir necha guruhlarga ajratib tadqiq etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, analitik tahlil hamda qisman semiotik usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ayollar xotinlik va onalik roliga juda katta ahamiyat berishgani sababli ularning ijodida nikoh, oila juda ulug'lanadi. Qolaversa, yozishni xohlagan yoki unga ma'naviy najot olish vositasini sifatida murojaat qilgan ayollar singdirilgan e'tiqodlar va o'ziga xoslik, ijodkorlikdan kelib chiqadigan o'ta muammoli keskinliklarga duch kelishlari, tabiiy. Ammo, sir emaski, qanchalik qiyin bo'lmasin, yozuvchi ayol uchun ikki yo'l borligi aniq. Bu yo uning uy farishtasi va sarishtasi bo'lishlikdan voz kechishi, yo erkin va halol yozish uchun kurashishi yo'lidir.

O'tmishda ayollarning ijodiy jarayonlari faqat erkaklar manfaati uchun ishlaydigan, erkaklar tomonidan o'rnatilgan ideallarning mavjudligi bilan buzilgan yoki to'sib qo'yilgan. Ba'zan shu maqsadda turmush qurmagan shoira va adibalar ham bor. Ular erkakning "boqish" minnatini ko'tarolmaydi va o'zini-o'zi moddiy ta'minlaydi yoki boshiga bevalik qismati tushsa, boshqa turmush qurmaydi. Shoira Zulfiya qismati buning yorqin dalilidir. Shoira "Sensiz" she'rida o'zining bu holatini barcha tomonlari bilan ochiq yoritgan.

Ayollik, yolg'iz onalik va bevalik hayoti qiyinchiliklarini aniq boshdan kechirgan, ammo ko'p jihatdan ularni muvofiqlashtira olgan Zulfiyaga ko'pchilik erkak va ayollar baravar tasanno aytgan. Zulfiya professional va uy-ro'zg'or o'rtasidagi muvozanatga erisha olgan shoira edi.

Rus adabiy tanqidchisi V.G.Belinskiy: "Ayolning vazifasi – erkakning qalb shuurini, undagi oliyjanob ehtiroslarni alangalatish, burch tuyg'usini va yuksaklik hamda buyuklik sari intilishini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Ayolning qismati shu va bu qismat buyuk va muqaddasdir", deydi [1;59-b.].

Darhaqiqat, XX asr o'zbek adabiyotining betakror sohibi qalamlari Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, E.Vohidov kabi iste'dodlarga taqdir ulardagi ana shu sifatni qadrhaydigan, ulug'laydigan, parvarish qiladigan imonli, diyonatli, ayollik vazifasini buyuk va muqaddas qismat deb bilgan yo'ldoshlarni nasib etdi. Hamid Olimjon va Zulfiya, Oybek va Zarifa Saidnosirova, Abdulla Qahhor va Kibriyoxonim, Said Ahmad va Saida Zununova – bu g'oyatda bir-biriga munosib juftliklarning hamnafaslikda kechgan hayotlari ular muhabbatining natijasi, ayni paytda, millatimiz ma'naviy, madaniy hayotining baxti, yutug'idir.

Zulfiyaxonimning "Quyoshli qalam" dostonida Zarifaxonim "qalamday vafodor, ilhomday zebo" deya sifatlangan. U adibning sertashvish umridagi munis hamdam ekani ta'kidlangan.

O'zbek adabiyotida feministlar, asosan, 18-asrdan maydonga kela boshlagan. XX asrning ikkinchi yarmidan ularning safi juda o'sdi. Ammo bizda matbuotda yaxshi natijalarga erishgan feministlar o'tgan asrning ikkinchi yarmigacha yo'q hisobi.

XX asrning ikkinchi yarmigacha faoliyatda bo‘lgan feministlar, asosan, ayollarning madaniyat, ta’lim berishdagi o‘rnı haqida gapirishgan bo‘lsa, undan keyingilari xotin-izlarning jamiyat boshqaruvchi, iqtisodiyot, siyosat, fan, ta’lim, madaniyat va san’atdagi faolligini kuchaytirishni zarur masala sifatida keng targ‘ib qilishga kirishdilar. Shu masalalar bo‘yicha matbuotning sukut saqlashi feministik adabiyotning paydo bo‘lishi va keng rivojlana boshlashiga turki berdi.

O‘zlarini jamiyatning qolgan qismidan chetlatishni istamagan, bir vaqtning o‘zida, o‘z taqdirlarini ko‘proq nazorat qilishni istashgan ayol ijodkorlar ko‘proq milliy qadriyatlarni o‘zlashtirgan holda, ularni o‘z maqsadlari uchun boshqarib, yangi yoki taqiqlangan hududga o‘tishga imkon topdilar. Bunday ayol ijodkorlar nafaqat o‘zbek yerida, balki o‘zga ellarda ham omma oldida nutq so‘zlash, erkak auditoriya bilan uchrashuvlar o‘tkazish yoki tashrif buyuruvchini suhbatiga qabul qilish singari imkoniyatlarga erishdi. Buni Zulfiyaning Hindiston safari bilan bog‘liq “Mushoira” she’ri asosida dalillash mumkin.

Mustaqillik davrida ayol ijodkorlar ovozi obro‘-e’tiborga ega bo‘ldi. Ulardan aksariyati “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoniga erishdi. Ammo ayollar orasidan ham pul topish uchun yiliga o‘nlab hikoya va qissalar yozayotgan feministlar paydo bo‘ldi. Ularning mazmunida ko‘proq uy ayolligi ideali talqinini davom ettirish ustuvorligi kuzatiladi.

Ayol yozuvchilar tomonidan xuddi erkak yozuvchilar kabi taxallus qabul qilinishi anonimlik va jins bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa rivojlanishning bir qismidir. Ingliz adibasi Ketrin Judd ayollarning an’anaviy tarzda taxallus qabul qilishlarining asosiy sabablarini sanab ko‘rsatgan. Bu sabablar quyidagilardan iborat:

- a) o‘z-o‘zini gender tarafkashlikdan himoya qilish uchun taxallusdan niqob sifatida foydalanish;
- b) oila sha’nini himoya qilish va yozuvchini oila noroziligidan himoya qilish;
- d) yozish uchun o‘zini erkin his qilish zarurati.

O‘zbek ayol ijodkorlari taxalluslardan foydalanishga nisbatan moyillikda erkak hamkasblaridan deyarli qolishmaydilar. Erkak va ayol mualliflar o‘z jinsidan taxallusni kesib o‘tishdan ko‘ra ko‘proq qabul qilishgan. Ajablanarlisi shundaki, bunda erkaklar kabi ayollarning jinsga, kasb-koriga oid taxalluslardan foydalanishgani ko‘rinadi. Masalan, Mohlaroyim, Komila, Maknuna, Anbar otin kabi.

Anbar otin nafaqat kasbiy maqsadlarda taxallusni qabul qilgan, balki bu bilan o‘z shaxsiy hayotiga ham ishora qilgan. Qolaversa, ko‘pchilik do‘satlari va oila a’zolari uni o‘ylab topilgan unvon bilan tilga olishgani seziladi. Yana shu asosda shoira va otinning katta ishbilarmonlik hissi va tadbirkorlik instinkti egaligi, shu asosda u turmush o‘rtog‘i bilan muvaffaqiyatli munosabatlarga erisha olgani, oilasidagi ishbilarmonlik va insoniy tashvishlarining uyg‘unligiga asoslangani ravshanlashadi.

Ma’lumki, Zulfiya turmush o‘rtog‘i Hamid Olimjon bilan juda qisqa vaqt birga yashagan bo‘lsa-da, shaxsiy fazilatları, o‘rtalaridagi mustahkam oilaviy do’stlik, erining har bir ishda, xususan, badiiy ijoddaga bergen daldasi, maqtovi, tanqidi ishbilarmonlik hissini oshirgan.

Xulosa. Shoira Saida Zunnunovaning “Qizlarjon”, “Nilufar” kabi to‘plamlarining nomi, “Gulbahor” hikoyasi, “Ona” pyesasi, Turob To‘laning “Nodirabegim”, “Qizbulloq”, “Momo yer” singari pyesalari hamda “Malikai ayyor” opera-librettosi, Odil Yoqubovning “Matluba”, “Muqaddas” qissasi, Zebo Mirzoning “Tun malikasi” nomli ilk she’riy to‘plami (1990) nomlari ham xotin-qizlar mavzusida yaratilgani bilan e’tiborga molikdir.

Muqaddas ismli qiz “Muqaddas” qissasining [8] bosh qahramonlaridan biri bo‘lib, otasi uning muhandis bo‘lishini orzu qiladi. Holbuki, bu kasb ko‘proq er kishilarga xosdir. Biroq o‘qishga kirish paytida Muqaddasning inshosini pora evaziga Sharifjonning inshosi bilan almashtirib qo‘yadilar. Bu ishning boshida o‘gay otasi turganini bilan Sharifjon oilasi, onasi tinchligini o‘ylab, mazkur sirni saqlaydi. Shu tariqa, Muqaddas va Sharifjon o‘rtasidagi sevgiga ham raxna tushadi.

Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Акашева Т.В. Особенности гендерного подхода к переводу художественного дискурса (на примере переводов романа Э.Елинек “Любовницы” с немецкого языка на русский язык). Филологические науки. №10, Москва, 2017, с. 37.
- (2). Женщина в миражах и легендах. Энциклопедический словарь. Автор-составитель О.П.Валянская. Тошкент, Главная редакция энциклопедий, 1992, 302 с.
- (3). Шовалтер Е. Феміністична критика упушті. М. Зубрицька (Ред.). Слово. Знак. Дискурс. Антологія світової літературно-критичної думки ХХ в. Львів, “Літопис”, 1996, с. 510–535.
- (4). Заирова А. Феминизмнинг пайдо бўлиши ва унинг жаҳон адабиётига таъсири. “ЎзМУ хабарлари”, Тошкент, 2021, 259–261-бетлар.
- (5). Заирова А. Феминистик тадқиқотларда гинокритик ёндашув. “ЎзМУ хабарлари”, Тошкент, 2021, 225–227-бетлар.
- (6). Зулфия. Мен тонгни куйлайман. Т., “Кизил Ўзбекистон” ва “Правда Востока” бирлашган нашриёти, 1950, 30-бет.

(7). Зуннунова С. Танланган асарлар. Уч томлиқ. Т., Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириети, 1971, 101-бет.

(8). Одил Ёқубов. Мұқадdas. Қисса. Т., Адабиёт ва санъат нашириёти, 1963, 47-бет.

Umarova Komila Samatovna (O‘zDJTU Filologiya fakulteti mustaqil izlanuvchisi, “Xorijiy filologiya” kafedrası o‘qituvchisi)

XX ASR O‘ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr o‘zbek va ingliz adabiyotining o‘ziga xos jihatlari haqida gap borib, ikki millat adabiyotidagi tub o‘zgarishlarning janriy ifodasi bilan bir qatorda, ushbu davrda hukm surishni boshlagan “Modernizm” va “Postmodernizm” ning rivojlanishi yoritilib beriladi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotida keng quloch yoygan jadidchilik harakati va ingliz adabiyotidagi janrlar xilma-xilligi haqida alohida muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: XX asr adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, ingliz adabiyoti, ijod, insoniy madaniyat, modernizm, postmodernizm, yangiliklar, milliy madaniyat, tarixiy tukosot, ijtimoiy o‘zgarishlar.

Аннотация. В данной статье исследуются особенности узбекской и английской литературы 20 века, а также о жанровые выражения коренных изменений в литературе двух народов, развитие «модернизма» и «постмодернизма», которые стали доминировать в этот период .Также отдельно обсуждается широкое распространение джадидизма в узбекской литературе и разнообразие жанров в английской литературе.

Ключевые слова: литература XX века, узбекская литература, английская литература, творчество, человеческая культура, модернизм, модернизм, постмодернизм, новости, национальная культура, исторические награды, социальные изменения.

Annotation. This article examines the features of Uzbek and English literature of the 20th century, as well as the genre expressions of fundamental changes in the literature of the two nations, the development of “modernism” and “postmodernism”, which began to dominate during this period. The wide spread of Jadidism in Uzbek literature and variety of genres in English literature.

Key words: Literature of the 20th century, Uzbek literature, English literature, creativity, human culture, modernism, postmodernism, news, national culture, historical awards, social changes.

XX asr adabiyoti dunyo adabiyot tariqatlarida katta ahamiyatga ega bo‘lgan adabiyotlardan sanalib, u har bir mamlakatda o‘zgacha tarzda rivojlanib, o‘ziga xos adabiy meros qoldirgan.

XX asr o‘zbek adabiyoti yangilanish, o‘zgacha dunyoqarash tendensiylariga boy bo‘lgan adabiyot deb qaralsa, XX asr ingliz adabiyoti bo‘lsa, janrlar turli-tumanligi, yangi kashfiyotlar adabiyotidir. XX asr o‘zbek adabiyotida, ayniqsa, jadidchilik g‘oyalarining targ‘ib etilishi tarixiy, unutilmas voqeа bo‘ldi. Bu davr o‘zbek xalqi tarixining muhim bir qismini tashkil etadi. Bu davr tarixga Turkistonda jadidchilikning paydo bo‘lishi, chorizmning ag‘darilishi, muxtoriyatning tiklanishi va sho‘rolar jamiyatini qurish uchun kurash yillari sifatida kiradi.¹

XX asr o‘zbek adabiyotiga ta’rif berishda ko‘p o‘zbek adabiyotshunos olimlar turlicha yondashgan. Professor Naim Karimov bu haqda fikr yuritib, haqli ravishda quyidagilarni yozgan edi: “XX asr – insoniyat tarixidagi eng ulug‘ asrlardan biri. Bu asrda qanchalik ko‘p qon to‘kilgan, qanchalik nohaqliklar va adolatsizliklar ro‘y bergen bo‘lmasisin, insoniyat xuddi shu asrda kelajak sari katta qadam tashladi”.² Haqiqatdan ham, XX asr o‘zbek adabiyoti hurriyat va o‘zlikni anglashga yo‘naltirilgan adabiyot bo‘lib qoldi.

Atoqli minaqqid Ozod Sharafiddinov: «XX asrda bizda jahoning har qanday yuksak talablariga javob bera oladigan yuksak adabiyot yaratildi deb baralla aytishimiz mumkin. Hikoyachilik, qissachilik, romanavislikda ham, she‘riyatda ham, dramaturgiyada ham buning isbotini uchratish mumkin».³ XX asrda yaratilgan asarlar kitobxonlar auditoriyasining ko‘p qismini tashkil qilgan, ziyolilarini, shuningdek, oddiy xalqning diqqatini jalb qildi. XX asr o‘zbek adabiyoti yangi o‘zbek adabiyoti, deb ataladi. Chiunki bu davarga kelib, odamlarning dunyonи tushunish tarzi, badiiy didi, olamni estetik idrok etish yo‘sini o‘zgardi. Adabiyotning obrazlar tizimi ham, ifoda tarzi ham, qahrانionlar galereyasi ham o‘zgardi. Oldinlari badiiy adabiyot inson ruhiyati tebranishlarinigina aks ettirgun bo‘lsa, endi u xalq turmushining ichiga chuqurroq kirib borib, hayotdagi ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy muammolarni his etishga urina boshladи.⁴

XIX asr oxiri–XX asr boshlariga kelib, Buyuk Britaniyada, nafaqat monarxlarning o‘zgarishi (afsonaviy qirolichcha Viktoriya 1901-yilda vafot etgan), balki tarixiy davrlarning o‘zgarishi bilan ham belgilandi.

¹ S.Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. Toshkent, «Yangi asr avlodи», 2005, 9-bet.

² S.Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. Toshkent, «Yangi asr avlodи», 2005, 3-bet.

³ Sharafiddinov O. Uch cho‘qqining biri. «O‘zAS», 2001, 23-noyabr.

⁴ <http://library.navoiy-uni.uz/files/xx%20asr%20o%20zbek%20adabiyoti.pdf>

Mamlakat dengiz va mustamlaka mamlakatlardagi avvalgi qudratini, savdo va sanoatdagi monopol mavqeyini asta-sekin yo‘qotdi. AQSH va Germaniyaning raqobatini his qilgan Buyuk Britaniya o‘z sa'y-harakatlarini Markaziy Afrika, Misr, Sudanni bosib olishga yo‘naltirdi. Bu zARBalar, albatta, adabiyotda ham o‘z aksini topdi.¹

Bu davr Britaniya adabiy jarayoni manzarasi rang-barang bo‘lib, unda realizm, neoromantizm, dekaden, naturalizm va boshqalar ham mavjuddir, lekin ular orasida san’atdagi realistik uslub asosiy bo‘lib qo‘laverdi. Bu, shubhasiz, janrlar tizimiga ta’sir qildi, unda roman hali ham hukmron o‘rinni egallab, drama sezilarli darajada jonlandi va hikoya janriga ham o‘zgarishlar kiritildi.

XX asr o‘zbek adabiyotiga berilganadolatli baholardan Umarali Normatovning quyidagi so‘zlari ham tasdiqlaydi: “Hech qaysi soha XX asrda adabiyotchalik millat taqdiri, ijtimoiy adolat, inson erki himoyasi yo‘lida izchil, muntazam kurash olib borgan emas.²

Britaniya adabiyotida realistik tendensiyalar juda serqirra yozuvchi Jorj Meredit (1828–1909) badiiy merosining mohiyatini belgilaydi. U hunarmandlar oilasidan chiqqan bo‘lib, o‘rta ma’lumotga ega bo‘lmagan, balki yozuvchi va shoir sifatida mashhur bo‘lgan. Izlanuvchan muallifning birinchi she’ri Charlz Dikkens tavsiyasi bilan nashr etilgan. Meredit 13 ta roman, hikoya va she’rlar yozgan, u jurnalistika sohasida ham zo‘r edi (uning Italiyadan bergen xabarları, ayniqsa, mashhur). O‘ttiz yil davomida yozuvchi Londonning eng yirik nashriyotlarida adabiy maslahatchi bo‘lib ishladi va ko‘plab yangi kelganlarning taqdirini hal qildi.

Samuel Butler (1835–1902) adabiy faoliyatining muhim qismi Viktoriya Angliyasining asoslarini tanqid qilishga bag‘ishlangan. Uning umume’tirof etilgan me’yorlarni inkor etishi ba’zan paradoks daraja-siga yetdi. O‘zi tarbiyalangan ruhoniy muhitni buzgan yozuvchi butun kuchini ruhoniylarning ikkiyuzlamachilagini fosh qilishga bag‘ishladi va unga inert va o‘rnatilgan bo‘lib tuyulgan hamma narsani ag‘darib tashladi: u Shekspir sonetlarining noto‘g‘ri talqini haqida gapirdi (Tahr. Shekspirning sonetlari, 1899), “Odissey” muallifi Gomer emas, Darwin ta’limotini inkor etgan ayol ekanligini ta’kidlagan.³

XX asr boshlariga kelib, milliy uyg‘onishga chorlovchi jadidchilik harakati yuzaga keldi va tobora rivojlana bordi. Bu harakatning asosiy maqsadi – xalq ommasini ma’rifatli qilish orqali mamlakat rivojiga, mehnatkashlar hayotini yaxshilashga ko‘maklashishdan iborat edi. Sho‘rolar davrida asossiz holda qora bo‘yoqlarda ko‘rsatilgan va qoralangan jadidchilik o‘z davrining ilg‘or ijtimoiy-ma’rifiy harakati edi. Bu harakat qatnashchilari vatanparvar, millatsevar, ma’rifatparvar, taraqqiyatparvar ziyolilardan iborat edi.⁴

Fantastik roman janrining yaratuvchisi, taniqli yozuvchi Gerbert Uells (1866–1946) ijodi XIX asr oxiri va XX asr boshlari adabiyotidagi yana bir muhim hodisadir. Jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatini tushunib, badiiy konvensiyalardan keng foydalangan holda, u g‘oyalarini yoshligida o‘rgangan islohotchi Fabian sotsializmi nuqtayi nazaridan to‘liq hodisalarini yoritib berdi. Yozuvchining ilk romanlari 90-yillarda nashr etilgan. 1895-yilda “Vaqt mashinasi” distopiyasi paydo bo‘ldi, unda ijtimoiy tengsizlikning bema’niliqi patritsian “E’loi” va dahshatli “Marloks” obrazlarida ifodalangan. Uells tomonidan tasvirlangan kelajak sivilizatsiyasi barcha umuminsoniy qadriyatlarni unutdi va madaniy yodgorliklarni vayron qildi. “Doktor Moro oroli” (1896) asarida hayvonlarni hayvon va odam o‘rtasidagi narsaga aylantiruvchi Doktor Moro o‘zini Yaratuvchi deb da’vo qiladi, lekin u ko‘proq iblisni eslatadi.

XX asr ingliz adabiyotining yana bir taniqli ijodkori Robert Lui Stivenson bo‘lib, u ingliz neoromantizmining asoschisi va nazariyotchisi edi. Yozuvchi XIX asr romantik adabiyotining “sxemasi”ni rad etib, qahramon jamiyat tomonidan, albatta, oyoq osti qilinadigan alohida shaxs bo‘lmasligi kerak deb hisoblardi. Uning qahramonlari o‘zaro bog‘liq muhitni topishga intiladi, ular ma’naviyatga burkangan, tuyg‘ularga boy, lekin hech qachon haqiqiy tuproqdan ajralmagan. Stivenson san’atda “real va ideal”ning uyg‘unligini orzu qilgan va shaxsiy manfaat, ishbilarmonlik va ikkiyuzlamachilikni rad etgan.⁵

XX asr Turkistonda shakllangan jadidchilik ommani g‘aflat uyqusidan uyg‘otdi, ma’rifatni, taraqqiyotni ulug‘lab, xalqni yangi jamiyat, yangi hayot qurishga hozirladi. Ayni vaqtida Muqimiy, Komil, Furqat singari ma’rifatchilardan so‘ng yangi o‘zbek adabiyotining tamal toshini o‘rnatdi. Xalq orasidan yetishib chiqqan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza, Munavvar Qori, Abdulla Avlomy, Fitrat, Siddiqiy-Ajziy, Abdulqodir Shakuriy. Hoji Muin Shukrulla singari o‘z davrining ilg‘or ziyolilari va ijodkorlari mamlakat va xalq ahvoliga achinib, o‘zlaricha bunga chora izlay boshladilar. Ular xalq va mamlakat og‘ir, mashaqqatli hayot iskanjasida qiynalib kun o‘tkazayotganining asosiy sababi ilmsizlidir, degan xulosaga keladilar.

¹ <https://studfile.net/preview/2974397/page:2/>

² XX asr mening taqdirimda. «Jahon adabiyoti» jurnali. 2001, yanvar, 17-bet.

³ <https://studfile.net/preview/2974397/page:2/>

⁴ S.Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. Toshkent, «Yangi asr avlod», 2005, 11-bet.

⁵ S.Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. Toshkent, «Yangi asr avlod», 2005, 12-bet.

XX asr Britaniya adabiyotida kambag‘al ritsar oilasining avlodi, yorqin realist yozuvchi Tomas Xardi (1840–1928) o‘z faoliyatini arxitekturani o‘rganishdan boshlagan, grafika va rassomchilikni yaxshi ko‘rardi, u butun umri davomida unga muhabbat qo‘ygan, ba’zan esa romanlarini tasvirlab bergen.

“Vesseks” siklining boshlanishini belgilagan “Yashil daraxt ostida” (1872) romani muallifga shuhrat keltirdi. Uning harakati olamning o‘ziga xos ramziga aylangan Vesseksda jamlangan. Muallif tomonidan ajoyib tarzda chizilgan Egdon cho‘li, Blekmur vodiysi va ona yurtining qishloq manzaralari uning ko‘plab asarlari uchun fon bo‘lib xizmat qildi. Uesseks ularda ko‘p asrlik patriarchal dehqonchilik usulini – T.Xardi tomonidan “aqldan ozgan va aqldan ozgan olomon” deb atagan dushman dunyoga duch kelgan “mag‘rur yeomen”ni ifodalaydi. Eski va yangining bu to‘qnashuvni “xarakter va muhit romanlari”ning sujet to‘qnavuvini tashkil qiladi.

Jadid yozuvchilari o‘zlarining ma’rifatchilik, millatparvarlik g‘oyalarini olg‘a surishda milliy adabiyotda teran tomirlarga ega bo‘lgan she’riyatdan tashqari, nasr, dramaturgiya va badiiy publisistika singari janrlardan ham foydalandilar. Ma’lumki, 1910-yilga qadar o‘zbek adabiyotida hozirgi ma’nodagi drama janrida yaratilgan asar yo‘q edi. U XX asrning 10-yillarida vujudga kela boshladidi. Bunda jadid yozuvchilarining xizmati katta bo‘ldi. Ularning sa’y-harakatlari tufayli adabiyotimizda 1910-yildan to 1917-yil fevral oyigacha bo‘lgan vaqt ichida «Padarkush» (M.Behbudiy), «Zaharli hayot», «Ilm hidoyati» (Hamza), «Baxtsiz kuyov» (A.Qodiriy). «Qozi ila mulla», «Ko‘knori», «Juvonbozlik qurban», «Eski maktab – yangi maktab», «Mazluma xotin» (Hoji Muin Shukrullo), «Mahramlar» (A.Samadov), «Advokatlik osonmi», «Pinak» (Abdulla Avloniy), «Juvonmarg», «O‘gay ona», «Boyvachcha», «Saodat bitdi», «Xush kelding, xush ketding» (Abdulla Badriy), «To‘y» (Nusratilla Qudratilla) kabi qirqtacha sahna asari yuzaga kelgan. Turli badiiy saviyada yozilgan bu pyesalarning deyarli hammasida ma’rifat va ilmsevarlik, axloq-odob masalalari aks ettirilgan.¹

XX asrning oxirida ingliz adabiy ongida har qanday matnning subyektivligi va shunga mos ravishda badiiy kanoniklikning barcha shakllarini yo‘q qilish g‘oyasi ildiz otdi. “Inglizlik”ning ko‘proq yoki kamroq barqaror qiyofasi o‘rniga, ingliz tilini his qilish, Angliyada yashash va ingliz tilida ona tilida so‘zlashuvchi bo‘lish nimani anglatishining ko‘plab versiyalari paydo bo‘ldi. 1990-yillardagi shotlandiyalik Alester Grey, Jeyms Kelman, Irvin Uels, yaponiyalik Kazzuo Ishiguro, britaniyalik Xelen Filding, Jim Kreys va boshqa yozuvchilarining romanlarida poetika va qadriyat mezonlarining bir-biriga mos kelmaydigan ko‘ringan xususiyatlarining uyg‘unligi hayratlanarli.

XX asr boshida Angliya adabiyotida ikki asosiy uslub va yo‘nalish – realizm va dekadans (avangardizm) ko‘zga tashlanib turadi. Dekadans ingliz adabiyotida Fransiyadagidek yorqin namoyon bo‘lgan emas. Bu kayfiyat Tomas Gardi (Thomas Hardy. 1840–1928), Bernard Shou (Bernard Shaw. 1856–1950), Gerbert Uells (Herbert Wells. 1866–1946), Djon Golsuorsi (John Galsworthy. 1867–1933) kabi bir qator yozuvchilar ijodida o‘z aksini topgan edi. Bu davrda Jeyms Joys, Virjiniya Vulf, Oldos Xaksli singari ingliz adabiyotining yorqin namoyandalari modernizm ruhidagi yo‘nalishni o‘z ijodida takomillashtirdilar.²

Xullas, XX asr yangi o‘zbek adabiyoti voqelikni haqqoniy ko‘rsatish orqali kishilarni ezgulik ruhida, vatanparvar, xalqparvar, mehnatsevar, yuksak axloq-odobli qilib tarbiyalash, ularga estetik zavq berishga harakat qilgan bo‘lsa, XX asr Britaniya adabiyoti va san‘atidagi yo‘nalishlarning ko‘pchiligiga, xususan, ekspressionizm, surrealizm, “yangi roman”, “ong oqimi”, “absurd teatri”ga shaxsdagi shizofreniya, ya’ni, iroda va ixtiyorni namoyon qilishning susayishi, psixika yaxlitligining parchalanib ketishi alomatlari, tush-kunlik kayfiyati, ruhiy va hissiy depressiya holatlari vosita obyekti tarzida xizmat qildi. Ikki mamlakat ada-biyoti ham yuksak marralarni zabt etdi va davr nuqtayi nazaridan ulkan tarixga boy asosli adabiyotlardan bo‘lib qoldi.

Foydalananligan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). S.Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2005, 9-bet.
- (2). N.Yuldashev. O‘zbek adabiyoti va uning asosiy yaratuvchilik jihatlari. Adabiyotshunoslik: ilmiy elektron kitoblar, Toshkent, 2019.
- (3). J.Smith. The Impact of Modernism on English Literature. Modernist Literature Journal, vol. 5, № 2, pp. 45–58, 2018.
- (4). Sharafiddinov O. Uch cho‘qqining biri. «O‘zAS», 2001, 23-noyabr.
- (5). Hakimzoda Niyozi. Inson huquqlari va yozuvchilik. O‘zbek adabiyoti misollarida, o‘zbek adabiyoti darsligi, Toshkent, 2020.
- (6). <http://library.navoiy-uni.uz/files/xx%20asr%20o%60zbek%20adabiyoti.pdf>

¹ S.Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2005, 12-bet.

² M.Xolbekov. XX asr modern adabiyoti manzaralari. XX asr modernizm prozasining tadrijiy talqini <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/muhammadjon-xolbekov-xx-asr-modern-adabiyoti-manzaralari-02.html>

**Vositov Shavkatjon Adivaxabovich (Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi; vositov1970@gmail.com)
FITRAT IJODINING O'RGANILISH ZARURATI**

Annotatsiya. Maqolada jadidchilik harakatining yorqin namoyandalridan biri, adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat ijodining o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan o'rganilish ahamiyati ko'rib chiqiladi. Dastlab, Fitrat ijodida e'tiborga molik jihatlar sanab o'tilib, so'ngra adib ijodini o'rgangan olimlar qarashlari e'tirof etiladi. Ushbu ish o'zbek adabiyotshunosligida shu paytgacha Fitrat ijodi kimlar tomonidan o'rganilganini tahlil qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, fitratshunolsik, milliy ruh, xarakter, mahorat, milliylik, qatag'on.

Аннотация. В статье рассматривается важность изучения узбекскими литературоведами творчества одного из ярких представителей джадидистского движения, литератора Абдурауфа Фитрата. Сначала перечисляются заслуживающие внимания стороны творчества Фитрата, а затем излагаются взгляды ученых, изучавших творчество писателя. Данная работа позволяет проанализировать, кто до сих пор изучал творчество Фитрата в узбекском литературоведении.

Ключевые слова: джадидизм, естествознание, национальный дух, характер, мастерство, национальность, репрессия.

Annotation. The article discusses the importance of Uzbek literary scholars studying the work of one of the prominent representatives of the Jadidist movement, literary scholar Abdurauf Fitrat. First, noteworthy aspects of Fitrat's work are listed, and then the views of scientists who studied the writer's work are presented. This work allows us to analyze who has so far studied Fitrat's work in Uzbek literary criticism.

Key words: Jadidism, natural science, national spirit, character, skill, nationality, repression.

XIX asr oxiri–XX asrning boshlanishi tarixan qisqa davrdek ko'rinsa-da, o'zbek xalqi taqdirida muhim ahamiyatga ega bo'lgan davrni tashkil qiladi. Shu davrda maydonga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati mifikta, maorif va adabiyotda e'tiborga molik ishlarni amalga oshirdi. Jadidchilar orasida yetuk olimlar, tilshunos va pedagoglar, siyosatshunos ma'rifatparvar olimlar bor edi. Turkistonda yetishib chiqqan ijodkorlar orasida Abdurauf Fitrat eng taniqli jadidchilardan edi. Abdurauf Fitrat – shoir, adib, dramaturg, munaqqid, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos, mutarjim, mutafakkir, faylasuf, jamoat arbobi, siyosatchi, pedagog sifatida tanilgan.

Abdurauf Fitrat o'zbek milliy uyg'onish davri adabiyotining zabardast vakilidir. U o'zining butun umri davomida yurtini mustaqil va obod qilish dardi bilan yongan buyuk qomusiy olimdir. XX asr milliy tifakkurimiz tarixini Abdurauf Abdurahmon o'g'li Fitratsiz (1886–1938) tasavvur qilish mumkin emas. Uning hayoti va ijodi tarix chorrahasining eng murakkab, o'ta qaltis davrida kechmishdir.¹

Fitrat o'zbek adabiyotini istiqlol ruhidagi ajoyib she'rlar, publisistik maqolalar, nasriy asarlari, dramalar hamda tilshunoslik va adabiyotshunoslilikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan teran tadqiqotlar bilan boyitdi. Uning "Chin sevish" (1920), "Hind ixtilolchilari" (1923), "Arslon" (1925), "Vose' qo'zg'onloni" (1927), "Abulfayzxon" (1924), "Shaytonning tangriga isyonii" (1924) singari dramatik asarlari mualifiga katta shuhrat keltirdi. Bulardan tashqari, Fitratning yana bir qator dramalar yozgani ma'lum, biroq ular bizgacha yetib kelmagan yoxud hozirgacha topilmagan.²

1917-yil Fevral inqilobida Fitrat o'z orzularini ham ko'rgandek bo'ldi, biroq Oktabr to'ntarishi uning teran dunyoqarashiga yangi titroqlar soldi. Bir qarashda, umidbaxsh ko'ringan, aslida, zamirida bosqinchilik g'oyalari, qatag'onlik siyosati yashirin havolarda umidlarini goh ichiga yutib, goh oshkor etib yashadi. Turkistonda til, adabiyot, san'at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug'ullangan "Chig'atoj grungi" jamiyatiga rahbarlik qildi. Samarqanddagi Pedakademiyada dars berdi, Toshkentda Fan qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. Fitratning ilmiy-adabiy faoliyati ham sermahsuldir. U o'zining ijtimoiy asarlari bilan yangi o'zbek fanining bir qator yo'naliishlariga asos soldi. Xussusan, Turkiston xalqlarining boy va qadim madaniy merosini har tomonlama, chuqur ilmiy o'rganishni boshlab berdi. Uning "Adabiyot qoidalari", "Eski o'zbek adabiyoti namunalari", "Aruz haqida" kabi ilmiy kuzatishlari, Yassaviy, Umar Xayyom, Firdavsiy, Navoiy, Bedil haqidagi maqolalari o'zbek adabiyotshunosligining shakllanishida muhim rol o'ynadi.

Fitrat kurashlarga, izlanishlarga, aldanishlar va kashfiyotlarga to'la hayotiy yo'llini bosib o'tdi. U 1884-yilda Buxoroda tug'ildi, eski mifikta o'qidi, tarix, falsafa va adabiyotdan chuqur bilim oldi, arab,

¹ G'aniyev I. Fitrat va fitratshunoslilik. Toshkent, "Fan", 2005, 3-bet.

² <http://library.navoiy-uni.uz/files/yandashlieva%20a,fitratning%20abdul%20fayzhon>

fors, turk tillarini mukammal o'rgandi. Fitrat butun faoliyatini el va yurt ozodligi, taraqqiyot maqsadlariga bo'ysundirgan, shu zaylda davlatning boshqaruv tizimini, maorifni, jamiyatni, tuzumni isloh qilish g'oyalilarini ilgari surgan, faylasuf va davlat arbobidir. Shularni amalga oshirajak qahramonlar qiyofasini, orzu, umid, armonlarini badiiy asarlarida gavdalantirgan ulug' san'atkordir. Olim sifatida uning tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ham xizmatlari katta. Bularning barchasini birlashtiruvchi va uyg'unlashtiruvchi fazilat Fitratning Milliy uyg'onish davri jarchisi va yalovbardori ekanidadir.

Fitrat yashab o'tgan davrga bir asrdan ortiq vaqt bo'lgan bo'lsa-da, ijodini ko'plab adabiyotshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Ulardan Begali Qosimov, Hamidulla Boltaboyev, Ilhom G'aniyev, Shuhrat Rizayev, Uzoq Jo'raqul va boshqa ko'plab fitratshunos olimlar. Ularning har biri Fitrat ijodining ochilmagan, o'rganilmagan jihatlarini ochishga harakat qilishgan. Fitratshunos olim Ilhom G'aniyev Fitrat hayoti va ijodining o'rganish bosqichini shartli to'rtga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Fitratning o'zi tirikligida hayoti va ijodini o'rganish.
2. 1938-yil 4-oktabrdan – stalincha qataq'on siyosatining oqibatida nohaq qatl etilishidan boshlab, to 1956-yil (sobiq KPSSning XX syezdidan so'ng shaxsga sig'inishning rasman tugatilishi)gacha bo'lgan davr.
3. 1956-yildan 1985-yil (sobiq Ittifoqning aprel plenumi va oshkoraliq, demokratianing tantanasi)-gacha bo'lgan davr.
4. 1085-yildan tokim shu kunlargacha bo'lgan 20 yillik (bu fitratshunoslikda alohida bosqichdir) davr.

O'zbek xalqining qomusiy bilim daholari an'analarini XX asrda davom ettirgan so'nggi fenomenal namoyandasini bo'lgan Abdurauf Fitrat ijodiga xorijda qiziqish butun asr davomida bir lahma ham to'xtagani yo'q. Uning ijodiy iste'dodi Zaki Validiy To'g'on, turk Fuod Kupruli va Mexmet Saroy, yapon Xisao Kumatsu, amerikalik Edvard Olvort, farang Ellen Karrer Enkous, olmon Ingeborg Baldauf, rus A. Klimovich va jahoning boshqa olimlari qiziqishlariga ham sabab bo'lgan.¹

Abdurauf Fitrat, shubhasiz, XX asr birinchi choragi Markaziy Osiyo ziyyolilarining eng ko'zgan ko'-ringan va ta'sir doirasi kuchli bo'lgan vakillaridan biri hisoblanadi. U yozuvchi, sho'r, jurnalist, siyosiy arbob va Turkiston jadidchiligining g'oyaviy yetakchilaridan biri sifatida tanilgan.² Mustaqillika erishganimizdan keyingina Fitrat ijodini to'laqonli o'rganish imkoniyatlari kengaydi. Uning qator ilmiy maqolalari, shuningdek, nasriy, she'riy va dramatik, tarixiy asarlari qaytadan chop etila boshlandi. 1996-yilda "Chin sevish" va 2000-yilda ikki tomlik, keyinchalik, besh jildlik tanlangan asarlari nashr etildi. Bu faktlarning o'ziyoq mustaqillik bergen imkoniyatning nechog'lik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.³ Fitratning adabiy asarlari, xususan, uning dramaturg sifatidagi faoliyati zamondoshlari tomonidan yakdillik bilan e'tirof etildi. 1916–1930-yillar oraliq'ida u o'ndan ortiq dramalar yozdi. Ayniqsa, 1920-yillarda yozgan "O'g'uzxon", "Chin sevish", "Hind ihtilolchilar", "Abulfayzxon" kabi dramalari katta shuhrat qozondi. "Chin sevish" dramasida biz oldingi Fitrat, ya'ni, g'arb ilm-fanini o'rganishga bo'lgan targ'ibotning boshqa bir darajaga o'tganida, siyosiy jihatdan yetuklikka erishgan Fitratni ko'ramiz.

Fitrat bundan biroz avvalroq yozilgan "Sharq siyosati" nomli maqolasida G'arbga bo'lgan munosabatini, uning haqiqiy siyosati nimada ekanligini ochib tashlagan edi. Bir vaqtlar "Sharqda madaniyat maktablari, insoniyat madrasalari ocharmiz" degan bahona bilan Turkistonni qonga botirib, uning yuzini top-tagani bosqinchi "jahongirlari fohishaxonva mayxonadan boshqa bir narsa" olib kelmadidi. Fitrat shu o'rinda o'ziga-o'zi savol beradi: "Ajabo, Ovrupa jahongirlari bu ishlarini bilibmi qildilar, bilmasdanmi qildilar?" Javobi esa "Albatta, bilib qildilar, jo'rttaga qildilar". Fitrat maqolasida mustamlakachilarning asosiy maqsadlari qo'l ostiga olingen mazlum xalqqa "madaniyat berish", "maorif tarqatish", "taraqqiy etdurmak" emas, "turli fohishaxonalar, mayxonalar ochib, bizning axloqimizni buzmoq" va oxir oqibatda "bizni ish-dan chiqarmoq va o'z qo'llarig'a muhtoj qilib qo'ymoqdir". Fitrat bu fikrlarni yozar ekan, siyosiy jihatdan ancha yetishgan, xalqni haqiqiy ahvoldan boxabar qilish uchun hech narsadan tap tortmay fikr yuritadigan shaxs sifatida ko'rinadi.

Mantiqan olib qaraganda, "Hind ihtilolchilar"ni "Chin sevish"ning davomi deyish mumkin. Lekin ular ayri ikki asar. "Hind ihtilolchilar"da Fitratning ona-Vatanga bo'lgan muhabbatni, uning erki uchun hamma narsaga tayyor bo'lgan "Yurtimizni qutqaramiz. Yashasin istiqlol!" deb mustabid tuzumga qarshi qo'zg'algan isyonkorni ko'ramiz. Uning 1922-yili nashr etilgan "O'zbek yosh shoirlari" to'plamidan joy

¹ Amonova Z., Nafetdinova Z. Umumta'lim maktablarida Abdurauf Fitrat ijodining o'rganilishi. Buxoro, "Durdona", 2019, 10-bet.

² <https://daryo.uz/2021/03/30/millatga-najot-yolini-korsatgan-jadid-abdurauf-fitrat-hayotiga-chizgilar>

³ Amonova Z., Nafetdinova Z. Umumta'lim maktablarida Abdurauf Fitrat ijodining o'rganilishi. Buxoro, "Durdona", 2019, 9-bet.

olgan “O‘gut” she’rida Fitratning yurt erkinligi uchun kurash, bir daqqa ham hurriyatga erishish maslagi-dan qaytmaslikka undov juda yaxshi ko‘rinadi.¹

Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati tarixning eng qaltsi damlarida millat va Vatanga xizmat qilish-ning yorqin namunasidir. Yirik jadidshunos olim Begali Qosimovning so‘zlar bilan aytganda, har qanday holda ham xalq bilan birga bo‘lish, uning manfaatini har narsadan ustun qo‘yish, har narsadan muqaddas bilish Fitrat shaxsiyatining eng muhim xususiyatlardan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Amonova Z., Nafetdinova Z. Umumta’lim maktablarida Abdurauf Fitrat ijodining o‘rganilishi. Buxoro, “Durdon”, 2019, 10-bet.
- (2). G‘aniyev I. Fitrat va fitratshunoslik. Toshkent, “Fan”, 2005, 3-bet
- (3). <https://daryo.uz/2021/03/30/millatga-najot-yolini-korsatgan-jadid-abdurauf-fitrat-hayotiga-chizgilar>
- (4). <http://library.navoiy-uni.uz/files/yandalieva%20a.fitratning%20abdul%20fayzhon>

Pulatova Barnoxon Abdulazizovna (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti 1-kurs magistranti; b.pulatova87@mail.ru)

INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA BADIY PSIXOLOGIZM

Annotatsiya. Ushbu maqola badiy psixologizm haqida batafsil tushuncha beradi va uni bolalar ada-biyoti janri bilan bog‘laydi. Ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotidagi qahramonlar, ularning kechinmalari, qahramonlarning bolalar psixologiyasiga, ichki dunyosiga bo‘lgan ijobjiy ta’siri haqida batafsil to‘xtolib o‘tadi. Ushbu ikki millat va madaniyat adabiy qahramonlarini bir-biriga muqoyosa qiladi, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni topadi va badiylik va psixologizm jihatidan batafsil izohlab beradi.

Kalit so‘zlar: badiy psixologiya, ingliz va o‘zbek adabiyoti, madaniyat, kechinma, badiy qahramon, interaktiv element, illustratsiyalar, badiy ranglar, hikoya, sarguzasht.

Аннотация. В статье представлено подробное описание художественной психологии и со-отнесение ее с жанром детской литературы. Детально рассмотрены персонажи английской и уз-бекской детской литературы, их переживания, а также положительное влияние героев на психо-логию и внутренний мир детей. Также сравниваются литературные герои этих двух народов и культур, анализируются сходства и различия между ними, рассматриваются подробные сведения по литературе и художественной психологии.

Ключевые слова: художественная психология, английская и узбекская литература, культу-ра, опыт, художественный персонаж, интерактивный элемент, иллюстрации, художественные краски, сюжет, приключения.

Annotation. This article provides a detailed understanding of artistic psychology and relates it to the genre of children’s literature. The characters in English and Uzbek children’s literature, their experiences, the positive influence of the characters on the psychology and inner world of children will be discussed in detail. Also, the literary heroes of these two nations and cultures are compared, the similarities and differences between them are analyzed, and detailed information is discussed in terms of literature and artistic psychology.

Key words: artistic psychology, English and Uzbek literature, culture, experience, artistic character, interactive element, illustrations, artistic colors, story, adventure.

Kirish. Adabiyot va san’at bir-biriga chambarchas bog‘liq. Chunki ushbu ikki soha bir-biriga naqa-dar yaqin va o‘xshashligi barchaga ayon. Biroq yaqin o‘tmishdan buyon badiy psixologizm atalmish soha adabiyotda tez-tez qulog‘imizga chalinmoqda. Badiy psixologizm, aslida, nima? Ushbu soha o‘z nomi bi-lan aytganda, psixologiya va adabiyotning qorishmasi, ya’ni, san’at, jumladan, tasviriy san’at, adabiyot, musiqa va boshqa ijodiy shakllarning inson xatti-harakati va aqliy jarayonlariga qanday ta’sir qilishini o‘r-ganuvchi o‘ziga xos adabiy yo‘nalishlardan biridir. U ranglar, rasmlar, hikoya qilish texnikasi va interaktiv elementlar kabi badiy elementlarning his-tuyg‘ularga, idrokga va umumiylar psixologik farovonlikka ta’sir qilish usullarini o‘rganadi. Badiy psixologiya san’at tomonidan qo‘zg‘atilgan hissiy va kognitiv reaksiyalar ortidagi psixologik mexanizmlarni tushunishga intiladi va u ushbu reaksiyalar orqali shaxsiy rivojlanish, o‘zini va dunyonи tushunishni shakllantirishga xizmat qiladi.

Material va usullar. Ayniqsa, badiy psixologizm bolalar adabiyotida juda ko‘p uchraydi. Chunki bolalar tabiatan juda ta’sirchan hisoblanadi. Ular qandaydir adabiyotni o‘qiyotganlarida ham undagi hodisalarga tez kirisha oladi. Shuning uchun ham bolalar adabiyoti bolaning tasavvurini, ijodkorligini, atrofdagi dunyonи anglashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi deb hisoblanadi. Bu bolalar turli his-tuyg‘ularni,

¹ <https://daryo.uz/2021/03/30/millatga-najot-yolini-korsatgan-jadid-abdurauf-fitrat-hayotiga-chizgilar>

fikrlarni va g‘oyalarni o‘rganishlari mumkin bo‘lgan vosita bo‘lib xizmat qiladi. San’atning inson xulq-atvori va psixik jarayonlariga qanday ta’sir qilishini o‘rganuvchi badiiy psixologiya ingliz va o‘zbek tillarida bolalar adabiyotining muhim yo‘nalishiga aylandi. Bolalar adabiyotidagi badiiy psixologiya illustratsiyalar, ranglar va hikoya qilish usullari kabi turli xil badiiy elementlarning bolaning hissiy va kognitiv rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini tushunishga qaratilgan. U ushbu elementlarning muayyan his-tuyg‘ularni uyg‘otishi, tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirishi va bolaning umumiy o‘rganish tajribasini oshirish usullarini o‘rganadi.

Muhokama va natijalar. Ayniqsa, ingliz bolalar adabiyotida mualliflar va rassomlar qiziqarli va ta’sirli hikoyalar yaratish uchun badiiy psixologiyadan juda ko‘p foydalanishadi. Misol uchun, rasmlı kitoblarda bolaning e’tiborini jalb qilish va tasavvurini rivojlantirish uchun, ko‘pincha, yorqin ranglar va vizual jozibali illustratsiyalardan foydalaniladi. Bir tomonidan, hikoyada takrorlanuvchi naqsh yoki qofiyalardan foydalanish bolalarda til ko‘nikmalarini rivojlantirish va xotirani saqlashga yordam bersa, ikkinchi tomonidan, illustratsiyalar va turli ranglar bolalarning dunyoqarashi va tasavvur dunyosining kengayishiga va rivojlanishiga yordam beradi. Ayniqsa, bolalarning ijobjiy fikrlashida ertak va adabiyotning o‘rnı beqiyos.

Qolaversa, badiiy psixologiyani bolalar adabiyotida berilgan mavzu va xabarlarda ham kuzatish mumkin. Ko‘pgina hikoyalar yo‘qotish (qo‘ldan boy berish), do‘slik yoki o‘zini-o‘zi (self-acceptance) qabul qilish kabi murakkab mavzularga bag‘ishlangan bo‘lib, yosh kitobxonlar orasida hissiy aql va empatiyani rivojlantirishga qaratilgan. O‘zaro bog‘liq belgilari va vaziyatlarni taqdim etish orqali bolalar o‘zlarning his-tuyg‘ularini yaxshiroq tushunishlari va bu orqali o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usini rivojlantirishlari mumkin.

Shuningdek, o‘zbek bolalar adabiyoti ham inglizlarnikidan qolishmaydi. Bizning milliy adabiyot ham yosh kitobxonlar uchun mazmunli va ta’sirli hikoyalar yaratish uchun badiiy psixologiyani qamrab olgan. O‘zbek mualliflari va illustratorlari o‘z asarlariga madaniy elementlarni singdirish uchun miniyatURA rang tasviri va xattotlik kabi an‘anaviy san’at turlaridan foydalanadilar. Ushbu badiiy uslublar nafaqat o‘zbek madaniy merosini saqlab qoladi, balki o‘zining boy tasviri bilan bolalarni o‘ziga jalb qiladi. O‘zbek bolalar adabiyotida, ko‘pincha, o‘lkaning qadriyat va an‘analari aks ettiriladi, axloqiy saboqlar, axloqiy xulq-atvor targ‘ib qilinadi. Hikoya orqali bolalarda halollik, mehr-oqibat, kattalarga hurmat kabi muhim mavzular ochib beriladi. Badiiy elementlarni o‘z ichiga olgan holda, bu hikoyalar yosh kitobxonlar uchun yanada qiziqarli va esda qolarli bo‘lib, ularning axloqiy rivojlanishiga doimiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlil. Quyida, aslida, fransuz ijodkori orqali yaratilgan, lekin ingliz madaniyatida eng ko‘p shuhrat topgan va chop etilgan Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asarini ingliz bolalar adabiyotida badiiy psixologiyaning yorqin na’munasi deb hisoblash mumkin, chunki u inson tabiatining hissiy-psixologik jihatlarini chuqur qamrab oladigan va fikrlashga undaydigan tarzda o‘rganadi, garchi ortiqcha bezaklarsiz taqdim etilgan va rasmlar ham juda oddiy chizilgan bo‘lsa-da, hikoya har bir so‘zi va mana shu oddiyligi orqali bola psixologiyasiga sekin-asta singa boshlaydi. Hikoyada sevgi, do‘slik, yolg‘izlik va insoniy munosabatlarning murakkabligi kabi mavzular o‘rganilgan bo‘lib, ularning barchasi yosh kitobxonlar uchun juda qulay tarzda taqdim etiladi. Hikoya, shuningdek, yosh kitobxonlarga xabarlarni yetkazish uchun simvolizm va allegoriya kabi badiiy elementlardan foydalanilgan, bu esa o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga va matn bilan chuqurroq shug‘ullanishga undaydigan boy va ko‘p qatlamlı asarga aylantiradi. Ummumaniqda, “Kichkina Shahzoda”ni bolalar adabiyotidagi badiiy psixologiyaning namunasi sifatida ko‘rish mumkin, chunki u badiiy elementlarni psixologik tushunchalar mohirlik bilan uyg‘unlashtirib, barcha yoshdagи kitobxonlar o‘rtasida aks sado beradigan, ularni murakkab tuyg‘u va g‘oyalarni o‘rganishga undaydigan asar yaratadi. Ushbu barcha jihatlar uyg‘unlashtirilgan holida, hech bir bolakay ushbu ertakni tutgatmagunicha qo‘lidan qo‘ymay o‘qyidi va o‘zini o‘sha bolakayga muqoyasa qiladi, uning o‘rnida bo‘lib qolishni, gular va boshqa hayvonlar bilan so‘zlasha olishni, o‘zining sayyorasi bo‘lishini, podshohlar bilan uchrashishni xohlaydi. Kichkina shahzoda achinganidek, piyonistaga achinib ham ketadi, u yomon ko‘ragnidek, baobab o‘simligidan nafratlanadi, onasining eng chiroyli sharfini taqib olib, xayolida kichkina shahzodadek tillarang sharf taqqandek bo‘ladi va aytgancha, quticha ichidagi qo‘zichoqni ham unutmeydi.

– Lekin... sen bu yerda nima qilib yuribsan?

U tag‘in ohistolik bilan va g‘oyat jiddiy ohangda:

– Iltimos... qo‘zichoq chizib ber... – dedi.

Bularning barchasi shu qadar sirli, anglab bosnias bir tarzda ro‘y berayotgan ediki, rad qilishga jur‘atim yetmadi. Jazirama sahro qo‘ynida, hayotim qil ustida turgan bir pallada qanchalik bema‘ni ko‘rinmasin, cho‘ntagimdan qog‘oz-qalam oldim-u, lekin shu zahoti o‘zimning asosan jug‘rofiya, tarix, arifmetika va husnixatni o‘rganganim lop etib esimga tushdi-da, bolakayga qarab (hatto biroz achchiqlanib) rasm chizishni bilmasligimni aytdim. Bu gapimga u:

– Baribir, qo‘zichoq chizib ber, – deb javob qildi.

Men umrimda qo 'zichoq rasmini chizib ko 'rmaganim uchun, o 'zim bilgan o 'sha eski ikkita suratdan birini – bo 'g'ma ilonning tashqi ko 'rinishini chizib ko 'rsatdim.

Ammo bolakay rasmni ko 'rib:

– Yo 'q, yo 'q! Menga ilon ham, fil ham kerak emas! Ilon haddan tashqari xavfli, fil esa haddan tashqari katta. Mening uyimdag'i narsalarning hammasi kichkina. Menga qo 'zichoq kerak, qo 'zichoq chizib ber, – deb xitob qilganida nihoyatda hayron qoldim-da, shu rasmni chizib berdim.

Naqadar sodda til orqali yaratilgan ushbu asar bolalarga ijobjiy ta'sir qilishi, shubhasiz.

O'zbek xalqining bolajon adibi G'afur G'ulomning "Shum bola" asari o'zbek bolalar adabiyotidagi badiiy psixologiyani o'zida mujassam etgan mashhur romanning yana bir yorqin namunasidir. Hikoya Shum bola ismli (bolakay ismi asarda, aslida, Qoravoy, lekin hamma uni shum bola deb ataydi) bolakayning ulg'ayish davridagi qiyinchiliklar va sarguzashtlarni boshdan kechirishi haqida hikoya qiladi. Romanda boy til va jonli obrazlardan foydalangan holda qahramonning ichki dunyosi o'rganiladi, uning his-tuyg'ulari, qo'rquv va orzu-havaslari chuqur o'rganiladi. U yosh kitobxonlarga inson psixologiyasining murakkabliklariga chuqur va mulohazali qarashga undaydi, bu esa uni jozibali asarga aylantiradi.

Shum bolaning ho'kiz o'rniga eshakka pichoq tortishi, uyidan tuxum o'g'irlab do'stlariga berishi, olma sotishidagi sarguzashtlari, ayniqsa, o'lik yuvintirishidagi kulguli holatlari kitobxonga faqatgina kulgu bag'ishlaydi. Aslida, uning badiiy shaxsidagi aniqlangan ushbu xarakterlar anchagina salbiy hisoblansa-da, aqlli kitobxon uni hayotda qo'llashga emas, undan to'g'ri xulosa chiqaradi va faqatgina hazil-mutoyibaga yo'yadi. Chunki shum bola bu shumliklarni o'zi xohlab qilmagan, barchasida zolim insonlarning qo'li bor, uning ichki dunyosi beg'ubor va boshqa bolalarniki singari qordek oq.

Ayniqsa, asardan olingan ushbu parchaga e'tibor beraylik.

Anavi, haligi, dandon sopli pichog 'ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini bergani keldim.

Ana shu so 'zdan keyin menga "innaykeyin" savoli yog 'ila boshladi.

– Xo 'sh, innaykeyin, qanday qilib sindi? Ro 'zg 'orda mening pichog 'imda boshqa pichoq qurib ketgan ekanmi?

– Tozi itingizning terisini shilayotgan edim, suyakka tegib sinib qoldi.

– Iyya?! – dedi boy. – Tozining terisini mening dandon sopli pichog 'imda shilasanlarmi, o 'zing aytchi, nimaga shildilaring?

– Shoshib qoldik-da, o 'lib qolgandan keyin, bekor ketmasin, deb terisini shilib oldik.

– Nima qilib o 'ldi?

– Harom o 'lgan otning go 'shtidan ko 'p yeb qo 'yan ekan, bo 'kib o 'ldi.

– Harom o 'lgan ot go 'shti qayoqda ekan?

– Ha, o 'zimizning to 'riq qashqaning go 'shtini yeb o 'ldi-da, begona ot emas.

Boy alanglab qoldi.

– Hay-hay, bola, og 'zingga qarab gapir, to 'riq qashqa o 'ldi dedingmi? Xo 'sh, to 'riq qashqa nima qilib o 'ldi?

– Xomlik qilib o 'ldi.

– Nimaga xomlik qiladi?

Parchadan ko'rinish turibdiki, hech kim yurak yutib kela olmaydigan boy oldiga shum bola kelib, uning odamni bezor qiladigan savollariga boyning aqlini shoshirib qo'yadigan, qayta savol bera olmaydigan darajada yetkazadi. Albatta, bularning barchasi yosh bolakayning biroz shumligi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, garchi ingliz va o'zbek bolalar adabiyoti bir-biridan tubdan farq qilsada, (chunki ingkiz adabiyoti ko'proq bolalarni mustaqil fikrlashga, asosan, fantastikaga, dunyoniz zabt etishga, buyuk inson bo'lib, ulkan zafarlar quchishga ilhomlantirsa, o'zbek adabiyoti yoshlarga bir-biridan go'-zal nasihatlar qiladi, o'zida yaxshilik, go'zallik, odob va xushxulqlik kabi xislatlarni jamlaydi), aslida, ularning umumiyo go'yasi bitta, ya'ni ularda badiiy psixologiya ahamiyatlari o'rinda turadi. Mualliflar va illustratrorlar turli badiiy elementlarni o'z ichiga organ holda, bolaning tasavvurini uyg'otadigan, hissiy intellektni rivojlantiruvchi va axloqiy rivojlanishga yordam beruvchi qiziqarli hikoyalari yaratadilar. Xoh bu yorqin illustratsiyalar yoki madaniy ahamiyatga ega san'at shakllari bo'lsin, badiiy psixologiya yosh kitobxonlar uchun o'qish tajribasini boyitadi, ularning atrofidagi dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantiradi.

Foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. О литературном герое. СПб, "Азбука", 2016.
- (2). Литературная энциклопедия терминов и понятий. Под ред. А.Н.Николюкина, М., 2001 (<https://www.academia.edu/37372082/>).
- (3). Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. Учебное пособие, М., "Флинта", "Наука", 2011.
- (4). Адабиётшунослик луғати. Д.Куронов ва б., Т., "Академнашр", 2013.

- (5). Н.Г.Чернышевский. Собрание сочинений в пяти томах. Том 3. Литературная критика. Библиотека “Огонек”, М., “Правда”, 1974 (http://az.lib.ru/c/chernyshewskij_n_g/text_0240.shtml).
- (6). “Ўзбекистон Миллӣ энциклопедияси” нашриёти, 2007.
- (7). <http://www.litmind.ru/milits-616-1.html>
- (8). Золотухина О.Б. Психологизм в литературе. Пособие по спецкурсу для студ. спец., Гродно, ГрГУ, 2009.
- (9). <https://qomus.info/encyclopedia/cat-x/xarakter-uz/>
- (10). С.Л.Рубинштейн. Учение о характере. Отрывок из монографии С.Л.Рубинштейна “Основы общей психологии” (<https://www.psychologyonline.net/articles/doc-451.html>)
- (11). Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. А., “Хаёт” нашриёти, 2002.
- (12). Умуроў Ҳ. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. Т., “Фан”, 1983.
- (13). Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс., Бухоро, 2020.
- (14). <https://www.dissercat.com/content/osobennosti-psikhologizma-russkoi-prozyvtoroi-poloviny-1980-khodov-tvorchestvo-v-astafeva>
- (15). G‘afur G‘ulom. “Shum bola”. Toshkent, 1983.
- (16). Antuan de Sent Ekzyuperi. Tashkent, 2019.

Matkarimova Malika (Urganch davlat Pedagogika instituti Filologiya va tarix fakulteti Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi)

SHARLOTTA BRONTENING “JEYN EYR” ASARIDA HAQIQIY VA SOF SEVGINING TASVIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharlotta Brontening Jane Eyre asaridagi haqiqiy va sof sevgi haqida fikrlar keltirilgan. Sharlotta hech qachon sevgining kuchiga shubha qilmagan. Deyarli uning barcha asarlarida sevgi umidsizlik va og‘riqni boshdan kechirib, boylik va mansabning daxshatli to‘siqlarini yengib o‘tadi. Yozuvchining bu romanida sof va haqiqiy sevgi mustaqil ayol timsolida ochib berilgan. Sharlottaning fikricha, sevgi bu boylik, pul, qimmatbaho taqimchoqlar bilan o‘lchab bo‘lmaydigan, sof va tengi yo‘q tuyg‘udir. Yana bu asarda yozuvchi Jeyn janob Rochesterdan boshqa hammaning taklifini rad etishi bilan sevgisiz turmush o‘lim bilan barobar ekanligini ham ko‘rsatib o‘tadi.

Kalit so‘zlar: haqiqiy sevgi, sof sevgi, oila, qiyinchiliklar.

ОБРАЗ НАСТОЯЩЕЙ И ЧИСТОЙ ЛЮБВИ В ИСТОРИИ ШАРЛОТТЫ БРОНТЕ «ДЖЕЙН ЭЙР»

Аннотация. В статье представлены мысли о настоящей любви в «Джейн Эйр» Шарлотты Бронте. Шарлотта никогда не сомневалась в силе любви. Почти во всех её произведениях любовь испытывает отчаяние и боль, преодолевает страшные препятствия богатства и карьеры. В этом романе писателя чистая и настоящая любовь раскрывается в образе независимой женщины. По мнению Шарлотты, любовь – это чистое и ни с чем не сравнимое чувство, которое невозможно измерить богатством, деньгами и дорогими украшениями. В этом произведении герояня Джейн отвергает предложение всех, кроме мистера Рочестера, и показывает, что брак без любви равен смерти.

Ключевые слова: настоящая любовь, чистая любовь, семья, трудности.

CHARLOTTE BRONTE’S JANE EYRE’S IMAGERY OF TRUE AND PURE LOVE

Annotation. This article provides thoughts on true love in Charlotte Brontë’s Jane Eyre. Charlotte never doubted the power of love. In almost all of his works, love experiences despair and pain and overcomes the terrible obstacles of wealth and career. In this novel by the writer, pure and true love is revealed in the image of an independent woman. According to Charlotte, love is a pure and incomparable feeling that cannot be measured by wealth, money, and expensive jewelry. In this work, the writer Jane rejects the proposal of everyone except Mr. Rochester and shows that marriage without love is equal to death.

Key words: true love, pure love, family, difficulties.

Kirish. Bu asar Jeyn haqida avtobiografiya hisoblanadi, lekin ayrim joylari Sharlotta Brontening ha-yotiga assoslangan. Lovud manzaralari, ustozlar va do‘stlari, Jeynning Ingramlar bilan bo‘lgan kechinmalar Sharlottaning real hayotidan olingan [1]. Asarning buyukligi o‘quvchini ruhlantirishida va ma’noni ajoyib ochib berishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Romanda seviga mushtoq ayol kechinmalari va o‘zining nimalarga qodir ekanligini ko‘rsatish uchun qilgan harakati juda qiziqarli kechadi. Jeyn Eyr Shekspirning Qirol Lir asari kabi ichki ruhiyatni tozalovchi hamda qalbni tinchlantiruvchi vosita hamdir [2]. Jeynning adolatsizlik va razillika bo‘lgan nafrati juda yosh patidan boshlangan. Jeyn Eyr asari bilan yaqindan tanishganlar u o‘zining maqsadiga erishganini, janob Rochesterga turmushga chiqib, u bilan farzandli bo‘lganini o‘rganishadi. Roman yosh Jeynning xohish va qatiyatini musibat va ijtimoiy ziyonlarni yengganida, orzusiga erishganida mahd etadi. Romanda urushqoqlik muhitni to‘g‘ridan to‘g‘ri ochib berilgan. Sirli chordoqli qasr

va Rochesterning aqldan ozgan va zo‘ravon xotini asarda o‘zgacha sir va shubha yaratadi. G‘ayritabiylilik elementi ham keljakni bashorat qiluvchi tushlar orqali ochib berilgan. Jeynning hikoyasi ham romantik ham qahramonlik asari bo‘lish bilan birga, ruhiy va tarbiyaviy jihatdan rivojlanish hamdir. Ayrim vaziyatlar undan o‘zining ruhiyati uchun xristian dinni mukammal o‘rganishni talab qiladi. Yosh Jeynda ayrim kuchli xususiyatlar bor. U otashin va xayolchan odam, hamdardlik va mehr uni kuchli ushlab turadi. U insonlarning muhabbatli haqida juda ham ko‘p o‘ylaydi. U keng hayot tajribasini intizorlik bilan kutadi.

Haqiqiy va sof sevgi, haqiqatdan ham, Charlotta Brontening Jeyn Eyr asarida asosiy mavzulardan bividir, chunki u Jeynni har doimgidan ham yaxshi bo‘lishga va harakatdan to‘xtamaslikka undaydi. Sharlotaning niyati sof muhabbatni Jeynning sahiylik hissiyoti orqali ko‘rsatish edi [3]. Yozuvchi muhabbatning ta’sirini, ruhiy zarqini o‘quvchiga yetarli darajada yetkazib bera olgan. Eng muhimmi, Charlotta ingliz adaibiyyotida hech qachon bo‘lmagan darajada uddalay oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Charlotta Brontening hayot ijodi haqida juda ko‘p olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Charlotta Bronte 1816-yil aprel oyida Tornton, Shimoliy Yorkshirda tavallud topgan, lekin to‘rt yoshida uning otasi Xavortga boshqil qilib tayinlanadi, va ular u yerga ko‘chib ketadilar. 1821-yil, Charlotta besh yoshlik paytida uning onasi vafot etadi. U besh nafar singlisi bilan mehribonlik uyiga yuborilganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Charlotta va uning singillari Shekspir, Milton, Bayron, Skott, Klassika va Injil asarlarining ashaddiy muxlisi bo‘ladilar. Ular yosh paytlaridan adabiyotga muhabbat qo‘yanlar va kichik fantastik asarlar yoza boshlaganligi haqida qator ma’lumotlar bor [4]. 1835-yil Charlotta uyini tashlab, ustoz ishslash uchun ketadi, ammo ko‘p o‘tmay, uyini sog‘inib qaytib keladi. U Havorotga joylashishdan oldin Brusselda tarbiyachi vazifasida ishlaydi. U adabiyot dunyosiga kirishni boshlaydi. Charlotta Angliya bo‘ylab sayohat qiladi va 1853-yil Brusselda Villette nomli romanni yozadi. Olimlarning firkiga ko‘ra, Charlotta 1854-yil ikkilanishlar bilan bir ruhoniya turmushga chiqadi, ammo ko‘p o‘tmay, homila orqali kelib chiqqan kasalliklar sababli vafod etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jeyn Eyr asari bilan yaqindan tanishgan odam asosiy mavzu qahramonning mustaqillikka tomon o‘sishi va sevgida bir xil darajada bo‘lishini guvohi bo‘ladi. Kitobxon asar davomida Jeyn mustaqillikka musiybatlar orasida ruhiyatining kuchliligi va maqsadlari tomom harakati orqali erishishini va u oxirida, hayotini o‘zgartira oladigan yagona odam – bu o‘zi ekanligiga tushunib yetishini bilib oladi. Jeyn o‘zini Rochesterga bag‘ishlasiga qaramasdan, u unga qaram bo‘lib qolmaydi, uning xohishi erkin bo‘ladi. Yosh Jeynning Rochesterga bo‘lgan sevgisi oila va mehr o‘rtasidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishi romanning asl negizida yotadi.

Asar o‘quvchida haqiqiy maqtonat tarbiyalashi bilan boshqa asarlarda ajralib turadi. Jeyn Eyr o‘z hikoyasini shafqatsiz va hissiz xolasining uyida o‘n yoshli yetim bola sifatida boshlaydi. Rid xonim uni yolg‘onchilikda ayblab Lovud institutiga yuboradi. Baxtsiz o‘smirlikdan keyin u ustoz bo‘ladi va janob Rochesterning noqonuniy qizi sifatida Adeleda tarbiyachi bo‘lib ishlab boshlaydi. Jeyn va Rochester bir-birini sevib qoladi, ammo Jeyn to‘yi kuni Rochesterning uyida yolg‘iz yashaydigan, aqldan ozgan ayol, aslida, uning raqiqasi ekanligini bilib qoladi. Rochesterning o‘tinishlariga qaramasdan, Jeyn uni tashlab ketadi va Riverlar oilasidan panoh topadi. U Riverlar, aslida, uning xolavachchasi va u juda ko‘p pul merosxo‘ri ekanligini topadi. U Jon Riverga turmushga chiqib, Hindistonga ko‘chib ketish arafasida, Rochester uni yordamga chaqirayotganidan xabar topadi. Rochesterning uyiga borganda, uyning yonib kul bo‘lganlini bilib oladi. U Rochesterning ko‘zi ojiz bo‘lib qolgan bo‘lsa ham, unga turmushga chiqadi, keyinchalik, ko‘rish qobiliyati qisman tiklanishiga yordam beradi.

Jeyn Eyr asari mutolaa qiluvchiga diniy ishlar va yaratgan bilan to‘g‘ri muloqot haqida ham ma’lumot beradi. Birmuncha vaqt bo‘lsa ham, Xudoning surati Rochesterni bilan yashiringan, Jeyn o‘zining barcha azob-uqubatlari bilan hech qachon ilohiy rahm-shafqatga shubha qilmaydi. U Rochesterni tashlab, tog‘larda o‘limga duch kelganda, yaratgandan Rochester va o‘zi uchun najot so‘raydi. Romanda taqdir to‘g‘risidan turli munosabatlar ko‘rsatilgan va rad qilingan, masalan, Janob Brocklehurstning shafqatsiz ikkiyuzlamachiligi, Jonning sovuq fanatizmi, Xelenning barcha narsani muloyimlik va befarqlik bilan qabul qilishi va Rid xonimning kechirishdan bosh tortishi har xil shakkarda qattiq, muloyim yoki yashirin tarzda qoralanadi. Asarda Jeynning kechirimliligi oshkora ko‘rsatilgan, masalan, bolaligidanoq u Rid xonimning qabihligiga qarshi qilgan isyonlariga darrov pushaymon bo‘lar edi.

Tahlil va natijalar. Xullas, Sharlottaning fikr va kechinmalaridan biz bilamizku, Jeyn bu yozuvchining o‘z aksidir. U o‘zining sevgi va oilaga bo‘lgan fikrlarini, onasiz hayotini, yuqori zakovati va qiyinchilikka chiqamlilagini qahramonidan tasvirlagan. Jeyn turmush qattiq sevgiga asoslangan deb hisoblaydi. Uning Rochesterga bo‘lgan tuyg‘ularining o‘sib ketishini uni xavotirga soladi. Jeyn uning boyliklariga, pullariga va yutuqlariga qaramay, uning taklifini rad etadi. Ular turmush qurganda esa u Rochesterni jonining bir parchasi sifatida ko‘rib boshlaydi. Rochester ham o‘z xatolaridan va azob-uqubatlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib, roman davomida o‘sib boradi va Xudoning irodasiga bo‘ysunishga yangi kuch topdi.

Jeyn uchun dunyo –Tornfild Xoll, va uning sinovi esa sevgi bo‘ladi. U o‘zini shu yomonliklarga lo-yiq ko‘radi. U o‘z his-tuyg‘ularini, hatto janob Rochesterning boyligini qo‘lga kiritishga qaror qilgan go‘zal Ingramni sevib qolgandek ko‘rsatganda ham nazorat qila oladi. Janob Rochester Jeynning hasadini qo‘zg‘atish uchun Ingramga umid beradi, lekin Rochester Ingram uni sevmasligini biladi. Ingram go‘zal, boy va aslzoda ayol, Jeyn esa xunuk va kambag‘al bo‘lganligi uchun ham Jeyn o‘zini ularni rashk qilib bilmaydigan darsjada past tabaqadan deb hisoblaydi. Jeyn Riverning fikriga qaraganda sevgi shart emasligini bilganda dahshatga tushadi. U qat’iyati bilan Jeynni ham boshqalarning fikrini qabul qilishga o‘rgatadi. U Jeynni Hindistonga o‘z xotini sifatida olib ketishga qattiq turib oladi va uning do‘stona munosabat yaratishiga qarshi turadi. River Jeynni sehr-jodu bilan taslim qilmoqchi bo‘lgan bir paytda, uni Rochesterning qichqirig‘i qutqarib qoladi. Jeyn Eyr Lovud maktabini tark etganda, unda Xelen Bernsdagi ma’naviyat bilan va Rid xonimdagisi tana bilan azoblashlaridan boshqa yomon kechinmasi yo‘q edi. Aslida, Jeyn uchun bu dunyodagi eng muhim narsa – bu sevimli odam bo‘lish. Jeyn qisqa umr kechirgan bo‘lsa ham, hayoti davomida hech ham mehr ko‘rmagan. Jeyn Tornfildga yetib kelganida, u Berta tomonidan yoqib yuborilgan xarobani ko‘radi, Rochester esa ko‘rish va chap qo‘lini yo‘qotganini aniqlaydi. Jeyn Rochesterni o‘ttiz mil uzoq Ferndeandagi uyida ko‘r va umidsiz holda topadi. U avvaliga ko‘zlariga ishonmaydi, keyin esa ko‘zlari quvonchdan to‘lib ketadi. Ular turmush quradilar va bir-birining yarasiga malham bo‘lib yashaydilar. Oradan o‘n yil o‘tgandan keyin esa Jeynning hayoti o‘ylaganidan ham ajoyib bo‘ladi, Rochesterning bir ko‘zi ko‘ra boshlaydi va ular o‘g‘il farzandli bo‘ladilar. Asar oxirida kitobxon Jeyn to‘siqlarni yengib o‘tib, janob Rochesterga qaytib kelishiga va haqiqiy sevgiga erishishiga va og‘ir kurashdan keyin, u bilan baxtli hayot kechirishiga guvoh bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ayollar ta’lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan va siyosiy munozaralardan chetlashtirilgan davrda nashr etilgan Jeyn Eyr toza havo nafasiga o‘xshardi [5]. Uning ayollarning qaramlik tasviriga zid bo‘lgan xususiyatlari – bu otashin mustaqil fe‘l-atvori va qo‘rqmas ishonchi edi. Bronte opa-singillarining eng mashhuri, Sharlotta Bronte, ayollar ikkinchi darajali bo‘lgan dunyoni qabul qilishga tayyor emas edi. Jeyn Eyr Sharlotta Brontening eng yaxshi asarlarida biridir. Sharlotta Bronte irodasi kuchi erkaklarni ham hayratda qoldirdi. U oilada talabchan, qattiqqo‘l, qonun chiqaruvchi va ehtirosli er tomonidan bo‘lishi tarafidoridori. U qahramoni Jeyn orqali sof va haqiqiy sevgisiz nikoh jonsiz va o‘lik ekanligini aks ettiradi, shuning uchun mukammal er yoki xotin tanlash sof va sof sevgiga asoslanishi kerakligini ko‘rsatadi. Janob Rochester va Jeyn ham ilk tuyg‘ular uchun, azob va qiyinchilikdan keyin turmush qurishi ularning muhabbatli sof, haqiqiy va uzoq vaqt davom etganligini isbotidir. Jeyn Eyr ingliz fantastikasiga yangi hissa qo‘sghan. Viktoriya davrining dastlabki ijtimoiy va iqtisodiy hodisalarining jihatlarini aks ettiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Spark, M. The Bronte Letters, London, Macmillan, 1990, p. 569.
- (2). Booth, W.C. The Rhetoric of Fiction. University of Chicago Press: Chicago, 1998;
- (3). Ermetova, J. and Qizi, M.M.O. The Importance of Cartoons for Increasing Pupils’ vocabulary (Paddington). Science and innovation, 2023, 2 (B4), p. 582–585.
- (4). Al-Haj, A.A. The Portrayal of Women in Charlotte Bronte’s Shirley. Journal of Qena Faculty of Arts. South Valley University, Egypt, 2012.
- (5). Ermetova, J., Teaching Synonyms in Language Classroom Through Literature. (Jane Eyre). Journal of new century innovations, 30(4), 2023, pp. 45–48.

PEDAGOGIKA

Saloxitdinova Navro‘za Murodulla qizi (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti “Pedagogika” kafedrasini katta o‘qituvchisi, dots. v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Termiz, (O‘zbekiston); e-mail: saloxitdinovanavruza@gmail.com)

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA STEAM TA’LIMINI JORIY QILISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada STEAM yondashuv asosida boshlang‘ich ta’limda “Tabiiy fanlar”-ning o‘zaro fanlararo bog‘liqligi ifoda etilgan. Ya’ni, “Tabiiy fanlar” o‘zaro qay tartibda fanlar bilan integrativ jarayonga kirishishi va fanlararo aloqadorlik STEAM yondashuv asosida qanday yoritilishi bayon etilgan. Mamlakatimizda ilk bor STEAM ta’limi umumta ‘lim maktablarida boshlang‘ich sinflarida “Tabiiy fanlar”ning o‘qitilishi joriy qilinmoqda. Har qanday yondashuv ta’lim sohasiga taqdim qilinadigan nazariyalar ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, tabiiy fanlar, integratsiya, fanlararo bog‘liqlik, STEAM.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВНЕДРЕНИЯ STEAM ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В этой статье выражена междисциплинарная взаимосвязь “Естественных наук” в начальном образовании на основе подхода STEAM. То есть описывается, в каком порядке “Естественные науки” вступают в интегративный процесс с дисциплинами и как междисциплинарное взаимодействие будет освещаться на основе подхода STEAM. Впервые в нашей стране STEAM внедряет преподавание “Естественных наук” в начальных классах общеобразовательных школ. Теории, в которых любой подход представлен в области образования, также освещаются.

Ключевые слова: технологии, естественные науки, интеграция, междисциплинарные отношения, STEAM.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE INTRODUCTION OF STEAM EDUCATION IN ELEMENTARY GRADES

Annotation. This article expresses the interdisciplinarity of “Natural Sciences” in primary education based on the STEAM approach. That is, it is described in what order the “Natural Sciences” will enter into an integrative process with the sciences and how interdisciplinary communication will be covered on the basis of the STEAM approach. For the first time in our country, the teaching of “Natural Sciences” is being introduced in the primary classes of STEAM education secondary schools. Theories in which any approach is presented to the field of education are also covered.

Keys words: technology, Natural Sciences, integration, interdisciplinary connection, STEAM.

Kirish. Jahonda fan-texnika taraqqiyoti davrida, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyotdagi raqobatlar, yangi innovatsiyalarning yetakchiligi, yuqori texnologiyali ishlab chiqaruvchilar tomonidan mehnat bozori va ta’limga bo‘lgan yangi talablar, umumiy ta’limda tabiiy-texnik bilimlarning zaif berilishi va ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirishning sustligi, o‘z navbatida, ta’lim tizimiga nisbatan yangi talablarni qo‘ymoqda.

Jahon miqyosida bugungi kundagi ta’lim tizimi faoliyatini takomillashtirish orqali ta’lim oluvchilar-da hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda yuqori malakaga ega bo‘lgan mutaxassislarini tayyorlay ola-digan ta’lim mazmunini yaratishni taqozo etmoqda. Uzluksiz ta’lim mazmunini sifat jihatdan boyitish va uning samaradorligini oshirishda ta’limga bo‘lgan yangi talablar bilim oluvchilarining qiziqishi, iqtidori, qobiliyati kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantirish hamda umumiy ta’limda tabiiy-texnik bilimlarning integrativ STEM yondashuvlar orqali tabiiy-ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalarni shakllantirish muammo-lari dolzarb ahamiyat kasb etadi [2;192-b.]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz pedagog olimlari Sh.M.Mirzaaxmedova, R.Mavlo-nova, D.Sharipova, N.Raxmonkulova, K.Matnazarova, M.I.Nuriddinova, M.K.Shirinovning tadqiqot ishlarida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tabiiy fanlar” fanini o‘qitish muammolari, A.K.Raximov, F.I.Ochilovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida esa tabiiy fanlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish metodikasi masalalari o‘rganilgan. O‘quvchilarda texnik ijodkorlikni rivojlantirish muammolari Sh.S.Shari-pov, O.A.To‘ychiyev, N.M.Hamdamova va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Ta’limda yangi STEM yondashuvi rivojlangan davlatlarda keng qo‘llanilib, jahon hamjamiyati to-monidan ijobjiy baholanmoqda va STEM ta’limi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda. Xorijiy davlatlarda kichik yoshdagi bolalarda STEM ta’limini tashkil etish muammolari Aaron D. Isabelle, Gilbert A.Zinn, Yehudit Judy Dori, Zemira R.Mevarech, Sanders, M, Robert M.Capraro, Mary M.Capraro, James R.Morgan tomonidan tadqiq qilingan va ular tomonidan mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha didaktik ta’mi-

notlar yaratilgan. Adabiyotlar tahlilga ko‘ra, STEM ta’limiga oid ilmiy va uslubiy ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, “Tabiiy fanlar”ni o‘qitish metodikasini pedagogik muammo sifatida o‘rganish hamda uni takomillashtirish zarurati mavjud [3;32-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mazmuniga ko‘ra, empirik (boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini va o‘quvchilarini bilan suhbat, anketa so‘rovnomalari, trening mashg‘ulotlar, ma’lumotlarni tizimlashtirish) metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev huzurida 2021-yil 22-iyul kuni o‘tkazilgan yig‘ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash hamda umumiyl o‘rtta ta’lim maktab o‘quvchilarining aniq va tabiiy (STEM) fanlar bo‘yicha qiziqishlarini oshirish hamda ularning shu yo‘nalishda bilim va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, kelajakda muhandislik, axborot-kommunikasiya texnologiyalari, ilm-fan yo‘nalishida yetuk kadrlarni tayyorlash kabi muammolarni hal etish maqsadida o‘tkazilgan yig‘ilish bayoni ijrosini ta’minlash uchun Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 27-avgustdagagi “Umumiyl o‘rtta ta’lim maktablarida STEAM ta’limi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 274-sonli buyrug‘ida quyidagilarni amalga oshirish belgilangan. Bular: umumiyl o‘rtta ta’lim maktablarida STEAM fani dasturlari ishlab chiqish, STEAM fanlarini o‘qitish uchun zarur laboratoriya jihozlari va uskunalar ro‘yxatini shakllantirish; o‘qituvchilarini STEAM ta’limi bo‘yicha malakasini oshirishda xalqaro hamda mahalliy ekspert va pedagoglarni jalb qilish, pedagoglarni qo‘srimcha adabiyotlar bilan ta’minlash [1;488-b.].

Yuqorida keltirilgan me’yoriy hujjatlar mazmuniga ko‘ra, STEAM ta’limni joriy qilish va uni rivojlantirishning strategik maqsadlari ta’lim sifati hamda kadrlarni tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablariga muvofiqligini tahlil qilish asosida ta’lim mazmunini yangilash taqozo etadi. Shu o‘rinda davlatimiz siyosatida ham STEAM ta’limiga alohida e’tibor qaratmoqda. Albatta, STEAM ta’limiga o‘tishda STEAM ta’limi mazmuni qanday bo‘lishi kerak? STEAM ta’limidan qanday foydalanamiz? STEAM ta’limi bo‘yicha pedagogik amaliyotni qanday tashkil etish zarur? STEM ta’limini rivojlantirishda davlat buyurtmasi va ta’lim muassasasi orasidagi o‘zaro hamkorlik qanday amalga oshiriladi? kabi savollarning yechimi mazkur ta’limning mamlakatimizda keng rivojlanishiga imkon beradi.

M.Sanders STEAM ta’limiga o‘tishning muammolarini tahlil qilish jarayonida “Endilikda mehnat bozori insondagi kuchli mushaklar, o‘tkir ko‘zlar, mustahkam iroda kabilar bilan baholanmaydi”, deb ta’kidlaydi. Chunki zavod va fabrikalarda bu sifatlar talab qilinadigan barcha ishlarni robotlar, ya’ni sun’iy intellekt bajaradi. Endilikda insonlarga o‘z o‘rnini jamiyatda topishlari uchun ularga jamoa bilan ishlash, yaratuvchanlik, muhandislik va boshqa shunga o‘xhash talablar qo‘yilmoqda. Uning g‘oyasida yangi avlodni STEAM dasturi asosida o‘qitish ularda intellektni rivojlantirishga, topqirlik orqali aniq masalalarni yechishni o‘rganishda o‘quvchilar ko‘proq savol berishlari va ularning yechimlarini topishga qaratilgan bo‘lishi ukdirilgan [9;145-b.].

Mamlakatimizda STEM ta’limi o‘quvchilarini texnik ijodkorlikka yo‘naltirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlariada o‘z aksini topgan. A.To‘ychiyevning robototexnika yo‘nalishida o‘quvchilarida texnik ijodkorlikka oid kompetensiyalarni robototexnika elementlari asosida takomillashtirish mavzusidagi tadqiqot ishida umumiyl o‘rtta ta’lim maktablari o‘quvchilarining texnik ijodkorlikka oid kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik shart-sharoitlari, o‘quvchilarining texnik ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik ta’motni, texnik ijodkorlik kompetensiyalarining rivojlanganlik darajalarini aniqlash mezonlari hamda texnik ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot ishi robototexnikani rivojlantirishga va o‘rtta umumiyl ta’limning tabiiy-texnikaviy tarkibiy qismlarini mustahkamlashga qaratilganligi bilan ta’lim berishda amaliy ahamiyat kasb etadi [3;43-b.].

2030-yilga borib, Xitoy sun’iy intellekt sohasida yetakchilikka aylanishni rejalashtirmoqda. Bunday sharoitda texnik va ilmiy ta’lim dasturlari (STEM) mamlakatda tobora ommalashib borayotgani ajablanarli emas. Chunki oxirgi yillarda Xitoy hukumati boshlang‘ich va o‘rtta sinflarda IT (axborot texnologiyalari) kurslari yo‘lga qo‘yilmoqda va dasturlash ham xuddi ingliz tili kabi yetakchi fanga aylanishi hamda 2030-yilga borib, Xitoyda yalpi ichki mahsuloti sun’iy intellekt hisobiga 26%ga o‘sishi kutilmoqda. Bu esa Xitoyda STEM fanlarini o‘rganish kelajakda mehnat bozorida imkoniyatlarning oshishiga olib keladi [3;33-b.].

O‘quv va ilmiy tadqiqot ishlari natijalariga ko‘ra, STEM ta’limining asosiy xususiyati shundaki, bunda o‘quvchilar fanlarni samarali o‘rganishda o‘z aqli va qo‘l mehnatidan foydalanadilar. O‘quvchilar darsda kichik tajriba va amaliy ishlarni o‘tkazishadi, turli modellar ustida ishlab, o‘z g‘oyalarini amalga oshiradilar va mahsulot yaratishadi. STEAM ta’limining afzalligi shundaki, fanlarni o‘qitish farqli o‘laroq, bilimlarni alohida emas, o‘zaro mutanosib holda beriladi. O‘quvchi o‘zida nostonart muammolarni echish uchun tayyor modellardan hamda izlanish faolligini rivovojlantirib, yangi modellar ustida ishlaydi va bu kelgusida ularning hayotida ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Maktab o‘qituvchilarini va oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarga STEM

ta’limini o‘rgatish dolzarbdir. Mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga dars ishlanmalari ishlab chiqilmoqda. Masalan, “Tabiiy fanlar”da “Jonli va jonsiz tabiatni o‘rganamiz” mavzusini o‘qitishda darsning umumiy maqsadida jonli va jonsiz tabiatga nimalar kirishini o‘rganish, jonli va jonsiz tabiatning harakatlanishdagi farjni o‘rgatish, o‘quvchilarda jonli va jonsiz tabiatga munosabat ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari qo‘yiladi. Darsning turli (o‘quv faoliyatiga yo‘naltilish, bilmni faollashtirish, yangi mavzuni o‘rganish, yangi mavzuni mustahkamlash) bosqichlarida o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan yakuniy natijalar belgilanib olinadi. Darsning har bir bosqichida erishilishi lozim bo‘lgan yakuniy natijalar tarkibiy qismlarini belgilab olishda o‘quvchining yoshi va uning psixologik-fiziologik xususiyatlarini inobatga olish lozim [6;156-b.].

Maktabda “Tabiiy fanlar”ni o‘rganishning muhim vazifalari – bu o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va tanqidiy fikrlashni shakllantirish. Buning uchun bolalar bilan tabiatni kuzatish kundaligini yuritish yoki ularni rang-barang tajribalar o‘tkazishning o‘zi yetarli emas. Eng avvalo, pedagog maqsadli to‘g‘ri strategiya g‘oyasini ishlab chiqishni o‘rganishi hamda uni amalga oshirish yo‘llarini bilishi kerak.

Xulosalar:

1. Kichik mакtab yoshidan tabiiy fanlarni o‘rganishning muhim vazifalari – bu o‘quvchida ilmiy dunyoqarashini va tanqidiy fikrlashga qaratilgan. Bu esa o‘quvchida tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyasining shakllanishini ta’minlaydi.

2. Kichik yoshdagagi bolalarga STEAM ta’limi joriy etishda psixologik-gigiyenik talablarga e’tibor qaratganligi, o‘quv jarayonida ijobjiy natijalar – bu bolalarda tahliliy fikrlash va aniq fanlarga qiziqishni rivojlantiradi hamda bolalar nafaqat individual, balki jamoa bilan ishlashga o‘rganadi.

Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., “O‘zbekiston”, 2017, 488-bet.

(2). Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. “Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi”. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, “Ilm Ziyo”, 2009, 192-bet.

(3). Sangirova Zamira Bozorboyevna. Umumta’lim mакtablarida STEAM yondashuv asosida o‘quv-loyiha ishlarni tashkil etish metodikasi (tabiiy fanlarni o‘qitish misolida). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiysi, 2022, 32–43-betlar.

(4). Saloxitdinova Navro‘za Murodulla qizi. “Development prospects of primary education integration (on the example of exact and natural sciences)”. “Jamiyat va innovatsiyalar” jurnali, p. 221–225. Special Issue, 7 (2021).

(5). Saloxitdinova N.M., Erdanayev R.X. “Raqamli dunyo sharoitida ta’limga innovatsion yondashuvning pedagogik asoslari”. Yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2021.10.06, 271–274-betlar.

(6). Saloxitdinova N.M. Raqamli dunyo sharoitida boshlang‘ich ta’limda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasining rivojlanish istiqbollari. TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi, ilmiy-uslubiy jurnal, № 1, 2023, 150–156-betlar.

(7). Saloxitdinova N.M. “Mutaxassislikka kirish”. I qism, o‘quv qo‘llanma, “NIF MSH”, T., 2023, 156-bet.

(8). Saloxitdinova N.M. “Boshlang‘ich ta’limda texnologiya va tabiiy fanlarning o‘zaro fanlararo bog‘liqligi”. “Ilm sarchashmalari”, ilmiy-nazariy, metodik jurnal, 9-son, 2023, 95–98-betlar.

(9). Saloxitdinova N.M. STEAM yondashuv asosida fanlararo aloqadorlikning metodik asoslari. “Pedagogik akmeologiya”, xalqaro ilmiy-metodik jurnal (Buxoro davlat pedagogika instituti), № 4 (6), 2023, 141–145-betlar.

**Azamova Sitora Ayonovna (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasи o‘qituvchisi;
azamovasitora04@gmail.com)**

EKOLOGIK TARBIYA – MAKTAB O‘QUVCHILARI EKOLOGIK ONGINI YUKSALTIRISHNING MUHIM KO‘RSATKICHI

Annotatsiya. Maqolada ekologik globallashuv sharoitida maktab o‘quvchilarida ekologik tarbiya berish orqali ularning ekologik ongini yuksaltirish dolzarb vazifa ekanligi haqida fikr bildirilgan. Hozirgi kunda ta’lim-tarbiyaning yangi zamонави texnologiyalarini qo‘llash orqali yoshlarda ekologik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish muhimligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik globallashuv, ekologik muammo, ekologik madaniyat, ekologik vaziyat, ekologik xavfsizlik, ekologik ong, ekologik munosabat.

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ-ВАЖНЫЙ ПОКАЗАТЕЛЬ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В статье высказывается мнение о том, что повышение экологического сознания школьников путем проведения экологического образования в условиях экологической глобализации является актуальной задачей. В настоящее время рассматривается важность формирования экологических знаний и умений у молодежи путем использования новых современных технологий обучения и воспитания.

Ключевые слова: экологическая глобализация, экологическая проблема, экологическая культура, экологическая ситуация, экологическая безопасность, экологическое сознание, экологическое отношение.

ENVIRONMENTAL EDUCATION IS AN IMPORTANT INDICATOR OF INCREASING ENVIRONMENTAL AWARENESS OF SCHOOLCHILDREN

Annotation. *The article expresses the opinion that increasing the environmental consciousness of schoolchildren by conducting environmental education for schoolchildren through environmental education in the context of environmental globalization is an urgent task. Currently, the importance of developing environmental knowledge and skills among young people through the use of new modern technologies of training and education is being considered.*

Key words: environmental globalization, environmental problem, environmental culture, environmental situation, environmental safety, environmental consciousness, environmental attitude.

Kirish. Insoniyat tarixi tabiat tarixi bilan uzviy bog‘liqdir. Inson tabiatning bir qismi bo‘lishi bilan bir qatorda, o‘zining hayot faoliyatida yangidan yangi usullar bilan tabiatga ta’sir qilishni davom etmoqda. Bu esa ekologik tizim holatining o‘zgarishiga, ayniqsa, ularning sifat va miqdor ko‘rsatkichlarining buzilishi shiga olib keldi. Bunday faoliyat natijasida Yer shari yuzasi, iqlimi, o‘simligi, hayvonot dunyosi, sayyoramiz havosi o‘zgarishi, suvning ifloslanishi, o‘rmonlarning qirqib yuborilishi, yer yuzasida tuproq nurashi, hayvonot va baliqlarning ko‘p ovlanishi natijasida ekologik inqiroz yuzaga keldi. Inson faoliyati ekologik vaziyatning nihoyatda keskinlashib ketishiga sabab bo‘ldi. XXI asr boshlariga kelib, tabiat bilan insoniyat o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi yaqqol ko‘zga tashlana boshladi. Ekologik muammolarni bar-taraf etishning asosiy yo‘llaridan biri insonning ekologik madaniyatini shakllantirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishishi ilmiy adabiyotlarda o‘z isbotini topgan. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik his-sini tarbiyalash orqali erishish mumkin [1;318-b.]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson ekologik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslariiga doir ilmiy tadqiqot materiallari, jumladan, inson ekologik madaniyatiga jamiyat ehtiyojini ortishi [3,4,5], ekologik madaniyatni shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning o‘rni [6,7,8], ekologik muammolarning umum-sayyoraviy tus olgani mutaxassislarning mavzuga e’tiborini nihoyatda kuchaytirdi va ko‘plab ilmiy asarlar yaratildi. Masalan: ekologik madaniyatni shakllantirishda diniy qadriyatlar va ta’lim tarbiyaning roli B. Omonov, F.Qilichev, B.N.Omonov, G.A.Ochilova, Kh.Sh.Nomozov, Y.Kh.Manzarov, B.A.Ochilov [3,4, 7], suv tanqisligi muammosi va ekologik globallashuvga doir manbalar B.Omonov, S.Mamashakirov [9, 10,11] tadqiqotlarida tahlil qilingan. Tahlil natijalarida yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirishda mil-lyi va umuminsoniy tamoyillarini ko‘zda tutuvchi, ta’lim-tarbiyaning roliga alohida e’tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Sayyorada murakkablashib borayotgan ekologik vaziyat, butun insoni-yat oldida tabiat, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat zaxiralaridan tejab-tergab, ehtiyyotkorlik bilan foy-dalanishni, agar ana shu muammolarni zdulik bilan hal etishga kirishilmasa, ularning oqibatlari o‘ta dah-shatli bo‘lishi, hatto sivilizatsiya halok bo‘lishi mumkinligi dunyodagi barcha mamlakatlar va xalqlar ol-diga ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Ekoliya hozirgi zamoning keng miqyosdagи keskin ijobjiy muammola-ridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo‘lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog‘liqdir. Tarbiya shaxsni shakllantirishga qaratilgan jarayondir. U shaxs qadriyat va manfaatlarini jamiyat qadriyat hamda manfaatlariga moslashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Tarbiya obyekti hamisha shaxs yoxud muayyan guruh bilan bog‘liq. Biroq tarbiyaning subyekti turli-tumanligi bilan tavsiflanadi. Masalan, tarbiya alohida shaxs, biror-bir institut, guruh, davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Har qanday holatda ham tarbiyaviy ta’sir o‘zi-ning maqsadga muvofiqligi va tizimliligi bilan ajralib turadi. Yosh ovlodning ekologik tarbiyasi ko‘p qirralidir. Ona zaminga muhabbat vatanga bo‘lgan muhabbatdir. Shundash ekan, tarbiyaning eng muhim ji-hatlarini, o‘quvchilarga hissiy ta’sir etuvchi elementlarini bevosita xalq pedagogikasi durdonalaridan ham izlash mumkin. Har bir millatning urf-odatlari, an’analari va qadriyatlarida ekologik ta’limga oid im-koniyatlar bor. Darhaqiqat, tabiat va tiriklik dunyosi shunday chambarchas bog‘langanki, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan beba bo‘naviy xaziia-xalq pedagogikasi ijodiyotining barcha janrlarida ekolo-gik tarbiya elementlari mavjud

Tahlil va natijalar. Mamalakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilashda, atrof tabiiy muhitni asrab-avaylash yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlarni yoshlarning ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois maktab ta’limida ekologik ta’lim-tarbiyaga yanada katta katta e’tibor qaratilishi, maktabgacha ta’limdan boshlab bolalarda ekologik tushunchalarini shakllantirib borish zarur. Chunki yoshlar ongida ekologik dun-yoqarashni shakllantirmsandan va uni mastahkamlamasdan turib, ekologik barqarorlikka erishish qiyin. Eko-

logik ta'lim esa inson faoliyatining barcha qirralariga ta'sir eta oladigan kuchga ega bo'lishi darkor. Ekologik ta'limda ekologik dunyoqarashni shakllantirishning eng muhim jihatlaridan biri bo'lgan inson bilan tabiat uyg'unligiga amal qilinishiga erishish zarur. Bundan tashqari, zamonaviy ekologik ta'lim shu jihatni e'tiborga olishi kerakki, bilim orqasidan darrov unga ishonch tug'ilmaydi, demak, ishonchdan harakatlar kelib chiqmaydi. Ma'lum hayvon va o'simlik turlari haqida bilim berish – bolalar ularni asrab-avaylashni boshlaydi, degani emas. Zamonaviy ta'limning vazifalaridan biri – bu istagan yo'naliishda vaziyatni ijobjiy tomonga o'zgartirish bo'yicha harakatlarda mujassam topgan ekologik irodani tarbiyalash ham hisoblanadi. Tabiat muhofazasini amalgalashishda har qanday chora-tadbirlari qo'llash bilan birga, aholining ekologik ongini va madaniyatini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik ong, madaniyat tabiatni avaylab asraganda, unga ongli munosabatda bo'lganda, boyliklaridan me'yorida foydalanishda, noxush hodisalarning oldini olishda, eng zaruri atrof-muhit doimo toza saqlashda namoyon bo'ladi. Ekologik tarbiyalanmagan kishi tabiatni e'zozlay olmaydi. Ekologik ta'lim tarbiyaning barchasi barobar zarurdir. Atrof-muhit muhofazasida aholi ekologik ongning, madaniyatning ahamiyati – tabiat inson uchun yagona makon, u odamni turli oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa zaruriy buyumlar bilan ta'minlaydi. Ekologik ong – bu har bir insonning hayotiy faoliyatida atrof tabiiy muhit uning yashash makoni ekanligini aniqlash darajasi. Ekologik ongini insonni har doim ham ekologik madaniyatli deb bo'lmaydi. Chunki ekologik barqarorlik zaruriyatini anglash haqi uni inson o'z faoliyatida tadbiq qildi, degan so'z emas. Insonlarning ona tabiatga nisbatan ekologik ongli faoliyatlarini ularning ekologik madaniyatini belgilaydi. Ekologik madaniyat esa hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik muammolarning yechimini topish va ekologik xavfsizlikka erishish har birinson hayotida ulkan mas'uliyat ekanligini anglash va shu asosda faoliyat yuritishdir. U muayyan davlatva jahon madaniyatining rivojlangan bosqichi hamda tarkibiy qismidir. Hozirgi davrda insoniyat oldida turgan eng dolzarb ekologik muammo atrof-muhitning iflosanishini bartaraf etib, ularning barqaror muhofazasini ta'minlashdir. Bu, o'z navbatida, insoniyatning baxt-saodati, ertangi kuni, kelgusi avlod taqdirlar uchun g'amxo'rlik qilishdek muhim pedagogik, siyosiy, muammoni kun tartibiga olib chiqish vazifasini qo'yadi. Atrof-muhitda sodir bo'layotgan ekologik o'zgarishlar tabiiy jarayonlarning ajralmas bo'lagi bo'lsa-da, biroq u ko'p jihatdan inson faoliyati – antropogen omillar bilan chambarchas bog'liq. Agar ekologik muammolar iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, siyosiy, estetik omillarning uzviy va uz-luksiz birligida tahlil qilinsa, uning o'ziga xos jihatlaridan biri bu kishilarda atrof-muhit, tabiat haqidagi bi-limlar tizimi, yuksak ekologik madaniyat, ekodunyoqarashning davr talablari darajasida shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Bu zaruriyat barcha insonlarga, xususan, o'quvchilarga tabiatni e'zozlash ruhida ta'lim-tarbiya berishni takomillashtirishni taqozo etadi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, jamiyat va tabiat o'rtasidagi dialektik o'zaro aloqani tushunish, ekologik muammolarning sabablari va ularni bartaraf etish yo'llarini bilish, atrof-muhit sohasida xalqaro hamkorlik zaruriyati, arxitekturaviy loyihalash hujjatlarida ekologik toza qurilish materiallarini qo'llash, hozirgi ekologik vaziyat va siyosat, uning rivojlanish yo'naliishlari va muammolarining asosiy jihatlarini chuqur o'rganish iqtisodiyotning real tarmoqlari dagi muammolarni hal qilishda muhim o'rinni tutadi [12;3-b].

Mamlakatimizda ekologik vaziyat xususiyatlari, ekologik munosabatlar xarakteri, ekologik muammolar tabiatni keskin o'zgarayotganligi ekologik xavfsizlikni ta'minlash muammosini strategik ahamiyatga molik masala sifatida davlat ekologik siyosatining zamonaviy modelini shakllantirish va amaliyotga joriy etish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. "Tuproq, suv va havoning haddan ziyod iflosanishi, iqlim o'zgarishi, o'simliklar va hayvonot dunyosidagi tashvishli o'zgarishlar ekologik muammoni taraqqiyotga yuz tutayotgan mamlakatlarning xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan omillardan biriga aylantirmoqda" [2;389-b.].

Xulosa va takliflar. Tabiatni muhofaza qilish va ekologik tarbiya masalasi pedagogika fanlarining ham eng muhim tarbiyaviy qismidir. Insonlarda tabiatning qonunlariga rioya etish to'g'risida va bu sohada vatan, xalq, davlat, kelajak avlod oldidagi burch tuyg'usi va mas'uliyat yaratilmasa, ularda ekologik ong va madaniyat hosil bo'lmaydi. Ekologik ong va tafakkurga ega inson o'z mehnat faoliyati davomida tabiatga ehtiyojkorona munosabatda bo'ladi, tabiatga noto'g'ri munosabat qanday oqibatlarga olib kelishini oldindan bilib, ongli ravishda ish ko'radi. Kishilarda ekologik ong hamda tafakkurni, ekologik dunyoqarashni shakllantirish tabiatni to'g'ri tushunishga yordam beradi va kelajakda sog'lom muhitni yaratishga kafolat beradi.

Ekologik tarbiyani shakllantirish va uni muttasil takomillashtirib borish uchun, umumta'lim makkablarida ekologik tarbiya shakllari uyg'unligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ekologik tarbiya shakllari uyg'unligini ta'minlash borasida umumta'lim makkablarida quyidagi choralarini amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- birinchidan, "ekologik tarbiya shakllari" rukni ostida uslubiy ko'rsatmalar majmuyini tayyorlashni yo'lga qo'yish zarur;

• ikkinchidan, ekologik tarbiyaning an'anaviy va innovatsion shakllaridan kengroq foydalanish lozim. An'anaviy shakllar ota-bobolarimiz tomonidan erishilgan yutuqlarning davomiyligini oshirsa, innovatsion shakllar zamon talablaridan kelib chiqib, yondashish samaradorligini ta'minlaydi;

• uchinchidan, ekologik tarbiya shakllari ekologik tarbiya subyektlarining xususiyatlariga mos bo'l-mog'i darkor. Ta'lim dargohlarida qo'llanilgan ayrim ekologik tarbiya shakllari davriylikdan kelib chiqib yondashishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., "O'zbekiston", 2022, 440-bet.
- (2). I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., "O'zbekiston", 1997, 115-bet.
- (3). Omonov B.N. Значение религиозных ценностей в формировании культуры личной экологии. Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from Paris, France February 27th 2021. <https://conferencepublication.com>
- (4). Qilichev F. Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlarning roli. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref., Toshkent, O'zMU, 2022.
- (5). Tilavov O'.G'. Global barqaror taraqqiyotda ekologik partiyalarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref., Toshkent, O'zMU, 2021.
- (6). Omonov B.N. Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia. Turkish Online of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, July 2021, 2541-2545. <https://www.tojqi.net/index.php/journal/article/view/4680>
- (7). Omonov B.N., Ochilova G.A., Nomozov Kh.Sh., Manzarov Y.Kh., Ochilov B.A. Factors of The Formation Of Ecological Culture In The Education And TrainingSystem. <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2880/2583>https://www.scopus.com/sourceid/21100216519_984-989
- (8). Mamashakirov C. Роль социально-политических факторов в формировании экологической активности и ответственности. Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. д. филос. н., Т., ТашГУ, 1997.
- (9). Muhiddin Rahim. Global ekologik inqiroz tahdidlari. "Tafakkur" jurnalni, 2014, 1-son, 24–35-betlar.
- (10). Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O'zbekistondagi ekologik muhitga ta'siri. T., "Voris-nashriyot", 2021, 136-bet.
- (11). Omonov B. The use of water resources in the center of environmental policy in the region. The fifth international conference on history and political sciences. <https://elibrary.ru/tjvied>
- (12). Z.M.Sattorov. Ekologiya. Darslik, T., «Sano standart» nashriyoti, 2018, 360-bet.

**Shodiyeva Nodira Normamatovna (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika" kafedrasи
o'qituvchisi; e-mail: shodiyevan22@gmail.com)**

NIKOH QURISH YOSHIDAGI TALABALARDA TIBBIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada o'quvchi-talabalar tibbiy savodxonligini rivojlantirish, uni pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqib, tahlil berilgan. Tibbiy savodxonlik darajalari va omillariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy savodxonlik, sog'liq, tibbiy madaniyat, dorivor o'simliklar, o'qi tish metodikasi, ko'nikma, malaka.

ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ МЕДИЦИНСКОЙ ГРАМОТНОСТИ У СТУДЕНТОВ БРАЧНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В статье анализируется развитие медицинской грамотности студентов, рассматривая это как педагогическую проблему. Особое внимание уделено уровням и факторам медицинской грамотности.

Ключевые слова: медицинская грамотность, здоровье, медицинская культура, лекарственные растения, стоматологический метод, навыки, компетентность.

THE IMPORTANCE OF FORMING MEDICAL LITERACY IN MARRIAGE AGE STUDENTS

Annotation. The article analyzes the development of medical literacy of students, considering it as a pedagogical problem. Special attention is paid to the levels and factors of medical literacy.

Key words: medical literacy, health, medical culture, medicinal plants, dental method, skills, competence.

Kirish. Sog'lijni saqlash savodxonligi xavfini tan olish, qarama-qarshi ma'lumotlarni tushunish, sog'liq bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish, sog'lijni saqlash tizimlari, jamoalar, hukumat siyosati va tuzilmalari fuqaroning bemor sifatida ehtiyojlarini to'liq qondirmasa, murakkab sog'lijni saqlash tizimlarini va «talab» o'zgarishini tushunish uchun funksional imkoniyatlarni talab qiladi. Sog'lijni saqlash sohasidagi kompetensiyalar odamlarning xulq-atvori va ularning tanlovini, niyoyat, ularning sog'lig'i va farovonligini shakllantiradi. Tibbiy savodxonlikning past darjasasi sog'lom turmush tarziga rioya qilmaslik, xavfli

xatti-harakatlar, kasalxonaga yotqizish va sog‘liqni saqlash xarajatlarining oshishiga olib keladi. Yevropa Sog‘liqni saqlash savodxonligi bo‘yicha tadqiqot ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 30–40 foiz aholida tibbiy savodxonlik ko‘nikmalari yetarli emas yoki muammoli rivojlangan. Sust rivojlangan tibbiy savodxonlik, kambag‘al sog‘liqni saqlash, kam mustaqillik va bemorlarning o‘z-o‘zini saqlash, tez-tez kasalxonada va yuqori xarajatlar bilan bog‘liq muammolarni yecha olish qabiliyatining pasayishi bilan ta’riflanadi. Tibbiy savodxonlik darajasini oshirish shaxslar va jamoalarning salbiy tashqi ta’sirlarga qarshi turish qobiliyatini kuchaytiradi, sog‘liqqa nisbatan ijtimoiy adolatsizliklarni yengishga yordam beradi va aholi salomatligi hamda farovonligini yaxshilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Akramova Feruza Akmalovnaning “Oila ensiklopediyasi”da oila institutining yosh avlodni ma’nana kuchli, aqlan yetuk hamda barkamol qilib tarbiyalashdagi roli va ahamiyati, oila maskanidagi har bir insonning boshidan kechiradigan ijtimoiy rollari, oiladagi shaxslararo munosabatlarning turlari, oilada sog‘lom psixologik muhitni tarkib toptirishda ota-onalarning oila bo‘yicha huquqiy, ma’naviy, tibbiy, iqtisodiy, psixologik bilimlarini farzand tarbiyasida qo‘llay olish choralar, baxtli o‘lani yaratish borasidagi qoidalar va boshqa ko‘plab do’stona tavsiyalar berilgan. E.A.Shomansurova, Ch. D.Bo‘tayevlarning “Oila tibbiyotida hamshiralik ishi” nomli kitobida oila tibbiyotiga oid masalalar sanitariya maorifl bolalar va kattalarni ovqatlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, hamshiraning fizikal baholash ko‘nikmalari, muolajalari, eng ko‘p tarqalgan holatlarda parvarishlash batafsil bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tibbiy savodxonlik – bu sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq muammolar yechimini topishga yordam beradi. Tibbiy savodxonlik siyosiy darajada ham aholiga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatishda yechimlar topishga harakat qiladi. Dorivor o‘simliklarlar ilmiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, sog‘liqni saqlash masalalarida kompetentlikni rivojlantirishning eng istiqbolli strategiyalari, uzuksiz ta’lim muassasalari, o‘rta maxsus professional kollejlari va maktablarda amalga oshiriladigan sog‘liqni saqlash bo‘yicha olib borilgan ta’lim muassasalari hamkorligi asosida yuzaga keladi. XXI asrda turli mamlakatlarda ijtimoiy-tabiyy fanlar salomatlik to‘g‘ri sida qaror qabul qilishda muammoli vaziyatlarga duch kelmoqda. Odamlardan tobora ko‘proq sog‘lom turmush tarzi foydasiga tanlov qilishni va atrof-muhit va sog‘liqni saqlash tizimidagi murakkab yechimlar orqali o‘zları va oi lalari uchun mustaqil ravishda yo‘l ochishni so‘rashmoqda, ammo hech kim ularni bunday holatga tayyorlamaydi va tegishli vazifalarni hal qilishda ularni qo‘llab-quvvatlamaydi. «Zamonaviy» jamiyatda nosog‘lom turmush tarzini faol targ‘ib qilish mavjud, sog‘liqni saqlash tizimlarida harakat qilish tobora qiyinlashmoqda. Global ekologik inqirozlar yuz berayotgan vaqtda aholining tibiyy salomatligini tabiiy vositalar va resurslar, dorivor o‘simliklar orqali tiklash hamda profilaktika qilish tobora zarurat sifatida aks etmoqda. Fan-texnika rivojlangan sari sun’iy tizimlar, geotsenozlar, hatto salomatlikka ijobjiy ta’sir etuvchi vositalar ham sun’iyashib bormoqda. Bu borada ilmiy tadqiqot ishida olib boriladigan dorivor o‘simliklarni o‘qitish asosida kelajak avlodning salomatligini saqlash va uni tizimli yo‘lga qo‘yish imkoniyati ortadi. Aholining salomatligi bir qancha omillar ta’sirida rivojlanadi: ularga ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, shaxsiy xususiyatlari, xulq-atvori va boshqa omillar kiradi. Bunday tashqari, salomatlikni asrash va kelajakka sog‘lom, baquvvat naslini qoldirish sog‘lom jamiyat – sog‘lom tafakkur natijasidir. Bu borada esa tibbiy savodxonlik salomatlikning muhim omilidan sanaladi.

Tobora ko‘proq mamlakatlarning salomatlingini tahlil qilish va monitoringi shuni qayd etmoqdaki, tibbiy savodxonlikni o‘rganishda davlatlarning ijtimoiy-tarixiy kelib chiqishidan, ulardagi tibbiy savodxonlik turli-tuman ekan. Amerika Qo‘shma Shtatlarining katta yoshli aholisi o‘rtasida tibbiy savodxonlik quiy darajada rivojlangan. 2012-yildagi XXR aholisi o‘rtasidagi tibbiy savodxonlik bo‘yicha olib borilgan kuza-tuvlar Xitoy aholisining 91,2%da tibbiy savodxonligi past yoki kam bo‘lganligini ko‘rsatdi.

Tibbiy savodxonlikning Yevropa davlatlaridagi tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, aholining 47%dan ortiq Yevropa mamlakatlarida tibbiy savodxonlik past darajada ekan. Tibbiy savodxonlik ning pastligi yoki yetarli emasligi butun dunyo sog‘liqni saqlash muammofiga aylandi. Tibbiy savodxonlik deb, «...asosiy tibbiy ma’lumotlarni olish, qayta ishlash va tushunish qobiliyati va tibbiy qarorlarni anglash va ularni tahlil eta olishdir, deb ta’riflanadi. Yosh insonlar sog‘liqni saqlash tizimi bilan kamroq aloqada va ularning sog‘liqni saqlash xarajatlari kattalarga qaraganda kamroq.

Tibbiy savodxonlik uch xil asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi:

1. Funksional kompetentlik. Bu shifokorlar, hamshiralar, farmatsevtlar yoki og‘zaki axborotga rozilik, yozma manbalarni o‘qib tushunish va tibbiyot mutaxassislarining ko‘rsatmalarga muvofiq harakat qilish, dori-darmonlarni to‘g‘ri qabul qilish, parvarish qilishga rioya qilishdan iborat ko‘nikmalar sanaladi.

2. Konseptual kompetentlik. Keng doiradagi shaxsiy qobiliyatlar bo‘lib, unda tibbiy salomatlikni asrash malakalarini hayot davomida rivojlantirish, sog‘liqni saqlash ma’lumotlari va tushunchalarini tushunish, baholash va ulardan foydalanish, ongli ravishda tanlov qilish, sog‘liq uchun xavflarni kamaytirish va hayot sifatini yaxshilash.

3. Hayotiy imkoniyatlarni orttiruvchi sog‘lijni saqlash kompetentligi. Sog‘lijni saqlash uchun faol fuqarolikni birlashtirish orqali mustahkamlash.

Xulosa va takliflar. Islom ta’limoti insonlarga faqat yaxshilikni istaydi va ularning bir-birlariga ozor bermasliklari tarafdir. Shunday ekan, avvalo, farzandingizning sog‘ligiga alohida e’tibor qarating. Shu o‘rinda turli noxushliklarning oldini olish maqsadida shar‘iy nikoh o‘quvchi domla-imomlarning nikoh rasmiy qayd etganligini dalolat etuvchi guvohnomani ko‘rib, yoshlarning tibbiy ko‘rikdan o‘tganlariga ishonch hosil qilganlaridan keyingina, nikoh o‘qishlari maqsadga muvofiqdir. Sog‘lom, farzandlari baxtli odamning ko‘ngli xotirjam bo‘ladi. Xotirjam ko‘ngilga esa orzu-havas, to‘y-hasham, shodlig-u quvonch yarashadi. Buning uchun ham insondan e’tibor va o‘z sog‘ligiga mas’ullik talab qilinadi. Demak, baxtli, mazmunli va xotirjam yashashligimiz uchun, eng avvalo, sog‘lom turmush tarziga amal qilgan holda turmush kechirishimiz, sog‘ligimizga e’tibor qaratishimiz zarurligini, also, unutmaylik.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Bektayeva Xuriyat Ortig‘aliyevna. O‘quvchi-talabalar tibbiy savodxonligini shakllantirish pedagogik mu-ammo sifatida.
- (2). Shodiyeva N. (2023). Ta’lim bilan qamrab olinmagan aholiga sog‘lom fikrlarni yetkazishning samarali psixologik usullari. “Science Shine” international scientific journal, 1 (2).
- (3). Шодиева Н. (2023). Теоретические и практические основы формирования здорового мышления у учащихся на основе сотрудничества семьи и образовательного учреждения. “Наука и инновации”, 2(В3), с. 564 – 566.
- (4). Sultonov, R., Karimov, A., Tojiyev, A., & Nabiyeva, L. (2023). Chaqaloqlar nafas a’zolari kasalliklarida ichki a’zolaridagi patomorfologik o‘zgarishlarni baholash. Talqin va tadqiqotlar, 1(30).
- (5). Ravshan, S., Zumrat, S., Mukhabbat, A., & Sardor, B. (2022). Morphological and Morphometric Indications of Trachea and Bronchial Walls in One-Month-Old Babies.

Akramova Mohichehra Rustamovna (TATU Samarqand filiali o‘qituvchisi; m.akramova05@gmail.com)

INGLIZ TILIDA O‘QISH – NUTQ FAOLIYATI TURI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘qish ingliz tilidagi matnlardagi leksik birlklarni nutq faoliyatining mustaqil turi sifatida tanib olish jarayoni va mahsuli sifatida idrok etishning o‘ziga xos jihatlari va o‘qishni tanib olishda xorijiy tillarning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari, ularda aks ettirish darajasi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: o‘qish, og‘zaki faoliyat, leksik birlik, idrok, ko‘p ma’nolik, funksional so‘zlar.

ЧТЕНИЕ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ – ВИД РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В данной статье изучено чтение как процесс и продукт распознавания лексических единиц в английских текстах как самостоятельный вид речевой деятельности, специфические аспекты восприятия, распознавания для чтения выявило государственные образовательные стандарты и учебные планы иностранных языков, степень отражения в них материалов, выделенных для иностранных языков.

Ключевые слова: чтение, вербальная деятельность, лексическая единица, восприятие, многозначность, функциональные слова.

READING IN ENGLISH – A TYPE OF SPEECH ACTIVITY

Annotation. This article examines reading as a process and product of recognition of lexical units in English texts as an independent type of speech activity, specific aspects of perception, and recognition for reading revealed state educational standards and curricula of foreign languages, the degree to which they reflect materials allocated for foreign languages.

Key words: reading, verbal activity, lexical unit, perception, polysemy, functional words.

Kirish. O‘qish kishilarning kommunikativ-ijtimoiy faoliyati sohasiga taalluqli bo‘lib, unda u yozma shakldagi so‘z orqali muomalani ta’minlaydi. Kishilarning turmush, ta’lim va ishlab chiqarish sohalardagi faoliyatlarida o‘qishdan keng foydalilanadi.

O‘qishda, boshqa har qanday faoliyatdagi kabi, mazmun va jarayon rejalarini mavjud bo‘lib, birinchisiga doimo katta ahamiyat beriladi. Faoliyatning predmet mazmunini tashkil qiluvchilar o‘qishning mazmun rejasi sanaladi. Faoliyat jarayonining elementlari o‘qishning jarayon tomoni hisoblanadi [8;184-b.].

Faoliyat mazmuniga ega, avvalo, uning maqsadini, natijasini kiritadilar. Odatda, o‘qisga faoliyat ana shu maqsadga erishishga qaratilgan bo‘ladi. Mazmun aloqalarini ochish nutq mahsulotini, ya’ni, yozma holda taqdim qilingan matnni tushunish o‘qishdagi ana shunday maqsadni tashkil qiladi. O‘qish nutqni tinglab tushunish singari retseptiv nutq faoliyati sanaladi, lekin u nutqni tinglab tushunishdan farqli ravishda,

o'qish paytida ko'rish sezgisi orqali harf kodi yordamida amalga oshiriladi [10;210-b.]. Ma'lumki, yozma nutq matnda harflar yordamida shifrlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Psixologik tadqiqotlarning guvohlik berishicha [5;195-b.], o'qish paytida ko'rish-yozuv va nutq-harakat sezgilarini o'rtasidagi bevosita aloqa paydo bo'ladi. O'qishning psixofiziologik mexanizmi ko'rish-yozuv va nutq-harakat sezgilarini o'z ichiga oladi. Ularning o'zaro birga bu faoliyatda ishtirot etishi o'qish paytida ma'lumot olishni ta'minlaydi va o'qishning ikki tomoni o'qish texnikasi va o'qilganning mazmunini tushunish birligini belgilaydi.

Oqish doimo tayyor holdagi nutq axborotini idrok qilishga, ma'lumot olishga yo'nalgan bo'ladi, shuning uchun uni nutq faoliyatining retseptiv turiga kiritishadi. Oqishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki [7;150-b.], uning muvaffaqiyatlari amalga oshirilganligi haqidagi baho kitobxonning olingan ma'lumotdan qoniqish hosil qilganligida o'z ifodasini topadi. Shunday qilib, o'qish murakkab retseptiv aqliy faoliyat hisoblanib, uning jarayon tomoni analitik-sintetik xarakterga egadir.

Tadqiqot metodologiyasi (research Methodology). O'qish o'qitishning maqsadi va vositasi o'qish chet tili o'rgatishda ham maqsad, ham vosita vazifasini bajaradi. Chet tilida o'qish ko'nikmasini egallash o'rtta maktabda chet tili o'qitishdan kuzatilgan amaliy maqsadlardan biri hisoblanadi. O'qishning yetuklik darajasi har xil darajada bo'lishi mumkin, shuning uchun o'rtta maktab oldida o'qishning minimal rivojlanish darajasiga erishish vazifasi turadi.

Eng avvalo, o'quvchilarni ovoz chiqarmasdan o'qishga o'rgatish lozim, sababi chet tilida ovoz chiqarib o'qish tor doiradagi kishilar (o'qituvchilar, aktyorlar, diktitorlar, shoirlar va yozuvchilar) dan talab qilinadi. Amaliy maqsad sifatida o'zlashtiriladigan o'qish o'quvchidan chet tilida ko'z yugurtirib o'qib chiqish, izlanib, o'qish va tanishish uchun o'qish turlarini egallashni taqozo etadi.

Amaliy maqsaddan tashqari o'qishni o'rgatish umumta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni ham nazarda tutadi. Bularidan tashqari, o'qishni o'rgatish rivojlantiruvchi maqsadni ham ko'zlab amalga oshiradi. O'qish paytida o'quvchining o'rganilayotgan chet tilini kuzatuvchanligi rivojlanadi va uning til materiali, matn mazmunini analiz va sintez qilish qobiliyatları takomillashadi. O'qishning o'qitish vositasi sifatidagi vazifasi ustida to'xtaymiz. O'qish til materialini egallab qolishda muhim vosita hisoblanadi. Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, yuqori sinflarda matnlarni o'qishni o'rgatish lug'atni boyitish usullaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega.

O'qish gapirish ko'nikmasini shakllantirishda katta vosita hisoblanadi. Oqilgan matnlarning mazmuni bo'yicha savol-javob mashqlari, hikoya qilib berish, suhbat va muhokamalar kabi ko'p mashqlarga asos bo'ladi. Ovoz chiqarib o'qish esa to'g'ri talaffuzga o'rgatishda va yangi til materialini tushuntirishda muhim bosqich sanaladi. Bundan tashqari, ovoz chiqarib o'qish ovoz chiqarmay o'qishning yetuk ko'nikmasini shakllantirishda muhim vosita rolini o'ynaydi. Demak, o'qish o'qitish maqsadi vazifasini bajarishdan tashqari, muhim o'qitish vositasi vazifasini ham o'taydi [8;184-b.].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Oqishning psixologik tomoni o'qish retseptiv nutq faoliyati hisoblanib, u yozma nutqni idrok qilish va tushunishdan tarkib topadi. Ko'rib qabil qilinadigan matnni tushunish uchun so'zlarning yozuv tasvirlarini, ularning tovush-harakat obrazlari bilan, tovushmotor obrazlarni esa ularga mos keladigan tovushlar bilan muvofiq keltirish kerak.

Oqish paytida ikkita asosiy o'zaro bog'liqlik jarayonlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) bosmadan chiqarilgan yoki yozilgan matnni idrok qilish;
- 2) o'qilgan matnni anglash.

Ko'rsatib o'tilgan ikkala jarayon biri ikkinchisidan ajratilmagan holda, bir vaqtida va o'zaro bog'liq ravishda namoyon bo'ladi.

Boshqa nutq faoliyati turlari singari, o'qish uchun ham antitsipatsiya mexanizmi ayrim qismlarga qarab so'zni to'g'ri fahmlash va keyingi so'zlar va jumlalarni oldindan ko'ra bilish ko'nikmasidir. Boshqacha qilib aytganda, bu mexanizm taxminiy oldindan sezish yoki oldindan aytib berish deb atalishi mumkin. O'qish psixologiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi barcha tadqiqotchilar antitsipatsiya shakllantirish va rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

O'qish texnikasi malakalarini shakllantirish uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u sifat jihatdan farq qiladigan qator bosqichlarga bo'linadi. Bu bosqichlarning har biri o'ziga xos xususiyatlari va ularni egallash usullari bilan farq qiladi.

O'qish jarayoni borishini tasvirlaganda psixologlar matnni tushunish bosqichlarini ajratadilar. Masa-lan, A.N.Sokolov tajribalarining natijalariga ko'ra [9;178-b.], gapni tushunish uchta bosqichdan o'tadi: biringchi bosqich – butun gapning mazmuni haqida o'quvchida yuzaki tasavvur hosil bo'ladi. Bu biringchi sintez deb ataladi. Tushunishning ikkinchi bosqichi analitik bosqich bo'lib, bu bosqich ichki va tashqi, nutqda to'la talaffuz qilib aytish bilan bog'liqidir. Oxirgi, uchinchi bosqich jumla (gap)ni to'la tushunadigan bosqich hisoblanadi.

Matnni tushunish bosqichma-bosqich tushunish xarakteriga egadir. Ayrim mualliflar tomonidan ikkitadan yettingacha bo‘lgan matnning mazmunini tushunish bosqichi ajratiladi. Bu bosqichlarning asosiylari quyidagilar hisoblanadi: 1) alohida so‘zlar, gaplar va matn qismlarini tushunish bosqichi, ya’ni matnni qisman tushunish bosqichi – ma’nolar bosqichi; 2) matn tili va uning birikmalari ma’nolarini tushunish bosqichi, ya’ni ma’nolar bosqichi; 3) matnning mazmun tomonini tushunish bosqichi, ya’ni mazmun bosqichi.

Tushunishning eng yuqori bosqichi mazmun bosqichidagi tushunish hisoblanib, matn asosida nima yotganligini, muallifning asosiy g‘oyasi nimada ekanligini tushunishni taqozo qiladi. O‘quvchiga faqat matn mazmuninigina bilish zarur bo‘lmay, asar qahramonlari qat’iy harakatlarini aniqlash va ularning harakatlari yordamida muallifning nima demoqchilagini bilish ham kerak bo‘ladi.

Shunday qilib, anglash jarayoni ma’lum tuzilishga ega bo‘lib, undagi avvalgi bosqich keying bosqichga tashkil qiluvchi sifatida kiradi. O‘qish psixologiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar o‘qish nutq faoliyati sifatida shakllanishida metodik ishni tashkil qiluvchi o‘qish mexanizmlari yoki operatsiyalarini aniqlash imkonini beradi. Bu narsa tilning yozuv tizimini egallahshni, harf va tovush o‘rtasidagi aniq bog‘lanishi ishlab chiqishni, so‘zlarni o‘qish qonunlarini egallahshni, uni ma’no va grammatik shakl bilan muvofiq lashtirishni, so‘zlarni so‘z birikmasi, gap va bo‘g‘lanishli matn bilan biriktirishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, matnni, uning mazmunini tushunish uchun kitobxonga matnni analiz va sintez qilishning bir qator operatsiyalarini egallahsga to‘g‘ri keladi. Matnning alohida qismlarini muvofiq keltirish, mavzuini, asosiy faktlarni g‘oyaga bog‘lash, xulosa chiqarish, mazmunni baholash, matn asosidagi g‘oyani tushunish, matnni talqin qilish kabi ishlarni o‘ziga aks ettiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Zamonaviy tilni o‘rgatish ko‘proq madaniyatli shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarga ingliz tili darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘tkazish, turli xil metod, rolli o‘yinlardan foydalanish orqali ularning o‘qish malakasini oshirish kerak. Chet tili o‘qishga o‘rgatish o‘quvchilarning ona tili o‘qishdagi tajribasiga suyanmog‘i lozim.

Foydalananigan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). lingvistika I. Samarkand, SamDCHTI, 2005, c. 103–107.
- (2). lingvistika I. Samarkand, SamDCHTI, 2005, c. 13–24.
- (3). Bushuy Tatyana. Umumiyl tilshunoslik. O‘quv qo‘llanma, Samarqand, SamDCHTI, 2002.
- (4). Zaripova R.A. Chet tillar o‘qitish metodikasidan qo‘llanma. Toshkent, 1986.
- (5). Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. Л., 1974.
- (6). Бим И.Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и проблема школьного учебника. М., 1977.
- (7). Esipova B.P. Pedagogika. M., 1967.
- (8). О‘.Н.Hoshimov, I.Y.Yoqubov. Ingliz tili o‘qitish metidikasi.
- (9). Hakimov I.A. O‘zbek o‘rta maktabda nemis tili grammatikasini o‘rgatish metodikasi, Toshkent, 1979.
- (10). Boyqo‘ziyev X.B. Ingliz va o‘zbek tillaridagi sodda gaplarda so‘z tartibi. Toshkent, 1974.
- (11). Uayzer G.M., Klimentenko A.D. Ingliz tilida og‘zaki nutqni o‘stirish. Toshkent, 1977.

Dushaboyev Olimjon Nazarovich (Guliston davlat universiteti, p.f.f.d. (PhD); e-mail: odushaboev@mail.ru),

Mirmuxamedov Juman Xazratqulovich (Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi;

e-mail: juman1956@gmail.ru,

Shodmonqulova Shahnoza Mirvaliyevna (Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi;

e-mail: shakhnoza5511@gmail.ru)

UMUMTA’LIM MAKTABALARIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA INTRAKTIV YONDASHUVLAR ASOSIDA DARS JARAYONINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya. O‘quvchilar tomonidan bajariladigan interaktiv mashg‘ulotlar va topshiriqlar interaktiv yondashuvlarning o‘zagi bo‘ladi. Interaktiv mashg‘ulotlar va topshiriqlarning an‘anaviy mashg‘ulotlar va topshiriqlararidan asosiy farqi shundaki, ular nafaqat o‘rganilgan materialni mustahkamlashga, balki yangisini o‘rganishga qaratilganligidir.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, ta’lim texnologiyasi, interaktiv yondashuv, ijodiy topshiriqlar, kichik guruhlarda ishslash, hamkorlik pedagogikasi, o‘qitishning o‘yin usuli, o‘rganuvchi ta’lim o‘yinlari, muammolar yechimi, ta’lim texnologiyalari.

ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ПОДХОДОВ К ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. Интерактивные занятия и задания, выполняемые студентами, составляют корни интерактивных подходов. Основное отличие интерактивных занятия и заданий от традиционных упражнений и заданий в том, что они направлены не только на закрепление изученного материала, но и на усвоение нового.

Ключевые слова: педагогическая технология, образовательная технология, интерактивный подход, творческие задания, работа в малых группах, совместное обучение педагогики, игровой метод обучения, обучающие образовательные игры, решение проблем, образовательные технологии.

ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON INTERACTIVE APPROACHES TO IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN SECONDARY SCHOOLS

Annotation. Interactive classes and tasks performed by students form the roots of interactive approaches. The main difference between interactive classes and assignments and traditional exercises and assignments is that they are aimed not only at consolidating the learned material, but also at learning new things.

Key words: pedagogical technology, educational technology, interactive approach, creative tasks, work in small groups, cooperative learning pedagogy, game teaching method, learning educational games, problem solving, educational technologies.

GulDU dotsenti, p.f.f.d., (PhD) O.G.Gaimnazarov taqrizi ostida

Kirish. O‘qitishning o‘yin usuli chuqur tarixiy ildizlarga ega. O‘yin qanchalik ko‘p qirraligi ma’lum, u o‘qitadi, rivojlantiradi, tarbiyalaydi, ijtimoiylashtiradi, o‘ynatadi va dam oldiradi. Ammo tarixan uning vazifalaridan biri – o‘qitish. O‘yin o‘zining paydo bo‘lishining birinchi paytlaridanoq o‘qitish shakli sifatida, real amaliy vaziyatlarni, ularni o‘zlashtirish maqsadida ishlab chiqarishning boshlang‘ich maktabi si-fatida chiqishi shubha tug‘dirmaydi. Zarur bo‘lgan insoniy xususiyatlarni, sifatlarni, malakalarni va odatlarni, qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Hali qadimgi Afinadayoq (e.a. VI–IV asrlar) tashkillashtirilgan tarbiya va o‘qitish tajribasi jo‘shqinligiga musobaqa tamoyili singib ketgan edi. Bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar doimo gimnastikada, raqlarda, musiqlarda, so‘z bahslarida musobaqalashib, o‘zining eng yaxshi sifatlarini charxlab olganlar. O‘sha paytdayoq harbiy o‘yinlar – manevrilar, shtab mashg‘ulotlari, “Janglar”da o‘ynashgan. X asrda maktablarda o‘qitish usullari orasida, shuningdek, o‘quvchilar musobaqalari, xususan, ritorika ommabop bo‘lib, qoloq o‘qitish usuli bo‘lgan. O‘qituvchi o‘qir edi, izohlash namunalarini keltirar, savollarga javob berar edi, bahslarni tashkillashtirar edi. O‘quvchilar xotirada eslab qolishga, qayta aytib berishga, sharhlashga, tasvirlashga, improvizatsiyalarga o‘rganar edilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G‘arbiy Yevropada Uyg‘onish va reformatsiya davrida o‘qitishning o‘yinli usullaridan foydalanishga T.Kompanella va F.Rable chaqirgan edilar. Ular bolalar qiynalmasdan va go‘yo o‘ynaganday, barcha fanlar bilan tanishishini xohlar edilar. XV–XVII asrlarda Yan Amos Komenskiy (1592–1670) barcha “Maktablar darajalarni”, “Maktablar ustaxonalarni” o‘yin joylariga aylan-tirishga chaqirgan edi. Uning fikricha, har qanday maktab universal o‘yin bo‘lishi mumkin va maktabda bolalik, o‘smirlilik, o‘spirinlik va hokazo yoshini hisobga olib, barchasini o‘yinlarda va musobaqada amalga oshirish lozim.

Jon Lokk o‘qitishning o‘yin shakllaridan foydalanishni tavsiya qilgan edi. J.J.Russo insonni fuqarolik tarbiyasi vazifalarini qo‘yib, pedagogik tadbirlar dasturini taklif qilgan edi: ijtimoiy foydali mehnat, birgalikdagi o‘yinlar, bayramlar. O‘yinni pedagogik hodisa sifatida birinchilardan bo‘lib Fridrix Fryobel tasniflagan, o‘yin nazariyasi uning pedagogik g‘oyasi asosi bo‘lgan edi. O‘yinni didaktiv ekanligini belgilab u, o‘yin bolani o‘qitish vazifalarini yechishini, unga shakli, rangi, kattaligi haqida tasavvurni berishini, harakat madaniyatiga egalik qilishga yordam berishini isbotladi. O‘yin shakllarining keyingi rivoji va ularni o‘rganish, o‘yin yordamida amalda barcha pedagogik vazifalar yechilishini ko‘rsatdi.

Zamonaviy o‘qitishning o‘yin usulining shakllanishida faol o‘qitish usullari nomini olgan o‘qitish usullarining katta guruhlari rivoji uchun asos bo‘lgan, birinchi navbatda, ishbilarmonlik o‘yinlaridan foy-dalanishga tayangan. Ulardan foydalanishning nazariyasi bir qator konsepsiyalarda, birinchi navbatda, faol o‘qitish g‘oyasida asoslangan edi. Birinchi ishbilarmonlik o‘yini sobiq ittifoqda 1932-yilda M.M.Birshteyn tomonidan ishlab chiqilgan va o‘tkazilgan edi (M.M.Birshteyn. 1989). O‘yinli o‘qitish usuli darrov e’tirof etilib va gurkirab rivojlanishga yuz tutdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy pedagogika interaktiv yondashuvlarning bir butun zaxirasiga boy bo‘lib, ularning orasidan eng muhimlaridan quyidagilarni ajratish mumkin: ijodiy topshiriqlar, kichik guruhlarda ishslash, o‘rganuvchi ta’lim o‘yinlari (rolli, imitatsiya, ishbilarmonlik va ta’lim o‘yinlari), jamoatchilik resurslaridan foydalanish (mutaxassisni taklif etish, ekskursiyalar). ijtimoiy loyihalar va ta’limning boshqa auditoriyadan tashqari usullari (ijtimoiy loyihalar, musobaqalar, radio va gazetalar, filmlar, spektakllar, ko‘rgazmalar, taqdimotlar, qo‘shiqlar va ertaklar), chigal yozdi mashqlar, yangi materialni o‘rganish va mustahkamlash (interaktiv ma’ruza, ko‘rgazmali qurollar, video va audiomateriallar bilan ishslash, “O‘quvchi o‘qituvchi o‘rnida”, “Hamma bir-birini o‘qitadi, mozaika (nafis arra), savollardan foydalanish,

Suqrotano dialogi), murakkab va bahsli masalalarni va muammolarni muhokama qilish (“O‘rningni egalla (fikrlar shkalasi)”, “Yakka o‘zi-ikkalasi-hamma birga”, “Karusel” (ot o‘yin, chalkashlik), “Televideniya uslubida tok-shou bahsi”, debatlar, simpozium); muammolar yechimi (“Yechimlar daraxti”, “Aqliy hu-jum”, “Chigal ishlar tahlili”, “Muzokaralar va mediatsiya” va “Zinapoyalar va varrakchalar”) [2].

Ijodiy topshiriqlar. Ijodiy topshiriqlar deganda biz talabalardan ijodkorlikni talab qiluvchi, bir nechta yondashuvlarga ega bo‘lgan, tarkibida noma’lum katta yoki kichik elementlaridan iborat topshiriqlar majmuisini tushinamiz. Ijodiy topshiriq har qanday interaktiv usulning mazmuni, asosini tashkil etadi. Ijodiy topshiriq (ayniqsa, amaliy va talaba hayotiga yaqini) ta’lim jarayoniga ma’no bag‘ishlaydi, talabalarni ijodkorlikka undaydi. Ijodiy topshiriqlargi javobning noma’lumligi va talabaning shaxsiy tajribasi va o‘z hamkori, do’sti tajribasiga asoslangan o‘zining shaxsiy “to‘g‘ri” yechimini topish imkoniyati, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari va pedagogning hamkorligi talabalarga muloqoti uchun poydevor yaratishga imkoniyat beradi. Ijodiy topshiriqlarni tanlash pedagog uchun ijodiy topshiriq hisoblanib, quyidagi mezonlarga javob berishi lozim. Ijodiy topshiriqlar:

- yagona murakkablikdagi javob yoki yechimga ega bo‘lmasligi;
- o‘quvchilar uchun amaliy va foydali bo‘lishi;
- o‘quvchilar hayotiga bog‘langan bo‘lishi;
- o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadigan bo‘lishi;
- ta’lim maqsadlariga imkon qadar xizmat qiladigan bo‘lishi lozim.

Agar talabalar ijodiy topshiriqlar bilan ishlab o‘rganmagan bo‘lsalar, avval oddiy topshiriqlarni, keyin esa tobora murakkablashib boradigan topshiriqlarni tanlash lozim bo‘ladi.

Hamkorlik pedagogikasi. Hamkorlik pedagogikasi – “Men aytganimday qil” yoki “Men kabi qil” klassik tamoyilga asoslanmagan pedagogika. Hamkorlik pedagogikasida, avval, tayanch maqsad qo‘yib olinadi, keyin esa uning bajarilishi bo‘yicha talabalardagi ishonch qo‘llab-quvvatlanadi. Asosiysi, tayanch maqsadni bajarishga yaqinlashtiruvchi amaliy ishlar hisoblanadi.

Pedagog-novatorlar har qanday o‘quvchi hamkorlik pedagogikasida ishlay olishini izhor qildilar. Pedagog o‘quvchiga o‘zining individualligini saqlab qolishiga, ehtiyojlarini aniqlashi, uning intellektual va axloqiy qobiliyatlarini rivojlanishida yordam berishi kerak. Hamkorlik pedagogikasining asosiy g‘oyalari quyidagilar bo‘lib, xususan, o‘quvchini eng yaqin rivojlanish bo‘yicha o‘qitish, majburlamasdan o‘qish, materialni yodlab olishni istisno qilish uchun tayanch sxema ko‘rinishida joylashtirilgan hal qiluvchi so‘zlar, belgilari to‘plami, quvib o‘tish g‘oyasi, yirik bloklar g‘oyasi, tanlov erkinligi g‘oyasi, dialogik fikrlash g‘oyasi, auditoriyaning intellektual ko‘rinishi g‘oyasi, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning birqalikdagi faoliyati g‘oyasi, mativatsiyani shakllantirish g‘oyasi.

Hamkorlik pedagogikasida ta’limni demokratlashtirishning yo‘llari va yo‘nalishlari:

- o‘qitishning variativligi asoslanadi;
- ta’lim mazmunini yangilash, o‘quv reja va fan dasturlarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha taklif qilinishi;
- o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiriladi;
- o‘quvchilarning kun yarmini tashkil qilish;
- o‘quvchilarning o‘z-o‘zini hurmat qilish g‘oyasi [4].

Tahsil va natijalar. Metodikaning belgilari va xususiyatlari. O‘qitishning o‘yin usullari o‘yin kabi xususiyatlар xosdir:

- o‘qituvchi ko‘rsatmasi bo‘yicha bajariladigan, ammo uning ishtirokisiz va o‘quvchilar tomonidan hohishi bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyat jarayonidan qoniqish hosil qilgan holda erkin rivojlaniruvchi faoliyat;
- ijodiy, improvizatsiya qilingan, o‘z xarakteriga ko‘ra faol faoliyat;
- emotsiional zo‘riqqan, ko‘tarilgan, musobaqaviy, raqobatdosh faoliyat;
- o‘yin mazmunini va jamoatchilik tajribasi elementlarini aks ettiruvchi to‘g‘ri va bilvosita qoidalar doirasida kechuvchi faoliyat;
- inson hayotining professional yoki ijtimoiy muhiti modellashtiriladigan, imitatsiya xarakteriga ega bo‘lgan faoliyat;
- harakat joyi va davomiyligi, zamon va vaqt doiralarida ajratib qo‘yilgan faoliyat (V.Kruglikov. 1999).

O‘yinning eng muhim xususiyatlarga o‘yinda ham o‘quvchi ham kattalar go‘yo eng ekstremal vaziyatlarda, qiyinchilikni yengib o‘tish kuchi chegarasida harakat qilishi dalilni hisoblaydilar. Buning ustiga faollilikning bunchalik yuqori darajasiga, ular deyarli doimo ko‘ngilli, majburlamagan holda erishadilar.

Yuqori faollik, o‘yinning emotsiyonal bo‘yalganligi ishtirokchilar ochiqligining yuqori darajasini ham tug‘diradi. Inson ochiladi, o‘yinda psixologik himoyani uloqtiradi, ehtiyyotkorlikni yo‘qotadi, o‘zi bilan o‘zi bo‘ladi. Bu o‘yin ishtirokchisi o‘yin vazifalarini yechadi, ularga qiziqadi va shuning uchun boshqa tomonidan qarama-qarshi harakatga tayyor emasligi bilan tushunilishi mumkin. Diqqatning ma’lum bir tarqoqligi vaziyatida ba’zan insonni uning uchun yangi dunyoqarashni qabul qildirishga ishontirish osonroq ekanligini eksperimentlar ko‘rsatdi. Insonning diqqatini biron ta’lim narsa bilan boshqa tomoniga tortilsa, ishontirish samarasi yanada kuchliroq bo‘ladi (V.V.Boyko. 1983). Qandaydir darajada bu o‘quvchi-talabaning o‘yin vaziyatlariga ta’siri yuqori mahsuldarligi bilan belgilanishi mumkin.

Xulosa va takliflar. O‘qitishning o‘yin usuli boshqa ta’lim texnologiyalardan shunisi bilan farq qiladiki, o‘yin:

1. Yaxshi ma’lum bo‘lgan, har qanday yoshdagi inson uchun harakatning odatiy va sevimli shakli.
2. O‘yin vaziyati o‘zining mazmunli tabiatini hisobiga ishtirokchilarni o‘yin faoliyatiga jalb qiluvchi va ularda yuqori emotsiyonal va jismoniy zo‘riqishni chaqiruvchi faollashtirishning samarali vositalaridan biri. O‘yinda qiyinchiliklar, to‘siqlar, psixologik qiyinchiliklar sezilarli darajada yengil yengib o‘tiladi.
3. Bilim, malaka, ko‘nikmalarni yetkazish masalalarini yechishga imkon beradi, ishtirokchilar tomonidan tabiat va jamiyat qonunlarini chuqur shaxsiy anglanishiga erishishga, ularga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi, qiziqtirishga, ishontirishga ba’zi bir hollarda esa davolashga imkon beradi.

Interaktiv yondashuvlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etilishi, albatta, ta’lim sifatini kafolatlaydi.

Foydalanalish adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). D.X.Turdiboyev, O.G.Gaimnazarov, A.I.Eshniyazov, O.N.Dushaboyev (2023). Ta’lim tizimida innovation texnologiyalardan foydalish va ularning sifatini baholash. Евразийский журнал инноваций и технологий, 1 (5, часть 2), 46–52-betlar.
- (2). Dushaboyev O., Turdiboyev D., Zokirov A. (2020). Improvement of teaching geometry based on pedagogical synergistical principles. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24 (08), p. 5268–5276.
- (3). Душабоев, О. Н. (2019). Роль принципов синергетического подхода в обучении математике в общеобразовательных школах. Среднее профессиональное образование, (11), с. 53–55.
- (4). Tojiyev M., Gaymnazarov O.G., Dushaboyev O.D. Ta’lim tizimi sifatini yangilash istiqbollari. “Global oliv ta’lim tizimida ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy uslublari” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyasi. T., 2014, 297-bet.
- (5). Dushaboyev O.N. Sinergetika va uning ta’lim tizimidaga o‘rni. Ta’lim, fan va innovatsiya. T., 2018, 49-bet.
- (6). Turdiboyev D., Dushaboyev O. Methods of Proving Theorems Training. Eastern European Scientific Journal”, Germaniya, 2016, p. 43.
- (7). Dushaboyev O.N. Sinergetika va uning ta’lim tizimiga tatbiqi. “Oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv fanlaring modulli o‘qitish metodikasi va amaliyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. T., 2017, 15-bet.

Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti “Pedagogika” kafedrasi mudiri, dotsent v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Termiz (O‘zbekiston)

“AXLOQ” VA “XULQ” (AXLOQIYLIK) KATEGORIYALARINING FANDAGI O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “axloq” va “xulq” kategoriyalarining fandagi o‘rni va ma’noviy xususiyatlari bayon etilgan. Tadqiqotning asosiylarini bo‘lajak o‘qituvchining axloqiy-ma’naviy tarbiyasini takomillashtirish masalasida yuritilgan mulohazalar, jahonda va mamlakatimizdagi soha olimlari hamda pedagoglarining ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanib boradigan axloq (axloqiy tarbiya) bilan xulq o‘rtasidagi munosabatlar borasidagi qarashlarini yuzaga chiqarish ustida boradi.

Kalit so‘zlar: axloq, xulq, kategoriya, tushuncha, shaxs, xatti-harakat, xarakter.

РОЛЬ КАТЕГОРИЙ “МОРАЛЬ” И “ПОВЕДЕНИЕ” (ЭТИКА) В НАУКЕ

Аннотация. В данной статье излагается роль и духовные особенности категорий “мораль” и “поведение” в науке. Основное содержание исследования-размышления по вопросам совершенствования нравственно-духовного воспитания будущего учителя, выявление взглядов учёных и педагогов отрасли в мире и в нашей стране на взаимосвязь между моралью (нравственным воспитанием) и поведением, формирующимся в процессе учебно-воспитательного процесса.

Ключевые слова: мораль, поведение, категория, понятие, личность, поведение, характер.

THE ROLE OF THE CATEGORIES “MORALITY” AND “BEHAVIOR” (MORALITY) IN SCIENCE

Annotation. This article describes the role and moral characteristics of the categories “ethics” and “behavior” in science. The main content of the study will focus on reflections on improving the moral and spiritual education of the future teacher, bringing to the surface the views of scientists and educators of the world and our country on the relationship between morality (moral education) and behavior, which is

formed in the educational process.

Keys words: morality, behavior, category, concept, personality, behavior, character.

Kirish. Bo'lajak o'qituvchining axloqiy-ma'naviy tarbiyasini takomillashtirish masalasida yuritadi-gan bundan keyingi mulohazalarimiz jahonda va mamlakatimizdagi soha olimlari hamda pedagoglarining ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanib boradigan axloq (axloqiy tarbiya) bilan xulq o'rtasidagi munosabatlar borasidagi qarashlarini yuzaga chiqarish ustida boradi.

Falsafiy-axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy va pedagogik adabiyotlarning tahlili ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadigan "axloq" va "xulq" tushunchalari "o'zaro ma'nodoshmi yoki turli mohiyatni aks ettiruvchi kategoriylar" ekanligi haqida ikkita nuqtayi nazar mavjudligini ko'rsatadi. Bu ikki kategoriya o'rtasidagi tafovutlarni yuzaga chiqarish masalasiga bag'ishlangan ishlarni o'rganib chiqishdan avval, faylasuflar va olimlarning "axloq" va "xulq" so'zlarini falsafiy jihatdan lingvistik tahlillari natijalariga hamda "xulq" so'z-zining morfemik tarkibi borasidagi qarashlarga to'xtalib o'tamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Axloq" va "xulq" so'zlarining tarbiya nuqtai nazaridan falsafiy-lingvistik tahlili O.N.Ocolelova ishlarida amalga oshirilgan. Olim rus va xorijiy izohli lug'atlardagi talqin-larni har taraflama o'rganish natijasida, "semiotik jihatdan tarbiya sohasidagi "axloq" va "xulq" tushunchalari juda yaqin yaqin" ekanligini, "zero, har ikki leksema insomning xatti-harakatlari, axloqiy sifatlari, jamiyat ichida o'zini tutish me'yorlarini ifoda etadi, binobarin, sinonim so'zlar sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, "xulq" muayyan ma'noda "kechinma" va ma'lum vaziyatlarda tarbiyalanuvchi kechinmalari-ning hosilasi bo'lgan xatti-harakat ma'nosini ham ifodalaydi. Rus tilida "нравственность" deya ataladigan "xulq" tushunchasining etimologiyasini O.N.Ocolelova qadimgi rus tilidagi "нъраъ" (xarakter), qadimgi slavyan tilidagi "нравъ" (moyillik, yoqtirish), zamonaviy rus jamiyatida ishlatalidigan "нрав" (axloq) so'z-lari bilan bog'laydi. Milliy pedagogik va falsafiy adabiyotlarimizdagi talqinlarga ko'ra, axloq leksemasidan farqli ravishda "xulq"ga sof milliy, xalqona xususiyatlar ham xosdir: ya'ni, "xulq" o'zicha, "sof" olinganda mavhum axloqiy hodisa, u inson xatti-harakatlarida aniqlik kasb etadi, ijobiy xatti-harakatlarda namoyon bo'lishi – xushxulqlilik, salbiy a'mollardagi ko'rinishi – badxulqlilik deb ataladi, binobarin, ayni o'rinda O.N.Ocolelovaning fikriga qo'shilish mumkin [9;42-b.].

"Xulq" so'zning morfemik tahlili A.V.Bezduxov tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur kategoriya-ning rus tilida "нравственность" deb yuritiladigan variantini tadqiq etar ekan, bu ikki kategoriya o'rtasidagi tafovutni ularning morfemik tarkibi orqali ham ko'rsatib berish mumkin, deb hisoblaydi. Ya'ni "нравственность" "ность" suffaksi tarkibidagi "-ость" suffaksi va o'zak so'zdan "kesib olingen" "н" harfi bilan birga tarkib topgan hosilasi sifatida qaralishi mumkin. Shu tadqiq etilayotgan so'z dastlabki ko'rinishida shaxsning faqat xususiyatini ifodalagan bo'lsa, bizning talqinda shaxsning muayyan vaziyatlardagi xatti-harakatlarni sodir etish tarzini bildiradi. Demak, "xulq" aynan shaxsga, o'qituvchiga xos bo'lgan xatti-harakatlar tarzini ifodalaydi, "axloq" esa bunday xususiyatga ega emas [2;94-b.].

I.M.Shadrina ham A.V.Bezduxovning "axloq" va "xulq" o'rtasidagi mavjud tafovutlar haqida mulohazalariga qo'shilishini bildiradi. O'qituvchining axloqiy madaniyati mazmunini uning axloqi bilan emas, xulqi (axloqiy xatti-harakatlari) negizida shakllanishini isbotlamoqchi bo'lgan olimlardan farqli ravishda, aytmoqchimizki, axloq alohida bir shaxsga xos xususiyat emas, shaxsga nisbat berilib aytildigan kategoriya – bu xulq.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotchilar, mutaxassislar va amaliyotchilarda paydo bo'ladigan ikkita sa-volga, xususan, "Ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadigan "axloq" va "xulq" tushunchalari semiotik jihat-dan bir xil ma'noga ega ekanligini ta'kidlash bilan ular o'rtasida tafovut yo'q deb qat'iy aytish mumkinmi?" va "Bu ikki so'zning morfemik tahlili natijalariga tayangan holda, ular, mazmunan, turlicha kategoriylar deb qat'iy tasdiqlash mumkinmi?" degan ikkita savolga biz qat'iyan "yo'q", deb javob beramiz.

Nega bu ikki so'zning semiotik jihatdan to'liq mos kelishi hali ularning sinonimlar ekanligini anglat-masligini va mazkur kategoriyalarning morfemik tahlili asosida ularni mazmunan turli tushunchalar deya olmasligimizning sabablarini asoslab beramiz.

R.G.Apresyan, L.M.Arhangelskiy, A.A.Guseynov, O.G.Drobniskiy, I.L.Zelenkova, E.V.Zolotuxina -Abolina, T.V.Mishatkina, E.A.Podolskaya, A.V.Razin, A.A.Skvorsov, A.P.Skripnik, A.I.Titarenko kabi ko'plab axloqshunos olimlarning fikriga ko'ra, ta'lim-tarbiya sohasida axloq va xulq sinonimlar hisoblana-di. Masalan, R.G.Apresyanda shunday fikrni uchratish mumkin: "Bu so'zlar o'zaro ma'nodoshdir, zero, "axloq" so'zi va uning hosilasi sifatida tarkib topgan boshqa so'zlarni, xususan, bu so'z tilga olinishi bilan ongda paydo bo'ladigan barcha tushunchalarni shaxsga xos bo'lgan xususiyat deb hisoblayman, xulq esa bu xususiyatlarning amaliy vaziyatlarda namoyon bo'lishidir". O.G.Drobniskiy: "Rus tilida axloqni ifoda etuvchi "мораль" so'zi etimologik jihatdan lotincha "mos" so'zining ko'plikdagi "mores" shakliga borib taqaladi, binobarin, shaxsning axloqqa xos bo'lgan bo'lgan jami sifatlarini, jumladan, xulqni ham o'z ichiga oladi", degan fikrni bildiradi. E.V.Zolotuxina-Abolina ham: "Axloq va xulq deb yuritiladigan bu ikki ata-

mani, ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida o‘zaro tafovutga ega bo‘lgan sinonim so‘zlar sifatida ishlataveramiz”, deb yozadi. T.V.Mishatkinaga ko‘ra: “Axloq va xulq lotin tilidagi “mores” zamirida hosil bo‘lgan sinonimlardir”. E.P.Podolskaya nazarida: “Xulq – etimologik jihatdan “xarakter” so‘ziga to‘g‘ri keluvchi “axloq” atamasiga sinonim o‘rnida qo‘llaniladigan so‘zdir, ba’zan biz uning “odob” ko‘rinishidagi variantlarini ham ishlatakimiz”. A.V.Razinning ta’kidlashicha: “Axloq yoki xulq jamiyatda qabul qilingan me’yorlar asosida yo‘lga qo‘yilgan munosabatlar shaklidir, binobarin, bu ikki tushuncha sinonimlardir”. A.A.Skvorsov: “Biz o‘quv jarayonida (darsliklarda – muallif) “axloq” va “xulq” tushunchalarini sinonimlar sifatida qo‘llashimiz zarur”, deb yozadi [1;149-b.].

Endi olimlarning yuqoridagi fikrlar ifoda etilgan iqtiboslari tahliliga yuzlanamiz. O.G.Drobniskiy, E.V.Zolotuxina-Abolina, T.V.Mishatkina, E.A.Podolskaya, A.V.Razin va A.A.Skvorsov kabi olimlar ta’lim-tarbiya natijasida shakllanadigan “axloq” va “xulq” tushunchalarining bevosita sinonimlar ekanligini ta’kidlaganlari holda, R.G.Apresyan bu fikrga qo‘shilgani barobarida, ular o‘rtasida ma’lum darajadagi farqlar ham mavjudligi e’tirof qiladi. Olimning fikricha, bu farq shundan iboratki, agar “axloq” tushunchasi inson shaxsiga xos bo‘lgan sifatlarning mohiyatini o‘zida mujassam etsa, “xulq” bu sifatlarning amaliy namoyon bo‘lishini anglatadi.

Xulosa. Yuqoridagi qarashlar bilan bir qatorda, yana ayrim pozitsiyalar ham borki, ularga ko‘ra, “axloq” va “xulq” turli kategoriylar hisoblanadi. Jumladan, A.S.Arsenevning qayd etishiga ko‘ra, axloqning manbasi – “shaxs faoliyat olib borayotgan tashqi ijtimoiy muhitdir (ya’ni, ta’lim oluvchining axloqi mavjud ta’lim-tarbiya muhitining ta’siri natijasida shakllanadi – muallif).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Babashev F.A. Xorazm Ma’mun akademiyasi allomalarining ma’rifiy-axloqiy qarashlari. Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss., T., 1999, 149-bet.
- (2). Begmatov A. Ma’naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. T., “Sharq”, 2000, 94-bet.
- (3). Бим-бад Б.М. Педагогическая антропология. М., “URAO”, 2003, с. 208.
- (4). Gulmetov E., Qobiljonova T., Ernazarov Sh., Mavruzov A. Madaniyatshunoslik. T., “O‘AJBNT” markazi, 2000, 179-bet.
- (5). Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. T., O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, 2006, 448-bet.
- (6). Isayeva G. Bo‘lg‘usi pedagoglarning kasbiy fazilatlari. “Xalq ta’limi”, T., 2004, 2-son, 41–46-betlar.
- (7). Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at. T., “Sharq”, 2000, 320-bet.
- (8). Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur. T., “O‘qituvchi”, 1999, 200-bet.
- (9). Musurmonova O., Baubekova G. O‘zbek xalq pedagogikasi. T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000, 64-bet.
- (10). Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik). T., “O‘zbekiston”, 1995, 246-bet.
- (11). Umarov E., Abdullayev M., Xakimov E. Kulturologiya. Tashkent, Yangi asr avlod, 2006. – C. 160.
- (12). Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M. Estetika asoslari. T., “Cho‘pon”, 2006, 200-bet.

Toshova Shaxnoza Tojinorovna (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti “Pedagogika” kafedrasiga qituvchisi; e-mail: shaxnozatoshova11@gmail.com)

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARНИ MILLIY QADRYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA HADISLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadryatlar ustunligi xalqning ko‘p asrlik qadryatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o‘zilikni anglash, milliy g‘urur tuyg‘usini qaror toptirish mumkin emasligini, shuning uchun xalq an’analari urf-odatlari, marosimlari, xalq og‘zaki ijodi, milliy o‘yinlar va ularda ifodalangan g‘oyalarni bolajonlar oniga singdirish, va ularda bu g‘oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirishimiz lozimligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tarbiyalanuvchi, ta’lim-tarbiya, pedagog, hadis, urf-odat, xalq og‘zaki ijodi, takomillashtirish.

Тошова Шахноза Тожиноровна (Термезский университет Экономики и сервиса, преподаватель кафедры «Педагогика»; shaxnozatoshova11@gmail.com)

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ХАДИСОВ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ -ДОШКОЛЬНИКОВ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. В статье показано преобладание национальных и общечеловеческих ценностей в воспитании детей дошкольного возраста—невозможно понять национальное самосознание, чувство национальной гордости без глубокого знания многовековых ценностей народа. , великое и боеватое наследие, поэтому народные традиции традиции, обряды, фольклор, национальные игры и

идеи, выраженные в них, должны прививаться в сознании детей и мы должны воспитать в них уважение к этой идеи.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитанник, образование, педагог, хадис, традиция, фольклор, совершенствование.

Toshova Shakhnoza Tozhinorovna (Termiz University of Economics and Service Teacher of the “Pedagogy” department; e-mail: shaxnozatoshova11@gmail.com)

USE OF HADITHS IN THE EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL VALUES

Annotation. In the article, the predominance of national and universal values in the upbringing of preschool children – it is impossible to understand the national identity, the sense of national pride without deep knowledge of the centuries-old values of the people, the great and rich heritage, that is why folk traditions traditions, rituals, folklore, national games, and the ideas expressed in them should be inculcated in the minds of children, and it is said that we should establish respect for this idea in them.

Key words: preschool education, pupil, education, pedagogue, hadith, tradition, folklore, improvement.

Kirish. Jamiyatning ma’naviy salomatligini ta’minlashda ta’lim-tarbiya jarayonining turli yo‘lga qo‘yilishi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ilk rivojlanish davrida bolani tarbiyalashga yetarli e’tibor qaratish, uning barkamol inson bo‘lib etishishi uchun sharsharoitlarni yaratish ko‘zlangan maqsadga eritishga yordam beradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida har bir bolani shaxs sifatida tan olish, uning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hozirgi kunning talabi hisoblanadi.

Maktabgacha yosh inson hayotidagi eng noyob davr hisoblanadi, chunki bu davrda bilim orttirishga qiziqish uyg‘otish, irodali bo‘lishga, his-tuyg‘ularga poydevor qo‘yish, umuminsoniy qadirylatlarni anglash, bolaning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishdek muhim jarayonlar sodir bo‘ladi. Bu davrda bola o‘z shaxsiyatini namoyon qilishda tajriba orttiradi, u muvafaqqiyatda quvonishni, omadsizlikda xafa bo‘lishni, mu-loqotni hamda o‘z qiziqishalarini anglay boshlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Osiyo davlatlarida aynan, Imom at-Termiziy asarlarini tarjima qilish, asarlariga sharhlar yozish, hayoti va faoliyatiga oid qimmatli bo‘lgan tarixiy ma’lumotlarni yoritish ishlari IX asrdan boshlanib, ilk fikrlar tarixchi olim Ibn Hojar al-Asqolaniy “Taxziyb at-taxziyb” asarida Imom at-Termiziy to‘g‘risida Imom Buxoriyning fikrlari, o‘rta osiyolik tarixchi olim Abu Saad Abdulkarim “As-Sam’oni” asarida, XII asrda arab tarixchisi Shamsiddin az-Zahabiyning “Tazkirat ul-huffoz” asarida, o‘zbek she‘riyatining asoschisi Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida bildirilgan. Keyingi ma’lumotlar Hofiz Umar ibn Alak, Ibn ul-Asir, Az-Zahabi, Ibn Kasir, Nuriddin Atarning asarlarida o‘z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi, O‘zbekiston Respublikasining davlat hujjatlari, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid farmon, qaror va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining sohaga oid qaror va farmoyishlari, “Ilk qadam” o‘quv dasturi, davlat standartlari, o‘zbek mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy qarashlaridagi ilg‘or ezgulikni o‘zida mujasamlashtirgan g‘oyalar, manbaalar hamda milliy qadriyatlarimizni o‘zida aks ettirgan madaniy, tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan. Mazkuz manbalardan maqola mazmunini ochib berishda foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Biz Yangi O‘zbekistonning jazzi farzandlariga ta’lim-tarbiya berar ekanmiz, al-batta, ularni maqollarimiz, hikmatli so‘zlarimiz, hadislarimiz, rivoyatlarimizdan ham boxabar qilib turishimiz kerak. Maqollar bolajonlarning yodlash, fikrlash qobiliyatlarini charxlaydi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda, ayniqsa, maqollardan foydalansak, bolalarga yod olish qobiliyatini rivojlantirib boramiz.

Xalqimiz qadimdan badanning quvvati–ovqat, aqlning quvvati – hikmat so‘zdir, deb uqdirib kelgan. Hadislar ana shunday hikmatli so‘zlar, donishmandlik durdonalari hisoblanadi. Shu o‘rinda bir savol tu-g‘iladi, maktabgacha yoshdagagi bolalarga “Hadis”larni qanday o‘rgarishimiz kerak.

O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov g‘oyasi bilan dunyoga kelgan “Hadislar – bolalarga” qo‘llamasida bolajonlarga “Hadis”lar o‘rgatish yo‘llarini tushuntirib o‘tgan.

Tanlangan hadislarning ishonchli va haqiqiyigini ta’minlash uchun islomshunos olim Ubaydulla Uvatov mazkur nashrnga mas’ul muharrir sifatida taklif etilgan. Bolalarga bag‘ishlanib keltirilgan hadislar-da mavzu va yo‘nalishlar bo‘yicha Vatan va vatanparvarlik tuyg‘usi, diniy va dunyoviy ilmlarni o‘rganish, ma’naviyat va ma’rifatni yuksaltirish, bolaning odob-axloqini milliy va umuminsoniy andozalarda shakllantirish masalalari ilgari suriladi.

“Hadislar–bolalarga” qo‘llanmasi bolajonlarning yosh va jins xususiyatlariga hamda bilim va saviya darajalariga qarab individual tarzda pedagoglar tomonidan soddalashtirib yoxud bir qadar murakkablashtirib borilishi mumkin. Ota-onalar va farzandlar ma’naviy ehtiyoji talablaridan kelib chiqib, o‘zgartirilishi, boyitilishi, materiallar ko‘paytirilishi yoxud ozaytirilishi ham mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berar ekanmiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi – xalqning ko‘p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur tuyg‘usini qaror toptirish mumkin emasligini, shuning uchun xalq an‘analari, urf-odatlari, mafrosimlari, xalq og‘zaki ijodi, milliy o‘yinlar va ularda ifodalangan g‘oyalarni bolajonlar ongiga singdirish, va ularda bu g‘oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirishimiz lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, qadriyatlar xalqimizning bebahो boyligi, jamiyatimiz, millatimiz, davlatimiz taraqqiyotining asosiy omillaridan biri. Shunday ekan, azal-azaldan xalqimizga xos bo‘lgan milliy qiyofani shakllantiruvchi mardlik, tantilik, mehmono‘stlik, saxovatpeshalik, o‘zaro hurmat, biderdarlik, bag‘rikenglik, mehrbonlik kabi betakror fazilatlar har bir yurtdoshimiz tomonidan amalda e’zozlanishi, asrab-avaylanishi, ijobiy jihatlar qo‘shib boyitilishi, rivojlantirilishi baxtli kelajagimiz uchun eng muhim shartdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. T., «O‘qituvchi», 1993.
- (2). Rasulova S. Maktabgacha yoshdagi bolalar qobiliyatlarini ijodiy o‘yinlar orqali shakllantirish. “Maktabgacha ta’limning dolzarb muammolari va yechimlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. 1-kitob, Navoiy shahri, 2018.
- (3). Sh.Z.Toylolova. “Maktabgacha ta’limda ma’naviy qadriyatlarimizning o‘ziga xos xususiyatlari” nomli maqolasasi.
- (4). Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Hadis va hayot” 1–34-juz kitobi.
- (5). Xudoyqulov Xol Jumayevichning “Oilada milliy-ma’naviy tarbiyani rivojlantirishda maktab va jamoatchilik homkorligi masalalari” maqolasasi.
- (6). Toshova Shaxnoza. “Maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhitni asrab-avaylash, g‘amxo‘rlik qilish ko‘nikmalarini shaklantirish orqali sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish”. T., Interpretation and research, 2023.
- (7). Toshova Shaxnoza. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish”. T., Analysis of world scientific views International Scientific Journal 1 (6), 2023, p. 56–61.
- (8). Toshova Shaxnoza. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish mazmuni”. T., Analysis of world scientific views International Scientific”, 2023.
- (9). Toshova Shaxnoza. “Oilaning maktabgacha ta’lim muassasasi bilan olib boriladigan faoliyatining hamkorligini tashkil etishi”. T., Golden Brain, 2023.

**Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti “Pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
e-mail:gulnorajumayeva117@gmail.com)**

PEDAGOG-O‘QITUVCHILARNING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS SHARTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi va nazariy asoslari, maktab o‘qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni, o‘z-o‘zini nazarat qilish, o‘zini-o‘zi qadrlash, reflektiv va ijodiy fikrlash, qiymat-gnoseologik va faoliyat ijodiy tahsil qilinadi, tuzilmalar, tarkibiy qismlarning mazmuni ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, kasbiy madaniyat, kasbiy faoliyat, qadriyatlar, maktab, o‘z-o‘zini nazarat qilish, kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg‘or pedagogik tajribalarni mustaqil o‘zlashtirish, psixologik, pedagogik.

ОСОБЫЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. В данной статье анализируются актуальность и теоретические основы проблемы развития профессиональной культуры педагогов, процесс развития профессиональной культуры педагогов школы, самоконтроль, самооценка, рефлексивно-творческое мышление, ценностно-гносеологические и деятельностно-творческие структуры, освещается содержимое компонентов.

Ключевые слова: образование, профессиональная культура, профессиональная деятельность, ценности, школа, самоконтроль, наблюдательность, творчество, самостоятельное освоение передового педагогического опыта, психологический, педагогический.

SPECIAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL CULTURE OF TEACHERS

Annotation. This article analyzes the relevance and theoretical foundations of the problem of developing the professional culture of teachers, the process of developing the professional culture of school teachers, self-control, self-esteem, reflective and creative thinking, value-epistemological and activity-creative structures, the content of the components is highlighted.

Key words: education, professional culture, professional activity, values, school, self-control, observation, creativity, independent development of advanced pedagogical experience, psychological, pedagogical.

Kirish. Mutaxassis kadrlarning kasbiy madaniyati va ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish orqali ularning jahon pedagogik amaliyotida o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu tendensiya so‘nggi vaqtarda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan “pedagogik dunyoqarash” (pedagogical worldview) muammosiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Mavzuga oid adabiyyotlar tahlili. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish orqali ularning dunyoqarashini, ma’naviy-axloqiy tafakkurini boyitish va rivojlantirishning ilmiy-tarixiy asoslari eng qadimgi yozma manbalar hamda Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi Sharq mutafakkirlarining qomusiy asarlarida yoritib berilgan. Respublikamiz olimlaridan D.O.Ximmataliyev, M.Ochilov, R.Mavlonova, K.Zaripov, O.Musurmonova, A.Xoliqov va boshqalar pedagogik faoliyat mazmuni, o‘qituvchi mahoratini shakllantirish va rivojlantirish, kasbiy madaniyati to‘g‘risidagi ilmiy asoslangan fikrlari bilan maqsad, vosita va xususiyatlarini yoritib bergan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sstligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.A.Slastenin, Y.V.Bondarevskaya, O.S.Matveyeva, L.V. Benin, Y.V.Bondarevskoylar tomonidan mutaxassis kasbiy madaniyati mazmunini aniqlashtirish, kasbiy professiogrammani ishlab chiqish, o‘qituvchining kasbiy madaniyatini rivojlantirish masalalari ilmiy-uslubiy jihatdan o‘rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muammolari bo‘yicha Arnold, Jason Diamond (Arnold, Jeysen Daymond), Chris Watling Erik Driessen (Erik Drissen), James Gerard (Pirs, Jeyms Jerard), Szeto, Elson (Szeto, Elson) kabi mutaxassis olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, o‘qituvchilarining kasbiy madaniyatini aniqlash mezonlari tahlili qilindi o‘ziga xos pedagogik shartlari tadqiq etilgan.

Tahlil va natijalar. Maktab o‘qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish tizimi muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. O‘zbekistonda maktab o‘qituvchilarining kasbiy madaniyatini aniqlash mezonlari tahlili qilindi va rivojlangan davlatlar mezonlari bilan solishtirildi. Maktab o‘qituvchilarining kasbiy madaniyati sifatini baholash bo‘yicha yondashuvlar o‘rganildi.

Ta’lim-tarbiya birligi va axloq masalalariga yetuk tarbiyashunos olim sifatida yondashgan olim Abu Rayhon Beruniy o‘zining pedagogika va psixologiyaga oid qimmatli fikr-mulohazalarini va ma’rifiy-didaktik qarashlarini bayon etib, ilm hamda ma’rifat sari intiluvchi tolib va muallimlarga deydiki: “Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishimi ozdiruvchi illatlardan, odamni ko‘r qilib qo‘yadigan nafs va turli buzg‘unchi holatlardan, qotib qolgan turli eski urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko‘zlikni quli bo‘lishdan ozod bo‘lmog‘i darkor”. Alisher Navoiy yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy murabbiyya ishonib topshirib bo‘lmasligini aytib, o‘qituvchi shaxsiga nisbatan yuksak talablarni qo‘yadi. Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida ta’limiy-tarbiyaviy fikrlari hamda o‘qituvchi shaxsi, uning ma’naviyatiga doir qarashlarini keltirib o‘tadi. Navoiyning fikricha: “O‘qituvchi faqatgina dars beruvchi, bilim beruvchi emas, balki mahoratli tarbiyachi bo‘lishi lozim. Muallim nodonlikdan, mutaasiblikdan, johillikdan yiroq bo‘lishi, haqiqiy muallim olimlar orasida eng sara “malak qiyofali” kishi bo‘lishi, ya’ni, sof ko‘ngilli, pok qalbli, insofli, karam-muruvvatli, odobli, vafoli, kishilikning eng yaxshi va olivjanob hislatlarini o‘zida aks ettiruvchi bo‘lishi kerak”. “Madaniyat tushunchasida moddiy va ma’naviy boyliklar hamda inson ruhiy olami ifodalandadi. Shu bois madaniyat tarkibida uch asosiy qatlama mavjud:

- 1) insoniyatning muntazam aqliy va jismoniy faol ijodiy faoliyati;
- 2) moddiy va ma’naviy ne’matlarni ishlab chiqish, iste’mol qilish (foydalinish) va asrash;
- 3) qadriyatlar, axloqiy tushunchalar, huquqiy amallarning hayotga tatbiq etuvchi ijtimoiy tuzilmalar.

Madaniyat – faol ijodiy faoliyat. Inson faol ijodkorlik orqali rivojlanadi va taraqqiyotga erishadi. Ijodkorlik – inson ma’naviy-ruhiy faoliyatining chegaralarini kengaytiradi. Inson ijodiy ko‘nikmalar, aqliy va jismoniy mehnat orqaligina ijodkorlik maqomiga ega bo‘ladi”. Yuqoridaq ta’riflardan ma’lum bo‘ladi-

ki, madaniyat–bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar majmuyigiga bo‘lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya’ni, jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig‘indisi madaniyatda gavdalaniadi.

Natijalar. Kasbiy bilimlar o‘qituvchi kasbiy madaniyatini rivojlantirishda asosiy hisoblanadi. O‘qituvchining bilimi, bir tomonidan, o‘zi o‘qitadigan fanga, ikkinchi tomonidan, talabalarga qaratiladi. Kasbiy bilimlar mazmunini o‘quv fani hamda uni o‘qitish metodikasi, psixologik va pedagogik jihatdan tashkil qilinadi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘qituvchi kasbiy madaniyatining shakllanishi ularda kasbiy mahorat, ijodkorlik ko‘nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyatini tarkib toptirishdan iborat bo‘lib, kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg‘or pedagogik tajribalarni mustaqil o‘zlashtirish, o‘qish va o‘qitish jayronida diqqatni taqsimlash, psixik holatlarini boshqara olishni ta’minlaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019.
- (2). Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat (ibratli so‘zlar). Toshkent, “Fan”, 1993, 248-bet.
- (3). Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. 15-tom, Toshkent, “Fan”, 2005, 244-bet.
- (4). Бенедикт Р. Психологические типы в культурах Юго-запада США. Антология исследований культуры. М., “Университетская книга”, 1997.
- (5). Jumayeva G.T. A model for the development of the professional culture of school teachers based on a competency-based approach. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 05, May 2022 SJIF 2022 = 8.625 A peer reviewed journal, p. 212–219.
- (6). Pedagogik atamalar lug‘ati. R.X.Jurayev va boshq. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, T., 2008, 40-bet.
- (7). Тейлор Е.Б. Первобытная культура. М., Издательство политической культуры. 1989, с. 45.

Uralova Muxabbat Sanjar qizi (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti “Pedagogika” kafedrasи o‘qituvchisi; e-mail: uralovamuhabbat50@gmail.com)

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING IJODIY-METODIK KOMPETENTLILIGI NAMOYON BO‘LISH SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy-metodik kompetentliliği namoyon bo‘lish shart-sharoitlari, ijodiy va metodik kompetentlilikning strukturaviy tarkibini aniqlashtirib, har ikki faoliyat turiga xos bo‘lgan xususiyatlarni ajratib olish hamda ularning integratsiyasini amalga oshirish orqali mazmun tushunchani majmuaviy tizim sifatida yangi xossalari yuzaga chiqarish-dek vazifani bajarishimiz mavzuning muammosi sifatida ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: kompetentlilik, pedagogika, metodik faoliyat, tajriba, ijodiy kompetentlik, qobiliyat, shart-sharoit.

Уралова Мухаббат Санжаровна (Термезский университет экономики и сервиса, преподаватель кафедры «Педагогика»; uralovamuhabbat50@gmail.com)

УСЛОВИЯ ПРОЯВЛЕНИЯ ТВОРЧЕСКО-МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье были опробованы условия проявления творческо-методической компетентности будущего учителя начальной школы, структурный состав творческой и методической компетентности, разделение особенностей обоих видов деятельности и их интеграция. раскрыть проблему темы выполнения задачи раскрытия новых свойств понятия содержания как сложной системы.

Ключевые слова: компетентность, педагогика, методическая деятельность, опыт, творческая компетентность, способности, условия.

Uralova Mukhabbat Sanjar qizi (Termiz University of Economics and Service Teacher of the “Pedagogy” department; e-mail: uralovamuhabbat50@gmail.com)

CONDITIONS FOR MANIFESTATION OF CREATIVE-METHODICAL COMPETENCE OF THE FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHER

Annotation. In this article, the conditions for the manifestation of the creative-methodical competence of the future elementary school teacher, the structural composition of the creative and methodical competence, the separation of the characteristics of both types of activity and their integration It was tried to reveal the problem of the topic of performing the task of revealing the new properties of the concept of content as a complex system.

Key words: competence, pedagogy, methodological activity, experience, creative competence, abi-

lity, conditions.

Kirish. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish uchun metodik kompetentlilik bilan ijodiylik uyg‘unlashuvi o‘laroq, uning ijodiy-metodik faoliyatini takomillashtirish lozim bo‘ladi. Bu vazifani bajarish uchun o‘qituvchining ijodiy-metodik faoliyati ham ijodiy faoliyatning birga, turlari kabi o‘zining bir qator xususiyatlari ega ekanligini hisobga olishni taqozo etadi. Bu xususiyatlar V.I.Zagvyazinskiyning “O‘qituvchining pedagogik ijodkorligi” kitobida keltirilgan:

1. Vaqt jihatidan qat’iy chegaralanganlik. Ijodiy yondashuv joriy etadigan o‘qituvchi yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni juda qisqa vaqt ichida hal qilishi lozim.

2. Pedagogik ijod bilan o‘quv-tarbiya jarayoni o‘rtasida doimiy uyg‘unlik va muvofiqlik mavjudligi sababli, uning mahsuli har doim ijobji natijalarga mo‘ljallangan bo‘lishi shart.

3. Pedagogik ijodiyot boshqa ijodiy faoliyat turlaridan farqli ravishda, har doim hamkorlikni, jamoaga mo‘ljallanganlikni nazarda tutadi.

4. Pedagogik ijodiyotning aksar qismi ta’lim jarayoni ishtirokchilar ko‘z o‘ngida kechadi, binobarin, ijodiy faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi o‘z-o‘zini namunali tarzda boshqara olish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi lozim [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak o‘qituvchilarining tayyorgarligini takomillashtirish masalalari B.C.Abdullayeva, A.A.Abduqodirov, R.G.Isyanov, N.A.Muslimov, A.A.Xalikovlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Boshlang‘ich ta’limni tashkil etishni takomillashtirish masalalari Q.Abdullayeva, X.S.Bakiyeva, S.Matchonov, U.A.Masharipova, N.Sh.Ruzikulova, M.I.Toshpo‘latova, A.A.Urazimbetova, A.G‘ulomov, T.G‘afforova, X.G‘ulomovalar tomonidan tadqiq qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari B.G.Ananyev, A.N.Alekseyev, V.V.Guzeyev I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, S.V.Lazarev, A.K. Markova, A.M.Matyushkin, L.A.Petrovskaya, V.V.Serikov, A.V.Xutorskoy, I.S.Yakimanskaya, D.B. Elkoniinlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqlada muammoga doir adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish; modelllashtirish, pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy metodika, pedagogika fanlari nuqtayi nazaridan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z metodik kompetentliligini rivojlantirib, takomillashtirib borishi uchun metodik faoliyatning quyidagi umumlashtirilgan mexanizmlarini o‘zlashtirishi lozim bo‘ladi:

–o‘quv ishlarini tashkillashtirish va o‘quvchilarda motivatsiya uyg‘otishning dastlabki tajribalarini o‘zlashtirish;

–mavjud usullardan foydalanib, birlamchi kommunikativ aloqalarni yo‘lga qo‘yish asnosida, navbatdagi harakatlarning individual algoritmini ishlab chiqish;

–o‘z faoliyatini muntazam nazorat qilish, tuzatish, o‘zgartirish va yangiliklar kiritib borish;

–o‘z-o‘zini rivojlantirishning mavjud usullarini takomillashtirish va yangi usullar izlash [2].--

Biz bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ yondashuv asosida ijodiy-metodik kompetentlilikini masalasini tadqiq etar ekanmiz, ijodiy va metodik kompetentlilikning strukturaviy tarkibini aniqlashtirib, har ikki faoliyat turiga xos bo‘lgan xususiyatlarni ajratib olish hamda ularning integratsiyasini amalga oshirish orqali mazmun tushunchani majmuaviy tizim sifatida yangi xossalarni yuzaga chiqarish-dek vazifani bajarishimiz lozim bo‘ladi.

Biroq ijodiy-metodik kompetentlilikka asoslangan kasbiy faoliyatni amalga oshirayotgan (yoki oshiradigan) boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini qanday “tanib olish” mumkin? Ijodiy individuallik asosida olib borilayotgan ijodiy-metodik faoliyat subyekti qanday jihatlari bilan pedagogik jamoada ko‘zga tashlanadi? Savolni oddiyroq tarzda qo‘yadigan bo‘lsak, “qarshimizda ijodiy-metodik faoliyat subyekti turganligini qanday alomatlar orqali bilib oshimiz mumkin?” [4].

O‘qituvchining ijodiy-metodik faoliyati, asosan, ikki xil ko‘rinishda amalga oshiriladi:

1. Ta’lim jarayonida yuzaga kelgan yangi (avvalgi tajribalarda duch kelinmagan) pedagogik vaziyatlar avval qo‘llanilgan (“tanish”) vositalardan foydalanish orqali hal etiladi.

2. Pedagogik tajribada avval ham uchragan (“tanish”) pedagogik vaziyat yangi ishlab chiqilgan vositalar yordamida hal etiladi [5].

Birinchi holatda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z pedagogik tajribasida mavjud vositalarni yangi ko‘rinishda, pedagogik vaziyatga mos algoritmda takrorlaydi: shaklan va mazmunan yangi bo‘lmagan tushunchalar, hodisalar, terminlarni yangi metodika asosida pedagogik vaziyat yechimiga joriy etadi va bu bilan ijodiy-metodik individualligini namoyon etadi. Ikkinci holat esa o‘z ifodalinish tavsifiga ko‘ra ham

sof ijodiy yondashuv hisoblanadi. Aytish mumkinki, pedagogning ijodiy-metodik faoliyat subyekti sifatida o‘zini namoyon qilishi yuqorida keltirib o‘tilgan ikki pedagogik vaziyatda yaqqol ko‘rinadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy-metodik faoliyatini ko‘rsatuvchi alomatlar, belgilarni o‘rganish va tadqiq etish natijasida shu narsa aniq bo‘ldiki, ijodiy-metodik jihatdan individual o‘qituvchilarni quyidagi sifatlar birlashdirib turadi:

- pedagogik jarayon ishtirokchilariga shaxs sifatida qiziqish;
- bir-birlarini tez tushunish;
- har qanday mazmundagi yangilikni izlanishga undovchi omil sifatida qabul qilish;
- o‘quvchilar bilan muloqotni qadriyat darajasiga ko‘tarish va shu kabi zohiriy alomatlardir [6].

O‘qituvchining ijodiy kompetentliligi talabalar (bo‘lajak o‘qituvchilar)da ijodiylikni shakllantirish va davomli rivojlantirish vazifasining hosilasidir. Biroq o‘qituvchi ijodiyligining to‘liq namoyon bo‘lishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi sharoitlar va omillar ham borki, biz ular haqida ham yetarli tasavvurga ega bo‘lishimiz zarur bo‘ladi. Bu sharoitlar obyektiv va subyektiv ko‘rinishlarda bo‘lib, obyektiv omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) metodik ta’mintoning yetarli emasligi: mazkur muammoning bartaraf etilishi, eng avvalo, ijodiylikka intiladigan o‘qituvchi sa’y-harakatlarining ta’lim muassasasi ma’muriyati hamda ta’lim jarayoni subyektlari (hamkasblar, ota-onalar, metodik birlashmalar va hokazolar) tomonidan qo’llab-quvvatlanishiga bog‘liq;

b) ta’lim muhitida ijodiy muhitning zarur darajada emasligi (bu omilga ijodiy faoliyatga undovchi motivatsiyaviy komponentning to‘liq shakllanmaganligi va ijodiy faoliyat natijalarini baholashdagi yuzakilik kabi sharoitlar kiradi): bu muammo ham bevosita ta’lim muassasasida yaratilgan shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lib, ijodiylikka intilgan o‘qituvchining ta’lim jarayoni subyektlari bilan faol hamkorligi natijasida hal etilishi mumkin;

d) ijodkor o‘qituvchining ikkinchi darajali vazifalarga jalb etilishi bilan bog‘liq muammo ham ko‘p jihatdan ta’lim jarayoni subyektlariga, eng avvalo, ta’lim muassasasi ma’muriyatiga bog‘liq [7].

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faoliyatga tayyorligi undagi ijodiy-metodik kompetentlilik rivojlanganlik darjasini bilan belgilanadi. Ijodiy-metodik kompetentlilik shakllanishi – uzlusiz va davomli, dialektik va dinamik xususiyatlarga ega jarayon bo‘lib, “ijodiylik – ijodiy qobiliyat – kompetensiyalar shakllanishi – kompetentlilik – ijodiy-metodik kompetentlilik” ketma-ketligi asosida amalga oshiriladi.

Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Загвязинский В.И. Педагогическое творчество учителя [текст]. Пособие для студ. высш. учеб. заведений. М., “Педагогика”, 1987.
- (2). Анисимов, В.В. Общие основы педагогики. Учеб. для вузов, М., “Просвещение”, 2006, 574 с.
- (3). Гильманов С. Творческая индивидуальность педагога. “Школьная практика”, 2004, № 1, с. 197.
- (4). Краевский В.В. Общие основы педагогики. М., 2003, с. 162
- (5). Лукьянова М. Теоретические аспекты проблемы развития способности учителя к самоанализу в процессе работы. “Педагогика”, 2005, № 10, с. 56 – 61.
- (6). Эргашева Г. Талабаларда ижодий фикрларни ривожлантиришнинг асосий компонентлари. “Халқ таълими”, 2017.
- (7). Abduraimovna D.S. (2023). Types of reflexive learning technologies in the pedagogical education system. Open Access Repository, 4(03), p. 31–40.
- (8). Уралова М. (2023). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy-metodik faoliyatini takomillashtirish. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук. Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3 (11).
- (9). Уралова Мухабата Санджаровна. (2023). Подготовка будущих учителей начальных классов к творчески-методической деятельности на основе интегративного подхода. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(3), с. 390 – 393.

Zaripov Olimjan Kuvandiq o‘g‘li (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti

“Informatika o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti v.b.; olimjon4300@gmail.com

TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonini tashkil etishda integrativ yondashuv bo‘yicha respublika va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari tahlili, integratsiyalashgan ta’lim tamoyillari, ta’limda integrativ yondashuv, integrativ bilimlarni shakllantirish jarayoni, integrativ yondashuv asosida darslarining bosqichlari va ularni tayyorlash hamda o‘tkazish usullari xususida ko‘rsatma va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, integratsiya, integratsion ta’lim, ta’limda integrativ yondashuv, ta’limda integratsion dars, integrativ bilimlar, didaktik prinsiplar, refleksiv, fanlararo.

ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД К ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация. В данной статье представлен анализ научно-исследовательских работ республиканских и зарубежных ученых по интегративному подходу к организации образовательного процесса, принципы интегрированного образования, интегративный подход в образовании, процесс формирования интегративных знаний, этапы уроков на основе интегративного подхода и методы их подготовки и проведения.

Ключевые слова: интегративный подход, интеграция, интегративное обучение, интегративный подход в образовании, интегративный урок в образовании, интегративное знание, дидактические принципы, рефлексивное, междисциплинарное.

AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. This article presents an analysis of research works by republican and foreign scientists on an integrative approach to the organization of the educational process, the principles of integrated education, an integrative approach in education, the process of forming integrative knowledge, the stages of lessons based on an integrative approach and methods of their preparation and conduct.

Key words: integrative approach, integration, integrative learning, integrative approach in education, integrative lesson in education, integrative knowledge, didactic principles, reflective, interdisciplinary.

Kirish (Introduction). Bugungi kunda ilm-fan sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida innovatsion, ijodiy va tizimli yondashuvlar bilan bir qatorda, integrativ yondashuvdan ko‘proq foydalanilmoqda. Ayni paytda, ta’lim jarayonlarini integrativ tashkil etish, integratsion ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish va modulli ta’lim talablari asosida o‘qitish mazmuni va metodikasini takomillashtirishni taqozzo etadi. Bu yo‘nalishning istiqbolli tomoni shundaki, muayyan bir tizimni taraqqiyot g‘oyalari bilan integratsiyalashtiriladi. Aslida, integratsiyali ta’limni ichki mantiqiy bog‘liqlik va chuqurroq metodologik aloqalarga asoslanib amalga oshirish zarur. Hozirgi vaqtida ta’lim tizimida integratsiya muammosiga alohada e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim tizimiga integratsiyani kiritish talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Juhonda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda integrativ yondashuvdan foydalanish, o‘qitish jarayonlaring integratsiyalashuviga kompleks yondashuvni tatbiq etishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Bu borada Respublikamizda fanlararo aloqadorlik va integratsion o‘qitish jarayonlarini tashkil etish masalalari bo‘yicha R.Mavlonova, R.Safarova, E.Turdiqulov, M.Mirqosimova, A.Musurmonov, P.Musayev, A.Choriyev, X.A.Abduraxmonova, R.Burxonov, T.Nuriddinovkabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. Mazkur tadqiqotlarda fanlararo aloqadorlikning turli yo‘nalishlari va tamoyillari, ularning o‘quv jarayonida muayyan fanlarni o‘zlashtirishda qo‘llanilishi, o‘quv fanlariaro aloqadorlik asosida ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan talablar ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganilgan.

Xorijiy olimlardan J.Gilbert, F.Cochran, J.W.Gray, M.Trott, R.J.Gaylordlarning ishlarida integrativ ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning afzalliklari va imkoniyatlari yoritib berilgan. Mazkur ilmiy izlanishlarda yuqori malakali kadrlar tayyorlashning turli jihatlari, ya’ni, innovatsion va pedagogik faoliyatga tayyorlash, ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, integrativ muhitni tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Zamonaviy pedagogik amaliyotida fanlararo bog‘lanish asosida ta’limni integratsiyalash yo‘lidagi tadqiqotlar davom etmoqda. Bu vazifa g‘oyat murakkab, ayni paytda, katta samara beradi.

Integrativ ta’lim g‘oyasi zamonaviy ta’limning konseptual g‘oyalaridan biridir. Integrativ ta’limning maqsadi dunyoga yaxlit qarashni shakllantirishdir. Integrativ (sintez qiluvchi, poliparadigmal) ta’lim o‘quv jarayonining organik yaxlitligini (mazmuni, tamoyillari, usullari, o‘qitish shakllari, yaxlit faoliyatning baracha tarkibiy qismlari: maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, amaliy faoliyat, o‘zini-o‘zi boshqarish, tuzaish), turli xil tushunchalar elementlarini birlashtirishda izchillikni amalga oshiradi [1;137-b.].

Integrativ ta’lim tizimni shakllantiruvchi ustuvor g‘oyalari-bu ta’limning shaxsiy yo‘nalishi, umumiashtirilgan predmet tuzilmalari va faoliyat usullari, o‘qitishda ma’no hosil qiluvchi motivlar, o‘qitishda izchillik, o‘qitishda muammolar, dialogizm, faoliyatni aks ettirishdir [2;122-b].

Integratsiyaning bir nechta turi mayjud:

1. Tabiiy fanlar va gumanitar madaniyatlarning integratsiyasi.

2. O'qituvchilar tomonidan ta'lif jarayonida fanlararo xarakterdagi yetakchi tushunchalarni shakllantirishning yagona dasturlarini ishlab chiqish asosida o'rganilayotgan fanlarni birlashtirish.

3. O'quv fanlari o'rtasidagi munosabatlarning "gorizontal" tuzilmalarini amalga oshirish asosida nafaqat ma'lum bir mavzuning, balki fanlar siklining amaliy yo'naliшини kuchaytirish orqali integratsiyalash.

4. Bilishning umumiy ilmiy usullaridan foydalanish, ushbu usullarni o'rgatish.

Maqsadli ravishda amalga oshiriladigan fan aloqlari ta'lif jarayonini intensivlashtirishga, o'rganish motivatsiyasini oshirishga, nutqni, kognitiv qiziqishni rivojlantirishga, talabalarning taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Integratsiyalashgan darslarning maqsadi o'rganilayotgan hodisa, jarayon haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lib, ular mavzuda, dastur bo'limida aks etadi. Ularning mavzuning boshidagi o'rni, kirish (umumiy) bo'lim yoki mavzuni o'rganish oxirida umumlashtirish sifatida keladi. Kirish va ko'rib chiqish darsi o'rganilayotgan narsaning yaxlit rasmini yaratadi. Keyingi darslarda o'quv materiallari batafsil ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Mavzu (bo'lim) bo'yicha yakuniy darsda umumlashtirish va xulosalar chiqariladi.

Integrativ yondashuv asosida ta'lif jarayonini tashkil etishda darslarning bosqichlarini va ularni tayyorlash va o'tkazish usullarini ko'rib chiqamiz (1-jadval).

I-jadval

| Dars bosqichlari | Har bir bosqichdagi faoliyat |
|------------------------------|--|
| Ijodiy guruhni tashkil etish | Integratsiyalashgan darslarni o'tkazish uchun o'qituvchilar guruhini shakllantirish. Bunday jamoani shakllantirishda o'zaro muvofiqlik va uyg'unlik, xayri-xohlik va sheriklik omillarini hisobga olish kerak – bu muvaffaqiyat kaliti. |
| Tahlil va rejalashtirish | Integratsiyani amalga oshirish zarur bo'lgan ta'lif kurslari uchun dasturlar, darsliklar va qo'llanmalarning qiyosiy tahlili. Faktlarni aniqlashtirish darajasini, ularni umumlashtirish chuqurligini, taxmin qilingan mahorat darajasini, shuningdek, ushbu mavzuda qo'llaniladigan bilish usulini aniqlash. Hamkor o'qituvchilar bilan taqvim-tematik rejalashtirishni tuzish (individual o'quv fanlarining yaqin mavzularini, birlashtirilgan darslarning soni va mavzusini aniqlash). |
| Dars mazmunini loyihalash | Darsning maqsadi, vazifalarini aniqlash. Tarkib ustida ishlash: har bir o'qituvchi talabalarni jaib qilib, o'z yo'naliishi bo'yicha material tanlaydi (qo'shimcha adabiyotlar, qiziqarli faktlar, rasmlar, musiqiy asarlar, audio-video materiallar). Ijodiy guruh integratsiyalashgan qismlar o'rtasida aniq chegaralarsiz darsning yaxlit to'qimasini yaratish uchun hamma narsani ko'rib chiqadi va faqat ma'lum vaqt oralig'iда dars uchun zarur bo'lgan narsalarni tanlaydi. |
| Repetitsiyalar | Ushbu bosqichda ssenariy takomillashtiriladi: baracha sahnalarni ishlab chiqish, vaqtini saqlash amalga oshiriladi. |
| Ijro etuvchi | Integratsiyalashgan darsni o'tkazish. Darsning boshlanishda talabalarga kuchli ta'sir ko'rsatishi kerak. Ta'sir qilish usullari boshqacha bo'lishi mumkin: muammo, qiziqarli voqeа, musiqiy yoki video kirish. Asosiy qismida dars bosqichlari tuzilgan; o'qitishning turli shakllaridan foydalaniлади (rol va biznes o'yinlari, seminarlar, dialog darslari, sayohatlar, ekspeditsiyalar, loyi-halarni himoya qilish, multimedia yordami bilan darslar; talabaning faoliyati o'rganilayotgan hodisa, hodisa, jarayon haqida dars mavzusida aks ettirilgan yaxlit tasavvurga erishishga, bilimlarni tushunishga, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan). |
| Refleksiv | Tizimli integral tahlil va darsni o'z-o'zini tahlil qilish. |

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Xulosa shuki, integratsiyalashgan texnologiyaning dijuktik xususiyatlari (ta'lif oluvchi shaxsiga yo'nalganlik, o'qubvilish faoliyatining boshqarish, konsentrizm, hamkorlik, ijodkorlik) o'quv fani mavzusi, tayanch tushuncha va bilimlar, ko'nikma, malakaviy kom-

petensiyalarni ta’lim maqsadlari (ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) bilan ichki integratsiyasi dinamikligini ta’minlashga erishish orqali namoyon bo‘ladi. Shuningdek, darsning tizimli va integral tahlili – pedagogik faoliyat mezonlari, integratsiya tarkibi va tarkibiy qismlari, integratsiyalashgan obyektlarning yo‘nalishi va integratsiyalashgan ta’lim natijalariga erishishning mezonlari va parametrlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, ta’lim jarayoniga integrativ yondashuvni qo‘llash natijasida ta’lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasi ta’minlanadi. Chunki ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan integrativ yondashuv texnologiyalarini pedagogik va axborot-kommunitatsiya texnologiyalarga ajratishni taqozo qiladi. Bu integratsiyalashgan texnologiyalarning yo‘nalishlari har xil bo‘lgani bilan, ularning tutashlikdagi umumiy tomonlari ham bor. Oliy ta’limda kompyuter grafikasi va web-dizayn fanini o‘rganish, integrativ yondashuv asosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo‘llashning optimal (samarali) yo‘llarini belgilashda uzviylik prinsiplarini tadqiq qilish hamda ularning aniq mezonlarini belgilash muhim vazifa sifatida sanaladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1]. Suyunov A.G. Integrativ yondashuvning mazmun-mohiyati va uning tamoyillari. Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi, 2023, № 3, 137-bet.
- [2]. Nurnazarov Xudoiberdi Doniyorovich. Tasviriy san’at fanini o‘qitishda integrativ yondashuv, o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish, 2023.
- [3]. Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo‘llanma, T., Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti, 2005. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/33810>.
- [4]. Зарипов Олимжан. 2023. Электрон таълим мухитида интерактив таълим ресурсларини яратишнинг ўзига хос хусусиятлари. Innovations in Technology and Science Education. 2, 10 (Jun. 2023), p. 1127–1133.

**Jo‘rayeva Surayyo Ibragimjonovna (Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi;
Jurayevsurayyo02@gmail.com)**

TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA UNIVERSAL TA’LIMDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda zamonaviy boshlang‘ich ta’lim shaxsning har tomonlama rivojlanishini, yaxlit dunyoqarashni, ilmiy dunyoqarashni, universal o‘quv harakatlarining tuzilishi, kognitiv universal faoliyat, kognitiv harakatlarning xususiyatlari, kommunikativ universal harkatlar, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zini-o‘zi anglash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan islohotlar universal ta’lim harakatlari tabiiy fanlardan universal ta’lim faoliyatni shakllantirish vazifalari, kognitiv faoliyatni shakllantirish mezonlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: universal ta’lim, kognitiv qobiliyat, kognitiv harakat, universal faoliyat, tabiiy fanlar, vazifalar, kognitiv faoliyat, integratsiya, shaxsiy harakat, kommunikativ harakat, tadqiqot.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УНИВЕРСАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

Аннотация. В данной статье рассматривается современное начальное образование в нашей стране реформы, направленные на формирование всестороннего развития личности, целостного мировоззрения, научного мировоззрения, структуры универсальных учебных действий, познавательной универсальной деятельности, особенностей познавательных действий, коммуникативных универсальных действий, а также навыков самообразования и самосознания универсальные образовательные действия естественные науки универсальное образование задачи формирования деятельности, формирование познавательной деятельности критерии формирования освещены.

Ключевые слова: универсальное обучение, когнитивные способности, когнитивные действия, универсальная деятельность, естественные науки, задачи, когнитивные действия, интеграция, личностные действия, коммуникативные действия, исследования.

METHODOLOGY FOR THE USE OF UNIVERSAL EDUCATION IN THE TEACHING OF NATURAL SCIENCES

Annotation. In this article, modern primary education in our country focuses on the comprehensive development of the individual, a holistic worldview, a scientific worldview, the structure of Universal educational actions, cognitive universal activity, features of cognitive actions, communicative universal measures, as well as reforms aimed at the formation of self-education and self-awareness skills universal educational actions the tasks of.


Key words: universal education, cognitive ability, cognitive action, universal activity, Natural Sciences, tasks, cognitive activity, integration, personal action, communicative action, research.

So‘nggi yillarda yuritimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, Yangi O‘zbekistonni yaratish maqsadi-da barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Bu borada o‘nlab muhim qaror, farmon, konsepsiylar va dasturlar qabul qilindi.

Yoshlarimizda aniq va tabiiy fanlarni amaliyotda qo‘llash uchun kerak bo‘ladigan tushuncha, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, ularning kelajakda muhandislik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilm-fan yo‘nalishlarida yetuk kadrlar sifatida shakllanishlari uchun mакtablarda qo‘llaniladi [1].

Umumta’lim mакtablarida ta’limni rivojlantirishni ta’minlash tizimga milliy o‘quv dasturlarining joriy etilganligi, mamlakatda maktab boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlariga universal ta’limni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda o‘quvchining ilmiy savodxonlik kompetensiyasini, yangi bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish qobiliyatini, shu jumladan, ushbu jarayonni tashkil etishni ta’minlaydigan harakatlarni shakllantirishni talab etadi. Ta’lim dasturlariga qo‘yiladigan yangi talablar va ta’limga universal ta’limni joriy etish munosabati bilan boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida universal ta’lim rivojlanishining mazmuni va shartlari to‘liq ochib berilmagan.

Shu munosabat bilan, tadqiqot ishining maqsadi boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida mazkur ta’limning psixologik va pedagogik rivojlanishining xususiyatlarini o‘rganish va boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida ularning rivojlanishini monitoring qilish hisoblanadi.



1-rasm. O‘quvchilar natijalariga qo‘yiladigan talablar sxemasi.

Shaxsiy harakatlarning birinchi bloki o‘z taqdirini o‘zi belgilash harakatlarini o‘z ichiga oladi, so‘z ma’nolarni shakllantirish va axloqiy baholash qiymat-semantik yo‘nalishlar va munosabat asosida amalga oshiriladi. O‘quvchilarda tabiiy va shaxsiy narsalarga tayyorlik o‘z taqdirini o‘zi belgilash, axloqiy me’yorlarni bilish, aniqlash qobiliyat, xulq-atvorning axloqiy jihat va harakatlar, voqeа-voqealarni o‘zaro bog‘lash, qabul qilingan axloqiy tamoyillar, shuningdek, ijtimoiy rollardagi yo‘nalishlar va shaxslararo munosabatlar hisoblanadi.

O‘quv faoliyatini tashkil qilishda ikkita harakatlarni alohida ta’kidlash kerak:

1) shaxsga yo‘naltirilgan harakatlar turlarini o‘qitish, bu semantik shakllanish, ya’ni, ularning o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish faoliyatni rag‘batlantiradigan natija (mahsulot) va u nima uchun amalga oshirilishi aniqlash;

2) axloqiy yo‘nalish va baholash, bunda shaxsiy axloqiy tanlovni ta’minlaydigan o‘zlashtirilgan tar-kibni aniqlash.

Aslida, shuning uchun ham milliy dasturda shaxsga yo‘naltirigan faoliyatni olib borish vazifasi va uning natijalari birinchi o‘ringa qo‘yiladi.

Tabiiy fanlar darslarida shaxsiy universal ta’lim faoliyati o‘quvchida aks ettirishlishi kerak bo‘lgan vazifalarni bajarishda shakllanib boradi. Bunda muammoning shaxsiy qarashlari yoki o‘rganilgan narsalaraga bo‘lgan munosabatni ochib berish muhim. Ular ilmiy xabardorlik, tadqiqot va sotib olishga qaratilgan hayotiy qadriyatlar o‘quvchiga axloqiy me’yorlarni boshqarishga imkon beradi. Shuningdek, o‘qituvchi tomonidan dars jarayonida vaziyatga qarab, turli qoidalarni ishlab chiqish mumkin:

- 1-nisbatan hayotiy pozitsiyangizni rivojlantiring;
- 2-tinchlik formulasini ishlab chiqing;
- 3-oilangizning gerbini chizing;
- 4-tabiat o‘zgarishlari bo‘yicha aksiyalar o‘tkazish.

Shuningdek, qoidalar bilan birga turli mavzularda erkin suhbat o'tkazish mumkin. Masalan, "Aql bovar qilmaydigan yaqin kelajak", "O'rmonni qutqaring", "Suvni asrang" mavzularida xabarlar tayyorlash yoki hikoya yozish mumkin. Buning uchun esa o'quvchilar ishni ijodiy vazifadan boshlashi mumkin.

Bundan tashqari, faqat dars jarayonida emas, balki darsdan tashqarida oila davrasida, sayohatda, ta'-tilga sayohatda tabiiy bilimlarni qo'llashga o'rgatish mumkin bo'ladi. Buning uchun o'quvchi ota-onasidan yordam va maslahat so'rash mumkin, bunday vazifalardan so'ng o'quvchilarda tabiat bo'yicha mustahkam bilimlar zarurligi to'g'risida tushuncha shakllanadi.

Tartibga soluvchi universal ta'lim harakatlarining ikkinchi bloki maktab uchun ta'lim harakatlarni o'z ichiga oladi.

O'quv va kognitiv faoliyat harakatlarida uning barcha tarkibiy qismlari hisobga olinadi (maqsad, sabab, prognoz, vositalar, nazorat va baholash). Bularga quyidagilar kiradi:

1. Maqsadni belgilash – o'quv faoliyati vazifasini belgilash; o'quvchilar allaqachon bilgan va o'r-gangan narsalarning o'zaro bog'liqligi va integratsiyasini ko'rish kerak.

2. Rejalashtirish–o'quv faoliyatining maqsadini aniqlash, yakuniy natijani hisobga olgan holda, rejashtirish va ketma-ketlikni tuzish harakatlarini olib borish.

3. Bashorat qilish–natija va assimilatsiya darajasini oldindan bilish, uning vaqtinchalik bilim xususiyatlarini hisobga olish.

4. Nazorat – harakat usulini va uning natijasini taqqoslash standart asosida.

5. Tuzatish – kerakli qo'shimchalar va tuzatishlarni kiritish va agar standart haqiqiy harakat hamda uning bilan farq qilsa, harakat qilish usuli natijasi asosida.

6. Baholash – o'quvchilar tomonidan allaqachon mavjud bo'lgan bilimlarni ajratib ko'rsatish va anglash, o'rganilgan hamda faqat assimilatsiya qilinadigan bilim, sifat va darajani baholash.

7. Kuch va energiyani jalb qilish qobiliyati asosida ixtiyoriy harakat va to'siqlarni yengib o'tish orqali o'z-o'zini tartibga solish [3].

O'qituvchi maktab o'quvchilarida tartibga soluvchi sifatida o'quv faoliyatini shakllantiradi, bunda esa o'quvchilarning qidiruv-tadqiqot faoliyatiga asoslanadi.

Tartibga soluvchi harakatlar kognitiv va boshqarish imkoniyatini beradi. Maqsadlarni belgilash, rejashtirish orqali o'quv faoliyati, nazorat, tuzatish, shuningdek, assimilatsiya muvaffaqiyatini baholash asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Yuqoridaqlarni amalga oshirishda o'qituvchi, asosan, kognitiv harakatlarning xususiyatlariga tayan-gan holda, ish olib borishi mumkin (1-jadval).

1-jadval. Kognitiv harakatlarning xususiyatlari.

| Nº | Harakatlar turlari | Harakatlar tarkibining xususiyatlari |
|----|--|--|
| 1 | Belgilar–ramziy | <ul style="list-style-type: none"> –mustaqil tanlash va shakllantirish, kognitiv maqsad; –kerakli ma'lumotlarni qidirish, qidiruv usullarini qo'llash; –modellashtirish; –mahorat bilimlarni tuzish, ongli va o'zboshimchalik bilan mahorat og'zaki va yozma shaklda nutq bayonotini yaratish; –muammolarni hal qilishning samarali usullarini tanlash; –harakat usullarini aks ettirish va shartlari; –natjalarni nazorat qilish va baholash faoliyati. |
| 2 | Mantiqiy tahlil | <ul style="list-style-type: none"> –sintez, taqqoslash va obyektlarni tasniflash, hududlarni belgilar asosida belgilash; –hodisa va jarayon oqibatlarni tahlil qilish; –konsepsiya; –sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish; –mantiqiy fikrlash zanjirini qurish; –kengaytma gipotezalar va ularning asoslanishi. |
| 3 | Tadqiqot | <ul style="list-style-type: none"> –ma'lumotlarini qidirish va toplash, rejashtirish, uni tizimlashtirish, si-novdan o'tkazish; –referat, tushunish va talqin qilish, nomzodlik gipotezalari; –muammoni ko'rish, obyektni aniqlash va tadqiqot usullari; –eksperiment o'tkazish, amaliy ish; –tadqiqot ma'lumotlarini qayta ishlash; –gipotezalarni sinash; –maqola tayyorlash, ilmiy ishtiroy etish munozaralar; –natjalarni baholash va yo'nalishlarni aniqlash keyingi tadqiqotlar. |
| 4 | Ishlab chiqarish va muammolarni hal qilish | <ul style="list-style-type: none"> –muammoni shakllantirish, faraz qilish, yaratish; –belgilar asosida ijodiy va qidiruv muammolarini hal qilish usullari. |

Kognitiv universal ta'lif faoliyati muvaffaqiyatga erishishning muhim vositasi va ikkalasiga ham ta'sir qiladi. Faoliyatning o'zi samaradorligi va o'zini-o'zi qadrlash, ma'nno shakllanishi va o'quvchining o'zini-o'zi belgilashi bilan xarakterlanadi.

Oxirgi blokda kommunikativ universal mavjud hamkorlik qilish imkoniyatini beradigan o'quv faoliyati:

- sherikni eshitish, tinglash va tushunish;
- rejalashtirish va izchillik, birgalikda faoliyatni amalga oshirish, rollarni taqsimlash;
- birgalikda bir-birining harakatlarini nazorat qilish, muzokaralar olib borish;
- yetakchilik qilish, munozara, o'z fikrlarini to'g'ri ifoda etish, qo'llab-quvvatlash;
- do'st va o'qituvchi hamda sinfdoshlar bilan samarali hamkorlik qilish [2].

Natijada ular kommunikativ faoliyatni amalga oshirishga ulkan hissa qo'shadilar, turli xil ta'lif va ta'lifda aloqa qoidalaridan foydalanishga imkon beradi. Darsdan tashqari vaziyatlar, nutqni mustaqil ravishda tashkil etish, og'zaki va yozma ravishda faoliyat va bayonotlar yaratish.

Shakllarini ishlab chiqishlari mumkin. Kommunikativ o'quv harakatlarini o'zlashtirishda quyidagi lar shakllanadi:

- tinglash va muloqotga kirish, jamoada ishtirot etish qobiliyati;
- muhoqama qilish, guruhga qo'shilish va samarali muloqot qilish;
- tengdoshlar va kattalar bilan hamkorlik qilish.

Kommunikativ universal o'quv harakatlariga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchi bilan o'quv hamkorligini rejalashtirish va sinfdoshlar—maqsad, funksiya va o'zaro ta'sir usullarini aniqlash.
- savollar berish-qidirishda tashabbuskor hamkorlik va ma'lumot to'plash;
- mojarolarni hal qilish—muammoni aniqlash, tan olish, mojaroni hal qilishning muqobil usullarini topish va baholash, qarorlar qabul qilish va uni amalga oshirish;
- xulq-atvorni boshqarish, tuzatish, harakatlarni baholash;
- o'zingizni yetarlicha to'liqlik va aniqlik bilan ifoda etish qobiliyatini aloqa vazifalari va shartlariga muvofiq fikrlarni o'zlashtirish, monologik va dialogik nutq shakllari, ona tilining grammatik va sintaktik normalarini aniqlash.

Xulosa o'rniда shuni aytish mumkinki, universal ta'lif harakatlarining barcha turlari bir-biri bilan kesishadi. Ularning xususiyatlari va jarayonning samaradorligini aniqlaydi. Ta'lifda, asosan, bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirish, shuningdek, dunyo qiyofasini va vakolatining asosiy turlari haqida o'quvchilarda bilimlarni shakllantirish.

PhD, dotsent M.Qo'ldasheva taqrizi asosida

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston", Toshkent, 2022, 212-bet.
- (2). М.С.Добрякова, И.Д.Фрумина. Универсальные компетентности и новая грамотность: от лозунгов к реальности. Издательский дом Высшей школы экономики, Москва, 2020.
- (3). Жўраев Р., Зуннунов А. Таълим жараёнида ўқув фанларини интеграциялаш. "Шарқ", Т., 2005, 52-бет.

**Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich (Termiz davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc); e-mail: shomirzaev@tersu.uz)**

BO'LAJAK "TEXNOLOGIYA" FANI O'QITUVCHILARINING AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarini o'quv faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishda ijodkorlik ko'nikma va malakalari hamda xalq hunarmandchiligidagi oid tadbirdirkorlik kompetentligini shakllanganlik darajasining o'rni va ahamiyati mantiqiy ketma-ket, izchil, uzluk-siz, uzviy yoritilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak, o'qituvchi, texnologiya, fan, axborot texnologiyalari, hunarmandchilik, jarayon, imkoniyat, umumkasbiy, didaktik imkoniyat, pedagogik faoliyat, komponent, kompetensiya, tadbirdirkor.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ПО "ТЕХНОЛОГИИ"

Аннотация. В статье логически объяснены роль и значение уровня сформированности творческих навыков и умений будущих учителей-предметников "Технология" в использовании информационных технологий в своей учебной деятельности, а также предпринимательской компетентности в народных промыслах. последовательность, последовательная, непрерывная, отдельно.

Ключевые слова: будущее, учитель, технология, наука, информационные технологии, мастерство, процесс, возможность, общепрофессиональный, дидактическая возможность, педагогическая деятельность, компонент, компетентность, предприниматель.

FUTURE TEACHERS OF “TECHNOLOGY” OPPORTUNITIES FOR USING INFORMATION TECHNOLOGIES

Annotation. In the article, the role and importance of the level of formation of creative skills and abilities of future “Technology” subject teachers in the use of information technologies in their educational activities, as well as entrepreneurial competence in folk crafts, is explained in a logical sequence, consistent, continuous, separately.

Key words: future, teacher, technology, science, information technology, craftsmanship, process, opportunity, general professional, didactic opportunity, pedagogical activity, component, competence, entrepreneur.

Kirish. Dunyoda milliy hunarmandchilikni ta’lim jarayoniga kiritish samaradorligini oshirish, bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarini kasbiy sifatlarini rivojlantirish komponentlarini aniqlash, texnologiya fanining metodik ta’minotini takomillashtirish, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining sifati buyurtmachilar talablariga mosligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Ilmiy izlanishlarda texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash, amaliy mashg‘ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, texnologiya fanining fanlararo bog‘liqligini aks ettiruvchi mashg‘ulotlar majmuyi asosida o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda.

Bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchisini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga kasbiy tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari aniqlandi va modeli ishlab chiqildi. Bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchisini pedagogik faoliyat jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash holati o‘rganilib, ularning texnologiya ta’limi jarayonlarida o‘qitishning axborot texnologiyalarini qo’llash ko‘nikmalari tashxis qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimizda A.Xo‘jayev, R.H.Djurayev, U.Nishonaliyev, N.Shodiyev, I.T.Choriyev, N.S.Sayidaxmedov kabi olimlar texnologiya fanida xalq hunarmandchiligidini fanlararo takomillashtirishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarini olib borishgan. Shuningdek, milliy hunarmandchilik sohalarini o‘rganishning ta’lim-tarbiyaviy asoslari S.Bulatov, C.Hasanov, I.Karimov, O.Xudoyorova, A.Turdialiye, D.Zohidova, O.Jamoliddinovalar ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Shuningdek, rossiyalik olimlardan V.D.Jukov, S.T.Tolstov, V.M.Masson, A.T.Trejkin, S.R.Rusakina, N.N.Baranskiy, N.S.Mironenko, N.S.Falkova, Y.G.Lipes, A.G.Nizaliyevning xalq hunarmandchiligidining tadbirkorlik komponentlarini axborot texnologiyalarini asosida fanlararo takomillashtirishning ba’zi jihatlari bo‘yicha olib borgan tadqiqot ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-sonli “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqolamiz muayyan darajada xizmat qiladi.


Pedagogik adabiyotlar tahlili asosida bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish talablaridan kelib chiqqan holda, tadqiqotimiz davomida quyidagi mezonlar ajratib ko‘rsatildi [3]:

- motivatsiya va kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha bilimlarning egalanganlik darajasi;
- bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarini o‘quv faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishda ijodkorlik ko‘nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalardan kelib chiqib, biz quyida axborot texnologiyalarini asosida bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchisini tayyorlashning tadbirkorlik kompetentligini pedagogik modulini ishlab chiqdik (1-rasm) [5].

Bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchisini axborot texnologiyalarini asosida tayyorlash pedagogik tuzilmasining maqsad komponenti (jamiyatning raqobatbardosh texnologiya ta’limi o‘qituvchisini tayyorlashga ijtimoiy buyurtmasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi oliy kasbiy ta’limning DTSlari asosida “Texnologiya” fani o‘qituvchilarini axborot texnologiyalarini asosida tayyorlash va natijasini aniqlash, tashkiliy komponenti (vazifalar, ta’lim usullari, ta’lim shakllari va ta’lim tamoyillarini aniqlash va ishlab chiqish), mazmuniy komponenti (“Xalq hunarmandchiligi” fani bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturlar asosida – innovatsion, kompetensiyaviy, integrativ, shaxsiy-faoliyatli yondashuvlarni qo’llab, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali “Texnologiya” fani o‘qituvchilarida faoliyati variativligi, sub’ektivligi, ijodiy individu-

alligini, shaxsiy imkoniyatlarni rivojlantirish), natija komponenti (bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarni axborot texnologiyalari asosida tayyorlash natijalarini aniqlash)dan iborat [1].



1-rasm. Axborot texnologiyalari asosida bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchisini tayyorlashning tadbirkorlik kompetentligini pedagogik moduli.

Ilmiy tadqiqot ishlarni o‘rganish natijasida amaliy pedagogik tajribadan kelib chiqib, bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarini tayyorlashda ATlardan foydalanishning pedagogik tuzilmasi sxemasi va natijasini tashxis qilish modeli ishlab chiqildi.

Bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarini axborot texnologiyalari asosida tayyorlash turli darajadagi vazifalarni bajarish orqali amalga oshirildi. Vazifalarni bajarishda faoliyatning xususiyatiga qarab, axborot texnologiyalari asosida kasbiy, pedagogik ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning to‘rt (intuitiv, reproduktiv, reproduktiv-ijodiy, ijodiy) darjasini belgilandi. Bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarini axborot texnologiyalari asosida tayyorlashning pedagogik tuzilmasi ilmiylik, uzviylik, ketma-ketlik, ko‘rgazmalilik, faoliyk, fanlararo aloqadorlik tamoyillariga asoslangan, shuningdek, ta’lim natijasini aniq-

lash uchun baholash mezonlari aniqlanib olindi. Ekspert baholash mezonlarini belgilash va ularning obyektivlik, integrativlik, qaytar aloqa o'rnatish, psixologik moslashuvchanlik kabi tashkiliy-funksional imkoniyatlari tizimlashtirish orqali bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini pedagogik tashxis qilish metodlari (darsni spesifik tahlil qilish, ijodiy topshiriq, amaliy ishlar) takomillashtirildi [4].

Tahvil va natijalar. Talabalarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni axborot texnologiyalari asosida shakllantirish jarayoni vaziyatni yaratishda mazkur pedagogik jarayon ishtiokchilari, ya'ni, bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, uning tarkibiy qismlari mazmuni, kompyuterni talabaning faoliyat obyekti sifatida jalb etish holatlari kuzatildi. axborot texnologiyalari asosida o'qitishda o'rganilayotgan pedagogik hodisa yoki jarayonning axborot modeli o'quvchi faoliyatining ob'ekti hisoblanadi.

Talabalarda bilim, ko'nikma va mlakalarni axborot texnologiyalari asosida shakllantirish pedagogik ta'minotining zaruriy sharti pedagogning mazkur jarayonga tayyorligi hisoblanadi. O'qituvchi "Xalq hunarmandchiligi" o'quv fanini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, o'rganish asosiga metodik tizim bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish dasturiga ega bo'lishi kerak [1].

"Texnologiya" fani o'qituvchisini tayyorlashda umumkasbiy fanlarni axborot texnologiyalari asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari, zamonaviy o'qitish texnologiyalari va vositalari asosida umumkasbiy tayyorgarlik fanlarini o'qitishning konseptual asoslari, kasbiy tayyorlash mazmuni va uning mantiqiy-tuzilmaviy sxemasi izohlash ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotimiz natijalari oliy o'quv muassasalari texnologik ta'limi yo'nalishlari bitiruvchilari malaka talablari va ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajalarini tashxislashning tahliliy, loyihalash va pedagogik-prognostik komponentlari funksiyalarini integrativ muvofiqlashtirish asosida bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarini axborot texnologiyalari asosida tayyorlashning konseptual asosi mazmuni takomillashtirish maqsadga muvofiqliqdır.

Yuqoridaagi fikrlarimizdan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya tizimiga kommunikativ, axborot bilan ishslash, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy va texnologik savodxonlik, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanishni fanlar uyg'unligida rivojlantirishni ta'minlash texnologiyalarini joriy qilish bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Shomirzayev M.K. Developing Educational Technologies In School Technology Education. Next Scien-tists Conferences. 2022, p. 17.
- (2). Shomirzayev M.K. Technology of Educational Process in School Technology Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2020, т. 2, №. 7, p. 221.
- (3). Shomirzayev M.X. O'quvchilarda xalq hunarmandchiligi kasblariga qiziqishni fanlararo shakllantirish omillari. "Maktab va hayot", Т., 2019, 4-son, 23-bet.
- (4). Shomirzayev M.X. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammolari. "Zamonaviy ta'lim", Т., 2019, №. 82, 27-bet.
- (5). Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. O'quv-metodik qo'l-lanma, Т., "Gold print nashr", 2019, 56-bet.

Masharibov Anvarbek Rashidovich (Urganch davlat universiteti o'qituvchisi; mishaanvarrash@gmail.ru)

BO'LJAK TRANSPORT MUHANDISLARINING TEXNOLOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak transport muhandislarni avtomobilarning texnik ekspluatasiysi va servisi fani negizida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy va nazariy asoslari, talabalarlarda muhandislik kasbiy kompetentligini rivojlantirishning mayjud holati, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga oid kompetensiyalarini shakllantiruvchi fanlar nazariy tavsifi va qiyosiy tahlili shakllanishning mohiyati va xarakteristikalari haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, texnologik kompetensiya, kasbiy kompetensiya, metodik kompetentlik, informatsion kompetentlik, kreativ kompetentlik, kretiv fikrlash.

Аннотация. В данной статье представлены научно-теоретические основы развития профессиональной компетентности будущих инженеров транспорта на основе дисциплины Техническая эксплуатация и сервис автомобилей, текущее состояние развития инженерной профессиональной компетентности у студентов, теоретическая характеристика и сравнительный анализ дисциплин, формирующих компетенции инновационной инженерной професиональной деятельности у студентов технических высших учебных заведений пройдено.

Ключевые слова: компетентность, технологическая компетентность, профессиональная компетентность, методическая компетентность, информационная компетентность, творческая компетентность, креативное мышление.

Annotation. This article cites ideas about the scientific and theoretical foundations of the development of professional competence of Future transport Engineers on the basis of the science of technical exploitation and servicing of cars, the current state of development of professional competence of Engineering in students, the theoretical description and comparative analysis of disciplines forming competencies on the professional activity of innovative engineering in students.

Key words: competence, technological competence, professional competence, methodological competence, informative competence, creative competence, creative thinking.

Avtomobil transporti davlat iqtisodiyotini muvaffaqiyatli rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlarning muhim tarkibiy qismidan biridir. Avtomobil transporti nafaqat iqtisodiy, balki strategik ahamiyatiga ham ega. Avtotransport kompleksini takomillashtirish transport xarajatlarini pasaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga zamin yaratadi.

Avtotransportning barqaror rivojlanishi sertifikatsiyalash tizimini takomillashtirish, yangi texnika, diagnostika va ta'mirlashning ilg'or texnologiyasini tatbiq etish, avtotransport vositalari parkini yangilash, avtoyuktashish xavfsizligini tekshirish va nazorat qilishning izchil mexanizmini kuchaytirish bilan bog'liq.

Avtotransport vositalaridan foydalanish transport vositalarini ishlatish jarayonini ta'minlaydigan, shu jumladan, avtotransport vositalarini texnik ishga layoqatli holatda tutib turishga yo'naltirilgan tadbirlar majmuyidir. Texnik ekspluatatsiya konstruksiyalash va ishlab chiqarishda ko'zda tutilgan yuk tashish jaroni imkoniyatlarini, iqtisodiy maqsadga muvofiqligini e'tiborga olgan holda, yo'lovchilarni va yuklarni tashishda muntazamlilikni va xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Zamonning yangi talablaridan biri – transport vositalaridan texnik ekspluatatsiya sifatini boshqarish tizimini joriy etish. Avtotransport vositalarining texnik ekspluatatsiyasi – jo'shqin o'zgaruvchi tarmoq. Texnik ekspluatatsiya hozirgi holatiga avtotransport vositalari konstruksiyasingning o'zgarishlari, birinchi navbatda, mustahkamligini oshirish, bevosita o'rnatilgan diagnostika vositalari bilan to'la ta'min etish, mikroprostessor texnikasini keng qo'llash katta ta'sir o'tkazadi.

«Avtomobilarning texnik ekspluatatsiyasi va servisi» fanining asosiy vazifasi, yangi bozor munosabatlari talablarini hisobga olgan holda, xalq xo'jaligining avtotransport tarmog'iga malakali transport muhandislarini yetkazib berishdan iborat [3].

Oliy ta'lilda kompetentlik, ma'naviy, motivatsion, intellektual va amaliy jihatdan o'z-o'zini rivojlantirish, irodaviy va hissiy jihatdan o'z-o'zini boshqara olishga qaratilgan. Talaba shaxsiy manfaatlari va imkoniyatlariga ko'ra, faoliyat usullarini egallaydi, bu unga o'zida zamonaviy mutaxassisiga xos bo'lgan shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, tafakkurini, madaniyati va xulqini shakllantirishga yordam beradi. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. "Kompetentlik" tushunchasi ta'limgoh sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan [1;2-b.]. Psixologik nuqtayi nazardan, kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisining o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, noaniq vazifalarini bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi [7].

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyatini qisqacha yoritamiz[5;6-b.].

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faoliyati ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantrib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

1) psixologik kompetentlik–pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'limgoh jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatl qo‘llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tafbiq etish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish;

7) shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish;

8) texnologik kompetentlik–kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;

9) ekstremal kompetentlik–favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)-da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda, oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Bo‘lajak transport muhandislarning kelajakda rivojlanishi kerak bo‘lgan kasbiy kompetentlarga missollar keltiramiz [8].

1. Kasbiy faoliyat sohasida yangi ijodiy g‘oyalarni shakllantirish va tashkil qilish qobiliyati.

2. Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda bilimlarni mustaqil ravishda o‘zgartirish qobiliyati.

3. Universal bilimlarni ongli ravishda qo‘llay olish.

4. Lokal bilimlarni ongli ravishda qo‘llay olish.

5. Muhandislik muammolarini tahlil qila olish.

6. Muhandislik yechimlarini loyihalashtirishni amalga oshira olish.

7. Ijtimoiy javobgarlik.

8. Qonunchilik va huquqiy me’yorlarga rioya etish.

9. Muhandislik faoliyatining etikasi.

10. Muhandislik faoliyatini tashkil etish va boshqarish.

11. Kommunikatsiya.

12. Hayoti davomida ta’lim olishni to‘xtatmaslik.

13. Lozim joylarda muhandislik qarorlarini qabul qila olish.

14. Muhandislik qarorlari uchun javobgarlik hissining mavjudligi.

Kasbiy kompetentlikning talqini turlicha bo‘lib, mazmun jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi.

Masalan, chet el tadqiqotchilari R.Xagerti, A.Meyxyularning tadqiqotlarida kasbiy kompetentlik har qanday mutaxassis kasbiy malakasining asosiy qismidir deyilgan. Shunday qilib, ko‘plab tadqiqotlarda kasbiy kompetentlik kasbiy bilim, ko‘nikma va kasbiy faoliyat usullarining birligi sifatida tushuniladi [9;10-b.].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan bo‘lajak muhandislarning texnologik kompetensiyani shakllantirish uchun uslubiy tizim tarkibiy qismlarining mazmunini aniqlash, o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi individual ishlab chiqarish ta’limi jarayonida transport muhandislarda kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqish, o‘quv jarayonini boshqarish tizimini sifat jihatidan yangi darajada talabalarga sifatlari ta’lim berishga imkon beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Bahriiddinova N.M., Nematova L. Hasanova, Z.D., Salomov B.K., Khamidov Y.Y. (2020). Analysis of ecological and toxicological safety of agricultural raw materials of Uzbekistan. Journal of Critical Reviews, 7(14), p. 310–312.
- (2). Xasanova З.Д. Социально-педагогическая необходимость (потребность) в развитии мировоззрения у будущих учителей. “Молодой ученый”, с. 618–620.
- (3). Xasanova З.Д. Социально-педагогическая необходимость (потребность) в развитии мировоззрения у будущих учителей. “Молодой ученый”, с. 618–620.
- (4). Xasanova З.Д. Нравственно-эстетическое мировоззрение: сущность, структура, функции. “Искусство и образование”, с. 71–77.
- (5). Шнейдер Л.Б. Профессиональная идентичность: теория, эксперимент, тренинг. М., 2004, 335 с.
- (6). Морозова И.С. Социально-педагогическая поддержка профессионального самоопределения учащихся вечерней сменной школы. Кемерово, ЮНИТИ, 2008, 136 с.

(7). Khamidov Jalil Abdurasulovich, Khujjiev Mamurjon Yangiboevich, Alimov Azam Anvarovich, Gafforov Alisher Xolmurodovich, Khamidov Odil Abdurasulovich. "Opportunities and results to increase the effectiveness of multimedia teaching in higher education". Journal of Critical Reviews 7 (2020), 89–93. doi:10.31838/jcr.07.14.13.

(8). Alimov A.A. Improving the Training the Future Teachers of Special Disciplines in Uzbekistan. Eastern European Scientific Journal, p. 113–117.

(9). Zebo Davlatovna Hasanova. Bo'lajak muhandislarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning asosiy vazifalari. Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti. "Science and Education" Scientific Journal, Impact Factor 3.848 (SJIF), January 2023, Volume 4, Issue 1www.openscience.uz/ISSN 2181-0842471.

(9). Хожжиев М.Я. Возможности повышения эффективности мультимедиа в процессе урока. Universum: "Science and Education". Scientific Journal, Impact Factor 3.848 (SJIF), January 2023, Volume 4 Issue 1www.openscience.uz/ISSN 2181-0842476 психология и образование, с. 10–13.

(10). Мирзаев С.С., Кодирова Н.Д., Нуруллаев М.М., Хужжиев М.Я. Изучение энергозатрат при плаzмохимической диссоциации сероводорода. "Молодой ученый", (2), с. 49–52.

**Ortikova Iqbol Olimboyevna (Independent researcher, Urgench State University, Urgench;
e-mail: iqbola@pmkhiva.com)**

TA'LIM JARAYONLARIGA "TARSIYA" PAZLLINI TATBIQ QILISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada dars jarayonlarida ishlataladigan jumboqli o'yinli metod haqida bayon etilgan. Bu metod faqat maktab darsligi uchun emas, balki oliy ta'limga tatbiqi samarasi haqida bayon etilgan. Bu metodning barcha fanlarda har xil shakllarda qo'llanilishi ko'rsatma asosida yoritilgan. Bu metod nafaqat dars sifatini yaxshilashga, o'quvchining ko'tarinki kayfiyatda bo'lishini, sinf muhitini ijobjiy atmosferasini ta'minlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: metod, tarsiya, sayt orqali kirish, mahorat, mantiqiy fikrlash, dars jarayoni, bosqichlar, dars mashg'ulotlari, ta'lim-tarbiya jarayoni, mavzuga moslashirish, tushuntirish.

Аннотация. В данной статье описан метод игры (головоломки), используемый в процессе обучения. Этот метод касается не только школьных учебников, но и эффективности его применения в высшей школе. На основе инструкции поясняется применение этого метода во всех дисциплинах в различных формах. Этот метод помогает улучшить качество урока, сохранить хорошее настроение учеников, обеспечить позитивную атмосферу в классе.

Ключевые слова: метод, стратегия, доступ через сайт, умение, логическое мышление, учебный процесс, этапы, деятельность урока, учебный процесс, адаптация к теме, объяснение.

Annotation. This article describes the puzzle-game method used in the teaching process. This method is not only for school textbooks, but also for higher education. The use of this method in all subjects in various forms is explained based on the instructions. This method helps not only to improve the quality of the lesson, to make the student in a good mood, to ensure a positive atmosphere in the classroom.


Key words: method, strategy, access through the site, skills, logical thinking, curriculum, stages, lessons, educational process, adaptation to the subject, age of study, explanation.

Kirish. Bu tarsiya jigsaw dasturi ko'pchilik fanlarda ishlashiga tavsiya qilinadi, murakkab mavzularni osonroq o'rganish uchun ancha qulay. Maqolada bu metod bilan ishlash bosqichma-bosqich tushuntirib o'tilgan. Metoddan maktab va oliy o'quv yurti o'qituvchilari ham foydalanishi mumkin. Muntazam bu metodni qo'llash, darsda bir xillikni takrorlaydi, o'quvchida bir xil dasturga moslashish paydo bo'lishi mumkin. Dars jarayonida metodlarni turlicha bo'lgani maqsadga muvofiq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahibili. Tarsiya Jigsaw dasturini ilk bor buyuk britaniyalik Barton matematika o'qituvchisi yaratgan (6). Bu metod o'qituvchilarning so'nggi 11 yillik ish jarayonlarida ko'plab foydalanila boshlandi. O'qituvchilarga juda osonlik bilan keng ko'lamli ma'lumotlarni xotirada saqlab qolishning oson metodlaridan biridir (5). Vaqtadan unumli foydalanishni savol-javoblarni turli shakllar doirasida oson yig'ishni o'quvchilarga qiziqarli tarzda o'rgatish usulidir. Qaysi faoliyat turini yaratmoqchi ekanligini tanlagandan so'ng o'qituvchilar o'zları xohlagancha savol va javoblarni kiritishlari mumkin. Bu dastur dastlab matematik belgilari va ifodalar mavjudligini ta'minlash uchun o'rnatilgan (7). Bu dasturiy metod xususida, dastlab, matematik ustozlar formulalarni qisqa yozishda foydalanganlar, lekin boshqa fanlarda ham bemalol ishlatsa, yaxshi natija beradigan metod hisoblanadi.

Tatqiqod metodologiyasi. Dars jarayonlarini tashkil qilishda qiziqarli o'yinlardan yoki metodlardan foydalanish dars sifatini yanada samaraliroq qildi. Dars jarayonlarini tashkil qilishda o'qituvchi mavzuga mos va mavzuni mustahkamlovchi metodlarni tanlay bilishi ham mahorat hisoblanadi. Aks holda, darsda ko'zlangan maqsadga erisha olmaslik mumkin. Metodni dars bosqichlariga qarab qo'llash dars mavzusiga bog'lash o'qituvchidan bilim, ko'nikma va malaka talab qiladi.


Tahlil va natijalar. Hozirgi kunning o‘yin qaroq bolalari uchun mavzularni oddiylikdan murakkabli-ikka qarab o‘rgatish zarur. Aynan shu jarayonda “Tarsiya” pazzli qo‘l keladi. Masalan, mavzuni tushuntirgandan so‘ng mustahkamlash maqsadida o‘quvchilarni o‘yin orqali ishlashga, fikrlashga chorlaydigan metod hisoblanadi. Bu metodni dars bosqichini o‘rtta va yakuniy bosqichiga qo‘yish maqsadga muvofiq.



1-rasm. Tarsiya metodini tanlash.

Metoddan foydalanish bosqichlari.

1-bosqich. Sayt orqali tarsiya yuklab olinadi. Mavzu doirasida savol va savol javobi bo‘sh katakchalarga joylashtirilib chiqiladi. Afzalliklari: guruhlarda ishlanadi, yakka tartibda qo‘llasa ham bo‘ladi. Mavzuning mazmuniga qarab turli shakllardan foydalanish mumkin. Pazll o‘quvchini darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Mavzu doirasida olingan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Guruh bo‘lib ishlashda o‘quvchilarda do‘stona muhitni shakllantiradi. O‘quvchini faollashtiradi, mantiqiyl fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchida topqirlilik mahoratini oshiradi. Halol raqobatni shakllantiradi. Bu “Tarsiya” pazzlini barcha fanlarga moslagan holda mavzudan kelib chiqib, joriy qilish mumkin. Bu metodni o‘quvchining yosh xususiyatini inobatga olib, yanada qiziqarli va rangli qilib boyitsa bo‘ladi. Nafaqat o‘rtta ta‘limda, balki oliy ta‘limda amaliy seminar mashg‘ulotlarda ham bu metoddan foydalanish mumkin.




2-rasm. “Tarsiya”ning har xil shakllari.

2-bosqich. Mavzu doirasida 9-tadan –30 tagacha savol-javobni joylashtirish mumkin. Mavzuning hajmi o‘quvchining yoshi savollar soni va qiyinlik darajasini inobatga olib, o‘qituvchi “Tarsiya” metodidan foydalanishi mumkin. Yuqorida ko‘rsatilgan detallar to‘g‘ri tahlil qilinmasa, bu metod samarasini sezilmaydi. Metodni puxta to‘laligicha o‘rganib chiqib, dars jarayoni bosqichlariga joriy qilish maqsadga muvofiq.

3-bosqich. “Tarsiya” pazzli bilan yaxshilab tanishib olgandan so‘ng, mavzuga oid savol va javoblar joylashtiriladi.

| | | |
|---|---------------------------------------|---------------------------------------|
| 1 | Write your questions here... | and your answers here! Or vice versa. |
| 2 | The small shapes above the diagram... | change the puzzle shape. |
| 3 | | |
| 4 | | |
| 5 | | |
| 6 | | |
| 7 | | |
| 8 | | |
| 9 | | |

4-rasm. “Tarsiya” tayyor. “Uchburchak” ko‘rinishi.



5-rasm. “Tarsiya” pazlldan dars jarayonida foydalanish jarayoni.

Tarsiya Jigsaw dasturi nihoyatda ko‘p qirrali va ko‘plab fanlarda foydalanish mumkin. Bu dasturiy metodni savollarini biroz o‘zgartirish bilan yanada murakkablashtirish mantiqiy fikrlashga undaydigan savol-javob ham qilish mumkin. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar idrokidan kelib chiqib, savollarni ko‘p variantli qilish rejalashtirishi lozim. Tarsiya dasturiga savol-javoblarni joylashtirish jarayonida, ayrim savollarni javobsiz ham yozishingiz mumkin, bu esa o‘quvchini javobni topishga undaydi. Matn yaratishda bo‘sish joy qoldirish mumkin. Tasvirlar turli rasmlli matnlar bilan ham ishlash mumkin. Tasvirlar bilan ishlaganda aynan siz xohlagan rasmlarni dasturga o‘rnatishda muammolar bo‘lishi mumkin, u holda rasm yoki tasvir havolasini o‘rnatsa bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. O‘qituvchi darsda qanday interfaol metodlar, didaktik o‘yinlardan foydalanmasin, uning maqsadi bitta, yosh avlodga samarali bilim berish va bu bilimlarini hayotda qo‘llay olishiga erishishdir. Buning uchun o‘qituvchi ham doimo izlanishdan, ilm olishdan to‘xtamasligi kerak. Shunday ekan, o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchining rivojlanish darajasiga mos va uning mantiqiy, aqliy va shaxsiy o‘sishiga yordam beruvchi mashg‘ulotlarni rejalashtirishi zarur. Darsni to‘g‘ri va qiziqarli tashkil qilish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Scoffham, S., Barnes, J. Happiness matters: Towards a pedagogy of happiness and well-being. Curric. J. 2011, 22, p. 535–548 [CrossRef].

- (2). Capra, F. Complexity and life. *Emergence* 2002, 4, p. 15–33 [CrossRef]. 8. Peacock, A. Teaching eco-literacy during a period of uncertainty. *Policy Pract. Dev. Educ. Rev.* 2009, 9, p. 23–38. Available online: (accessed on 15 February 2019).
- (3). Stone, M.K., Barlow, Z. (Eds.) Ecological Literacy: Educating Our Children for a Sustainable World; Sierra Club Books: San Francisco, CA, USA, 2005.
- (4). McBride, B.B., Brewer, C.A., Berkowitz, A.R., Borrie, W.T. Environmental literacy, ecological literacy, ecoliteracy: What do we mean and how did we get here? *Ecosphere* 2013, 4, p. 1–20 [CrossRef].
- (5). Catling, S., Pickering, S. Mess, mess, glorious mess. *Prim. Geogr.* 2010, 73, p. 17.
- (6). <https://www.mrbartonmaths.com/about/about-mr-barton.html>
- (7). https://conferences.uz/plugins/themes/bootstrap3/pdf/conf_23_2020/10.Pedagogika_yonalishi1qism.pdf

Ismoilov Bobur Toxirovich (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti “Pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: bobur_ismoilov@tues.uz)

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING MATEMATIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA “JUFT QADAM” METODIKASINING O‘RNI

Annotatsiya. Mazkur maqlolada suyuqlikka doir (juft hajmli idishdagi suyuqlikni, hajmlari yig‘indisi berilgan juft hajmli idish hajmiga teng bo‘lgan toq hajmli ikkita bo‘sh idish yordamida teng ikki qismiga taqsimlash) masalaning yechim loyihasi “Juft qadam” metodikasiga asoslangan holda yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: “juft qadam” metodikasi, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, matematik kompetentlik, suyuqlikka oid masala.

Исмаилов Бобур Тахирович (Термезский университет экономики и сервиса, старший преподаватель кафедры педагогики, доктор философии (PhD) педагогических наук; e-mail: bobur_ismoilov@tues.uz)

РОЛЬ МЕТОДИКИ «ПАРНОГО ШАГА» В РАЗВИТИИ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье поясняется проект решения жидкостной (Разделение жидкости в сосуде четного объема на две равные части с помощью двух пустых сосудов нечетного объема, сумма объемов которых равна объему данного сосуда четного объема) задачи на основе метода «парного шага».

Ключевые слова: методика «парного шага», будущий учитель начальных классов, математическая компетентность, жидккая задача.

Ismailov Bobur Takhirovich (Termez University of Economics and Service Senior Lecturer, Department of Pedagogy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences; e-mail: bobur_ismoilov@tues.uz)

THE ROLE OF THE “PAIRED STEP” METHOD IN THE DEVELOPMENT OF MATHEMATICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY TEACHERS

Annotation. This article explains a project for solving a liquid problem (Dividing a liquid in a vessel of even volume into two equal parts using two empty vessels of odd volume, the sum of whose volumes is equal to the volume of a given vessel of even volume) based on the “pair step” method.

Key words: “pair step” technique, future primary school teacher, mathematical competence, liquid problem.

Kirish. Respublikamiz oliv ta’lim muassasalarida matematika o‘quv fanini zamonaviy ta’lim texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar orqali o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish, talabalarda tizimli tahlil ko‘nikmalarini rivojlanirish, matematika bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar talab etiladigan ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining o‘quv rejalarini, xususan, “Boshlang‘ich ta’lim” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablari va matematika fani dasturini bugungi kun talablari asosida qayta ishlab chiqish usuvor vazifalar etib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydag‘i PQ-4708-sonli “Matematika sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlanirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [7] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. M.K.Mamadjanovaning [6] mantiqiy, kombinatorik va nostandard masalalar nomli o‘quv qo‘llanmasida suyuqlikka oid masalalarning yechim metodikasi taklif etilgan. Mazkur masalalar yechimini qurishda muallif analiz usulidan (oxiridan boshiga qaytish) foydalangan. Biroq tak-lif etilgan yechim uslubida yechimning umumiy trayektoriyasi mavjud emas.

Yuqoridaagi kabi masalani N.Guliyevning tadqiqotlarida ham uchratamiz [3;47-b]. Lekin muallif juft hajmli idishdagi suyuqlikni toq hajmli idishlar vositasida teng taqsimlash jarayonini tatqiq etmagan. O.P. Boboyev va G.F.Shamsiyevalarning ishlarida ham suyuqlikka oid masalalar o‘rganilgan [1]. Shuningdek, 2016-yilgi 3-sinf matematika darsligida (S.Burxonov) berilgan 809–836-masalalarga o‘xshash bo‘lgan su-

yuqlikka oid masalalar uchun, umumiy qonuniyat yaratish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ning matematik kompetentligini yuqori darajada rivojlantirish mumkin [2;191-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. **Suyuqlikka oid masala.** Juft hajmli idishdagi suyuqliknini, hajmlari yig'indisi berilgan juft hajmli idish hajmiga teng bo'ligan toq hajmli ikkita bo'sh idish yordamida teng ikki qismga ajratish masalasi (1-rasm).

Tavsiya etilgan metodika (Juft qadam metodikasi). Mazkur metod orqali masala yechimini aniqlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.






1-bosqich. 1-bosqichda berilgan masaladagi idishlarni quyidagicha nomlab oling: juft hajmli idish—birinchi idish; toq hajmli idishlardan hajmi kattasi—ikkinchi idish; toq hajmli idishlarning hajmi kichigi – uchinchi idish (1-rasm).

2-bosqich. Masala shartida berilgan suyuqliklarning idishlarda ko'rinishi 3 xil holatda namoyon bo'jadi. Mazkur holatlarga uchinchi va ikkinchi idishlarga nisbatan qarang (1-rasm).

3-bosqich. Ushbu bosqichda quyidagi qoidalarga amal qilgan holda, masala yechimini aniqlang (1-jadvalda qoidaning ko'rgazmali shakli).










Yuqorida aytib o'tilgan qoidalarning har biri bittadan holatga mos keladi, Masala yechimiga erishish uchun birinchi holatda 1-qoidadan, ikkinchi holatda 2-qoidadan, uchinchi holatda 3-qoidadan foydalananing.

1-jadval

| "Juft qadam" metodikasi | | |
|--|---|---|
| 1-qoida | | |
| Agarda 3-idish bo'sh bo'lsa, 1-idishdan faqat 3-idishga suyuqliknini quying, 2-idishga quyishingiz tavsiya etilmaydi. |  |  |
| 1-holatning shakllari | | |
| 2-qoida | | |
| 3-idishda suyuqlik mavjud bo'lsa, undan 2-idishga suyuqliknini quyib oling, bunda uchinchi idishdagi suyuqlik ikkinchi idishga to'liq quyilmasligi ham mumkin. |  |  |
| 2-holatning shakllari | | |
| 3-qoida | | |
| 2-idish suyuqlikka to'lgan vaziyatda uni birinchi idishga quyib oling. |  | |
| 3-holat | | |

Tahlil, natijalar va mulohaza. Tajriba sinov ishi. Quyidagi 2 ta masalani tavsiya etilgan “juft qadam” metodikasi orqali tajriba-sinovdan o'tkazib ko'ramiz.

Suyuqlikka oid 1-masalaning “juft qadam” metodikasiga asoslangan yechim loyihasi

| <p>1-masala. 8 litrli idish suvgaga to‘lib turibdi, 3 va 5 litrli bo‘sh idishlar yordamida suvni 4 litrdan qilib teng taqsimlang.</p> |  <table border="1" data-bbox="927 451 1383 525"> <thead> <tr> <th>8 litr</th> <th>5 litr</th> <th>3 litr</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>8</td> <td>0</td> <td>0</td> </tr> </tbody> </table> | 8 litr | 5 litr | 3 litr | 8 | 0 | 0 | | | | | | |
|--|--|--------|--------|--------|---|---|--|--------|--------|--------|---|---|---|
| 8 litr | 5 litr | 3 litr | | | | | | | | | | | |
| 8 | 0 | 0 | | | | | | | | | | | |
| <p>Masalaning matnli shakli</p>  <table border="1" data-bbox="317 795 736 869"> <thead> <tr> <th>8 litr</th> <th>5 litr</th> <th>3 litr</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>5</td> <td>0</td> <td>3</td> </tr> </tbody> </table> | 8 litr | 5 litr | 3 litr | 5 | 0 | 3 | <p>Masalaning ko‘rgazmali shakli</p>  <table border="1" data-bbox="936 795 1356 869"> <thead> <tr> <th>8 litr</th> <th>5 litr</th> <th>3 litr</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>5</td> <td>3</td> <td>0</td> </tr> </tbody> </table> | 8 litr | 5 litr | 3 litr | 5 | 3 | 0 |
| 8 litr | 5 litr | 3 litr | | | | | | | | | | | |
| 5 | 0 | 3 | | | | | | | | | | | |
| 8 litr | 5 litr | 3 litr | | | | | | | | | | | |
| 5 | 3 | 0 | | | | | | | | | | | |
| <p>1-qadam. 2-qoida, 2-holat</p>  <table border="1" data-bbox="295 1154 759 1228"> <thead> <tr> <th>8 litr</th> <th>5 litr</th> <th>3 litr</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>2</td> <td>3</td> <td>3</td> </tr> </tbody> </table> | 8 litr | 5 litr | 3 litr | 2 | 3 | 3 | <p>2-qadam. 1-qoida, 1-holat</p>  <table border="1" data-bbox="914 1154 1378 1228"> <thead> <tr> <th>8 litr</th> <th>5 litr</th> <th>3 litr</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>2</td> <td>5</td> <td>1</td> </tr> </tbody> </table> | 8 litr | 5 litr | 3 litr | 2 | 5 | 1 |
| 8 litr | 5 litr | 3 litr | | | | | | | | | | | |
| 2 | 3 | 3 | | | | | | | | | | | |
| 8 litr | 5 litr | 3 litr | | | | | | | | | | | |
| 2 | 5 | 1 | | | | | | | | | | | |
| <p>3-qadam. 2-qoida, 2-holat</p>  <table border="1" data-bbox="295 1498 759 1569"> <thead> <tr> <th>8 litr</th> <th>5 litr</th> <th>3 litr</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>7</td> <td>0</td> <td>1</td> </tr> </tbody> </table> | 8 litr | 5 litr | 3 litr | 7 | 0 | 1 | <p>4-qadam. 3-qoida, 3-holat</p>  <table border="1" data-bbox="914 1498 1378 1569"> <thead> <tr> <th>8 litr</th> <th>5 litr</th> <th>3 litr</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>7</td> <td>1</td> <td>0</td> </tr> </tbody> </table> | 8 litr | 5 litr | 3 litr | 7 | 1 | 0 |
| 8 litr | 5 litr | 3 litr | | | | | | | | | | | |
| 7 | 0 | 1 | | | | | | | | | | | |
| 8 litr | 5 litr | 3 litr | | | | | | | | | | | |
| 7 | 1 | 0 | | | | | | | | | | | |
| <p>5-qadam. 2-qoida, 2-holat</p>  <table border="1" data-bbox="295 1841 759 1915"> <thead> <tr> <th>8 litr</th> <th>5 litr</th> <th>3 litr</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>4</td> <td>1</td> <td>3</td> </tr> </tbody> </table> | 8 litr | 5 litr | 3 litr | 4 | 1 | 3 | <p>6-qadam. 1-qoida, 1-holat</p>  <table border="1" data-bbox="914 1841 1378 1915"> <thead> <tr> <th>8 litr</th> <th>5 litr</th> <th>3 litr</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>4</td> <td>4</td> <td>0</td> </tr> </tbody> </table> | 8 litr | 5 litr | 3 litr | 4 | 4 | 0 |
| 8 litr | 5 litr | 3 litr | | | | | | | | | | | |
| 4 | 1 | 3 | | | | | | | | | | | |
| 8 litr | 5 litr | 3 litr | | | | | | | | | | | |
| 4 | 4 | 0 | | | | | | | | | | | |
| <p>7-qadam. 2-qoida, 2-holat</p> | <p>8-qadam. Yechim</p> | | | | | | | | | | | | |

2-jadvalda 1-masalaning yechim loyihasi “Juft qadam” metodikasiga asoslanilgan holda qurilgan va yechimiga 8 qadamda erishilgan.

Xulosa va takliflar. Juft hajmli idishdagi suyuqlikni (idish suyuqlikka to‘la), hajmlari yig‘indisi berilgan juft hajmli idish hajmiga teng bo‘lgan toq hajmli ikkita bo‘sh idish yordamida teng ikki qismga ajratish mumkin va bu jarayon aytib o‘tilgan juft hajmli idish miqdorining son qiymatiga teng bo‘lgan qadamda aniqlanadi.

Har bir sinfda kam sonli bo‘lsa-da, matematikani o‘rganishga ishtiyogi kuchli, qobiliyatli o‘quvchilar bor. Mana shunday o‘quvchilar bilan qo‘sishimcha mashg‘ulotlar uyuştirib borilmasa, unday o‘quvchilarga dars mashg‘ulotlari zerikarli bo‘lib, o‘quvchilardagi qobiliyat so‘nib boradi. Albatta, o‘qituvchi bunday o‘quvchilarga alohida e’tibor berib, qo‘sishimcha mashg‘ulotlar uyuştirib borsa, yaxshi natijalarga erishadi [5;7-b.].

Amaldagi mavjud metodik takli va tavsiyalar bunday o‘quvchilar bilan ishlashda sayozlik qilayotganligi sababli, o‘qituvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida tadqiqot ishimizda suyuqlikka oid masalalar yechimiga oson erishishni ta’minlovchi metodikani taklif etdik.

Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Boboyev O.P., Shamsiyeva G.F. Matematikadan qo‘sishimcha masala, mashq va misollar (ixtisoslashtirilgan maktablarning 2 – 4-sinf o‘quvchilari uchun). Toshkent, “Turon-Iqbol”, 2017, 75-bet.
- (2). Burxonov S., va boshq. Matematika (umumiy o‘rtta ta’lim muktablarining 3-sinfi uchun darslik). Toshkent, “Sharq”, 2019.
- (3). Guliyeva N. Qiziqarli matematika. Toshkent, “Yangi asr avlod”, 2003, 47-bet.
- (4). Ismoilov B.T. Nostandart masalalarni yechish metodikasi. O‘quv qo‘llanma, Termiz, TerDU, 2023, 160-bet.
- (5). Jumayev M.E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi (o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini uchun o‘quv qo‘llanma). Toshkent, “Ilm–ziyo”, 2017, 7-bet.
- (6). Mamadjanova M.K. Mantiqiy, kombinatorik va nostandart masalalar (o‘quv qo‘llanma). T., “Innovatsiya – Ziyo”, 2020, 24–30-betlar.
- (7). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.05.2020-yildagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli qarori.

**Zokirov Javohir G‘aybullo o‘g‘li (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti Pedagogika kafedrasи o‘qituvchisi;
e-mail: zjavohir6@gmail.com)**

O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI LOYIHALASHTIRISH UCHUN ONA TILI DARSLARIDA PRAGMATIK MASHQLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish amaliyotini asoslash, uning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflash uchun pedagogik tajriba predmeti, maqsadi, vazifalarini aniqlash, tajribaning borishini tavsiflash, uning natijalarini tahlil qilishga doir fikr bayon etilgan. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishning asosiy maqsadi ta’lim samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilash muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik ona tili, boshlang‘ich sinf, ijodiy ta’lim, ijodiylik, ijodiy faoliyat, loyiha, loyihalashtirish, tajriba, o‘qish, nutq, ta’lim jarayoni, samaradorlik, pedagogik tajriba, nazorat qilish, malaka, tashkil etish, boshqarish.

Аннотация. В данной статье представлено мнение на основе практики проектирования творческой деятельности учащихся в родном образовании, определения предмета, цели и задач педагогического эксперимента, описания хода эксперимента и анализа его результатов. Основной целью проектирования творческой деятельности студентов при обучении на родном языке является повышение эффективности и качества образования.

Ключевые слова: творчество родной язык, начальная школа, творческое образование, творчество, творческая деятельность, проект, проектирование, опыт, чтение, речь. учебный процесс, эффективность, педагогический опыт, контроль, компетентность, организация, управление.

Annotation. In this article, an opinion is presented on the basis of the practice of designing the creative activity of students in mother tongue education, defining the subject, purpose, and tasks of the pedagogical experiment, describing the course of the experiment, and analyzing its results. The main goal of designing students’ creative activities in mother tongue education is to increase the efficiency and quality of education.

Key words: creativity mother tongue, elementary school, creative education, creativity, creative activity, project, design, experience, reading, speech. educational process, effectiveness, pedagogical experience, control, competence, organization, management.

Kirish. Respublikamizda yosh avlodni mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish davlat darajasidagi masalaga aylangan. Ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatga yo‘naltirish muammosiga jahon pedagogika va psixologiya ilmida alohida e’tibor qaratilgan.

Boshlang‘ich ta’lim ona tili va o‘qish savodxonligi darslari samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarda ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishda nostandard dars shakllari hamda interfaol o‘qitish usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishning bosh maqsadi yoshlarning ijodiy-mustaqlil, o‘z fikrini erkin va ta’sirli, mazmunli va mantiqli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga, o‘zbek tili qonun-qoidalarini ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga e’tibor qaratilgan. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilar matnni yodlab olish, she’rlarni takrorlash bilan cheklanmasdan, matnni tushunish, anglash, munosabat bildira olish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Respublikamiz olimlaridan Sh.Abdullayeva, M.Qulaxmetova, Ch.T.Shakirovalarning boshlang‘ich sinflarda darslarni modulli innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish bo‘yicha ishlarini e’tirof etish mumkin. Shuningdek, umumiyo‘rtta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘qitishning turli jihatlari B.R.Adizov, A.R.Hamroyev [8], R.Ibragimova, Sh.Nurullayeva [7], Sh.Sharipov, F.Xo‘jiyevalar tomonidan o‘rganilgan. Fikrlash jarayonining psixologik asoslari E.G.oziyev, V.Karimova [3], R.Sunnatova va Z.Nishonovalar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, sanogen (sog‘lom) tafakkurni rivojlantirish muammosi mutaxassislar tomonidan tadqiq etilgan.

Tahlil va natijalar. Metodik adabiyotlarda o‘tilganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslarning uchta asosiy bosqichi ajratiladi: o‘rganilgan bilim va faoliyat usullarini faollashtirish. Berilgan dalillarning qaysi ta’rif, qoidaga taalluqligini aniqlash, topshiriqni bajara turib, ta’rif, qoidalarni esga tushirish, qo‘yilgan muammoning qaysi ta’rif, qoidaga ko‘ra, hal qilinishini belgilash. Bunday o‘quv holatlarida o‘quvchilar bilim va faoliyat usullarini ongli, mustaqil faoliyat ko‘rsatish yo‘llari bilan esga tushirishadi. Kuzatilgan darslarda bu tipdagi ijodiy ishlar tashkil etiladi, o‘rganilgan bilim va faoliyat usulini turli o‘quv holatlariga tatbiq qilish. Biz kuzatgan ijodiy topshiriq darsning ikkinchi bosqichiga—bilim va faoliyat usullarini berilgan holatlariga tatbiq qilish jarayoniga mos keladi, o‘rganilgan ta’rif, qoidalar o‘zlashtirilgan tu-shunchalarning yangi-yangi qirralarini aniqlash bosqichi. O‘rganilgan ta’rif, qoida bo‘yicha dalillarni kuzata turib, uning yangi xususiyatlarini ajratish, bilimlarni yangi axborotlar bilan boyitish didaktik izlanishlarda kumilatsiya deb yuritiladi. Kumilatsiya hodisasi o‘rganilgan bilim, faoliyat usullarini kengaytirish bilimlarni dastlabki o‘rganishdan tortib, ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida muttasil davom ettirilsa, ta’limni ijodiy o‘tkazishning samaradorligi shunchalik oshadi [5].

Ona tili darslarining navbatdagi turi bilim va malakalarini umumlashtirish darsi deb yuritiladi. Bu dars turida bilim, malakalar tushuncha darajasida o‘zlashtiriladi. Ammo aksariyat maktab o‘qituvchilari faoliyatida bu dars turi farqlanmaydi. Bilim va malakalarini o‘zlashtirish darslarining o‘zigagina xos qator belgilari bor: ikki yoki undan ortiq mavzuga oid dalillarni o‘zaro taqqoslash. Umumiyo‘rtta ta’lim tizimida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirish, o‘quv-biluv jarayonini ijodiy tashkil etish, muammoli izlanish metodi, ijodiy ishlar, didaktik o‘yinlarning o‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyatiga va tafakkuriga ta’siri qator olimlar [8] tadqiqotlari obyekti bo‘lib kelgan. Masalan, adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatish jarayoni Q.Husanboyevaning tadqiqotida o‘z aksini topgan.

Maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirish uchun evristik usullardan foydalanish ijodkorlikning algoritmik usullaridan foydalanish bilan birlashtirilishi kerak. Adabiyotni tahlil qilish asosida (G.S.Altshuller, V.A.Buxvalov, A.A.Gin, M.A.Danilov, A.M.Matyushkin va boshqalar) ijodiy vazifalarga qo‘yiladigan quyidagi talablarni ajratish mumkin:

- ochiqlik (muammoli vaziyat yoki ziddiyatning mazmuni);
- shartning tanlangan ijod usullariga muvofiqligi;
- turli xil yechimlarni topish imkoniyati;
- hozirgi rivojlanish darajasini hisobga olgan holda;
- talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Ijodiy vazifalar tizimi uchun tarkibni tanlashda ikkita omil hisobga olindi:

1. Kichik maktab o‘quvchilarining ijodiy faoliyati asosan jamiyat tomonidan hal qilingan muammlar bo‘yicha amalga oshiriladi.

2. Boshlang‘ich maktab predmetlari mazmunining ijodiy imkoniyatlari.

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning eng muhim pedagogik shartlari quyidagilardir:

- faoliyatning mohiyatini o‘zgartirish;
- bolalarning ta’lim faoliyatida xayrixohlik muhiti;

– jamoaning shakllanishi.

Badiiy va ijodiy faoliyatni tashkil qilishda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir strategiyasini tanlash muhimligini esga olish lozim. Amalda, tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, o‘zaro ta’sir strategiyasini tanlashda, odatda, ikkita usul qo‘llaniladi:

– tashqi tomondan rivojlanish, shaxsning ichki dunyosiga aralashish sifatida, unga ishlab chiqilgan usullar, faoliyat normalari va xatti-harakatlarini yuklash;

– faollik, mustaqillik, mas’uliyatni rag‘batlantirish, shaxsga hurmat ko‘rsatish, unga xos bo‘lgan imkoniyatlarni ochib berish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlanirish kabi ichki tomondan rivojlanish.

Shuni unutmaslik kerakki, topshiriqlarda barcha o‘quvchilar oldiga qo‘ylgan talab bir xil, ammo o‘quvchilarning saviyasi bir xil emas. Tabiiyki, topshiriqlarni hamma bir xilda to‘g‘ri bajara olmaydi [2]. Bunday holda qo‘shimcha topshiriqlar berish orqali mashq shartini soddalashtirish yo‘li bilan o‘quvchilarni qiziqtirish mumkin.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo‘lsam ijodkor kishiga xos bo‘lgan bu xususiyatlar faqat demokratik mu-loqot uslubi tufayli shakllanadi. Bunday holda, o‘qituvchi insonning individual xususiyatlarini, uning tajribasini, ehtiyojlari va imkoniyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi, shuningdek, u baholashda ob‘ektiv, bolalar bilan aloqada ko‘p qirrali va tashabbuskor bo‘lishi kerak. Eng samarali – bu ijodiy faoliyatga qo‘shma ehtirosga asoslangan muloqot. Ushbu uslubning asosini o‘qituvchining yuqori professionalligi tashkil etadi. Zero, ijodiy izlanishga bo‘lgan ishtiyoq nafaqat kommunikativ faoliyat natijasidir, balki umuman, ko‘proq darajada pedagogik faoliyatga bo‘lgan munosabat natijasidir. Ko‘pgina o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, maktab o‘quvchilarining badiiy va ijodiy faoliyatini tashkil qilishning eng muhim sharti – bu nafaqat qiziqishni, nostandart yechimlarga bo‘lgan didni, ahamiyatsiz fikrlash qobiliyatini rivojlanirish bilan emas, balki yangi va g‘ayrioddiy narsalarni idrok etishga tayyorlikni rivojlanirish, ulardan foydalanish va amalga oshirish istagi bilan yaratilgan ijodiy muhitni yaratishdir.

Bir guruhsda an’anaviy metodika asosida, ikkinchisida ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish vositasidan foydalanib dars o‘tib, kelgusi darsda o‘quvchilarning oldingi dars bo‘yicha olgan bilimlari tekshirilganda tajriba guruhi o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Kuzatishlar, nazorat ishlarining natijalari, o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan o‘tkazilgan suhbatlar natijasida ona tili darslarini pedagogik va metodik jihatdan asoslangan loyihalar zamirida tashkil qilganda o‘quvchilar bilim saviyasini oshirish mumkin, degan fikrga keldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Aliyeva E.G. Ijodiy qobiliyat va uning rivojlanish shartlari. Ta’lim faoliyatini psixologik tahlil qilish. M., “IPRAN”, 1991.
- (2). Ponomarev Y.A. Ijodiy fikrlash psixologiyasi. M., 1960.
- (3). Karimova V., Sunnatova R., Mustaqil fikrlash bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish. Uslubiy qo‘llanma, T., “Sharq”, 2000, 193-bet.
- (4). Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlanirishning psixologik asoslari. Psix.f.b.dok...diss., T., 2005, 391-bet.
- (5). Nurullayeva Sh. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodi-kasi. Ped.fan.nom... diss., Toshkent, 2007, 180-bet.
- (6). Qulaxmetova M. O‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish. O‘quv qo‘llanma, T., “Sano-dastard” nashriyoti, 2011, 80-bet.
- (7). Shakirova Ch.T. Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlanirish va dasturiy nazora asosida o‘qitish samara-dorligini oshirish. Ped.fan.nom...diss., Toshkent, 2009, 167-bet.
- (8). Ҳамроев А. Бошланғич синф она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойихалаштириш методик муаммо сифатида. Центр научных публикаций (buxdu.uz). 2021, т. 1, №.1.
- (9). Hamroyev A.R. Designing students’ creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. Middle European Scientific Bulletin. 2021, т. 11.

Ismanova Gulzoda (Namangan davlat universiteti stajyor-o‘qituvchisi) BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlanirishning dolzarb masalalari, tanqidiy rivojlanish elementlari texnologiyasi, tanqidiy fikrlashning asosiy xususiyatlari, tanqidiy fikrlashni shakllantirish harakatlari, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash bosqichlari va faoliyati, tanqidiy fikrlashni rivojlanirish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, texnologiya, shaxsiy fazilatlar, jamiyat, bilim, ko‘nikma, refleksiya, ijtimoiy ishlab chiqarish, xulosa, axborot.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В данной статье освещаются актуальные вопросы развития критического мышления в системе начального образования, технология элементов критического развития, основные особенности критического мышления, действия по формированию критического мышления, этапы и деятельность критического мышления учащихся, методы развития критического мышления.

Ключевые слова: критическое мышление, технологии, личностные качества, общество, знания, навыки, рефлексия, социальное производство, заключение, информация.

CHARACTERISTIC FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. This article covers topical issues of the development of critical thinking in the primary education system, the technology of elements of critical development, the main features of critical thinking, the actions of forming critical thinking, stages and activities of critical thinking of students, methods of developing critical thinking.

Key words: critical thinking, technology, personal qualities, society, knowledge, skills, reflection, social production, conclusion, information.

PhD, dotsent, M.Qo'ldasheva taqrizi asosida

Kirish (Introduction). Hozirgi kunda barchamizga ma'lumki, zamonaviy jamiyat barkamol va faol shaxsni tarbiyalash talab qiladi. Aynan yakuniy natijaga erishish—shaxsni prizma orqali rivojlantirish orqali hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim modelini yaratish maqsadga erishishni kafolati hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish, bizning fikrimizcha, tabiiy fanlar darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llash, bu o'quvchilarining faol kognitiv faoliyatining zaruriy sharti hisoblanadi. Xususan, bolalarni uyg'otadigan nostonart, qiziqarli, ijodiy ishdan foydalanish asosida bilimga qiziqish va hissiy, ma'naviy va maktab o'quvchilarining intellektual rivojlanishini takomillashtiradi. Shunday texnologiyalardan biri o'quvchiga nafaqat ma'lum miqdordagi bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi, balki uning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga hissa qo'shami. Bu texnologiya tanqidiy fikrlashni shakllantirishdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muammosi bo'yicha bir nechta olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, bunga L.S.Vigotskiyning zona to'g'risidagi qoidalari asosida proksimal rivojlanish katta ta'sir ko'rsatgan, shuningdek, D.B.Elkonin va V.V.Davydov, Sh.A.Amonashvili va V.A.Suxomlinskiyning rivojlanish ta'limi g'oyalari haqidagi ta-limotlari kognitiv faoliyat, o'qituvchini inkor etish qobiliyati, bahslashish, o'z fikrlaringizni himoya qilish orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlashning shakllanishining individual jihatlari o'rganilgan. S.I.Veksler, A.S.Bayramov, A.I.Lipkina, V.M.Sinelnikovning asarlarida o'quvchilarining mustaqil ravishda tushunish qobiliyatini rivojlantirish masalasini tadqiq etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tanqidiy fikrlash nafaqat natija, balki, turmush tarzi, shuningdek, uning shakllanish omili ham hisoblanadi. Lekin jamiyat rivojlanishiga to'sqinlik qilishning sabablaridan biri shundaki, odamlarning katta qismi bu borada ongli ravishda ishtiroy etishga tayyor emas va jarayon, faktlar va voqealarni tanqidiy tushunishga qodir emas. Atrofdagi voqelik haqida ma'lumotdan ko'rish mumkinki, hamma narsaga yangi g'oyalarni kiritish jamiyat hayotining sohalari, konformizm va dogmatizmdan xoli bo'lish sanalishi bilan dolzarb ahamiyatga ega. Bunday xususiyatlarning mavjudligi yoki yo'qligi ma'lum darajada chora-taqdirlarga bog'liq bo'ladi.

Tanqidiy rivojlanish texnologiyasi elementlaridan foydalanadigan o'qituvchi o'quvchilarga, birinchi navbatda, quyidagi savollarni berishga o'rgatadi:

Bu haqda nima deb o'ylayman?

Yangi bilimlar ilgari olingen bilimlarga qanday mos keladi?

Yangi materialni o'rganganidan keyin boshqacha nima qilishim mumkin?

Yangi bilimlar, bizning fikrimizcha, qarorga qanday ta'sir qiladi?

Shu bilan birga, o'quvchilarga savolni shakllantirishni o'rgatish oson ish emas. O'qituvchi u har qanday tabiatdagi savollarni bilishi kerak, o'qituvchi bu yerda so'rashi mumkin. Bolaga beriladigan savol, qanday shakldan foydalanishga bog'liq ravishda bo'ladi. Buning uchun tanqidiy fikrlashdan foydalanish texnologiyasi va boshlang'ich sinf o'quvchisining ijodiy shaxsini rivojlantirishga qaratiladi [2].

Tanqidiy fikrlashning asosiy xususiyatlari quyidagi holatlarlarda ko'rindi:

—mustaqillik;

—ijtimoiy ishlab chiqarish;

- muammolarni hal etish uchun qaror qabul qilish;
- aniq argumentatsiya;
- o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash uslubining asosiy elementlarini bilish.

O‘quv materialida ishonchli harakat qilish qobiliyati shundaki, axborotning ishonchliligi darajasini baholashga imkon beradi. Shuningdek, muammolarni hal qilishning nostandard usullarining ochiqligi, konstruktiv muloqotga tayyorlik, o‘zini himoya qilish nuqtayi nazar va uni qayta ko‘rib chiqish, turli ko‘nikmalarini shakllantirish darajasining o‘z-o‘zini diagnostikasi va ko‘nikmalarni shakllanganligini ko‘rish mumkin (1-jadval).

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi bilan ishlash jarayonida shuni qayd etish lozimki, o‘quvchilarini birinchi darsdan tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, aslida, imkonsiz, tanqidiy fikrlash asta-sekin shakllantirib boriladi [3].

1-jadval

O‘quvchilarining tanqidiy fikrlash bosqichlari va faoliyati


| Tanqidiy fikrlash bosqichlar | O‘quvchilar faoliyati |
|--|--|
| Yangi bilan tanishish. Axborot. | Mavzuni o‘rganish, uning mohiyatini tushunish. |
| Turli fikrlarni o‘rganish u haqida qarashlar. | Bir nechta nuqtayi nazarlar bilan tanishish va ularni taq-qoslash. |
| Ushbu ma’lumot asosida o‘z nuqtai nazaringizni bering. | O‘zingizning xulosalariningizni chiqaring. |
| Dalillarni tanlash, o‘zingizni fikrlaringiz tasdiqlang. | O‘zingiz uchun dalillarni yozing, xulosalar chiqaring. |
| Dalillar bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash bilan qaror qabul qilish. | Fikringizni aniq tushuntiring. |

Bu darsdan darsga, yildan yilga o‘qituvchining kundalik mashaqqatli mehnati natijasi hisoblanadi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish bo‘yicha aniq algoritmni ajratib bo‘lmaydi. O‘quvchilarda o‘qituvchining harakatlari quyidagilarda ko‘rinadi:

- o‘quvchilarini tanqidiy fikrlashga undash va rag‘batlantirishda yaratilishi mumkin bo‘lgan muayyan shartlarni ajratish mumkin;
- muammo bilan tanishish uchun ma’lum vaqtini ajratish;
- mavjud qarashlar, ularni muhokama qilish, xulosalar chiqarish;
- fikrlashga ruxsat berish, taxminlarini yozib olish;
- ta’riflarlarning to‘g‘riligi yoki noto‘g‘riligi;
- ko‘p sonli turli xil fikrlarni kutish muhitini yaratish;
- o‘quvchilarini muhokamaga jalb qilish, ularning his-tuyg‘ularini shakllantirish;
- qabul qilingan qaror uchun javobgarlik;
- boshqalarining fikrlarini hurmat qilish va qadrlash qobiliyati [5].

Texnologiya elementlaridan foydalananidan dars tuzilishi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uch bosqichga ega: aktuallashtirish, xabardorlik, refleksiya. Ba’zi amaliyot o‘qituvchilari yana ikki bosqichni qo‘shadilar:

- ijobjiy muhitni shakllantirish (darsda qulay psixologik iqlimi yaratish);
- ta’limni asoslash (dars maqsadini belgilash) jarayonlari 1-rasmida ko‘rsatilgan.



1-rasm. Tanqidiy rivojlanish elementlari bilan dars tuzilishi sxemasi.


Aktuallashtirish bosqichida o‘qituvchi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiradi. Bunda o‘quvchilar (fikrlash, xotira, e’tibor, tasavvur, kommunikativ ko‘nikmalar), muammoli masalani belgilaydi, ular takliflar asosida dars maqsadini muhokama qilish orqali o‘z nomzodini tashkil qiladi.

Xabardorlik bosqichida axborot orqali (o‘qish, tinglash, tajribalar o‘tkazish) o‘quvchilar bevosita aloqada bo‘lishadi.

Fikrlash bosqichida o‘quvchilar o‘z fikrlarini aytadilar, o‘z g‘oyalarini almashish, yangi bilimlarni qayta ishlash, materialni eslab qolish orqali ifoda etadilar. Chunki ular buni tushunishadi, faol fikr almashdilar, so‘z boyligini yaxshilaydi va to‘ldiradi.

Tanqidiy fikrlash darsining asosiy bosqichlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Ijobiy muhit (qulay psixologik iqlimi yaratish) darsi.
2. Ta’limni asoslash (dars maqsadini belgilash, ichki rivojlanish, mavzuni va umuman, mavzuni o‘rganish uchun motivatsiya).
3. Aktuallashtirish (qiziqish, o‘rganishga e’tibor, darsning keyingi bosqichlari uchun zarur bo‘lgan bilimlarni takrorlash) [6].
4. Tarkibni anglash (yangi ma’lumotlar bilan tanishish, tahsil qilish, axborot, shaxsiy tushuncha).
5. Refleksiya (darsning muhim lahzasi):
 - o‘quvchilar yangi bilimlarni qayta ishlaydilar;
 - materialni eslash, chunki ular buni tushunishadi;
 - faol fikr almashish, so‘z boyligini takomillashtirish va to‘ldirish;
 - xulosalarning xilma-xilligini tashkil etish;
 - to‘g‘ri variantni tanlash.



1-chizma. Assotsiaativ guruh bilan ishlash shakli.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda universal strategiya va fanlararo aloqani qo‘llash samarali bo‘lib, bunday ta’lim quyidagi natijalarini olishga imkon beradi:

- bilimlarning turli sohalarida ishlash qobiliyati sifatida, o‘z shaxsini ifoda etish qobiliyati;
- fikrlar esa og‘zaki va yozma, boshqalarga nisbatan aniq va to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi;
- turli xil fikrlarni tushunish asosida shaxsiy nuqtayi nazarni shakllantirish;
- tajriba, g‘oyalar va muammolarni hal qilish;
- mustaqil ravishda mashq qilish;
- o‘z ta’limi bilan hamkorlik qilish va guruhda ishlash qobiliyatini shakllanishiga olib kelishi bilan izohlanadi.

Shuning uchun ham tanqidiy fikrlashning hayotiy zarurati aniq mahalliy ta’lim tizimi uchun fikrlashga olib keladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa chiqarish mumkin:

- birinchidan, tanqidiy fikrlash rivojlantirish tabiiy fanni o‘qitish didaktikasi uchun juda yangi, biz tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi haqida faqatgina oxirgi o‘n yilliklarda o‘rganila boshlandi;
- ikkinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda ularda bir vaqtning o‘zida va samaraliroq qarorlarni shakllantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. “O‘zbekiston”. Toshkent, 2022, 212-bet.
- (2). D.Muminova, M.Qo‘ldasheva, S.Tursunov, S.Jurayeva. Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar. Darslik, 2023, 178-bet.
- (3). Грудзинская Е.Ю. Педагогическая технология «Развитие критического мышления через чтение и письмо» в подготовке специалистов: Вестник ННГУ, выпуск 1(6), 2005, с. 181 – 188.
- (4). Колганова Н.Е. Сущностные характеристики формирования основ читательской компетентности младших школьников. Теория и практика образования в современном мире. Материалы международной науч. конф., СПб, “Реноме”, 2012, с. 5 – 8.
- (5). Орлова Э.А. Рекомендации по повышению уровня развития читательской компетентности в рамках Национальной программы поддержки и развития чтения. Пособие для работников образовательных учреждений, М., 2008, с. 72.
- (6). <http://testolog.narod.ru/Other15.html>

Payzibayeva Muazzam Yakubovna (Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOY KOMPETENSIYALARНИ SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda olib borilayotgan ta’limni modernizatsiya qilish, optimallashtirish jarayonlari, o‘z navbatida, bola shaxsining moslashuvchanlik qobiliyatini shakllantirish usullari va metodikasi, sinfdan tashqari ishlar turli yoshdagi va ijtimoiy guruhlardagi o‘quvchilarini faoliyatga kiritish masalalari, qo‘shma ijodiy faoliyat asosiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari, boshlang‘ich sind o‘quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda ta’lim texnologiyalaridan foydalish usullari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, ijtimoiylashuv, texnologiya, metod, tarbiya, shaxs, so‘rov metodi, shaxsiy fazilat.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В данной статье освещаются процессы модернизации, оптимизации образования в Узбекистане, в свою очередь, методы и методики формирования адаптивных способностей личности ребенка, вопросы внедрения внеклассной работы в деятельность учащихся разных возрастных и социальных групп, вопросы формирования основных компетенций совместной творческой деятельности, способы использования образовательных технологий в формировании социальных компетенций у учащихся начальных классов.

Ключевые слова: компетентность, социальная компетентность, социализация, технология, метод, воспитание, личность, метод опроса, личностные качества.

THE USE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF SOCIAL COMPETENCIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. In this article, the processes of modernization, optimization of education carried out in Uzbekistan in turn are covered by methods and methodology for the formation of the adaptive abilities of the child’s personality, extracurricular activities issues of inclusion of students of different ages and social groups in activities, issues of formation of basic competencies of joint creative activity, methods of using educational technologies.

Key words: competence, social competence, socialization, technology, method, upbringing, personality, survey method, personal virtue. method, upbringing, personality, survey method, personal virtue.

PhD, dotsent, M.Qo‘ldasheva taqrizi asosida

Kirish (Introduction). Hozirgi davr tarbiya darslarida ijtimoiy-psixologik kompetensiya nafaqat maktab o‘quvchilarini tomonian fan imtihonlarini topshirish jarayonida, shu bilan birga, jamiyat hayotida samarali moslashish imkonini beradigan shaxsiy fazilatlarini shakllantirish maqsadida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda olib borilayotgan ta’limni modernizatsiya qilish, optimallashtirish jarayonlari, o‘z navbatida, bola shaxsining moslashuvchanlik qobiliyatini shakllantirish usullari va metodikasini topishga va uni ijtimoiy kompetensiya bilan ta’minalashga olib boradi.

Umumta’lim maktablari ishi o‘quv jarayonida va maktabdan tashqari mashg‘ulotlar orqali boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining ijtimoiy kompetensiyasining shakllantirishga asoslangan. Xususan, “Ijtimoiy kompetensiya” tushunchasi biz kundalik hayotiy vaziyatlarda harakat qilish, o‘ziga xos ijtimoiy qadriyatlar va rivojlangan shaxsiy yo‘nalishlarga tayanib, orttirilgan ko‘nikma va malakalardan foydalangan holda paydo bo‘ladigan odatiyi va nostandart muammolarni hal qilish qobiliyatini aniqlanadi.


Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Buyuk faylasuf olim Demokrit (milod-dan avvalgi 460–370-yillar) ilk bor tarbiyaning tabiiy muvofiqligi masalasini ilgari surgan. Tarbiyada mehnatning ulkan o‘rnini ko‘rsatib o‘tgan. Faylasuf “Otaning xayrixohligi – bolalarga eng yaxshi ko‘rsatma” mavzusidagi risolada inson shaxsiyatining shakllanishi uning tabiatini va tarbiyasiga bog‘liq bo‘lishi va tarbiya muhiti, kattalar namunasi muhim o‘rin egallashini ta’kidlaydi. XX asrning 90-yillarning boshlarida Aleksey Aleksandrovich Bodalev, Zoya Alekseyevna Malkova, Lidiya Ivanovna Novikova va boshqalar boshchiligidagi olimlar jamoasi zamonaviy dunyoda o‘quvchi yoshlarni tarbiyalash konsepsiyasini tavsiya etishdi. U o‘qituvchilarni gumanistik ta’limga, shaxs bilan ijtimoiy o‘zaro munosabatlarga yo‘naltirilgan. O‘zbek padagogi J.Yo‘ldoshev tomonidan zamonaviy o‘zbek oilalarida o‘smir bolalar shaxsining shakllanishi bo‘yicha o‘zining fikr-mulohazalarini bildirb o‘tgan [4].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Umumta’lim maktablarining tarbiyaviy ishlari jamoaning o‘quvchilarga shaxsning axloq shakllanishida har tomonlama yordam berishga bo‘lgan asosiy intilishlarini o‘zida mujassam etgan an’analar tizimiga asoslanadi [1]. Shuningdek, sinfdan tashqari ishlar turli yoshdagi va ijtimoiy guruhlardagi o‘quvchilarni faoliyatga kiritishni o‘z ichga oladi. Faoliyatning asosiy prinsipi demokratiya va hamkorlikda ishslash hisoblanadi.

Qo‘shma ijodiy faoliyat asosiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi:

- aloqa;
- axborot;
- shaxsiy;
- ijtimoiy-siyosiy [3].

Natijada quydagilar shakllanadi (1-rasm).



1-rasm. O‘quvchi shaxsini ijtimoiylashtirish.

O‘quvchi shaxsini ijtimoiylashtirishda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati katta ahamiyatga ega. Mazkur ma’naviy va ahloqiy nuqtayi nazardan bolani shaxs sifatida shakllantirishda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini umumta’lim maktablaridagi kelajakdagi o‘quv va mehnat faoliyati uchun muhim sanalgan hamma narsalar bilan ta’minlashga imkon beradi.

So‘rov metodlari. Tarbiya darslarida uchta taniqli so‘rov metodlaridan foydalilanildi: suhbat, so‘rov-noma, intervju.

Suhbat metodi bu o‘qituvchining o‘quvchi yoki o‘quvchilar guruhi bilan avvaldan tayyorlangan bir nechta dastur bo‘yicha suhbat kiradi. Smenaning birinchi kunida har bir o‘quvchi bilan individual tarzda suhbat o‘tkazish muhimligini alohida ta’kidlash joiz. Aksariyat hollarda suhbat mavzusi o‘quvchiga tushunarli va aniq maslahatchining bola bilan shaxsiy fazilatlarini anuqlash asosida tanishishi maqsadga muvoifiq. Bolaning o‘zi, uning oilasi, ota-onasi bilan sevimli mashg‘ulotlari dunyosi haqida ma’lumot olish va yozib olish kerak bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda pedagogik kundalik sinfda guruh o‘quvchilar haqidagi

ma'lumotlar bilan to'ldirishning rasmiy jihatdan zaruratga aylanganligi maslahatchining har bir bola bilan individual tarzda ilk bor ishonchli suhbat uchun samarali omilga aylanadi.

Bu esa, boshqa tomondan, psixologik nuqtayi nazardan, muhim bir lahma hisoblanadi. Masalan, o'quvchi uydan kelganida, ko'pincha, oiladagi yagona farzand sifatida yangi jamoaga kirib, mактабда bezovtalikni his qiladi. Chunki uning hayolida g'oyib bo'lgan va unga hech kim e'tibor qaratmayotgan va uni sezmayotgандек tuyuladi. Bunday holatda "tashabbuskor" maslahatchi yordamida so'rovnomalar qurilishi asosida ma'lumot to'plash vazifasini osonlashtiradi [5].

Boshqasi esa tibbiy kartadagi ma'lumotlarning bir qismini qaytadan yozadi (buni qilmashlik kerak). Pedagog bolalarda ishonchli munosabatlarni o'rnatish uchun boshlang'ich qadam hisoblangan o'quvchiga shaxsiy e'tiborni jalb etish imkoniyatini qo'ldan boy berib qo'yadi. Agar bola o'z hikoyasida biror narsani orzu qilsa ham, unga ijobjiy, tahliliy munosabatda bo'lish kerak. Boshqa tomondan esa sira tashvishlanmaslik kerak, sababi bola o'zini o'zidan ancha yaxshi biladi va ijodiy tarzda chizadi. Pedagog sifatida o'quvchiga ishonaylik, ehtimol, u yaxshiroq bo'lishni xohlashi mumkin. Agar o'qituvchi (o'zingiz va hamkasblaringiz uchun) bolalar, suhbat davomida qilgan kuzatishlari to'g'risida eslatma yozsa, bu oqilonha yo'l hisoblanadi. Natijada suhbatning o'zi bola haqida juda ko'p ma'lumot beradi: savollarga qanday javob beradi? Bo'shashgan? Yopiq? Aniq "xayol"? Kattalar bilan osongina aloqa qiladimi? Aralashtirish kerakmi? Qo'-polmi? Yaxshi ko'rinishni xohlaysizmi? Nutq rivojlanganmi? Qiyinchilik bilan so'zlarni tanlaydi va boshqalar.

Suhbat metodi orqali o'qituvchi tomonidan ota-onalar (o'qituvchilar) bilan muhokama qilish natijasida bolaning rivojlanish xususiyatlari to'g'risida ma'lumot olish mumkin bo'ladi. Ko'pincha, so'rov doirasida suhbatning tashabbuskorlari ota-onalar yoki o'qituvchilarning o'zlar bo'lib, maslahat uchun o'qituvchiga murojaat qilishadi [6]. Suhbatning maqsadi – bolaning rivojlanishi to'g'risida fikr almashish, ota-onalar va o'qituvchilar uni tarbiyalash va o'qitish jarayonida duch keladigan muammolarning mohiyati, darajasi va mumkin bo'lgan sabablarini muhokama qilish. Suhbat natijalariga ko'ra, o'qituvchi bolani keyingi tekshirish yo'llarini belgilab oladi.

Intervyu ko'rinishidagi so'rov texnologiyasi eng qadimgi diagnostika usullaridan biribो'lib, u ilmiygacha, hech kimga yo'naltirilmagan suhbat asosida rivojlanib, takomillashib boradi. Undan, biringchi navbatda, diagnostika maqsadini aniqlash uchun, suhbatni o'tkazish uchun ham muhim bo'lgan avval o'tkazilgan suhbatni rejalashtirish bosqichi asosida farqlarga ajratiladi [4]. Xususan, kuzatish davomida xatti-harakatlar qayd etiladi va shu asosda shaxsning manfaatlari, baholari, nuqtayi nazari to'g'risida xulosa chiqarish mumkin bo'ladi. Ko'p hollarda, suhbat va so'rovnomalar qilishda fikrlar, pozitsiyalar ma'lumotlarni to'plash va shakllantirish mumkin.

Obyektiv ma'lumotlar yoki subyektiv pozitsiyalar haqida ma'lumot olishda esa yozma so'rov-anketalardan foydalanimadi. O'qituvchi o'z sinfiga anketalardan foydalanshi mumkin, masalan, agar u o'quvchilarning ayrim ta'lim vositalari va choralariga munosabatini aniqlamoqchi bo'lsa. Bunday holatda, u anonim javoblar bilan anketaga murojaat qilishi va o'zining tahlillarini keltirishi mumkin bo'ladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). So'rov usullarini tasniflash, ko'pincha, quyidagi xususiyatlarga muvofiq tarzda amalga oshiriladi:

- ma'lumot to'plashda og'zaki yoki yozma shakllar;
- standartlashtirish darajasi asosida individual yoki guruhli tarzda ma'lumot to'plash;
- so'rov metodlaridan bir yoki bir nechta marotaba foydalanshi.

Intervyu metodi yordamida ma'lum bir ilmiy maqsadga ega bo'lgan tizimli harakatlar olib boriladi. Bunda asosan mavzu bo'yicha bir qator maqsadli savollar yoki og'zaki stimullar yordamida og'zaki ma'lumotlarni yetkazish uchun yo'naltirilish kerak bo'ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Pedagogik diagnostikaning ishonchliligi bir necha marta qilingan tahliliy xulosalar natijasining bir xilligi qayd etilgan hollardagina ta'minlanadi. Agar buni muayyan mактаб, sinfining hayotiy faoliyati bilan bog'lasak, mabodo o'qituvchi ishini oradan bir necha vaqt o'tib, aynan shunday baholasa, ishonchlilik paydo bo'ladi, lekin bunday hol afsuski amaliyotda kam uchramoqda.

Tajriba tahlillari shuni ko'rsatadiki, pedagogik diagnostika test usullari vositasida amalga oshirilsa, natijalar haqqoniy bo'ladi. Chunki bunda to'rt xil xulosa bir xil natija bilan baholanadi. Bular:

- mazmunning tasdig'i;
- har xil usul bilan olingan natijalaninshning bir xilligi;
- natijalarga ko'ra, amalga oshirilgan tahlillarning isbotlanishi;
- loyihalashning tasdiqlanishi, ya'ni loyihalashirishdagi natijalarning olingan xulosalarga uyg'unligi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.
- (2). Mavlonova A., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma, T., “Fan”, 2008.
- (3). Mavlonova R.A., To‘rayev O.T., Xasanboyeva O., Xoliqberdiyev K.M. Pedagogika. T., “O‘qituvchi”, 1998.
- (4). Payzibayeva M. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani. Darslik, Namangan, 2022, 48–51-betlar.
- (5). Mirkosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. “O‘qituvchi”, 1996.
- (6). Shodmonova Sh., Tilobova N. “Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti” o‘quv predmetidan ta’lim texnologiyasi. T., TDIU, 2006.

Masodiqova Zulfiyaxon Hamdamovna (QDPI Xorijiy tillar fakulteti katta o‘qituvchisi) OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA NEMIS TILINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. O‘quv jarayoni juda keng va ko‘p qirrali. Ta’lim tamoyillari tanlangan yo‘nalish asosida shakllanadigan va ushbu yo‘nalishga mos keladigan o‘quv jarayonining mohiyatini belgilaydigan asosiy qoidalar hisoblanadi. Talabalar chet tillarini o‘qitishning pedagogik tamoyillari va usullarini, jumladan, darsni loyihaflash, sinfini boshqarish, o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilar faoliyatini baholashni o‘rganadilar.

Kalit so‘zlar: integratsiya, texnologiya, immersive, metodologiya, strategiya, platforma.

МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА В ВУЗАХ

Аннотация. Образовательный процесс очень широк и многогранен. Принципы образования – это основные правила, которые формируются на основе выбранного направления и определяют сущность образовательного процесса, соответствующего этому направлению. Студенты изучают педагогические принципы и методы преподавания иностранных языков, включая планирование уроков, управление классом, использование современных технологий в обучении и оценку успеваемости учащихся.

Ключевые слова: интеграция, технология, иммерсив, методология, стратегия, платформа.

MECHANISMS FOR ENSURING EFFICIENCY OF GERMAN LANGUAGE TEACHING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation. The educational process is very wide and multifaceted. The principles of education are the main rules that are formed on the basis of the chosen direction and determine the essence of the educational process corresponding to this direction. Students learn pedagogical principles and methods of teaching foreign languages, including lesson design, classroom management, use of modern technologies in teaching, and assessment of student performance.

Key words: integration, technology, immersive, methodology, strategy, platform.

Kirish. Oliy ta’limda nemis tilini o‘rganishni kuchaytirish uchun chet elda o‘qish dasturlari, interaktiv darslar uchun texnologiyani integratsiyalash, til almashish bo‘yicha hamkorlikni rag‘batlantirish va talabalarni qiziqtirish uchun madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan kontentni taqdim etish kabi immersiv tajribalarni o‘rnatishni ko‘rib chiqish muhim sanaladi. Shuningdek, talabalar nemis tili va madaniyatining madaniy jihatlarini, jumladan, Germaniya va boshqa nemis tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar tarixi, adabiyoti, san’ati, urf-odatlari va an’alarini o‘rganadilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Turli tilshunos olimlar tilni o‘zlashtirish va chet tilini o‘qitish metodologiyasini tushunishga hissa qo‘shtigan. Ba’zi diqqatga sazovor shaxslar orasida tilni o‘zlashtirish uchun tushunarli kiritish muhimligini ta’kidlab, kirish gipotezasini taqdim etgan Stiven Krashen kiradi. Noam Xomskiyning “Universal grammatika” ishi til o‘qitish nazariyalariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Amaliy tilshunoslikda Rod Ellis kabi tadqiqotchilar tilni vazifaga asoslangan o‘qitishga e’tibor qaratgan bo‘lsa, Maykl Long tilni o‘zlashtirishda o‘zaro ta’sirning rolini tushunishga hissa qo‘shtigan. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu soha ko‘plab olimlarni o‘z ichiga oladi, ularning har biri tilni o‘zlashtirish va o‘qitish metodologiyasining turli jihatlariga hissa qo‘sadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Xorijiy metodologlar chet tilini o‘qitishda lingvistik, psixologik va didaktik omillarning muhimligini ta’kidlaydilar. Oliy ta’lim muassasalarida nemis tilini o‘qitish samaradorligini quyidagilar orqali ta’minalash mumkin:

1. Kommunikativ yondashuv. Interaktiv ta’limga urg‘u berish, o‘quvchilarni nemis tilidan real hayotda faol foydalanishga undash.

2. Zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi. Ishtirok etishni kuchaytirish va turli xil o‘quv materiallarini taqdim etish uchun raqamli vositalar, onlayn resurslar va til o‘rganish ilovalarini qo‘sish.

3. Madaniy immersion. Til o‘rganishni kontekstli va qiziqarli qilish uchun o‘quv dasturiga madaniy elementlarni integratsiyalash.

4. Kichik sinf o‘lchamlari. Shaxsiy e’tiborni yengillashtirish va qulay o‘quv muhitini yaratish uchun kichikroq sinflarga ajratish.

5. Muntazam baholashlar. Taraqqiyotni kuzatish va o‘qitishni individual ehtiyojlarga moslashtirish uchun izchil va xilma-xil baholashlarni amalga oshirish.

6. Kasbiy rivojlanish. O‘qituvchilarning samarali o‘qitish usullari va lingvistik tendensiyalardan xabardon bo‘lishlari uchun doimiy treninglarni qo‘llab-quvvatlash.

7. Til almashinuv dasturlari. Talabalarga almashuv dasturlari yoki virtual platformalar orqali nemis tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatlarini osonlashtirish.

8. Vazifaga asoslangan ta’lim. Haqiqiy dunyo tillaridan foydalanishni taqlid qilish va amaliy til ko‘nikmalarini oshirish uchun amaliy vazifalar atrofida darslarni loyihalash.

9. Hamkorlikda o‘rganish. Jamoaviylik tuyg‘usini va umumiy til o‘rganish maqsadlarini rivojlantirish uchun guruh faoliyatini, loyihalarni va tengdoshlar bilan hamkorlikni rag‘batlantirish.

10. Qayta aloqa mexanizmlari. Talabalarning fikr-mulohazalari uchun aniq kanallarni o‘rnating, bu esa o‘qituvchilarga o‘quvchilar tajribasi asosida o‘qitish usullarini moslashtirish va takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu strategiyalarni birlashtirish nemis tilini o‘qitishga yaxlit yondashuvni yaratish, olyi ta’lim muassasalarida samaradorlik va samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Endi esa fikrimiz isboti sifatida yuqorida keltirilgan omillarning nemis tilini o‘qitishdagi najilariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Kommunikativ yondashuv nemis tilini o‘rganishda samarali deb hisoblanadi. Ertalab yodlashdan ko‘ra real hayotdagi muloqotni ta’kidlab, o‘quvchilarni suhbatlarda, rol o‘ynashda va amaliy ssenariylarda faol ishtirot etishga undaydi. Ushbu usul nutq va tinglash qobiliyatlarini oshiradi, kontekstni tushunishni targ‘ib qiladi va o‘quvchilarni haqiqiy vaziyatlarda nemis tilidan foydalanishga undaydi. Muloqotga e’tibor, shuningdek, madaniy ongni rivojlantiradi, til o‘rganish jarayonini yanada dinamik, mazmunli va talabalar uchun qiziqarli qiladi.

Madaniy immersion nemis tilini o‘rganish uchun juda samarali, chunki u yaxlit yondashuvni ta’mindaydi. Kundalik hayotni boshdan kechirish, suhbatlarda qatnashish va madaniy tadbirlarda qatnashish tilni tushunishni chuqurlashtiradi. Bu talaffuz, kontekstual foydalanish va madaniy nuanslarni yaxshilaydi, tilni yanada tabiiy va intuitiv tushunishga yordam beradi. Immersiv tajribalar, shuningdek, o‘ziga ishonch va motivatsiyani oshiradi, an’naviy sinf sozlamalaridan tashqariga chiqadigan dinamik va interaktiv o‘quv muhitini yaratadi.

Til o‘rganish ilovalari, onlayn resurslar va interaktiv platformalar kabi zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash nemis tilini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu vositalar individual ta’lim uslublariga mos keladigan shaxsiylashtirilgan o‘rganish tajribasi, moslashuvchan baholash va real vaqtida fikr-mulohazalarni taklif qiladi. Virtual haqiqat va immersiv simulatsiyalar amaliy til ko‘nikmalarini oshirib, haqiqiy til muhitini yaratishi mumkin.

Til almashinuv dasturlari nemis tilini o‘rganish uchun juda samarali, chunki ular ona tilida so‘zlashuvchilar bilan suhbat orqali haqiqiy til amaliyotini ta’mindaydi. Til almashinuvida qatnashish nutq va tinglash qibiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi, madaniy tushunishni oshiradi va tildan foydalanish uchun real hayot kontekstini ta’mindaydi. Ushbu interfaol yondashuv qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratadi va muloqotga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Vazifaga asoslangan o‘rganish nemis tilini o‘zlashtirish uchun samaralidir, chunki u nazariy bilimlardan amaliy foydalanishga urg‘u beradi. Haqiqiy hayotiy vaziyatlar bilan bog‘liq mazmunli vazifalarni belgilash orqali o‘quvchilarni kontekstda tildan foydalanishga undaydi. Ushbu yondashuv muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshiradi, hamkorlikni rivojlantiradi va nemis tilida muloqotni rag‘batlantiradi. Vazifalar sayohatni rejalashtirish, muammoni hal qilish yoki loyiha yaratish kabi harakatlarni o‘z ichiga olishi mumkin – barchasi tildan foydalanishni talab qiladi. Vazifalarga e’tibor qaratish til o‘rganish maqsadli, qiziqarli va kundalik vaziyatlarda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga bevosita taalluqli bo‘lishini ta’mindaydi.

Birgalikda o‘rganish nemis tilini o‘rganish uchun juda samarali, chunki u o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro ta’sir, muloqot va muammolarni birgalikda hal qilishga yordam beradi. Guruh faoliyati, munozaralar va loyihamalar orqali talabalar ijtimoiy kontekstda nemis tilini mashq qilishlari, nutq va tinglash qibiliyatlarini oshirishlari mumkin. Hamkorlik, shuningdek, o‘quvchilar tushunchalarini almashishlari, bir-birlarini to‘g‘rilashlari va turli nuqtai nazarlardan o‘rganishlari mumkin bo‘lgan qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratadi. Fikr-mulohaza almashish mexanizmlari nemis tilini o‘rganish samaradorligi uchun juda muhimdir. O‘z vaqtida va konstruktiv fikr-mulohazalar o‘quvchilarga o‘zlarining kuchli tomonlarini va yaxshilash sohalarini tushunishga yordam beradi. Talaffuz, grammatika va lug‘atdan foydalanish bo‘yicha aniq fikr-muloha-

zalar maqsadli ko‘nikmalarни rivojlantirishga imkon beradi. Muntazam baholash va fikr-mulohazalar ham o‘quvchilarni rag‘batlantiradi, muvaffaqiyat hissini beradi.

Xulosa. Tilshunoslar amaliy tilshunoslik sohasi orqali chet tillarini qanday samarali o‘rgatish kerakligini tushunishga katta hissa qo‘shadilar. Ushbu sohadagi tadqiqotchilar tilni o‘zlashtirish nazariyalari, kognitiv jarayonlar va samarali o‘qitish metodologiyasini o‘rganadilar. Ular til kiritish, chiqish va turli ko‘nikmalarning o‘zaro ta’siri kabi jihatlarni o‘rganadilar. Lingvistik ma’lumotga ega o‘qitish amaliyoti o‘qtuvchilarga o‘z usullarini tilni o‘zlashtirishda ishtirot etadigan kognitiv jarayonlarga moslashtirishga yordam beradi, bu esa chet tilini o‘qitishni yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Лийметс Х.И. Групповая работа на уроке. М., “Наука”, 1975, 78–104 с.
- (2). Grammatikspiele Deutsch (DaF) herausgegeben von Mario Rinvoluci und Paul Davis Ernst Klett Verlag GmbH, Stuttgart, 2000.
- (3). Brettspiele DaF herausgegeben von Anita Pfau und Ann Schmid. Auflage Ernst Klett Verlag GmbH, Stuttgart, 2001.

**Toshmurodov Otobek Erkinovich (Samarqand davlat universiteti “Sport faoliyati” kafedrasi mudiri,
dotsent; email: otoshmurodov74@mail.ru)**

YOSH KURASHCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI O‘RGANISHDA SO‘ROVNOMA USULINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada kurash murabbiylari o‘rtasida sport matablarida sport mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish masalalari bo‘yicha hali ham yakdil fikrda emasligi, shu sababli sport murabbiylarini tayyorlash tizimini ham yanada takomillashtirish kerakligi haqida fikirlar berilgan. Tadqiqot natijalari kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi muammosi bilan bog‘liq bir qator muhim masalalarni aniqlashga imkon bergan, shu bilan bir qatorda, yosh kurashchilarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligini ta’minlashda jismoniy sifatlarning ahamiyati katta ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tayyorgarlik, sport mashg‘ulotlari, tezkor-kuch tayyorgarligi, jismoniy sifatlar.

ЗНАЧЕНИЕ АНКЕТНОГО МЕТОДА В ИЗУЧЕНИИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ БОРЦОВ

Аннотация. В статье выявлено, что среди тренеров по борьбе до сих пор нет единого мнения по вопросам организации и проведения спортивных тренировок в спортивных школах, в связи с чем необходимо дальнейшее совершенствование системы подготовки спортивных тренеров. Результаты исследования позволили выявить ряд важных вопросов, связанных с проблемой физической подготовленности борцов, а также раскрыто большое значение физических качеств в обеспечении всесторонней физической подготовленности юных борцов.

Ключевые слова: физическая подготовленность, спортивная тренировка, скоростно-силовая подготовка, физические качества.

THE IMPORTANCE OF THE QUESTIONNAIRE METHOD IN STUDYING THE PHYSICAL FITNESS OF YOUNG WRESTLERS

Annotation. The article reveals that there is still no consensus among wrestling coaches on the organization and conduct of sports training in sports schools, and therefore further improvement of the training system for sports coaches is necessary. The results of the study made it possible to identify a number of important issues related to the problem of physical fitness of wrestlers, as well as to identify the great importance of physical qualities in ensuring comprehensive physical fitness of young wrestlers.

Key words: physical fitness, sports training, speed and strength training, physical qualities.

Taqrizchi PhD, dotsent Donyor Mamaziyatov

Kirish. Yosh kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish maxsus tashkil etilgan sport mashg‘ulotlarida amalga oshiriladi. Sport mashg‘ulotlari belgilangan tartibda tasdiqlangan va sport turi bo‘yicha tegishli sport o‘quv guruhi uchun mo‘ljallangan o‘quv dasturlari va yillik o‘quv rejasi bo‘yicha o‘tkaziladi hamda sport murabbiylar tomonidan amalga oshiriladi.

Tadqiqotning maqsadi jismoniy sifatlarni, xususan, yosh kurashchilarning tezkor-kuch tayyorgarligini o‘rganish uchun so‘rovnoma o‘tkazish hisoblanadi. Bilamizki, so‘rovnoma tadqiqotning universal usulli hisoblanadi, chunki u ko‘plab respondentlarni qamrab olishga, shu bilan birga, juda keng ko‘lamli masalalarni ko‘rib chiqishga va umumlashtirishga imkon beradi.¹

¹ Kerimov F.A. Sportda ilmiy tadqiqotlar. Ilmiy-texnik axboroti-pres nashriyoti, 2021, 58-bet.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kurashchining jismoniy tayyorgarligi sport mashg‘ulotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va jismoniy sifatlar – kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaq-qonlik va tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jarayondir.¹

Kuch sifati va uning turlari (maksimal, tezkor-kuch, kuch chidamkorligi, dinamik, statik kuch va hokazo) har bir sport turida, shu jumladan, kurash turlarida o‘ziga xos yo‘nalishda ijro etiladigan texnik-taktik harakatlarni “harakatga” keltiruvchi va ularni foydali natija bilan yakunlanishiga imkon yaratuvchi ustuvor manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda kuch va kuch turlarining mexanikasi, fiziologik va bioenergetik asoslari, ularni o‘zga jismoniy sifatlar hamda texnik-taktik usullar bilan uzviy bog‘liqligi, kuch sifatlarini rivojlantirish metodlari, vositalari, nazorat qilish va baholash masalalari aksariyat sport turlarida ochib berilgan. Ushbu masalalar, shu jumladan kuch sifatlarini kurash turlarining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab, ayniqsa, qo‘llaniladigan texnik usullar koordinatsiyasi va musobaqa olishuvlari da-vomida shu qobiliyatini saqlab qolish imkoniyatini yaratuvchi mashqlar yordamida tarbiyalash hamda obyektiv baholash muammolari qator tadqiqotlar asosida o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tanlangan ilmiy tadqiqot mavzusini o‘rganish maqsadida kurash murabbiylar o‘rtasida so‘rovnama o‘tkazildi. So‘rovnama Samarqand viloyatidagi Sportning yakka kurashi bo‘yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi, 2 ta olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazining 41 nafar kurash murabbiylari o‘rtasida o‘tkazildi. So‘rovnomada oliv ma’lumotli, 3 yildan ortiq tajribaga ega bo‘lgan murabbiylar ishtirok etdilar.

Jismoniy tarbiya va sport o‘zining muhim va qiziqarli xususiyatlariga ega, ammo deyarli hamma uchun (ushbu sohadagi mutaxassislardan tashqari) bu tanish, tushunarli, hatto oson ishdek tuyuladi. Inson jismoniy tarbiya va sport bilan nazariy va amaliy jihatdan qancha kam tanish bo‘lsa, bu unga shuncha oson-roq va aniqroqdek ko‘rinadi. Ko‘pchilik tarbiya jarayoni katta sabr-toqatni talab qilishini tan olishadi, ba-zilar esa buning uchun maxsus bilim kerak, deb o‘ylashadi.² Aslida, murabbiyining ishi, faoliyati oson emas, shu jumladan, kurash murabbiyining ham. Yuqoridagi fikirlardan kelib chiqib, respondentlarga quyidagi savol bilan murojaat qildik. Murabbiylik faoliyatida sizni nima o‘ziga jalb qiladi? So‘rovnama natijalariga ko‘ra, 88% respondentlar bolalarni yaxshi ko‘rishi va bilim berishga bo‘lgan qiziqish o‘ziga jalb qiladi, degan fikrini bildirishdi.

Tahlil va natijalar. “Agar sizga qayta kasb tanlash imkonini berilsa, tanlovingizni takrorlaysizmi?” degan savolga 27% respondentlar noaniq javob berdi, ammo 73% respondent o‘z kasblarini qayta tanlashga ijobjiy munosabat bildirishdi.

Kurash murabbiy o‘zining ish faoliyatida sifat va samaradorlikka erishish uchun ko‘p qirrali va murakkab yo‘lni bosib o‘tishi kerak bo‘ladi. Yuqoridagi javobdan ushbu kasbning murakkabligiga qaramasdan, respondentlarning aksariyati o‘z kasblari, ya’ni kurash murabbiyi sifatidagi ishlaridan juda ham mamnunligini ko‘rish mumkin.

Ushbu mavzuni davom ettirib, so‘rovnomaning keyingi “Sizning fikringizcha kurash murabbiyi qanday bo‘lishi kerak?” degan savoliga 30% respondent “ota-onalar bilan ishonchli aloqalarni va munosabatlarni o‘rnatishga qodir bo‘lishi kerak” degan javobni berdilar. Yana 30% respondent esa “kurash usullari texnikasi va taktikasi bo‘yicha bilimdon bo‘lishi kerak” degan javobni berishdi. 16% respondent “katta jismoniy salohiyatga ega bo‘lishi kerak” degan bo‘lsa, 14% respondent “chuqur nazariy bilimlarga ega bo‘lishi kerak” degan javob berishdi. 10% respondent esa “musobaqalarda hakamlik qila olishi kerak” degan javobni berishdi. Respondentlarning fikrlari bunchalik farq qilishidan, murabbiylik kasbi juda ko‘p qirrali ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Navbatdagi savolga olingan javob shuni ko‘rsatdiki, so‘rovnomada ishtirok etgan 32% soha mutaxassislari 2 marta (mashg‘ulot yilining boshida va oxirida) yosh kurashchilarining jismoniy tayyorgarligini sinovdan o‘tkazishni maqsadga muvofiq deb hisoblashadi. 30% mutaxassislar bir yil davomida yosh kurashchilarining jismoniy tayyorgarligi darajasini 3 marta nazorat qilishni zarur deb hisoblaydi. So‘rovnomada qatnashgan yana 28% mutaxassis kurashchilarining jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish zaruratga qarab amalga oshirilishi kerak, umuman olganda, bu jarayonda hech qanday chegara va cheklolar bo‘lmassisligi kerak, deb hisoblashadi. 10% respondent esa yosh kurashchilarni sinovdan o‘tkazish umuman zarur emas, deb hisoblaydilar. Biroq keyingi savolga 75% respondentlar jismoniy sifatlarni testlash yosh kurashchilarining jismoniy rivojlanishiga yordam beradi, shuningdek, sport maktablari shug‘ullanuvchilarini yoshiba xos jismoniy rivojlanish meyorlariga (kerakli darajada) yo‘naltiradi deb javob berishdi. Bu esa ko‘p jihatdan bolalarning sog‘lig‘i va o‘zini qanday his qilayotganligiga bog‘liq.

¹ Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. ЎзДЖТИ нашриёт-матбоба бўлими, 2005, 90-бет.

² Девятко И.Ф. Методы социологического исследования. М., “Университет”, 2002, 169 с.

So‘rovnomaning “Siz mashg‘ulotlaringizda shug‘ullanuvchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlanuvchilardan foydalanasizmi?” degan savolga 100% respondent ijobil javob berishdi. Biroq, keyinagi “Yosh kurashchilarni tezkor-kuch tayyorgarligida yetakchi ahamiyatga ega bo‘lgan jismoniy sifatlarni muhimligi tartibiga ko‘ra raqamlab chiqing”, degan savolga, ko‘pgina respondent qoniqarli javob bera olishmadi. Ko‘rinib turibdiki, aksariyat murabbiylar ushbu savol bo‘yicha yetarli darajada nazariy bilimlariga ega emaslar.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, biz so‘rovnomada shakli, vazifasi va mazmuni jihatidan har xil bo‘lgan savollardan foydalandik. Jumladan, quyidagi tuzoq savoldan ham foydalandik: “Siz X.Kafiyevning “Mashg‘ulot jarayonida kurashchilarni tezkor-kuch tayyorgarligi muammolari” deb nomlangan ilmiy ishi bilan tanishmisiz?” (aslida, bu ish mavjud emas). Ushbu savolga javob berishda respondentlarning fikrlari 60%ga, 40%ga bo‘lindi. Demografik qismdan foydalanib, biz 10 yil va undan ortiq ish stajiga ega tajribali murabbiylar 28 kishi ekanligini, bu 68,2%ni tashkil etishini aniqladik, ular ushbu ilmiy ish bilan tanish emasliklarini to‘g‘i tan olishdi. Ish tajribasi 5 yildan oshmaydigan 31,8% yosh murabbiylar nazariy bilim darajasini bezashga qaror qilib tuzoq savolga “ha” deb javob berishdi. Keyin “tuzoqqa” tushgan respondentlardan savolga aniqlik kiritish maqsadida (mavjud bo‘lmagan) ishning aynan qaysi bo‘limi ko‘proq qiziqtirganligi aniqlanadi. Natijada quyidagi ma’lumotlar olindi: 44,6% respondentlar “Yosh kurashchilarni tezkor-kuch tayyorgarligi” bo‘limiga qiziqqanligi, 38,2% respondent “Funksional tayyorgarlik” bo‘limiga qiziqish bildirganini va 17,2% respondent umumiyy jismoniy tayyorgarlik” bo‘limiga e’tibor qaratishganini aytishdi.

Olingan natijalarni ko‘rib chiqishda davom etar ekanmiz, so‘rovnomaning asosiy qismidagi quyidagi “Sizningcha, qaysi sport turida tezkor-kuch tayyorgarligi kerak?” degan asosiy savollardan biriga berilgan javobga to‘xtalib o‘tamiz. Ushbu savolga 21% respondent yengil atletika, og‘ir atletika va futbol, 32% respondent boks, kurash turlari, sportcha suzish, 47% respondent esa barcha sport turlarida deb javob berishdi.

Savolni davom ettirib, tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning yosh jihatiga tayanib, tezkor-kuch tayyorgarligiga tegishli savollarni batafsил ko‘rib chiqishga qaror qildik Shu sababdan “Necha yoshda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish maqsaga muvofiq deb o‘laysiz?” degan savol bilan murojaat qilganimizda 36% respondent 12–13 yoshda, 43% respondent 15–16 yoshda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblashdi, 21% respondent esa ushbu sifatlarni 10–11 yoshda rivojlantirishni boshlash kerak deb taxmin qilishdi.

So‘rovnomaning shartli savoli bo‘lgan, “Ayrim yuqori malakali sportchilar mashg‘ulotlarda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantiradigan mashqlarni qo‘llash kerak emas, deb hisoblaydilar. Siz ularning fikriga qo‘silasizmi?” degan provokatsion savolga 97% respondent “yo‘q” degan javobni berishdi. So‘rovda qatnashgan atigi 3% respondent yuqoridagi fikrga rozilik bildirdi. 97% respondent tezkor-kuch sifatini rivojlantirish mashqlari mashg‘ulot dasturining zarur qismi deyishini hisobga olsak, unda keyingi savolga ehtiyoj paydo bo‘ladi. “Sport mashg‘ulotining qaysi qismida tezkor-kuch sifatini rivojlantirish kerak?” degan savolning natijalarga ko‘ra, 62% respondent mashg‘ulotning asosiy qismida, 26% respondentlar tayyorgarlik qismida, 9% respondent yakuniy qismida, 3% respondent esa kirish qismida va qismlar oralig‘ida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblashadi. Olingan so‘rovnomada natijalariga muvofiq shuni ta’kidlash lozimki, so‘rovnomada ishtirok etgan 3% respondent kasbiy qobiliyatsizligi va elementar nazariy bilimlar etishmasligi bilan qolganlardan ajralib turadi. Bu esa sport mashg‘ulotining sifatiga salbij ta’sir qiladi.

“Tezkor-kuch mashqlarini qaysi davrida o‘tkazish maql?” degan navbatdagi savol o‘rganilayotgan muammoni batafsил ko‘rib chiqishga imkon beradi. Olingan natijaga ko‘ra, 47% respondent mashg‘ulotning tayyorgarlik davrida o‘tkazish eng maqbul deb hisoblaydi. Etimol, respondent ushbu javobni tanlashiga tayyorgarlik davrining asosiy vazifalari organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish, umumiyy jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash va kurashchi uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan iborat ekanligi sabab bo‘lgandir.¹ So‘rovda qatnashgan 30% respondent o‘tish davrini tanlagan, etimol, ular ham o‘z javoblarini tanlashda mashg‘ulotning o‘tish davrida organizmni chiniqtirish, umumiyy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish ekanligi bilan bog‘lashgan.² 21% respondent mashg‘ulot jarayonining samadorligi uchun uchala davirda ham tezkor-kuch mashqlaridan foydalanish kerak deyishdi. Kam mala-kaga ega mutaxassislar, ular 2% respondentni tashkil qiladi, ushbu mashqlarni musobaqa davrida qo‘l-lash yaxshiroq deb javob berishdi. Ushbu 2% respondentning bunday javob berishini, savolni etiborsiz o‘qiganligi bilan izohlash mumkin. Albatta, savollarga javob berishda diqqatni jamlash, mantiqiy fikrlash zarur.

¹ Керимов Ф.А. спорт кураши назарияси ва усулияти. ЎзДЖТИ нашиёт-матбоба бўлими, 2005, 165-бет.

² Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. ЎзДЖТИ нашиёт-матбоба бўлими, 2005, 166-бет.

Chunki tadqiqotchi so‘rovnoma savollariga berilgan javoblardan nafaqat o‘rganilayotgan muammoning hotlati to‘g‘risida bilib oladi, balki kurash murabbiyi faoliyatining samaradorligini ham tahlil qilishi mumkin.¹

So‘rovnomalarda keng qo‘llaniladigan yopiq savoldan foydalanib biz, 95,8% respondentni sport mashg‘ulotlarida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish mashqlaridan foydalanishini aniqladik. Respondentdan “Sizning fikringizcha, kurashchilarining yoshidan kelib chiqib, mashg‘ulot vaqtining necha foizini tezkor-kuch tayyorgarligiga ajratgan ma‘qul?” degan savolga javob berishini so‘radik. Olingan natijalarga ko‘ra, 35% respondent 12–13 yoshli bolalarda mashg‘ulotning vaqtining 15–25%ni, 23% respondent mashg‘ulot vaqtining 50%ni, 23% respondent mashg‘ulot vaqtining 50%dan ko‘prog‘ini, 15% respondent mashg‘ulot vaqtining 10%dan kamrog‘ini va 4% respondent 10–15% mashg‘ulot vaqtini tezkor-kuch tayyorgarligi uchun ajratish kerak, deb hisoblashdi. 14–15 yoshli o‘smirlarda 42% respondentlar mashg‘ulot vaqtining 50%ni, 28% respondent mashg‘ulot vaqtining 50%dan ko‘prog‘ini, 15% respondent mashg‘ulot vaqtining 15–25%ni, 10% respondent mashg‘ulot vaqtining 10–15%ni va 5% respondent mashg‘ulot vaqtining 10%dan kamrog‘ini tezkor-kuch tayyorgarligi uchun ajrataishni ma‘qullahdi.

Mavzuni chuqurroq o‘rganish maqsadida biz respondentlarga “Siz kurashchilarining jismoniy tayyorligi darajasini nazorat qilish vositalaridan foydalanaszmi?” degan savol bilan murojaat qildik. Afsuski, bu savolga biz kutganimizdek, 100% respondent emas, faqat 87% respondentgina ijobiy javob berdi. Ushbu savolga olingan javob natijalari murabbiylarning malakasini, pedagogik mahoratini va murabbiylik faoliyati natijalarini tavsiflashi mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olib, respondentlarga berilgan “kurashchilarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish uchun qanday mashqlardan foydalanasz?” degan navbatdagi savolga olingan javoblar natijasini keltirib o‘tamiz: 53% respondent 100 m yugurish, yugurib kelib balandlikka sakrash mashqlaridan foydalanamiz degan bo‘lsa, 34% respondet tennis koptokchasini uloqtirish va joyidan uzunlikka sakrash mashqlaridan foydalanishini aytishdi, 13% respondet esa qo‘llarga tayanib yotgan holda qo‘llarni bukib-yozish va 1000 m ga kross yugurish mashqlaridan foydalanamiz deyishdi. Bizning fikrimizcha, ba’zi murabbiylar jismoniy sifatlarni rivojlantirish mashqlarini tanlashda to‘g‘ri yo‘l tutmaydilar, xususan, tezkor-kuch sifatlari va kuch chidamliligini chalkashtirib yuborishadi.

Jismoniy sifatlarni shakkantirishni boshqarishda beriladigan mashqlar ma’lum bir jismoniy sifatni rivojlantirishga ta’sir qilishini yodda tutish kerak. Shu maqsadda biz “Quyida ko‘rsatilgan mashqlardan qaysilarida, sizningcha, tezlik-kuch sifatlari yaqqolroq namoyon bo‘ladi?” degan savolga javob berishni taklif qildik. 31% respondent o‘tirgan joydan to‘ldirma to‘pini uloqtirish, joydan turib 15 metrga yugurish va yakkacho‘pda tortinish mashqlarini tanlashdi. 42% respondent chuqurlikka sakrash, to‘siqlar osha yugurish, arqonda sakrash mashqlarini tanlashdi. Qolgan 27% respondentlar qo‘llarga tayanib yotgan holda qo‘llarni bukib yozish va gimnastika “ko‘prik”chasini vaqtga qarab bajarish mashqlarini tanlashdi.

So‘rovnoramizning asosiy savoli bo‘lgan “Chuqurlikka sakrash mashqini bilasizmi?” degan savoliga, afsuski, 90% respondent salbiy javob berishdi. Garchi oldingi savolda 42% respondent “chuqurlikka sakrash” mashqlarida tezkor-kuch sifatlari yaqqol namayon bo‘ladi, deb javob berishgandi. Ushbu vaziyatni murabbiylarning malakasizligi, tajribasizligi, diqqatni jamlashning yetishmasligi bilan izohlash mumkin. Albatta, “chuqurlikka sakrash” atamasi mavjud va keng tarqalgan mashq bo‘lsa ham, amalda juda tez-tez ishlatilmaydi.

“Chuqurlikka sakrash” mashqini biladigan respondent uchun asosiy savolni to‘ldiradigan qo‘simcha “Nima deb o‘ylaysiz, chuqurlikka sakrash mashqi qanday jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi?” degan savol bilan murojaat qildik. Ushbu savolga 48% respondent chuqurlikka sakrash tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi, 22% respondent ushbu mashq chaqqonlikni rivojlantirishga yordam beradi, 13% respondent ushbu mashq muvozanat sifatlari va tezlik chidamliligini rivojlantirishga yordam beradi va 17% respondent chuqurlikka sakrash kuch chidamliligi va egiluvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi, degan javob berishdi.

So‘rovnomaning keyingi “Portlovchi kuch atamasi sizga tanishmi?” degan savoliga 94,6% respondent ijobiy javob berdi. Biroq so‘rovnomaning oxirgi “Portlovchi kuchga berilgan to‘g‘ri ta’rifni toping?” degan savoliga atigi 15% respondent to‘g‘ri javob bergan. 54% respondent portlovchi kuch va maksimal kuchni tafsiflovchi ta’riflarni chalkashtirib yubordi, qolgan 31% respondent kuch chidamliligi ta’riflarni portlovchi kuch bilan aralashtirib yuborishdi.

Xulosa va takliflar. Bizning tadqiqotlarimiz natijalari yosh kurashchilarining jismoniy tayyorgarligini yaxshilash muammosi bilan bog‘liq bir qator muhim masalalarni aniqlashga imkon berdi. Jumladan, kurash murabbiylari o‘rtasida sport mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish masalalari bo‘yicha hali ham yakdil fikr yo‘qligi aniqlandi, shuning uchun ushbu muammoni o‘rganish dolzarb bo‘lib, yanada keng qam-

¹ Kerimov F.A. Sportda ilmiy tadqiqotlar. Ilmiy-texnik axboroti-pres nashriyoti, 2021, 61-bet.

rovli tadqiqotlarni talab qiladi. Shu bilan birga, oliv o‘quv yurtlarida sport murabbiylarini tayyorlash tizimi-ni ham yanada takomillashtirish kerak deb hisoblaymiz.

Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Kerimov F.A. Sportda ilmiy tadqiqotlar. Ilmiy-texnik axboroti-pres nashriyoti, 2021, 58 –76-betlar.
- (2). Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. ЎзДЖТИ наширёт-матбба бўлими, 2005, 90 –298-бет.
- (3). Девятко И.Ф. Методы социологического исследования. М., “Университет”, 2002, 169 с.
- (4). Mirzaqulov Sh.A., Mirzanov Sh.S., Artiqov Z.S., Qirg‘izboyev M.M. Sport pedagogik maxoratini oshirish (Belbog‘li kurash). Т., 2018, 197-bet.
- (5). Годик М.А. Физическая подготовка футболистов. М., “Терра-спорт”, 2006, 272 с.
- (6). Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта. М., Академия, 2008, с. 121–129.
- (7). Матвеев Л.П. Общая теория спорта и её прикладные аспекты. Учебник для ст-в, преподавателей, тренеров физкультурных вузов, 5-е изд., М., “Советский спорт”, 2010, 340 с.
- (8). Верхушанский Ю.В. Основы специальной силовой подготовки в спорте. М., “Советский спорт”, 2013, 216 с.
- (9). Платонов В.Н. Двигательные качества и физическая подготовка спортсменов. Киев, “Спорт”, 2019, 656 с.
- (10). Зациорский В.М. Физические качества спортсмена: основы теории и методики воспитания. М., “Спорт”, 2019, 200 с.
- (11). Карелин А.А. Спортивная подготовка борцов высокой квалификации. Монография, Новосибирск, 2002, 480 с.
- (12). Тараканов И.Б. Педагогические основы управления подготовкой борцов. Монография, СПб, СПБГАФК им П.Ф.Лесгафта, 2000, 162 с.
- (13). Туманян Г.С. Школа мастерства борцов, дзюдоистов и самбистов. Учеб.пособие для студ. высш. учеб. заведений, М., издательский центр “Академия”, 2006, 592 с.
- (14). Шиян В.В. Методы оценки и совершенствования координационных возможностей высококвалифицированных спортсменов. Ташкент, 2020, 168 с.

Xodjaniyazov Sardor Umarovich (Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini professori), Yo‘idosheva Iqbol Bekbo‘lsin qizi (Urganch davlat Pedagogika instituti magistranti)

TALABALAR AXLOQIY-ESTETIK TARBIYASINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada estetik tarbiyaning pedagogik va psixologik jihatlari, uning hayotdagi o‘rni va ahamiyati, talabalarga axloqiy-estetik tarbiya berishda pedagogning o‘rni, vazifalari va psixologik xususiyatlari masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, pedagogika, psixologiya, tarbiyalanganlik, talabalar psixologiyasi, tarbiya nazaryasi, psixologik mexanizmlar, pedagogik psixologiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты эстетического воспитания, его роль и значение в жизни, роль, задачи и психологические особенности педагога в обеспечении нравственно-эстетического воспитания учащихся.

Ключевые слова: образование, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, педагогика, психология, воспитание, психология учащихся, теория воспитания, психологические механизмы, педагогическая психология.

Annotation. This article discusses the pedagogical and psychological aspects of aesthetic education, its role and significance in life, the role, tasks and psychological characteristics of the teacher in providing moral and aesthetic education to students.

Key words: education, moral education, aesthetic education, pedagogy, psychology, education, psychology of students, theory of education, psychological mechanisms, educational psychology.

Hozirgi kunda talabalarining axloqiy-estetik tarbiyasini, ularda erkin, faol, mustaqil fikrlay olish, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish, shuningdek, ta’lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik xususiyatlari va texnologiyalarini mustaqil yaratish hamda ularni tatbiq eta olish kompetentligini shakllantirish muammosi bugungi kunda mayjud bo‘lgan dolzarb hisoblanadi. Shu o‘rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy saloxiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimining bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, [1] degan fikrlari ishimizning maqsadiga bevosita mos keladi. Yuqorida sifatlarga ega bo‘lish uchun talabarning axloqiy-estetik tarbiyasida pedagogning o‘rni beqiyosdir.

Tarbiya–bu shaxsning ijtimoiy, ma’naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma’naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta’sir ko‘rsatish jarayonidir [2]. Tarbiya tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchida barqaror axloqiy xislat va xulqiy fazilatlarni tarkib toptirish, shakllantirish maqsadida tarbiyalanuvchining ongiga aniq maqsad yolda tarbiyaviy ta’sir etish jarayonidir.

Ta’lim va tarbiya jarayonida individual munosabatda bo‘lishning sharti talabaning psixologik xususiyatlarini har tomonlama va chuqur bilishdan iboratdir. Bu narsa talabaning ruhiy dunyosidan xabardor bo‘la bilishni, psixologik jihatdan to‘g‘ri kuzatish tashkil qila bilishni va tabiiy eksperiment uyuştirishni bilishni taqozo qiladi. Axloqiy-estetik tarbiyaning pedagogik-psixologik xususiyatlarining mohiyatini bilish har bir pedagog uchun ta’lim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish uchun zarur. Qadimda greklar juda ajoyib iborani qollaganlar: «Talaba – to‘ldirilib turilishi kerak bolgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bolgan mash’aldir» [2;484-b.]. Bu fikrning tagida chuqur ma’no bor. Ta’lim jarayonining bunguni kundagi asosiy talablaridan biri erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish bolib, yuqorida aytib o‘tilgan metodlardan foydalanish uchqunlardan katta mash’allar paydo bo‘lishini ta’minlab beradi.

Tarbiyali bo‘lish – bu xulq-atvorini nazorat qilishdan iborat. Bunday nazorat insonga yomon xatti-harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyligi haqida qayg‘ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo‘ladi.

Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvni o‘rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olin-gan natijalarga asoslanadi. Tarbiya o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy jihatdan ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishdir. Agar ta’lim shaxsning ongini shakllantirish bo‘lsa, tarbiya uning ongsizlik sohasiga ta’sir etishdir. Musulmon ulamolar “tarbiya”ni bir necha xil ta’rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta’riflaydi: “Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga yetkazishdir”. Rog‘ib Asfihoni tarbiyani quyidagicha ta’rif qiladi: “Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o‘tkaza borib, batamomlik nuqtasiga yetkazishdir. Tarbiyaning ma’nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg‘unlik hamda muvozanat ila o‘s-tirishdir” [3]. Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas’uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba’zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga yetadi. Ammo tarbiya mas’uliyati bardavom bo‘ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne’matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas’uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi.

Tarbiya psixologiyasi maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini o‘rganadi, Tarbiya har qanday jamiyatning muhim vazifasidir. Tarbiya–bu shaxsning ijtimoiy, ma’naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma’naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta’sir ko‘rsatish jarayoni. Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Lekin inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib o‘tganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir faktorga ham bog‘liqdir. Bu faktor nasliy yo‘l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarining ta’siridir. Odamga nasliy yo‘l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlar beriladi.

Tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar. Tarbiyali bo‘lish–bu xulq-ataorini nazorat qilishdan iborat: bunday nazorat insonni yomon xatti-harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyligi haqida qayg‘ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo‘ladi.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya turlari, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish masalalarini o‘rganadi. Ijtimoiy tarbiya fuqarolik, aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik tarbiya kabi yo‘nalishlarda tashkil etiladi. Pedagogika (yunoncha paidagogike bo‘lib, paida – «bola» va gogike – «yetaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiylarini qonuniyatlar, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, talabalarni milliy istiqlol g‘oyalari asosida tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi. Pedagogika – ta’lim va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o‘rgandan-digan fan sohasi [4]. Shunday ekan, har qanday sohada pedagogning o‘rni va vazifasi yuqori hisoblanadi. Psixologiya – shaxsda ma’naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlami tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

Pedagogik psixologiya – psixologiya fanining tarmog‘i sifatida ta’lim va tarbiyaning shaxsga samarali ta’sir etuvchi omillari, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o‘rganuvchi fan. Pedagogik psixologiyaning predmeti talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash qonuniyatlarini, bu jarayonlarda sodir bo‘ladigan individual tafovutlarni, ularda mustaqil va ijodiy tafakkurni tarkib toptirish qonuniyatlarini tadqiq etishdir [5].

Bundan ko‘rinadiki, pedagogika va psixologiya fanlari ijtimoiy muhit, shaxsning shakllanishi jarayoniga alohida e’tibor beradi hamda ijtimoiy voqeя va hodisalarning shaxs rivojiga ta’siri g‘oyat muhim ekan-

ligini ta'kidlagan holda, ular ijtimoiy muhit emas, balki ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar ta'siri ostida o'zgarib boradi.

Talaba-yoshlar estetik tarbiyasining mazmuni, asosan:

- estetikaga qiziqish va ehtiyojning mavjudligi;
- estetik jihatdan bilimdonlik;
- estetik ko'nikma va malakalarining shakllanganligi;
- estetik his-tuyg'uning mukammalligi;
- o'z mehnatidan zavq ola bilish va nafijani baholay olish qobiliyatlarining, hissiyot va qobiliyatlarining mayjudligi;

• go'zallikka intilish va didlarni tarbiyalashga erisha olishlik kabi insoniy xislatlar majmualaridan iboratdir.

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi talaba-yoshlarda ma'naviy jihatdan go'zallikni his qilishni tarbiyalash, yuksak estetik didni va san'at asarlarini sevishni shakllantirish, tarix va me'moriy yodgorliklarga nisbatan hurmatni uyg'otish, jonajon tabiatimizga ongli munosabatda bo'lishga oid tasavvurlarni yuksaltirish, tabiat va jamiyat boyliklarini qadrlay bilish ko'nikma va malakalarini hosil qilish kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalashdan iboratdir.

Axloqiy-estetik tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda, shuni qayd etish mumkinki, uning yordamida talabalarni Vatanimiz va jahon badiiy madaniyatining eng yaxshi namunalaridan zavqlangan holdagi ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashga erishish lozim bo'ladi. Axloqiy-estetik tarbiya yosh avlodning, ya'ni, talaba-yoshlarning odob-axloq va badiiy ijodiy qobiliyatlarini yuksaltirishda pedagogika va psixologiyaga katta e'tibor qaratilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. <https://uz.fundamental-economic.uz/?p=1212>
- (2). Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova X.M. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent, 2018, 497-bet.
- (3). Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T., "Hilol-nashr" 2013, 339–340-bet.
- (4). Xodjayev B.X. Umumiyy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. "Sano-standart" nashriyoti, Toshkent, 2017, 24-bet.
- (5). Ismoilova Z.K. Pedagogika. "Moliya", Toshkent, 2007, 28-bet.

**Toshpulatov Dilshodjon Adburafikovich (UIT Samarkand branch named Muhammad al-khorazmi
Teacher of "Language" department)**

TIJORAT TERMINLARINI O'QITISHNING AFZALLIKLARINI YORITIB BERISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qitishda tijorat leksemalaridan foydalanishning afzalliklariga oydinlik kiritib, o'qitishda noan'anaviy usullardan samarali foydalanish bo'yicha keng va batafsil fikrlarni keltiriladi. shuningdek, mavjud usullarning ta'siri va ularidan kutilayotgan ajoyib natijalarga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: faoliyat, samaraliroq, potensial imtiyozlar, texnikalar, fleshkalar, PowerPoint slaydlari va o'yinlari.

ПОДЧЕРКНИТЕ ПРЕИМУЩЕСТВА ИЗУЧЕНИЯ БИЗНЕС-ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация. В статье автор разъясняет преимущества использования коммерческих лексем в обучении, а также даёт обширные и подробные идеи о том, как эффективно использовать нетрадиционные методы в обучении, он также фокусирует внимание на влиянии существующих методов и ожидаемых от них больших результатов.

Ключевые слова: деятельность, более эффективно, потенциальные выгоды, методы, карточки, слайды PowerPoint и игры.

ILLUMINATION OF THE USES OF TEACHING BENEFITS OF COMMERCIAL TERMINOLOGIES

Annotation. In this article, I will clarify the advantages of using commercial lexemes in teaching, and give extensive and detailed ideas on how to effectively use non-traditional methods in teaching. it is also focused on the impact of existing methods and the great results expected from them.

Key words: activities, more effectively, potential benefits, techniques, flashcards, PowerPoint slides and games.

Introduction. In this article, I will try to explain the use of teaching aids. In the teaching process, the teacher always tries to make wide use of many and various district educational tools. In addition, educational tools are tackles that help teachers to manage and organize their learning environment and

activities more effectively. If we cite examples from the past, early childhood teachers often use a variety of teaching aids and props in the form of toys and games. I mean, all things based on nature are used as props in education. will be collected. As children get older, learning becomes increasingly cognitive, abstract, and theoretical, and over time, the amount of teaching aids and props decreases. However, students of all ages and abilities are welcome to use learning aids and supplies.

Literature review. Important potential benefits include faster learning, improved memory and increased activity. This is definitely one view of educational tools. On the other hand, there are also secular forms, and these are becoming more and more popular with the introduction of secular technologies in education. As scholar A.M.Derkach said that it can also be called innovative teaching technologies [1;p.23].

In addition to effective learning for students of all levels and ages, these advantages save time and direct teachers to the correct use of educational tools. For example, projector training helps to attract everyone's attention to the prepared presentation on the big screen. As specialist A.P.Panfilov mentioned that the next is the method of teaching through computer technologies, which today also helps children to study faster and more effectively. It is necessary to have knowledge of computer literacy [2;p.45–46].

As expert W. Swap mentioned that it is important to choose different district distribution materials from traditional educational tools, such as books, stories glossaries and dictionaries, depending on the age and competence of the students [4;p.32]. For example, a dictionary is useful for students in finding or translating unfamiliar words or phrases in a foreign language or in their native language. In that case, I recommend not to give in a large volume to the student, because it is difficult at first and kills motivation. The conclusion is that, taking into account the above points, it is necessary to have training and skills to use any educational tools and to use them for the right purpose.

Research Methodology. Clarify appropriate use of: In this composition I would like to discuss terms used in education and I will explain using different aids appropriateley. Such as:

First are Flashcards that are used to test and improve memory through repetition. Usually, flash cards are double-sided, with the survey on one side and the survey information on the other side. Names, terms, concepts or techniques can all be included. Flash card helps to expand vocabulary. It is useful to use flashcards in class. For example, it is important to practice, review grammar rules and vocabulary. It encourages students to perform exercises similar to worm ups [1; p.22].

Second, pictures and reality – in a foreign language, the picture can be used as a display and educational handout. Pictures involuntarily activate the student's mind, consciousness, memory, thinking, imagination and increase confidence. Pictures can be used to convey or prompt students to express the desired content, as well as to practice using the required language material, introducing new vocabulary, pronouncing phrases for dictation and role-playing, and practicing writing.

Feel bags. The teacher explains to the students that there are several items in the bag and they take those items in order. They tell how the item they found can be used to tell a story. This helps the student to think creatively.

Story time is a widely used method from kindergarten through middle school and even higher education. It can be one of the most effective learning experiences of a student. Since from an early age child instinctively perceive their environment through stories and games. Story Time encourages language and literacy skills as well as cognitive development and social-emotional development.

Organizing and using blackboard. It will be possible to practice dividing the information on the blackboard, one part for doing exercises and in the second part demonstrate the rule. You can use the board to give instructions or to reinforce verbal instructions [4.38].

video - in which the material related to the lesson is shown through technical installations, which helps the student to expand his understanding of the language he has learned.

Computer-based teaching is also very effective for learning. However, if the teacher is silent during the lesson, then the student will be distracted by various games and the lesson will be left behind. In order to prevent this, the teacher should take care [2; p.45].

PowerPoint presentations help the student prepare a presentation. It plays an essential part in modern education

The first is that toy cars are especially effective when they are introduced to preschool or kindergarten between younger children [2; p.46]. in this case, the vocabulary related to cars is used, and pupils are shown ways to put it together by the teacher. in this case, the pupils give information based on the cars.

The second form is my brother, the teacher selects one of the pupils on the blackboard and asks the rest of the pupils to continue thinking until they find out who he is. In which words or phrases related to the family are given by the teacher to the children and they have to describe them correctly using these

phrases. For example, there are words such as brother, member, uncle, and so on. It encourages pupils to be active.

Thirdly, using the word banana, the teacher pours a picture or fake plastic fruit in the corner of the classroom to the pupils, and asks the pupils to find out and report about them in their mother tongue. Bananas are also an excellent way to demonstrate the colour yellow. They provide each other with valuable information about the type of fruit and its importance. Through this, the teacher increases their vocabulary related to harvests pages [3; p.24].

There are two types of authentic materials are widely separate. It's newspapers and magazines that will help students advance reading skill and understand the current events in the EFL classroom. Newspapers not only help improve reading skills, but also build writing grammar, vocabulary and speaking skills, as well as more scholarly writing based on a journal pages [3; p.25].

Umbrella usually use for a weather theme, this certainly not only increases vocabulary, but can also be used as a memory-building practice for visual learners.

Specify how lexis is grouped.

Analysis and result. In this proposed essay, I would like to provide a comprehensive and detailed overview of my current knowledge from my reading and research about the importance of vocabulary and how it can be grouped. In general, I have aimed to highlight a factor that I consider to be important based on my separate in-depth analysis. If you allow me, first of all, let me tell you my general rate of thinking about the word Lexica [4; p.38].

In my opinion, I believe that the origin of each term or word has a stage of historical development. As the first factor, I would like to consider it from a historical point of view. Lexicon - (is a Greek word, that is, it comes from the ancient Greek language, i.e. "lexis" - word-related, dictionary - a set of all words and phrases in the language, a linguistic term that studies the composition of the vocabulary of the language or studies the lexicon of the language or term, I would have expressed a correct opinion. In fact, I found out that lexicon comes from the Greek adjective "lexicon". That is, to be more precise, it means "question" or "speech". This shows that, we can say that lexis is a whole concept consisting of a coherent and complex system obeying certain rules [4;p.32].

Conclusion/recommendation. Thus, to conclude, the lexical layer of the language is very colorful and every lexemes is an important wealth of languages. Because, the main reason I say this is that these cases, that is, lexemes, have definitely come to the state of a unified language that has been polished as a result of hard and difficult historical influence. On the other hand, I would like to conclude my opinion by emphasizing that external and internal factors play a very important role in the language, and it is possible to find sufficient grounds for this.

When it comes to vocabulary in general, I believe that if the lexical competence of language learners stagnates without learning it or if it is not used regularly, then it will deteriorate and it may even be lost in speech. Because of this, many strategies have emerged to reduce the likelihood of language loss. One or an example of these strategies is recycling, which is also the most effective of these methods. Therefore, this essay examines the case of recycling in language teaching and learning, and then explains many definitions of recycling and various practical activities for implementing recycling in ESL/EFL classrooms.

Bibliography:

- (1). A.M.Derkach. Case-method in teaching Speciality, 4 (2010), pp. 22–23.
- (2). A.P.Panfilov. Psychological Encyclopaedia Peter, Saint Petersburg, (2003) pp. 45–46.
- (3). Basics of Management. Complete Guide in Case-Technologies Piter, Saint Petersburg, (2004), p. 24–25.
- (4). W.Swap. Creating Value with Knowledge. Insights from the IBM Institute for Business Value Alpina Business Books, Moscow, (2006), p. 32–38.
- (5). V.Vachkov. Basic Technologies of Group Training. Moscow, (1999), p. 52–53.

ILMIY AXBOROT

Azizova Mohinur Muzaffarjon qizi (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi;
e-mail: mohinurazizova47@gmail.com)

“QADAH” SO‘ZINING LINGVOKULTUROLOGIK TASNIFI

Annotatsiya. Lingvokulturologiya qadim tarixga ega, biroq rivojlanganiga hali uncha ko‘p bo‘lmagan tilshunoslikning yangi sohasi hisoblanadi. Har bir konseptning lingvokulturologik jihatdan o‘rganishi, shu konseptning har bir millatda o‘ziga xos madaniyat bor ekanligini, tili boy ekanligini namoyish etadi. Ushbu maqolada qadah so‘zining lingvokulturologik tasnifi berilgan.

Kalit so‘zlar: “qadah” so‘zi, tilshunoslik, madaniyat, lingvomadaniyat, matn, lingvokulturologiya.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ “СТЕКЛЯННОГО” СЛОВА

Аннотация. Языкознание новая область языка, имеющая древнюю историю, но еще недостаточно развитая. Лингвистическое и культурологическое исследование каждого понятия показывает, что каждый народ имеет свою культуру и богатый язык. В данной статье представлена лингвокультурологическая классификация слова «кубок».

Ключевые слова: “кадах соз”(тост), языкознание, культура, лингвокультура, текст, лингвокультурология.

LINGUOCULTUROLOGICAL CLASSIFICATION OF THE WORD “QADAH”

Annotation. Linguo-culturology is a new field of linguistics that has an ancient history, but is still not very developed. The linguistic and cultural study of each concept shows that each nation has its own culture and rich language. This article provides a linguistic and cultural classification of the word “goblet”.

Key words: “kاداه соز”, linguistics, culture, linguo-culture, text, linguo-culturology.

Kirish. Insonning hissiy sohasi turli fanlar – falsafa, fiziologiya, psixologiya, jumladan, kognitiv lingvistika, tilshunoslik vakillarining diqqat markazidan joy olgan. So‘zlovchining his-tuyg‘ularini ifodalash va tinglovchining hissiyotlariga ta’sir o‘tkazish borasida qo‘llanilajak lisoniy vositalar tilshunoslар e’tiborini o‘ziga tortadi. Ushbu tushunchalar “hissiylik kategoriyasi” [Shaxovskiy. 1987, 1995], “hissiy to‘yinganlik” [Shmelev. 1973], “emotiv ma’no” [Novikov. 1982], “emotema” [Bolotov. 1981], “hissiy yuk” [Myagkova. 1986] kabilar tomonidan o‘rganilgan. Tilshunoslikda “emotivlik kategoriyasi” atamasi, aslida, ikki xil, garchi o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, hodisani ularning semantikasida emotsional komponentga ega bo‘lgan til birliklarini va badiiy asarning emotsional fonini yaratishga qaratilgan matn kategoriyasi sifatida matn hissiyotini yashiradi va o‘quvchiga hissiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu kabi xursandchilik yoki g‘am tashvishlarni inson ko‘p holatlarda o‘z qadah so‘zları orqali ifodalaydi. Biroq qadah so‘zları turli millatlarda turlicha ifodalanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qadah so‘zining, ya’ni *tost* so‘zining etimologiyasi haqida har xil ma’lumotlar bor. Birinchi ma’lumotga ko‘ra, qadimgi turkiy so‘z yog‘ochli idish “tostakan” so‘zidan kelib chiqqan. Undan qumis va boshqa ichimliklar ichishdan foydalangan. Ikkinci ma’lumotga ko‘ra, ingliz tilidagi qizdirilgan non bo‘lagini bildiradigan “toast” so‘zidan kelib chiqqan. Antik Rimda bayramlarda kambag‘allarga qizdirilgan va mayga botirilgan non tarqatilgan. Yana britaniya an’anasiga ko‘ra, notiqning oldiga stakan suv bilan qizdirilgan non qo‘yilgan [5;1-b.].

Ruslarda qadah so‘zlardan foydalanmasdan faqat alkogoliklar ichadi deyiladi. Yevropada esa bu re-tual, ya’ni qadah so‘zлarni aytish tantanali tadbirlarda majburiy sanalgan. Rossiyada har xil munosabat tuyfayli ob-havodan tortib, notatish insonning muvaffaqiyati uchun ham ichiladi.

Asosiy qism. Qadah so‘zdan keyin qadahlarni urishtirish rus xalqi uchun an’ana hisoblanadi, Yevropa va AQSHda esa bunday emas. Qadah urishtirish an’anasining yuzaga kelishi haqida uch xil varianti mavjud [6;1-b.].

1. Qora ruhlarni haydash. Qadimga insonlar, ularning hayotini xudolar va qora ruhlar boshqaradi deb tushunishgan. Shu sababli xudolarning rahmini keltirish, qora kuchlarni esa haydash zarur bo‘lgan. ularning tushunchasiga ko‘ra, ovqatlanish paytida ochilgan og‘izdan qora ruhlar tanaga kirib olishi mumkin, qadahlarni urishtirishdan chiqqan jarangli baland ovoz esa ularni haydaydi deb bilishgan.

2. Ritsarlarga (qadimgi harbiylar) hurmat. VII–VIII asrlarda Buyuk Karl ritsarlarli birlikni, kuchni, do‘stlikning mustahkamligini ifodalash uchun ishlatishgan. Lekin bu an’anani ritsarlar o‘ylab topgani yo‘q, ko‘rinadiki, ular bu an’anaga yangi mazmun kiritib, boshqa xalqlardan o‘zlashtirgan.

3. Zahardan saqlanish. Antik davrdan hokimiyatni egallash uchun zahardan foydalanishgan. Bu zaharlanish ovqatlanish jarayonida bo‘lgan, shu sababli may to‘ldirilgan qadahlar urishtirilganda bir-biriga

suyuqlikning o‘tishi zaharlanishning oldini olgan. Agar birorta idishda zahar bo‘lsa, bu usul orqali hamma zaharlangan. Bu himoyalanish uchun o‘ylab topilgan ayyorona ritual edi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qadah so‘zlarda Kavkaz xalqining milliy urf-odatlari, qadriyatlari ham aks etadi:

O‘g‘il maktabdan qaytdi. Otasi uning kundaligini tekshira boshladi: matematika – 2, geografiya – 2, fizkultura – 2, kuylash – 5.

Otasi xursand bo‘lib: “Allohga shukur, kuylashni bilar ekansan”, – deydi.

Kavkaz qo‘shiqlarini kuylashni bilmagan kavkazlik emas. Kelinglar, o‘g‘illarimiz bulbulday kuylashi uchun qadah ko‘taraylik.

Ushbu qadah so‘zda gruzin xalqiga xos bo‘lgan milliy xususiyat aks etadi. Dasturxon atrofida o‘tirgan har bir kavkazlik milliy qo‘shiqlarni kuylashni yaxshi biladi.

2. Ayol konsepti. Tahlil qilingan qadah so‘zlearning ko‘pchiligi ayollarga bag‘ishlangan. Bu qadah so‘zlarda ayollarning turli xislatlari yoritiladi va ularni avaylash, hurmat qilish, ehtiyoj qilish zarurligi ta’kidlanadi:

Kavkazda shunday gapirishadi: agar ayol yig‘layotgan bo‘lsa, uning har bir ko‘z yoshida eriga nisbatan og‘ir ayblov bor.

Kelinglar, ayollarning bizni hech qachon biror narsa uchun ayblashga sabab topolmasligi uchun ichamiz!

Kavkazda ayollarning, ayniqsa, onalarning hurmati katta. Ular ayol kishi ona bo‘lgandagina to‘liq baxtli bo‘ladi, degan tushuncha bor.

Haqiqiy kavkaz erkaklari ayollarni baxtli qilishni o‘z burchi deb hisoblashadi. Bir dono kishi shunday degan: “Faqat bolasi bor ayollargina baxtli bo‘la oladi, chunki muhabbatning o‘zi kamlik qiladi, muhabbatni tabarruk qilish, muqaddaslashtirish kerak”.

Kelinglar, ayollarga baxt beraylik! Shuning uchun ichaylik!

Kavkaz qadah so‘zlarida ayollarga xos xususiyatlar, ularning taqinchoqlarga bo‘lgan qiziqishlari ham aks etadi:

Bir yigitdan so‘rashibdi: “Agar sening ayoling biror ayb qilgan bo‘lsa, unga qanday jazo qo‘llar eding?” Yigit birpas o‘ylanib, shunday javob berdi:

–Agar men ayolimni qattiqroq jazolamoqchi bo‘lsam, unga ko‘p taqinchoqlar olib berib, ko‘zgusi yo‘q xonaga qamab qo‘yaman.

Ayollar bunday jazoga uchramasligi uchun, ichaylik!

Kavkazliklar ayollarning har xilligi sababi va erkaklarga yaxshi ayollar nasib qilishi haqida ham qadah so‘zlarda shunday aytildi:

Ma’lumki, parvardigori olam hamma ayolarni bir xamirdan yaratgan, faqat hammasiga ham shakar solmagan. Shundan beri erkaklar o‘zlarining shirin ayollarini qidirishadi.

Kelinglar, ular uchun, qidirib va topganlar uchun ichaylik!

Qadah so‘zlarda ayollar erkaklar uchun turmush o‘rtog‘i ekanligini haqida shunday qadah so‘zlar bor:

Alloh ayol kishini Odamning qovurg‘asidan yaratgan, agar U ayollarni erkaklardan ustun qilmoqchi bo‘lsa, unda ayolni erkakning boshidan yaratgan bo‘lar edi, agar erkakka qul qilmoqchi bo‘lsa, uning oyo‘g‘idan yaratgan bo‘lar edi, lekin U erkakka turmush o‘rtog‘i va teng bo‘lganligi uchun qovurg‘adan yaratgan.

Kavkaz xalqida ayollarga nisbatan qanday muomala qilish kerakligi haqida shunday qadah so‘z bor:

Haqiqiy erkak – bu ayol kishining tug‘ilgan kunini aniq biladigan va ayolning necha yoshligini hech qachon bilmaydigan erkakdir.

Kelinglar, qadahni ayollar hayotida faqat haqiqiy erkaklar uchrashi uchun ko‘taraylik!

3. Muhabbat konsepti. Barcha xalqlarda bo‘lgani kabi, Kavkaz xalqida ham haqiqiy muhabbat e’zozlanadi va bu haqida ham ko‘plab qadah so‘zlarini bor. Ma’lumki, qadah so‘zlarida esa tilaklar bildiriladi.

Tahlil va natijalar. O‘zbeklarda ayollar haqida “sochi uzun, aqli qisqa” degan maqol bor. Kavkazda esa tentak ayollar borligini tan olish bilan birga, aqli ayollarni alohida e’zozlashadi:

Kavkazda dasturxon atrofidagi yig‘inlar ayollarning aqli haqidagi qadah so‘zlarsiz o‘tmaydi. An‘anaga ko‘ra, men ham aqli ayollar uchun ichmoqchiman. Aqli ayol oz so‘z bilan ko‘p narsani bildirishi, tentak ayol esa ko‘p gapirib, hech narsani aytmaslik qobiliyatiga ega.

Fikrini qisqa ifodalovchi va tiniq aqlga ega bo‘lgan ayollar uchun ichaylik!

Kavkazda ayollar go‘zalligini kuylovchi qo‘shiqlar, qadah so‘zlardagi tilaklar xilma-xil:

Har bir ayol atirgul kabi go‘zaldir. Lekin tikansiz atirgul bo‘lmaydi. Barglar tez to‘kiladi, ammo tikanlar qoladi. Kelinglar, ayollar o‘z yaproqlarini uzoqroq saqlab qolishi uchun ichaylik!

Kavkaz qadah so‘zlarida hikmatlar ham ko‘p ishlataladi:

Kavkaz hikmatida shunday deyiladi: “Go‘zal ayolga ega bo‘lgan erkak kambag‘al emas. Aqlli ayolga ega bo‘lsa, boy. Go‘zal, aqlli, hisobli ayolga ega bo‘lmoq, chinakamiga boy bo‘lmoqdir”.

4. Do‘stlik konsepti. Kavkazda do‘stlik ulug‘lanadi. Bu qadah so‘zlarda ham o‘z aksini topadi. Agar g‘am-anduhda do‘stlar yoningda bo‘lsa, g‘amning yarmi qoladi. Agar quvonchingda do‘stlar birga bo‘lsa, quvonching ikki barobar bo‘ladi. Bugun dasturxon atrofida yig‘ilgan, ular bilan g‘amimni ham, quvonchi-mni ham bo‘lisha oladigan do‘stlarim uchun qadah ko‘taraman.

Xulosa. Shuni ta‘kidlash kerakki, Volek hissiyotlarni kinematik, prosodik va fonatsiya orqali tasvir- laydigan til ma’nolarini “hech qanday his-tuyg‘uni emas, balki faqat uning alomatlarini bildiradi” degan asosda hissiy iboralar tarkibidan mutlaqo asossiz ravishda chiqarib tashlaydi [Volek. 1995, c.15–20]. Qadah so‘zlar alohida nutqiy janrni tashkil qiladi. Har bir millatda mavjud bo‘lgan afsona, rivoyat, hikmatli va qiziqarli voqealarning ishlatalishi qadah so‘zlarning ta’sirchanligini oshiradi va bu janrning o‘ziga xos xususiyatini bildiradi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Михальский А.К. Основы риторики. М., “Дрофа”, 2001, 411 с.
- (2). Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқики. Филол. фан. бўйича фалс. докт... дисс., Тошкент, 2020, 23-бет.
- (3). Тильман Ю.Д. Культурные концепты в языковой картине мира. Автореф. дисс... кан. филол. наук, М., 1999, с. 9.
- (4). Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). М., “ИКАР”, 2009, с. 112.
- (5). <https://ajcofan.com>>luchshie-tossty-interneta
- (6). <https://spb.banket resto.ru>>poleznoettossty
- (7). Jamaliddinova, D.M., & Khakimova, Z.M. Reforms of the Education System will Create the Foundation of a New Renaissance in Uzbekistan. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
- (8). Zhmoliddinova, D.M. (2022). Some Comments on the Vertical and Horizontal Relations of Terms in the Work of Art. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(5), p. 145–148.
- (9). Mirhojiddinovna, D.,& Jamoliddinova, D. (2022). The importance of critical thinking in primary class education system. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10 (12), p. 1117–1119.

Radjapova Feruza Abdullayevna (“Fakultetlararo chet tillari” kafedrasini mudiri (PhD), dotsent, UrDU mustaqil izlanuvchisi; e-mail: feruza.r1975@mail.urdu.uz)

TIBBIY KIYIM KECHAKLAR TARIXI

Annotatsiya. Tibbiy kiyimlarning kelib chiqishining turli xil taxminiy fikrlar tufayli tadqiqotchilar bi+rinchi bo‘lib, kim, keyinchalik, barcha tibbiyotning ramziga aylangan tibbiy oq xalat kiyaganligi haqida aniq fikrga kela olmaydilar. Oq kiyim–bu najotkorlik ramzi, ammo qachon va kim aynan oq xalat, kepka va keyinchalik, boshqa turdagи tibbiy kiyim-kechaklarni taklif qilgan? Maqolada shular xususida so‘z yuri-tildi.

Kalit so‘zlar: oq xalat, qalpoq, qo‘lqop, tibbiyot xodimi, kiyim-kechak, niqob, ramz, libos, jarroh, kasallik, shafqatsiz kurash, tibbiyot, gigiyena, nazariya, bemor.

ИСТОРИЯ МЕДИЦИНСКОЙ ОДЕЖДЫ

Аннотация. Из-за различных предположений о происхождении медицинской одежды исследователи не могут прийти к однозначному мнению о том, кто первым стал носить медицинский белый халат, ставший впоследствии символом всей медицины. Белая одежда – символ спасения, но когда и кто именно предложил белый халат, шапку, а позднее и другие виды медицинской одежды? В статье речь идет именно об этом.

Ключевые слова: белый халат, кепка, перчатки, медицинский работник, одежда, маска, символ, платье, хирург, болезнь, жестокий бой, медицина, гигиена, теория, пациент.

HISTORY OF MEDICAL CLOTHINGS

Annotation. Due to various assumptions about the origin of medical clothing, researchers cannot come to a clear opinion about who was the first to wear a medical white robe, which later became a symbol of all medicine. White clothing is a symbol of salvation, but when and who exactly proposed the white robe, cap, and later other types of medical clothing? The article talks about them.

Key words: white robe, cap, gloves, medical worker, clothing, mask, symbol, dress, surgeon, disease, brutal battle, medicine, hygiene, theory, patient.

Tibbiy kiyimlarning kelib chiqish tarixi ko‘p asrlik davrga ega bo‘lib, bu davrda kuchli o‘zgarishlar orqali bizga hozir tanish bo‘lgan ko‘rinishga ega bo‘lgan. Tibbiy kiyimlarning kelib chiqishining turli xil taxminiy fikrlar tufayli tadqiqotchilar birinchi bo‘lib, kim, keyinchalik, barcha tibbiyotning ramziga aylan-gan tibbiy oq xalat kiyganligi haqida aniq fikrga kela olmaydilar. Oq xalat eng insonparvar kasb vakili—tibbiyot xodimlarining kasbiy kiyimining ajralmas qismidir. Oq kiyim—bu najotkorlik ramzi, ya’ni, oq rang najot ramzi, tibbiyot xodimlarining oq xalati muammoga yordam berishning ramzi. Ammo qachon va kim aynan oq xalat, kepka, keyinchalik, boshqa turdagи tibbiy kiyim-kechaklarni taklif qilgan? Eng avvalo, biz epidemiologik kiyim-kechakni eslashimiz kerak. Rim va o‘rtasidagi tibbiyot xodimlari vabo, chechakning halokatli epidemiyasi paytida yuzlar yopiq, uzun suyak, charm yoki yog‘och tumshug‘i og‘izga biriktirilgan — tibbiyot xodimlari va bemor o‘rtasida xavfsizlik zonasini yaratish va infeksiyalangan havodan nafas olmaslik uchun uzun qora kiyimlar ishlataligan.

Medico della Peste niqobi odadtagi vaqtida kiyilmagan, ammo epidemiyaya paytida uni bemorlarga tashrif buyurgan tibbiyot xodimlari kiygan.¹ Uning tumshug‘i shaklidagi uzun buruniga turli xil aromatik yog‘lar yoki yoqimli hidli o‘tlar qo‘ylgan bo‘lib, ular vabo infeksiyasidan himoya qiladi deb ishonilgan. Ko‘zlar uchun tirqishlarga shisha linzalar kiritilgan. Epidemiologing qo‘lida uzun tayoq bo‘lgan, u bilan bemorga qaysi obyektni va qaysi dorini olish kerakligini ko‘rsatgan. Keyinchalik, o‘rtasidagi yuqorida aytilganlarning barchasiga qo‘sishma ravishda, tibbiyot xodimlari yovuz ruhlardan himoya qiladi deb o‘ylagan charm liboslar kiyib, tutatqi bilan tayoq olib yurishgan. Tarixda bundan-da qo‘rqinchli kiyim bo‘lmagan. Shu tarzda kiyigan tibbiyot xodimlari Rim ko‘chalarida yugurishgan, ularning ko‘rinishi shunchalik dahshatli bo‘lganki, bolalar ulardan qo‘rqib qochishgan. Shunga o‘xshash kiyimni vabo epidemiyasi paytida Yevropadagi tibbiyot xodimlari ham kiyishgan. Tibbiyot xodimlari, xususan, jarrohlar, XIX asrning ikkinchi yarmigacha xalatlardan, umuman, foydalananmaganlar. Jarrohlar, hatto jiddiy operatsiyalar paytida ham fartuk (ba’zan qo‘llariga yengchalar) kiyishgan. Bundan tashqari, niqob ham shapkachalar ham bo‘lmagan. Tibbiyot xodimlari hech qanaqa maxsus kiyim korjoma (shimi bilan ko‘ylagi birga qo‘sib tikilgan ish kiyimi korjoma, jomakor) kiyishmagan. Jarrohlik amaliyoti (operatsiya) xonasining markazida talabalar va boshqa ishtirokchilar operatsiyani kuzatuvchilar uchun bir necha qator o‘rindiqlar bilan o‘ralgan stol bo‘lgan. Jarrohlar qo‘lqop kiyishmagan va odadtagi kiyimlarida bo‘lishgan, ularning ustiga kiyimlarni qon dog‘laridan himoya qilish uchun fartuk kiyishgan, xolos. Muolajalar paytida terapevtlar (ichki kasalliklarni davolovchi shifokorlar) ham fartuk kiyishgan. Ammo tibbiy ko‘rik paytida emas. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘rtasidagi Yevropa universitetlarida tibbiy ma’lumot olgan va faqat ichki kasalliklarni davolash bilan shug‘ullanadigan tibbiyot xodimlari va ilmiy ma’lumotga ega bo‘lmagan jarrohlar o‘rtasida qat’iy kasbiy va ijtimoiy-huquqiy gradatsiya (bir bosqich yoki holatdan ikkinchi bosqich yoki holatga o‘tishdagi izchilik) mavjud bo‘lgan. Tibbiyot xodimlari deb hisoblanmagan va tibbiyot xodimlari safiga kiritilmagan. Tibbiyot xodimlari va jarrohlar orasida shafqatsiz kurash bo‘lgan. Shunga ko‘ra, o‘sha davrning rasmiy tibbiyotini ifodalovchi tibbiyot xodimlari va daqqi-jarrohning liboslar sezilarli darajada farq qilgan. Jarrohlar kasbni hurmatli va qimmatli deb ta’kidlash uchun qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan qimmatbaho liboslar kiyishgan. Mashhur tabib va alkemyogar Paratsels ommaviy fikrni aks ettirib, tibbiyot xodimlari tegishli kiyimlardan tashqari, qo‘llariga qimmatbaho toshlar bilan uzuk taqishi ham kerak deb yozgan. Masalan, eng buyuk gumanist va yozuvchi Fransua Rable o‘z davrining urf-odatlariga ko‘ra tib-biyot doktori diplomi bilan birga oltin uzuk, qora pardadan tikilgan plash va qip-qizil qalpoqqa ham ega bo‘lishgan.

Bunday tibbiyot xodimlarining kiyimlari uzunligi bo‘yicha farq qilgan va ularning o‘zlarini eng murakkab jarrohlik amaliyotlarini bajarish huquqiga ega bo‘lishgan. “Kalta etakli” ikkinchi toifadagi jarrohlar, asosan, sartaroshlar bo‘lib, nisbatan oddiy operatsiyalar bilan tish tortish, qon quyish va shunga o‘xshash muolajalar bilan shug‘ullanishgan. Ular kasbning quyi pog‘ona vakillari hisoblanishgan va tibbiyot hamjamiyatiga kiritilmagan. Shunga qaramay, O‘rtasidagi tibbiyot xodimlari yoki dorishunoslarning kiyimlari olim, ilohiyotchi yoki oddiy, ammo badavlat fuqaroning kiyimidan unchalik farq qilmagan. Asta-sekin, olim-tabibning ajralmas atributlari sifatida ta’sirchan liboslar va marvaridlar oddiy xalat bilan almash-tirilgan. Aynan shu yerda shifokorlar ajralib turish uchun biroz bosh qotirishlari, urinib ko‘rishlari kerak bo‘lgan, ammo tez orada oddiy yo‘l topilgan. Tibbiyot xodimlari qonga bulangan o‘sha kir syurtuk (erkak-larning uzun bel burma kamzuli)da kasalxonaga borishaver ganlar. Bunday sodiqlik ularning qashshoqligidan hech qanday dalolat bermagan, aksincha, g‘urur masalasi va bu xalat egasining katta tajribasi va talabining isboti bo‘lib xizmat qilgan.

¹Амосова, Н.Н. Этимологические основы словарного состава современного английского языка. Текст. М., изда-во иностр. литературы, 1956, 218 с.

Vaqt o‘tishi bilan terapiya qip-qizil qalpoqchalar va oltin uzuklardan va jarrohlik “yiringli” muolajalar paytida charm fartuk kiygan “kalta yetakli” siryulniklar jamoasidan kelib chiqqan.¹ XIX asrda tibbiyot xodimlari uchun kasbiy kiyim-kechaklar haqidagi qarashlar ham sezilarli darajada o‘zgargan. Paxxayib turadigan liboslar va qonga bo‘yalgan xalatlar kiyim bilan almashtirilgan, ularning yaroqliligining asosiy mezonlari gigiyena va qulaylikdan iborat bo‘lgan. XIX asrning ikkinchi yarmida tibbiyot xodimlarining xalati tibbiyot xodimlarining kundalik amaliyotiga kirgan. “Xalat” so‘zi arab tilidan olingen (hil at – faxriy kiyim). Lotin tilida “tibbiy xalat” toga medici deb tarjima qilinadi. Dunyoda birinchi marta Karl Andreyevich Rauxfus 1869-yilda rus pediatri tibbiyot xodimlari va hamshiralalar uchun oq tibbiyot xodimlari xalatini taklif qilgan. Biroq hali ham tibbiy xalatlar birinchi marta hamshiralik formasi (rahm-shafqatli opa-singillar) sifatida paydo bo‘lgan deb hisoblanadi. Opa-singillarning an’anaviy libosi rahm-shafqat bizga monastirni eslatadi, chunki monastir devorlari ichida tibbiy yordamga muhtojlarni davolash amalga oshiriladi. O‘rta asrlarda shifoxonalar yoki gospitallar hali mavjud bo‘lmagan. Agar biz o‘sha davr rassomlarining ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “tibbiy kiyim” obrazini qayta tiklash mumkin: oq fartukli uzun to‘q rangli ko‘ylak va bir xil rangdagi ro‘mol. Keyinchalik, ro‘mol oq qalpoq bilan almashtirilgan va XIX asr oxiriga kelib, oq manjet va ish vaqtida yeng ustidan kiyiladigan yengchalar paydo bo‘lgan. Biroq yigirmanchi asrning o‘rtalariga qadar jarrohlar va hamshiralalar shlapa, niqob yoki maxsus kiyim kiymagan, qo‘lqop ishlatmagan va odatdagi kiyimlarida kiyangan, ularning ustiga qon dog‘laridan himoya qilish uchun fartuk kiyilgan. Operatsiya uchun asboblar va aksessuarlar sterilizatsiya qilinmagan. Bugungi konsepsiyanidan farqli o‘laroq, poklik va sterillikni ta’kidlaydigan jarrohlikdan keyin muvaffaqiyatlari operatsiya qiluvchi jarrohning o‘ziga xos belgisi uning kiyimida qon borligi deb hisoblangan. Hamma narsa faqat odamlar mikroblarning xavfi haqida bilganlarida, 1860-yilda ingliz gigiyena mutaxassis Jozef Lister antiseprik (yarani kimyoviy vositalar bilan zararsizlantirish) nazariyasini rivojlantira boshlaganidan keyingina o‘zgardi. Tibbiy xalatlar tarixini tibbiyot xodimlari asta-sekin steril kiyim va rezina qo‘lqoplar niqob kiyish zarurligini tushuna boshlagandan keyin boshlangan. Nemislar 1870-yilgi Franko-Prussiya urushi paytida birinchi bo‘lib oq xalatlarni doimiy amaliyotga kiritganlar va XX asr boshlariga kelib jarrohlik muolajalari paytida oq xalat, qalpoq va niqob odatiy holga aylangan. Ammo 1918-yilda o‘n millionlab odamlarning hayotini vayron qilgan jahon ispan grippi epidemiyasidan keyingina tibbiy xalat va qalpoq ham jarrohlar, ham boshqa mutaxassislik tibbiyot xodimlari uchun kiyimning majburiy atributiga aylandi. 1918-yilda “ispas grippi” epidemiyasidan keyin va Listerning antiseprik nazariyasiga² qiziqish ortib borayotgan ba‘zi jarrohlar operatsiya xonasida paxta doka niqoblarini kiyishni boshlaganlar. Biroq bu bemorni infeksiyalardan himoya qilish uchun emas, balki jarrohning o‘zini bemor yuqtirishi mumkin bo‘lgan kasalliklardan himoya qilish uchun qilingan. Operatsiya xonasi xodimlari ham qo‘llarini himoya qilish uchun rezina qo‘lqop kiyishni boshlaganlar. Oq xalatning kelib chiqishining boshqa taxminiy fikrlari ham mavjud. Taxminiy fkrlarga ko‘ra, u go‘yo sharqdan kelgan – qadimgi zardushtiylik tabiblari shunday kiyangan.

Rossiyalik rus tibbiyot xodimlari, shuningdek, 1877–1878-yillardagi rus-turk kompaniyasi paytida oq xalat kiyishgan deb hisoblashgan. Boshqa taxminiy fikrlarga ko‘ra, 1880-yillarda birinchi oq xalatlarni poytaxt Burdenko kasalxonasi tibbiyot xodimlarilari kiyishgan. Har holda, bunday holat kamdan kam uchragan. Fotosuratlar va badiiy adabiyotlar yordamida oq xalat amaliy foydalanishga qanday mos kelishini kuzatishimiz mumkin. Shunday qilib, Chexov, garchi tibbiy mavzularida yetarlicha yozgan bo‘lsa-da, tibbiyot xodimlarida, umuman, oq xalat uchramaydi. Vikentiya Veresayevaning “shifikorning eslatmalari”da “Uchinchi kursda, dars boshlanganidan ikki hafta o‘tgach, men birinchi marta yarani yorish amaliyotida qatnashgan edim” degan yozuvni oqishgan: Sovet davrida, albatta, oq xalat va shlapa shifikorning to‘liq atributiga aylandi. Biroq yigirmanchi asrning 1950–1960-yillardidan boshlab oq xalat o‘zgara boshladи. Endi nafaqat tozalik va kraxmal qadrlanadi, balki rangli qo‘srimchalar paydo bo‘ladi, dastlab, rangli qo‘srimchalar bilan xalatlar katta shifoxonalarga xodimlarning turli bo‘limlarga mansubligini ifodalash uchun burytma qilingan. Keyin, ayniqsa, kichik tibbiyot xodimlari orasida–operatsiya xonalariga mos shim kostyumlari uchun moda paydo bo‘lgan. Tibbiy shimplarning eng keng tarqalgan formalarining rangi–havorang, ko‘k, pushti. So‘nggi yillarda och binafsha rang juda mashhur. Bugungi kunda oq xalat o‘z o‘rnini yo‘qotmoqda. Gigiyenik nuqtayi nazardan yanada amaliy va mukammalroq “shim kurtkali kiyimlari” paydo bo‘lmoqda, ular yanada optimistik ruhidagi ranglarga bo‘yalgan. Ulardan qonni, umuman, yuvish shart emasuni krandan oqayotgan suv bilan osongina yuvish mumkin. Biroq tibbiyot oliv o‘quv yurti talabalari va

¹ Саттарова Р.М. Семантика наименований верхней женской одежды в английском языке в сопоставлении с немецким. Дис. канд. филол. наук, 10.02.20. Текст, Уфа, 2004, 223 с.

² Озер С.П. Семантика эпонимов антропонимической модели в лексике одежды (на материале русского и английского языков). Учёные записки. Гуманитарные науки. Худжанд, Худжандский государственный университет имени академика Б.Гафурова. 2013, № 3(36), с. 65 – 73.

qabulxonalardagi shifokorlar hali ham oq xalat kiyib yurishadi. Bu an'ana qayerdan boshlanganligi haqidagi xotirani unutmaslik kerak. Bu inson tafakkurining g'alabasi va tibbiy faoliyatning chuqur ramzi ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun oq rang davolash uchun qasam ichganlarning garderobidan hech qachon butunlay yo'qolmaydi. Shunday qilib, oq rang hech qachon davolash qasamyodi qilganlarning shkafidan butunlay yo'qolmaydi.

Xulosa qilish mumkinki, tibbiyyot xodimlari kiyim-kechaklari tarixini o'rganish tibbiyyot xodimlari kasbining rivojlanishini o'rganish nuqtayi nazaridan dolzarb masaladir.

Foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Амосова Н.Н. Этимологические основы словарного состава современного английского языка Текст. М., изд-во иностр. литературы, 1956, 218 с.

(2). Саттарова Р.М. Семантика наименований верхней женской одежды в английском языке в сопоставлении с немецким. Дис. канд. филол. наук, 10.02.20. Текст. Уфа, 2004, 223 с.

(3). Озер С.П. Семантика эпонимов антропонимической модели в лексике одежды (на материале русского и английского языков). Учёные записки. Гуманитарные науки. Худжанд, Худжандский государственный университет имени академика Б.Гафурова. 2013, № 3(36), с. 65 – 73.

Jomardova Dilafruz Qahramonovna (Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat Tibbiyat instituti "O'zbek tili va adabiyoti, rus tili, pedagogika va psixologiya" kafedrasiga o'qituvchisi)

RUS VA O'ZBEK TILLARIDA YARATILGAN REKLAMA DISKURSIDA APELLYATIV LEKSIKANING IFODALANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada rus va o'zbek tillarida yaratilgan reklama diskursida apellyativ leksikaning ifodalanishi yoritilgan. Tadqiqotda tibbiyat rus va o'zbek tillaridagi reklama matnida uchraydigan apellyativ leksikaning xususiyati, qo'llanilish imkoniyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: apellyativ leksika, reklama diskursi, tibbiyat, nutq, lingvistik olam, belgi, fikr, intellektual, tilshunoslik, tadqiqot.

ВЫРАЖЕНИЕ АППЕЛЛИТИВНОЙ ЛЕКСИКОНЫ В РЕКЛАМНОМ ДИСКУРСЕ, СОЗДАННОМ НА РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье описывается выражение апеллятивной лексики в рекламном дискурсе, созданном на русском и узбекском языках. Исследование посвящено особенностям и возможностям использования апеллятивной лексики, встречающейся в тексте медицинской рекламы на русском и узбекском языках.

Ключевые слова: апеллятивная лексика, рекламный дискурс, медицина, дискурс, языковой мир, знак, мысль, интеллектуал, лингвистика, исследование.

EXPRESSION OF APPELLITIVE LEXICON IN ADVERTISING DISCOURSE CREATED IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. This article describes the expression of appellative lexicon in the advertising discourse created in Russian and Uzbek languages. The research deals with the features and possibilities of use of the appellative lexicon found in the medical advertising text in Russian and Uzbek languages.

Key words: appellative lexicon, advertising discourse, medicine, discourse, linguistic world, sign, thought, intellectual, linguistics, research.

Kirish. Reklama asosida yotuvchi appellativ matn (murojaatga asoslangan) aniq belgilangan appellativ, ya'ni qabul qiluvchini ma'lum bir postkommunikativ harakatga undovchi funksiyasi bilan alohida ajralib turadi:

"Ищете качественное лечение? Это Индия!N. Всемирно известный Индийский Jaypee Hospital предлагает вам высококачественное медицинское обслуживание по доступным ценам.

Вы можете получить доступ к:

Лучшим докторам с многолетним опытом.

Профессиональной медпомощи.

Новейшим медицинским технологиям и процедурам.

Посетите Индию для самого лучшего лечения!

Оставьте заявку прямо сейчас, чтобы получить подробную консультацию".

"Планирование замены тазобедренного сустава в Индии?

Известные больницы и лучшие хирурги.

Индивидуальный и доступный план операции.

100% помочь с путешествиями и визой.

Пролечено более 30 000 пациентов".

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bu misollardagi apellyativ matn kichik hajmli, qat‘iy strukturali bo‘lib, ko‘plab uyushiq bo‘lakli qismlardan iborat, tibbiy xizmat mavzusi qator si-fat birikmalari orqali izohli ifodalanib, jumlalar va xatboshilar o‘rtasida zanjirli aloqa o‘rnatalgan, ya‘ni xizmatdan foydalanuvchilarga taklif etilayotgan imkoniyatlar birin-ketin taqdim etilgan. Tibbiy xizmatlar reklamasi misolidagi ushbu matn Y.V.Komlevaning “apellativ matnning konsepsiysi yoxud asosiy g‘oyasi ma‘lum bir qabul qiluvchini bevosita nutq davomidagi yoki postkommunikativ harakatga undash bo‘lgani holda o‘zaro uyg‘un tarzda bog‘langan, matnda mavjud murojaatning funksional-semantik kategoriyasini namoyon etuvchi til birliklari vositasida hosil bo‘ladigan eksplitsit ifodaga ega bo‘lishi lozim” [4]ligi borasidagi fikr-mulohazalarini tasdiqlaydi. Bunday funksiya turli tipdagisi adresatlarni harakatga keltirishga qaratilgan omilga asoslanadi.

Murojaatning funksional-semantik doirasidagi bo‘laklar rolida harakatga bevosita va bilvosita undovchi ma‘noviy qurilmalar, murojaatlar, so‘roq gaplar maydonga chiqadi. Funksional-semantik kategoriyanı nutq bilan bog‘lovchi vosita kategorial vaziyat hisoblanadi. Ma‘lum bir tildagi ko‘plab vositalar orqali ifodalanuvchi bu kategorial vaziyat funksional-semantik kategoriyaning turli ko‘rinishlarini tahlil qilishga xizmat qiladi. A.V.Bondarko talqinida kategorial vaziyat matn darajasidagi funksional-semantik kategoriya hamda funksional-semantik doira proyeksiyasi hisoblanadi [1]. Apellativlikni bu kategoriyalar qatoriga qo‘shishga sabab bu kategoriya atamasining nutqda amaliy vazifa bajarishiga urg‘u beradi hamda apellyativlikning funksional-semantik doirasidagi qismlarining o‘zaro aloqasini appellativ mazmunni ro‘yobga chi-qaruvchi soha sifatida yagona faoliyat ko‘rsatuvchi tizim – matnda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Maqsad va vazifalardagi mushtaraklik, masalan, iste‘molchini harakatga undash butun bir tizimli funksional, ma‘noviy va stilistik jihatdan birlashgan til va nutq vositalarini qo‘llashni talab etadi. Zero, bu vositalar turli matnlarda turlicha qo‘llaniladi. Apellyativ funksiyani maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish uchun esa til vositalari nafaqat umimiyl grammatic mazmun jihatdan, balki turli darajadagi til vositalarining funksional matn, ya‘ni kontekstda o‘zaro bog‘lanishini ta‘minlash lozim. Bu esa birikishning ma‘no-shakl tamoyili emas, balki appellativ funksiyani amalga oshiruvchi aniq kommunikativ-funksional birikishdir.

X.Kaftanxadijiyev tavsifiga ko‘ra, ifoda vositalari: a) fonetik ifoda vositalari; b) leksik-grammatik ifoda vositalari; d) stilistik-grammatik ifoda vositalariga bo‘linadi [3].

Fonetik ifoda vositalari rism, fonetik takror, epifora, anafora va alliteratsiyadan iborat.

Alliteratsiya, boshqa tovush vositalari singari ayri ma‘noga ega emas. Bu hissiy ta‘sir etish uchun qo‘llaniladigan qo‘shimcha vosita bo‘lib, uni tarjimada saqlash dushvor. Masalan: “*Mening maqsadim – mammun patsientlar!*” Bu o‘rinda esa tarjima quyidagicha amalga oshirilgan: “*Моя цель – довольные пациенты!*” Albatta, bu o‘rinda alliteratsiya hodisisi saqlanmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu maqolada biz o‘zbek va rus tibbiy reklamalarida appelyativ leksikani qiyosiy chog‘ishtirgan holatda tadqiqot olib borganmiz. Ushbu tadqiqotda rism (qofiya) alohida o‘rin tutadi. Rismlik matnni ma‘no va uslubni saqlab qolgan holda, yangi muvofiq rism bilan tarjima qilish eng afzal variant hisoblanadi. Masalan, “*Qorinda yig’ilsa dam, davodir Espumizan!*”da dam – Espumizan, “*Мезим, для желудка незаменим!*”da Мезим-незаменим, «*От природы Вам совет, Геделикс – и кашия нет!*»da совет-нет so‘zлari qofiyadosh sifatida reklamaga ixcham shakl berib, uning jozibadorligini oshirgan.

Quyida o‘zida takroriy konstruksiyalar, metonimiya, metafora, perifraza, giperbola, qiyoslash, jon-lantirish kabilarni o‘z ichiga oladigan leksik-grammatik ifoda vositalar xususiyatlari tahlil qilinadi.

Jonlantirish butun brendga “insoniy”, “shaxsiy” fazilatlarni ko‘chirish usuli bilan o‘zgacha tus be-rishdir.

Keyingi usul – giperbola. Ushbu usul qabul qiluvchi diqqatini zudlik bilan tortgani uchun uni matn boshidayoq qo‘llash samarali natija beradi. Masalan, “*Hayot bu yerdan boshlanadi*”.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Metaforik iboralar o‘quvchi yo tinglovchi diqqatini faol-lashtirish, uni qiziqtirish hamda keyingi matn bilan tanishish xohishini kuchaytiradi. Bu matnni o‘rganish uchun psixologik turki sifatida ham xizmat qiladi. Metafora qo‘llangan jumlalarni tushunish va talqin etish uchun esa ularda yashiringan pragmatik axborotga murojaat qilish kerak bo‘ladi. Misollardan ko‘rinib turibdiki, metafora bilan ifodalangan timsol axborotni anglash va tasavvur qilish uchun qulay qulay vosita bo‘lib, uning obruzli xususiyati axborotni singdirish jarayonini ancha yengillashtiradi.

Apellyativ funksiya vositasi tarzida qo‘llangan metafora fe‘l strukturali gaplarda ham qo‘llaniladi.

Ushbu misollardagi *позволяет (С-дуга), обеспечивает (С-дуга)* predikatlari (fe‘llari) qoidaga ko‘-ra jonli subyektlar bilan qo‘llanadi. Berilgan misollarda esa ular metaforik mazmun kasb etib, natijada jonsiz otlar ularning subyekti sifatida maydonga chiqadi. Metaforali sarlavhani o‘qigan iste‘molchi keyingi ma‘lumotga qiziqish bildiradi, unga yetmayotgan axborotni topish uchun reklama matnini to‘liq o‘qib chi-qadi.

Quyidagi misollarda ot bilan birgalikda metafora orqali ifodalangan fe'llar ajoyib birikmalarni hosil qilib, o'quvchi tasavvurida ma'lum bir obrazlar yaratadi. Buning natijasida retsepiyentni qiziqtirish hamda matnni o'qish yo'ning tinglashga yo'naltiriladi.

Metafora bilan ifodalangan sarlavha va keyingi jumlalar appellativ funksiyani bajarishi, asosan, substantiv gaplar orqali amalga oshiriladi.

Endi metonimiyanı ko'rib chiqamiz. Bu usulga ko'ra, mahsulotga reklama beruvchi tomonidan biror bir xususiyat beriladi hamda ushbu mahsulot ma'lum bir xususiyatlarning jonli ifodasiga aylanadi.

"Predmet, shaxs yoki hodisa tavsifini aniq va sifatlari berishda ancha ishonchli vosita" [2] sifatida, ko'-pincha, turli darajadagi sifat va ravishlardan foydalananadi. Masalan:

"С-дуга—это инновационное оборудование, которое позволяет врачам получать высококачественные изображения с минимальной дозой излучения. Благодаря плоскопанельному детектору, С-дуга обеспечивает быстрое и точное сканирование объектов любой сложности. Если вы хотите обеспечить свою клинику современным и высокотехнологичным оборудованием, наша С-дуга – это именно то, что вам нужно. С ее помощью вы сможете проводить быстрые и точные диагностические исследования, что позволит вам принимать решения по лечению пациентов на ранних стадиях заболевания. Не упустите возможность приобрести С-дугу для своей клиники и обеспечить своим пациентам наивысший уровень медицинского обслуживания. Сделайте вашу клинику лидером в области диагностики и лечения, используя самое современное оборудование! Для более подробной информации: +998991145050; www.neomtechnomed.com".

Ushbu www.neomtechnomed.com saytidagi shifokorlar va tadbirkorlarga mo'ljallangan reklama matni ilmiy uslubda tayyorlangan bo'lib, undagi C-дуга tibbiyot uskunasi ta'rif-tavsifi ilmiy jihatdan teleshishli atamalar vositasida berilayotgan jarayonda kelajakdagi mijozga tasvirni yanada teran va chuqurroq yetkazib berish maqsadi **высококачественные изображения, минимальной дозой, быстрое и точное сканирование, любой сложности, современным и высокотехнологичным оборудованием, наивысший уровень** kabi qator sifat va ravishli birikmalar orqali uskunaning samarador jihatlari yaqqol ifodalangan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Hissiy jihatdan boy bo'lgan bunday metaforali jumlalar nafaqat yorqin obraz orqali o'quvchini befarq qoldirmaydi, balki axborotni yaxshiroq eslab qolishga xizmat qiladi.

Substantiv gapli sarlavhalarda qo'llaniladigan metaforalar reklamaga hissiy bo'yodkorlik baxsh etib, muallif bildirayotgan fikrni yorqin aks ettiradi. Bunday metaforalarni qo'llashdan maqsad qabul qiluvchini ma'lum bir tomonga yo'naltirish, o'sha mahsulotga bo'lgan ishonchini uyg'otish va mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Бондарко А.В. Грамматическое значение и смысл. Л., "Наука", 1978, 78-бет.
- (2). Калмыкова Е.И. Некоторые вопросы теории и функционирования метафоры (на материале художественной и научной прозы современного немецкого языка). Ученые записки. Вопросы романо-германской филологии. М., 1968, т. 45, с. 115–144; 123 с.
- (3). Кафанджиев Христо. Тексты печатной рекламы. М., "Смысл", 1995, с. 127.
- (4). Комлева Е.В. Лингвистические маркеры апеллятивности в еексте. 2009, «Педагогика и психология», «Филология и искусствоведение», 3(5), 749-бет.

Matnazarov Javlanbek Kabulovich (Ma'mun universiteti o'qituvchisi, PhD; javlanbekm@gmail.com),

Sabirova Gulnoza Xidirbayeva (UrDU mustaqil tadqiqotchisi; sabirova_gulnoza@inbox.ru)

JUMANAZAR YUSUPOV SHE'RIYATIDA MAQOLGA ISHORA QILUVCHI

INTERTEKSTLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorjam adabiy muhitining taniqli vakili, shoir J. Yusupovning "Najod ma'budi"to plamidagi she'riy matnlari tarkibida uchraydig'an maqol asosida yaratilgan ayrim intertekstual birliliklar haqida ma'lumotlar berilgan va bu birliliklar lingvopoetika tamoyillari asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: intertekst, badiiy matn, lingvopoetika, matn tilshunosligi, badiiy matn tahlili, lingvopoetik birlik, metoforik xarakter, poetik ma'no, poetizm.

Аннотация. В данной статье приводятся сведения о некоторых интертекстуальных единицах, созданных на основе пословицы, встречающейся в сборнике поэтических текстов поэта Ж. Юсупова, известного представителя хорезмийской литературной среды, и эти единицы анализируются на основе принципов лингвопоэтика.

Ключевые слова: интертекст, художественный текст, лингвопоэтика, лингвистика текста, анализ художественного текста, лингвопоэтическое единство, метафоричность, поэтический смысл, поэзия.

Annotation. This article provides information about some intertextual units created on the basis of a proverb found in a collection of poetic texts by the poet Zh.Yusupov, a famous representative of the Khorazm literary environment and these units are analyzed on the basis of the principles of linguo-poetics.

Key words: intertext, literary text, linguo-poetics, text linguistics, analysis of literary text, linguo-poetic unity, metaphor, poetic meaning, poetics.

Kirish. Badiiy matnni o'rganish va tahlil qilish, anglash va tushunish, his qilish maqsadida tilshunoslar tomonidan shu kungacha ko'plab tamoyillar ishlab chiqilgan va ularning nazariyalari yaratilgan. Matn tilshunosligi doirasida bu tamoyillarning ko'lami kengayib bormoqda. Buning sababi badiiy matn tilkabi murakkab hodisa, ya'ni u hamisha takomillashib, turli qiyofa kasb qilib boraverishidadir. Bunga adabiy maydondagi turli izlanishlar imkon berishi aniq. "Ijtimoiylik xususiyati tilning eng yirik birligi hisoblangan matn uchun ham xos, albatta".¹

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbek tilshunosligida badiiy matn tahliliga oid lingvopoetika gaga oid tadqiqotlar olib borgan olim Ma'rufjon Yo'ldoshev badiiy matnni til tahliliga tortish masalasida quyidagi tamoyillarga amal qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaydi:

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili.
2. Makon va zamon birligi tamoyili.
3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili.
4. Badiiy matndagi poetik aktualashgan til vositalarini aniqlash tamoyillari.
5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili.²

Intertekstual mexanizmlarni aniqlashda badiiy matnning o'quvchiga psixik ta'siri, o'quvchining mental xususiyatlari, ijtimoiy kelib chiqishi, bilim darajasi, arial mansubligi kabi ko'plab omillarni inobatga olish va shu asoslarga tayanib ish ko'rish lozim. Hatto o'quvchi (matnni idrok etuvchi)ning qaysi madaniyatga mansubligi ham ahamiyatlidir.

Badiiy matnnning jozibasi so'z bilan, so'z vositasida yuzaga chiqadi. So'zning gorizontal va vertikal ma'nolanishi jarayoniga nisbatan badiiy asar yuzaga chiqishi ayon haqiqatdir.

Adabiyot, qisqa qilib aytganda, so'zning qurolda aylanishidir. Shuning uchun adabiyotning negizida so'z yotganligini inkor qilib bo'lmaydi. Istalgan matn so'zlardan bunyod bo'ladi va hosila estetik vazifa bajarsa, bu badiiy matn demakdir.

Bugungi o'zbek she'riyati yangi nafas, yangi obraz va ifodalar bilan boyitib kelayotgan Xorazm adabiy muhit vakillari ham o'z she'rlari bilan milliy adabiyotimizda munosib o'rni va nufuzga ega. XX asrning 2-yarmidan boshlab bu muhitdan yetishib chiqqan ijodkorlardan O.Matjon, M.Abdulhakim, E.Samandar, O.Erkin, R.Nazar, U.Otayeva, G.Ibodullayeva, K.Avaz, E.Baxt, S.Inoyatov, J.Yusupov, Y.Eshmurodov, O'.Davletov va boshqa shoirlarni sanab o'tishimiz mumkin. Ayniqsa, bu so'z zargarlarini ichida ixcham bo'ilisa ham, zalvorli tosh bosadigan she'riyat sohibi Jumanazar Yusupov diqqatga sozovor ijodkorlardan. Uning bor yo'g'i bitta she'riy to'plami nashrdan chiqqan.³ Shunga qaramay, shoir ijodi tilshunoslik va adabiyotshunoslikka muhim va qimmatli material bera oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shoir qalamiga mansub bir she'rda "po'kak" so'zi o'z ustiga katta badiiy yuk oladi va shu bir so'z atrofida boshqa so'zlar uning zamirida yashirinib yotga ma'noning qalqib chiqishiaga xizmat qiladi.

She'r quyidagicha boshlanadi:

U nimadan qayg'urar

Sevinadi nimadan.

O'zi oddiy bir po'kak

Tushib qolgan kemadan.

She'r davomida "oddiy po'kak"ning olamshumul hodisaga aylanishiga guvoh bo'lishingiz mumkin. Asar davomida po'kak metoforik xarakter kasb etib, tuban va pastkash, har "oqimga" yo'rg'alab ketaveradigan "oqimparast" odam qiyofasini ko'z oldimizga keltiradi va she'r quyidagicha yakunlanadi:

¹ Xomidova M.F. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. f.f.b.f.d. (doctor of philosophy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya, T., 2021, 78-bet.

² Yo'ldoshev M., Z.Isaqov, Sh.Haydarov. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Metodik qo'llanma, mas'ul muharrir N.M. Mahmudov, T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010, 29-bet.

³ Yusupov Jumanazar. Najot ma'budi. She'rlar. Urganch, "Xorazm" nashriyoti, 2016, 241-bet.

*Yiroqlarga ko'z solsang,
Nigohlarga ilinar.
Qiziq uni yutmagan,
Dengiz xunuk ko'rinar.¹*

Ehtimol, bu hayotda ko'rganingiz har vaziyatdan qutula oladigan, barcha bilan kelishib ketaveradi-gan odam timsolidir.

Badiiy adabiyotda, xususan, she'riy asarlarda so'zning poetiklashuvi muallif mahorati bilan bog'liq. Metaforalar, shunga ko'ra, an'anaviy va yangi metaforalarga ajraladi. Masalan, maishiy buyumlardan biri o'roq so'zi o'z ma'nosi bilan birga ko'chma ma'noni ham olib yuradi. Bu ma'no qiruvchi, yo'q qiluvchi, jallod quroli ma'nolaridir. Buni majozni tushungan odam darrov ilg'aydi. Misol keltiramiz: "Qatag 'on o'rog'i 38-yilda millat gullarini o'rib tashladi". Yana bir sabab ish quroli bo'lgan o'roq tarkibida bu sema-ning turg'unlashuviga olib keldi, bu qattol Sovet davlati bayrog'ida o'roqning aks etishidir. Ko'rinaridiki, o'roq so'zining salbiy ma'noda metaforalashuvi mustaqillikdan keyin sodir bo'lgan nisbatan yangi, lekin an'anaviy metaforadir. Vaholanki, tarixning hech bir davrida bu buyum jallod quroli vazifasini o'tamagan. Yoki "latta" so'zi doim o'zi bilan "bo'sh, yuvvosh odam" semasini olib yuradi. Shoir J.Yusupov "o'roq" va "latta" so'zlarini biz sanagan yuqoridagi ma'nolarda qo'llaganida, muallifning bu so'z qo'llashini yangi metafora deya olmas edik, lekin "po'kak" bu o'rinda originalligi bilan ajralib turibdi.

Xullas, she'rning o'zak so'zi "po'kak"ni jonlantirish va unga ulkan poetik ma'no yuklay olish maho-rati va bu holatdan zavq olish tuyg'usi shoirning so'zdan ustalik bilan foydalanishini ko'rsatgan, qisqasi, bu so'z jarayonda poetizmga aylanadi.

Bundan tashqari, shoir intertekstuallikni yuzaga keltirishda mahoratli shoir ekanligini ham namoyon qila olgan. Bunda aynijsa, maqol asosli intertekstlar diqqatga sazovor. Maqollar ham, aslida, so'zdan bino qilingan xalq donoligi mahsuli – badiiy matnning bir ko'rinishi. Shu ma'noda shoir ijodida maqollarga ishora qilingan o'rirlarni ko'rib chiqamiz:

*Yuz yoshda ham siz aka,
Biz uka bo'lib qolamiz.
Ha, o'zbekning kichigimiz
Nima deya olamiz. (NM – 20)*

Bu o'rinda maqolga ishora mavjud. Xususan, maqolda "O'zbekning kichigi bo'lguncha, Kuchugi bo'l" tarzida keladi.² Bu o'rinda o'sha maqoldan birikma keltirish orqali o'quvchida yengil kulgu kayfiyat paydo bo'ladi. Lirik qahramon bu o'rinda o'zining ojizligini, muteligini yengil kulguga yo'yib qo'ya qol-gani ko'rinish turibdi.

J.Yusupovning yana bir she'rida "Osilsang, baland dorga osil, Yiqilsang, maydonga yiqil"³ maqoliga ishora mavjud bo'lib, unda tushkunlik ruhi sezilib turadi. Oldingi she'rdagi intertekst kulgu uyg'otgan bo'l-sa, bu she'rda hasrat ruhi yetakchilik qiladi:

*Baland dorsan senga osilib,
Umidlarim yig'laydi zor-zor. (NM – 55)*

Bu o'rinda shakl va mazmun uyg'unligi dorningsov uyg'umligi, ma'shuqaning loqayd va be-parvoligi bilan uyg'unlashib ketganida ko'rindi. Maqol mazmunidagi shu detal sababli she'rning hissiy ta'siri yuqori darajaga ko'tarilgan.

Shoirning "Omonat" she'rida muallif maqolning genetikasini o'zgartiradi. Buning natijasidan o'quv-chi – adresantning tafakkur prizmasi ishga tushib ketadi va u o'z-o'zidan muallif hosil qilgan hosila bilan maqolning asliyatini solishtiradi va ularning farqli va o'xshash tomonlarini nazardan o'tkaza boshlaydi.

*Tor ko'ngilda zor mingta
Qadring yig'lar qorningda.
Hatto sevar yorning-da
Quchoqlari omonat. (NM–101)*

"Qadring yig'lar qorningda" misrasini o'qishimiz hamonoq "Qornimga yig'lamayman, Qadrimga yig'layman"⁴ maqoli esga keladi. Bu usulda o'quvchiga axborot yetkazish ustingizdan bir chelak suv quyib yuborgan kabi ta'sir ko'rsatadi; o'quvchi sergak tortadi, fikrlaydi, his qiladi. Mohiyatan olib qaraganda, qo-rin xirsning, nafsning manbayi, qadr esa rahmoniy tushuncha, bu ikkala tushuncha bir-biriga qovushmaydi,

¹Yusupov Jumanazar. Najot ma'budi. She'rlar. Urganch, "Xorazm" nashriyoti, 2016, 66-bet (To'plamdan olingan ke-yingi misollar qisqartirilgan shaklda beriladi).

² Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. T., "Sharq", 2005, 467-bet.

³ Shu manba. 397-bet.

⁴ Shu manba. 240-bet.

lekin ularni qo'shish uchun shoirona o'tkir nigoh talab qilinadi. Aslida, shoir aytmoqchi, bular omonat va o'tkinchi narsalardir, dunyoga ko'ngil bog'lama uning jilvalariga uchma.

Yana bir muhim faktini esdan chiqarmaslik zarur, O'zbekistonda o'ttizinchi yillarda va elliginchi oltmishinchi yillarda katta ocharchiliklar bo'lib o'tgan. Buning natijasida millat geniga ochlikdan qo'rqiish sindromi o'rnashib qoldi. Shu sababdan bizda qadrlashning bir ko'rinishi sifatida mehmon qilish an'anasi millat tafakkuriga singishib ketgan ko'rindi. Uyga mehmon kelsa, non berib yuborish, yostiq ostiga non qo'yib yotish an'analari ochlikdan qo'rqiishdan kelib chiqqan udumlardir. Jadid bobolarimizdan biri, ma'rifatparvar Alixonto'ra Sog'uniy, "Agar o'zbeklar boshqa ishlarga ham oshga kelgandek birlashib yig'ilal olganlarida edi, dunyoda bundan qudratli millat bo'lmas edi",¹ deb bijizga aytmagan. Qisqasi, "qoringa ko'r-satilgan hurmat" tuban odam uchun eng yaxshi qadrlash namunasi ekanligi she'rda ta'kidlangan deyish mumkin.

Maqollarda jiddiy ijtimoiy munosobatlar, xalqning dardi, o'y-fikrlari, nafrati va quvonchi ham ay-yorligi, quvligi ham bo'y ko'rsatib turadi. Xalq orasida shunday bir g'alati maqol bor: "Nodon boraveradi, dono pora beradi", "O'zbek xalq maqollari" kitobida esa ushbu maqolning "Qoziga bora berma, pora ber"² variantini uchratdik. Har holda ushbu maqollarning genezisi bir ko'rindi. Shoir shu maqoldan xabardor bo'lsa kerak, bir o'rinda shunga ishorani kuzatdik:

"Otstavka" ga-ku chiqqani g'alat,
Ilojini topib pora berdi-yov.
Bechora Mirzabek ish deb jon halok
Soddaligin qilib boraverdi-yo 'v. (NM-124-bet)

Bu o'rinda ochqich so'zlar "pora berdi", "boraverdi". Muallif bu o'rinda shu so'zlarni qo'llash asnosida, nozik so'z o'yini qilgan va ahamiyatsiz poraxorlar ustidan kulgan. She'rdagi Mirzabekka achinish kayfiyati buni aytib turibdi.

Tahlil va natijalar. Ko'rindaniki, intertekstuallikning voqealanishi va muvaffaqiyatli chiqishida o'quvchining salohiyati, saviyasi, bilimi hamda ko'nikmalarini inobatga olish zarur. Yuqorida holatda intertekst juda ham muvaffaqiyatli chiqmagani ko'riniib turibdi. Sababi o'quvchi uchun bu maqola boshqalari kabi yaxshi tanish emas.

Xulosa va takliflar. Badiiy asar tahlili jarayonida maqolga ishora qiluvchi intertekstual birliklarni, umuman, har qanday intertekstni anglashda o'quvchining salohiyati, makon va zamon, diqqati hamda tasavvuri katta ahamiyatga ega. Badiiy matnlarda intertekstlarni aniqlash ko'nikmasini shaklantirish maqsadida shoirlar ijodidagi shu birliklarni o'rganish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish vaqtি keldi deb o'yaylimiz. Bu orqali badiiy matnni yaxshiroq anglashga yo'l ochiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Yusupov Jumanazar. Najot ma'budi. She'rlar. Urganch, "Xorazm" nashriyoti, 2016, 241-bet.
- (2). Xomidova M.F. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. F.f.b.f.d. (doctor of philosophy) ilmiy darajasi olish uchun tayyorlangan dissertatsiya, T., 2021, 152-bet.
- (3). Yo'ldoshev M., Z.Isaqov, Sh.Haydarov. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Metodik qo'llanma, mas'ul muharrir N.M.Mahmudov, T., Alisher Navoij nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010, 120-bet.
- (4). Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. T., "Sharq", 2005, 512-bet.
- (5). <https://hikmatlar.uz/quote/2644>.

Nasrulloyeva Nasiba Sadullayevna (TATU Samarqand filiali dotsenti; e-mail: naasibka@mail.ru)
INTERNET MUHITIDA JARGONLASHISH HODISASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada internet muhitida jargonlarning yasalish hodisasi o'rganiladi. O'zbek tilshunosligida internet va kompyuter jargonlarini o'rganish ilk qadam bo'lib, internet va kompyuter jargonlarini o'zbek va ingliz tillarida solishtirishga qiziqish ortib borayotgani hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biridir.

Kalit so'zlar: termin, lingistik hodisa, terminologiya, jargon, jargon, internet, kompyuter, texnologiya, til, professional.

ФЕНОМЕН ЖАРГОНИЗАЦИИ В ИНТЕРНЕТ СРЕДЕ

Аннотация. В данной статье исследуется феномен интернет-жаргона. Одной из актуальных проблем является растущий интерес к исследованию интернет и компьютерных жаргонов, что является первым шагом в узбекском языкоznании, и сопоставлению интернет и компьютерных жаргонов на узбекском и английском языках.

¹ <https://hikmatlar.uz/quote/2644>

² Shu manba. 494-bet.

Ключевые слова: термин, лингвистическое явление, терминология, жаргон, сленг, интернет, компьютер, технология, язык, профессиональный.

THE PHENOMENON OF JARGONIZATION IN THE INTERNET ENVIRONMENT

Annotation. This article explores the formation of jargon in the Internet environment. One of the pressing problems is the growing interest in researching the Internet and computer jargon, which is the first step in Uzbek linguistics and comparing the Internet and computer jargons in Uzbek and English.

Key words: term, linguistic phenomenon, terminology, jargon, slang, internet, computer, technology, language, professional.

Kirish. Jargon tilning ajralmas qismi hisoblanib, leksikologiyaning eng munozarali muammolaridan biri sifatida qaraladi. Jargonni tilshunoslikda doimiy rivojlanib, o‘zgarib turadigan alohida bir hodisa bilan bog‘lash mumkin.

L.S.Baxudarov professionalizm va jargonizmlarning o‘rtasidagi farqni aniqlash qiyin masala ekanligini ta‘kidlar ekan, “... albatta, lug‘at tarkibi o‘rtasida aniq bir chiziq hosil qilish juda qiyin, bu farqlar ba’zi hollarda shunchalik ahamiyatsizki, ba’zida farqning o‘zi keraksiz bo‘lib ko‘rinadi. Biroq so‘zning ma’lum bir guruuga tegishli ekanligini aniqlash uchun mutlaq mezonnning yo‘qligi mavjud farqlarni inkor etish degani emas”, degan xulosaga keladi [2;237-b.]

Stilistika nuqtayi nazaridan, jargon, sleng yoki sotsiolektga nutqning sofligini buzuvchi muammo sifatida qarash bilan birga, bu “tizimning organik va ma’lum darajada zarur qismi” [3;168-b.] ekanligini unutmasligimiz lozim. Nutqiy faoliyatda foydalanish nuqtayi nazaridan qaralsa, jargon va professional slenglar dialektizmlarga nisbatan ancha torroq doirada foydalanish bilan ajralib turadi. Jargonlar profesionalizmlar qoida tariqasida, faqat aholining ayrim tor guruhlari uchun tushunarlidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Hozirda internet va kompyuter jargoni shakllanishi evolutsion jarayonlarning eng ko‘zga ko‘ringan yutuqlaridan biri deb hisoblanmoqda. Internet foydalanuvchilari global tarmoqda “tilning tajribasi” bilan shug‘ullanmoqdalar, bu esa o‘z o‘rnida jargonning axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislarga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan maxsus leksika sifatida shakllanishiga olib kelmoqda. Kompyuter va internet jargon, ijtimoiy-lingvistik hodisa sifatida shakllanib, mutaxassislar, turli darajadagi kompyuter va internet foydalanuvchilari o‘rtasida muloqot qilish uchun ishlatiladi.

Internet jargoni – bu professional muloqotda (masalan, AKT mutaxassislari) va boshqa kompyuter foydalanuvchilari tomonidan ishlatiladigan jargon turi hisoblanadi. Ushbu tushunchalar internetda professional nutqqa kirib keldi. Ushbu jargonlarning aksariyati ingliz tilidan olingan. Shubhasiz, tarjima tilshunoslikning barcha sohalarida muhim rol o‘ynaydi, kompyuter tilidan tarjima ham bundan mustasno emas, albatta.

Internet jargonlari internet sohasiga bevosita aloqador bo‘lmagan odamlarning nutqida ham paydo bo‘ladi, ya’ni, bu kompyuter va internetdan oddiy foydalanuvchilarining tili bo‘lib, ular ma’lum bo‘lganligi sababli yoki biron-bir aloqa vositasi sifatida foydalanadilar. Ushbu sohadagi mutaxassislar – kompyuterchilar, tizim ma’murlari, xakerlar, geymerlar va h.k. tomonidan yaratilgan va ularini tashki dunyodan ajratishga imkon beradigan professional jargon foydalanidilar.

Professional jargonlarni tanlash aynan o‘sha kasb leksikasidan kelib chiqadi. Bunday til birikmalari ning haqiqiy leksik bazasining asosini tegishli professional terminologiyani qisman takrorlaydigan va uni qisman to‘ldiradigan professional voqelikning nomlari tashkil etadi. Ijtimoiy (guruhiy, korporativ) jargonlarni taqsimlash kasbiy guruhnng ijtimoiy izolatsiyasiga bo‘lgan xohishlariga asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Internet o‘z individualligini yagona axboriy tuzilmaning bir qismiga aylangan holda shakllantira oldi, buning natijasida informatika va hisoblash texnikasi tili bilan shug‘ullanuvchi terminshunoslar ushbu til doirasida internet terminologiyasining paydo bo‘lishi haqida so‘z yurita boshladilar [1;163-b.]

O‘zbek tilining kompyuter jargon leksikasi ingliz tilidan o‘zlashtirmalar hisobiga to‘ldiriladi. O‘zbek kompyuter leksikasida inglizcha so‘zlarning ko‘pligini belgilovchi omillar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, kompyuterlarni, asosan, amerikalik firmalar ishlab chiqarganligi sababli, ingliz tilidagi terminologiya ustuvor hisoblanadi.

Ikkinchidan, ingliz tilining ijtimoiy tarmoqlardagi ommabopligi. Til tizimida an’anaviy tarzda ajratib ko‘rsatiladigan so‘z yasash usullari, bu: affiksatsiya, konversiya, so‘z qo‘shish, abbreviatsiya.

hub – xab. Ushbu jargon kompyuterlarni mahalliy tarmoqqa ulash uchun qurilma. Odatda, signal kuchaytiruvchisi bilan birlashtiriladi. Bir necha ulash uyali quti shakliga ega. Xab yordamida bog‘langan kompyuterlar muloqoti “bittasi uzatadi – barcha eshitadi” tamoili bo‘yicha amalga oshiriladi. Eng oddiy xablar ko‘p portli takrorlovchilar.

So‘z qo‘shish – so‘z yasash usuliga qarama-qarshi so‘z yasash usuli (affiksatsiya va tovush almashi-nuvi yordamida), – to‘liq ma’noli so‘zlar yoki ularning negizlarini yaxlit shakllangan majmuaga, murakkab so‘zga birlashuvi. Bunda quyidagi usullar ajratib ko‘rsatiladi: 1. Sof so‘z qo‘shish (negizlarni qo‘shish). 2. Chatishma (ikki yoki undan ko‘p komponentdan iborat totivlangan so‘z morfologik tarkibi bo‘yicha sintaksik so‘z birikmasiga aynan o‘xhash).

snail-mail – axborotni uzatishning urfdan qolgan usuli; *cyberbuddy* – internetdagi suhbattosh; *rollover* – bir nechta tugmani bir vaqtida (tasodifan) bosilishi; *laptop* – yo‘lda ishlataladigan EHM; *whois* – tizimli buyruq; *bagbiter* – xatoga yo‘l qo‘ygan dasturlovchi; *craftsmanship* – dasturning tushunarsiz xususiyati; *two-spot* – ikki nuqta; *flatworm* – tagiga chizish, ta’kidlov; *user-friendly* – qulay muloqot vositalari bor tizim va h.k.

Tahlil va natijalar (Analysis and result). Internet bu global tarmoqdir. Uni butun jahon o‘rgimchak to‘ri (World Wide Web) deb ham atashadi. Internet, ingliz tilidagi “interconnected network” iborasining qisqartirilgan ko‘rinishi bo‘lib, global kompyuter tarmog‘i ma’nosini anglatadi.

Ma’lumki, termin ma’lum sohaga tegishli ekanligi bilan ajralib turadi. Uning qo‘llanilish doirasi keng, tor doira bilan cheklanmaydi. “Terminlar – bu maxsus so‘zlar bo‘lib, ular o‘zining alohida maqsadi bilan chegaralangan. Bu shunday so‘zlarki, ular tushunchalarning aniq ifodasi va narsalarning nomi sifatida bir ma’noli bo‘lishga intiladi” [5;127-b.].

N.V.Gyach terminologik maydon nazariyasini ilgari surar ekan, quyidagi xulosani bergen edi: “... agar terminlar qaysi terminologik guruh a‘zolari ekanligi ma’lum bo‘lsa, unda ular kontekstdan tashqarida ham yashay oladilar. Umum til so‘zlaridan farqli o‘laroq, terminlar bir ma’nolikka kontekst shartlari orqali emas, balki bu terminologiyaga mansublik orqali ega bo‘ladilar. Shu tufayli termin so‘zlar termin bo‘lmagan so‘zlardan farqli ravishda, kontekstga bog‘liq bo‘lmaydi” [4;28-b.].

Internet muhitida jargonning bir necha turlari ishlatalidi:

1. Terminlar. Jargonlarni tushunish uchun kompyuter va internet sohasida qo‘llaniluvchi tushunchalarni bilish, ikkinchidan esa juda ko‘p tushunchalar va terminlar o‘zlashmalardan iborat bo‘lganligi sababli ingliz tili kompyuter va internetni bilish lozim.

2. Smayliklar tarmoqda muloqot qila olish imkoniyati internet jargonininig ko‘pgina boshqa jargonlardan farqlovchi xususiyatini, ya’ni muloqotning og‘zaki kanali bilan birga o‘ziga xos yozma aloqa kana-llini ham aniqlab berdi. Uning o‘ziga xosligi shundaki, “tarmoqdagi muloqot” faqat yozishmalar emas, balki Real vaqt davomida dialoglar uchun ham imkoniyat beradi, bu uni og‘zaki muloqotga yaqinlashtiradi. Smayliklar (ingl. smile – “tabassum” degan ma’noni beradi). Bu juda ham ommabop maxsus piktogrammaли belgilari, ular qavslvr, ikki nuqta, tire va boshqa simvollar yordamida yaratiladi va shartli ravishda mimikaga yo‘ldosh so‘zlovchining nutqini aks ettirishga qaratilgan, masalan, :?;, :?(, ;?), :?/. Smayliklar, odatda, muloqotga o‘yin elementini olib kiradi, mazmunli axborotdan ko‘ra emotsiyalarni ifodalashga xizmat qiladi.

3. Qisqartmalar. Internet kommunikatsiyasi faqat yozma shaklda qo‘llanadigan yangi til oborotlarini ham yaratgan. Tarmoqdagi muloqot uchun mo‘ljallangan til formulalalri va grafik belgilarning paydo bo‘lishi yozma nutqni og‘zakisiga o‘xshatish istagi hamda xabarni kiritish jarayonini tezlashtirishga intilish bilan izohlanadi. Shunga yarasha qisqartirish va qirqish yordamida yasalgan so‘zlar va abbreviaturalarning soni juda ko‘p va qo‘llanish chastotasi juda yuqori (komp, inet, vint). Abbreviaturalar va qisqartmalar haqida yozilmagan qoidalar mavjud. Ularning ko‘chiligi inglizcha yoziladi, chunki Amerika jargonidan o‘zlashtirilgan, masalan, IMHO (In My Humble Opinion, “mening kamtarona fikrimga ko‘ra” yoki ancha kengroq ham talqin etilishi mumkin: “menimcha”), pls (please), FAQ (Frequently Asked Questions).

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Jargon nutqdagi ifodalilikni oshirish, emotsiyalar va baholarni yetkazish maqsadida qo‘llaniladi. Internet jargonining leksik tarkibi, uning tematik strukturasi professional faoliyatning emotsiyalarini yoki an‘anaga ko‘ra, u yoki bu bahoga loyiq tomonlariga ishora qilishini taxmin qilish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Азнабаева Л.А. Принципы речевого поведения адресата в конвенциональном общении. Уфа, 1998.
- (2). Бархударов Л.С. Язык и перевод: вопросы общей и частной теории перевода. М., “Международные отношения”, 1975, 237 с.
- (3). Варфоломеева И.В. Аббревиатуры современного английского языка: когнитивно-дискурсивный аспект. Дис. ...канд. филол. наук, 10.02.04. Москва, 2007, 168 с.
- (4). Гяч Н.В. Сокращение или символ? Уч. зап. ЛГУ, №283, серия филол. наук, вып. 56, 1961, с. 28.
- (5). Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка. Проблемы структурной лингвистики. М., “Наука”, 1968, с. 103 – 127.

Kallibekova Gulnara Palbekovna (Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi; gulnara_kallibekova@mail.ru)

GAZETA PERIFRAZALARI ADABIY TIL GO‘ZALLIGINI O‘ZIDA AKS ETTIRADI

Annotatsiya. Maqolada davriy matbuot tilida qo‘llanilayotgan perifrazalar tahlil qilingan. «Янги Ўзбекистон», «Еркин Қарақалпақстан», «Қарақалпақ әдебияты» gazetalarida ishlatilayotgan perifrazalar taqqoslab o‘rganilgan. Mavzuni emotsiyal-ekspressiv shaklda yetkazib berishda perifrazalarning o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: fakt, til, adabiy til, qoraqalpoq tili, davriy matbuot, perifraza, leksika.

ГАЗЕТНЫЕ ПЕРИФРАЗЫ ОЛИЦЕТВОРЯЮТ КРАСОТУ ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В статье анализируются períphrases, используемые в языке периодической печати. Сравнительно изучены períphrases, используемые в газетах «Янги Ўзбекистон», «Еркин Қарақалпақстан», «Қарақалпақ әдебияты». Показана роль períphrase в передаче предмета в эмоционально-экспрессивной форме.

Ключевые слова: факт, язык, литературный язык, каракалпакский язык, периодика, períphrase, лексика.

NEWSPAPER PERIPHERALS EMBODY THE BEAUTY OF LITERARY LANGUAGE

Annotation. The article analyzes the períphrases used in the language of periodicals. The períphrases used in the newspapers «Янги Ўзбекистон», «Еркин Қарақалпақстан», «Қарақалпақ әдебияты» have been studied comparatively. The role of períphrase in the transfer of an object in an emotionally expressive form is shown.

Key words: fact, language, literary language, Karakalpak language, periodicals, períphrase, vocabulary.

Kirish (Introduction). Gazeta tili adabiy til go‘zalligini o‘zida aks ettiradi. Tilning tasviriy vositalari, leksik birliklar o‘z o‘rnida ishlatilishi natijasida gazeta tili doimo xalq tilining yuzi bo‘lib xizmat qiladi. Йўтимоий-сиёсиy gazetalar ommaning ma’naviy dunyoqarashini, nutq madaniyatini va huquqiy savodxonligini takomillashtirishda o‘rni beqiyos. Shu jihatdan ham davlatimizda sohalar hayotini so‘z etadigan matbuotlar mavjudligini, sohalarning yutuqlari sifatida ta’kidlab ko‘rsatishimiz o‘rinli. Turli xil sohalarga oid mavzularni ommaga yetkazib beradigan yangi-yangi gazetalar ham tashkil etilmoqda. Bu ham gazetaning jamiyat uchun ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Qoraqalpoq tilshunosligi va jurnalistika sohasida ham gazeta tili va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinmoqda [1;8-b.]. Ommaviy axborot vositalarining biri sifatida faoliyat olib borayotgan gazetalar tilini o‘rganish doimo dolzarb mavzularning biri. Mazzkur mavzu bo‘yicha E.Berdimuratov, A.Bekbergenov, M.Ayimbetov, Z.Orazimbetova, A.Pirniyazova, T. Masharipova, A.Najimov va D.Qurbaniyazovlar tadqiqot ishlarini olib borgan. Gazetalarda tasviriy vositalardan foydalanish xususiyatlari respublika, tarmoq va tuman gazetalaridagi qator misollar asosida o‘rganildi. Shaxs ma’nosini ifodalab kelgan perifrazalar gazeta materiallari asosida o‘rganilmoqda [5,6]. Yoshlar gazetasini hisoblangan «Qaraqalpaqstan jasları» gazetasidagi shaxs nomini bildirib kelgan perifrazalar [7] va qator maqolalarda tasviriylikni ta’minlab kelayotgan perifrazalar maxsus tahlil etilgan [2,3,4].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tilning tasviriy vositalarining biri hisoblangan perifrazalarni, ruknlar va sarlavhalarni qator gazetalarda foydalanish xususiyatlarini tizimli o‘rganish. «Yangi O‘zbekiston» gazetasining tashkil etilganligiga to‘rt yil to‘lmoqda. Gazetaning shiori: «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari». Gazetxonlar bilan birga ish olib borish maqsadida xilma-xil ruknlar mavjud. Sarlavhalarda ham faktlar mujassamligini ko‘rish mumkin. «Yangi O‘zbekiston» gazetasining 2023-yil 9-noyabr 233-sonida berilgan ruknlar va ularda bayon etilgan mavzularga ham e’tibor qaratamiz. Masalan: «O‘zbekiston strategiyasi–2030» ruknida «Taraqqiyot yoxud tanazzul, qay biri tomon borishimiz bugungi intilishlarimiz shiddatiga bog‘liq», «Mehrli jamiyat» ruknida «Insonni qadrlash yangi O‘zbekiston siyosatining qalbiga aylandi», «Biznes forum» ruknida «IHT (Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti) makonida iqtisodiy barqarorlik biznes vakillarining o‘zaro hamkorligiga tayanadi», «Munosabat» ruknida «Tarixiy mushtaraklik yo‘lida birdamlik dunyosi ko‘z ochmoqda», «Gender tenglik» ruknida «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash: yurtimiz va jahon tajribasi», «Nuqtayi nazar» ruknida «Sohibqiron boshlab bergan hamkorlik bugungi kunda yangicha mazmun va sur’atda rivojlanmoqda», «Xalqaro anjuman» ruknida «Ibn Sino: «Parhez qil shakardin zahari bo‘lsa...» maqolalari berilgan. Maqolalarda perifrazalardan faol foydalanilgan. Masalan: «Nuqtayi nazar» ruknida «Sohibqiron boshlab bergan hamkorlik bugungi kunda yangicha mazmun va sur’atda rivojlanmoqda» maqolasi Yahyo G‘ulomov nomidagi Samarqand Arxeologiya instituti bosh ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori Abdusobir Raimqulov muallifligida tayyorlangan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Maqolalardan olingan perifrazalarni tahlil qilamiz. Maqolalarda sanoq sonlar faol ishlatilgan. Masalan: «Karvon yo‘llari chorrahasida» ko‘rgazmasi ilk bor jahon-

dagi eng yirik muzeylardan birida ochildi. Ko‘rgazmaga tayyorgarlik ishlari 4 yil davom etib, mashhur Parij muzeyi uchun sopol, yog‘och, metall, devor suratlari va qog‘ozdan tayyorlangan 70 dan ortiq eng nodir eksponat restavratsiya qilindi» («Yangi O‘zbekiston», 2023.09.11;233-son). Misolda keltirilgan jahondagi eng yirik muzeylardan biri sifatida Parij muzeyi nazarda tutilgan. Eng yirik muzey perifrazasi orqali gazetxonning e’tiborini jalb qilishga erishilgan. Kontekstda so‘zni takror qollanishning oldini olish maqsadida ham foydalilanigan. «Sug‘d – Sug‘diyonaning birinchi poytaxti, afsonaviy Basileya shahrining joylashgan o‘rnini aniqlandi» («Yangi O‘zbekiston», 2023.09.11; 233-son). *Sug‘diyonaning birinchi poytaxti, afsonaviy Basileya shahri* perifrazasi gapning boshida aniq keltirilib o‘tilganidek, *Sug‘d shaxri haqida* aytilgan. Shaharning poytaxt va eski nomi qanaqa nomlanganligi tanishtirib o‘tilgan. «*O‘zbekiston–Fransiya (Afrosiyob) ekspeditsiyasi asoschisi, akademik, marhum Pol Bernar*, shogirdi Frants Grene va unda ishtirot etgan boshqa olimlar tomonidan yozilgan, Amerika, Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi eng nufuzli nashrlarda chop etilgan onlab ilmiy maqola va monografiyalarda Sug‘dning qadimiy tarixi, madaniyati, aholisining diniy va dunyoviy qarashlari, sug‘d tili va yozuvni tadqiq qilinib, ular bois, dunyo ahli O‘zbekistonning qadimiy madaniyatidan yanada kengroq boxabar bo‘ldi» («Yangi O‘zbekiston», 2023.09.11;233-son). Kontekstda, asosan, so‘z Frans Grene haqida bormoqda. Ammo u inson mashhur akademikning shogirdi ekanligi gazeta perifrazasi orqali tushuntirib o‘tilgan. Misolda keltirib o‘tilganidek, *O‘zbekiston – Fransiya (Afrosiyob) ekspeditsiyasi asoschisi, akademik, marhum – Pol Bernar* degan perifraza gapning boshida yaxshi tanlangan. «Hozir Madaniy meros agentligi tasarrufidagi Samarqand Arxeologiya instituti bilan *Fransyaning jahonga mashhur Luvr muzeyi* o‘rtasida 2009-yildan boshlab hamkorlik o‘rnatalgan» («Yangi O‘zbekiston», 2023.09.11.233-son). *Fransyaning jahonga mashhur muzeyi – Luvr* ekanligi aniq perifrazada ko‘rsatib berilganligi ham muallif mahorati hisoblanadi. «U buyuk olimning tabiat hodisalarini tushuntirishlaridan misollar keltirar ekan, Ibn Sino *koinatdagi to‘rt unsur – yer (tuproq), suv, olov va havoni* tabiatning boshqa bo‘laklarga bo‘linmaydigan juzvlari deb hisoblaganini bildirdi» («Yangi O‘zbekiston», 2023.09.11;233-son). *Koinatdagi to‘rt unsur* perifrazasi orqali – *yer (tuproq), suv, olov va havoni* ekanligi aniq yetkazib berilgan. Bu ham gazeta o‘quvchisini aniq faktlar bilan ishlashga, bilim darajasini mustahkamlashga, eslab qolish qobiliyatini yanada mustahkamlashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

«Yangi O‘zbekiston» gazetasining 2023-yil 21-iyul 144-sonida berilgan ruknlar va sarlavhalar xilma-xil mavzularni qamrab olgan. Masalan: «Buyuk o‘zbek yo‘li» ruknida «Taraqqiyotning shiddatli yetti yili iqtisodiy islohotlar rivojlanishning yangi davrini boshlab beradi» maqolasi, «Yangi O‘zbekiston ruhi» ruknida «Xalq xizmatidagi davlat» maqolasi, «Festival» ruknida «Dunyo sadolari»dan fayzli Xonobod», «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 75 yilligiga» ruknida «Hech bir bola e’tibordan chetda qolmaydi, bu tamoyil konstitutsiyaviy asoslangan», «Nuqtayi nazar» ruknida «Inson kapitaliga yo‘naltirilgan sarmoya mamlakat istiqbolini belgilovchi omilga aylanmoqda» maqolasi Toshkent Moliya instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari nomzodi Egamqul Nosirov va Toshkent Moliya instituti dotsenti vazifasini bajaruvchi Shoira Asamxo‘jayeva muallifligida tayyorlangan. «Yaqin o‘tmish yog‘dulari» ruknida «Yurt egasidan boshlangan adabiyot bayrami yoxud yosh ijodkorlarning respublika Zomin seminari tashabbuskori kim edi?» savol sarlavhali maqola O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Yangiboy Qo‘chqorov muallifligida tayyorlangan. «Yozgi oromgohlarda» ruknida «Bolalar salomatligini mustahkamlash tabiatan bahra olish uchun g‘oyat qulay fursat» maqolasi» «Yangi O‘zbekiston» gazetasining muxbiri Lutfulla Suvonov muallifligida tayyorlangan. «Tomorqachilik» ruknida «Rizqi butun yoshlari» maqolasi «Yangi O‘zbekiston» gazetasining muxbiri Gulichehra Durdiyeva muallifligida tayyorlangan. «Yaqin o‘tmish yog‘dulari» ruknida «Yurt egasidan boshlangan adabiyot bayrami yoxud yosh ijodkorlarning respublika Zomin seminari tashabbuskori kim edi?» savol sarlavhali maqolada shaxs nomini bildirib keladigan perifrazalar mavjud. Masalan: «Gap yangi zamon she’riyatning atoqli, shodlik va baxt kuychisi Hamid Olimjon tug‘ilgan Jizzax zamini haqida ketar ekan, bu go‘zal diyorga qadam qoygan kishi vujudini «bir ajib his» qamrab oladi» («Yangi O‘zbekiston», 2023.21.07;144-son). *Yangi zamon sheriyatning atoqli, shodlik va baxt kuychisi – Hamid Olimjon* ekanalgi aniq faktlarda kontekst ishida bayon qiligan. «Go‘zallik va nafosat kuychisi Hamid Olimjon tavallud topgan tabarruk zaminga, xush kelibsiz!» («Yangi O‘zbekiston», 2023.21.07;144-son). *Go‘zallik va nafosat kuychisi–Hamid Olimjon* ekanligi gazeta perifrazalari orqali xalq orasida ommalashgan perifraza hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, muallif mazkur perifrazadan kontekstda foydalangan. «O‘zi tog‘lar qizi bo‘lgan Sharifa Salimova ham yangi sherlar yozishi aniq» («Yangi O‘zbekiston», 2023.21.07;144-son). *O‘zi tog‘lar qizi–Sharifa Salimova* perifrazasi gazeta qo‘llanilayotgan perifraza hisoblanadi. Mazkur perifraza belgilangan hudud uchun ommalashgan bo‘lishi mumkin. Ammo barcha gazetxonlar uchun tanish perifraza emas. Ketirilgan perifraza adabiy tilimizda yangi perifraza sifatida qabul qilinishi ham yoki aksi bo‘lishi ham mumkin. Gazetalarda faol qo‘llanilmaydigan yoki birdan etiborni jalb qilmaydigan perifrazalar leksik fondga kiritilmasligi ham mumkin. Bu masalalar tadqiqotchi-larga ham bog‘liq deb atab ko‘rsatishimizga bo‘ladi.

Sohalarga oid perifrazalar ham mavjud. Masalan: «Men davrimizning, asosan, Qaysin og‘a, Mustay og‘a, Dovud og‘a, Rasul og‘a, Chingiz og‘a, Ibroyim og‘adan iborat adiblar davrasida ishtirot etganman. Boshqacha o‘ylashmasin, deb piterlik qahramon shoir Mixail Dudinni boshchi qilib yurishardi» («Yangi O‘zbekiston», 2023.21.07;144-son). Matndagi piterlik qahramon shoir – Mixail Dudin perifrazasi o‘rtada berilgan. Perifraza orqali qaysi shoir nazarda tutilganligi aniq ko‘rsatilgan. Matn mazmunini o‘qish orqali muallif mahorati, bilim va bilish dunyosi keng ekanligini atab ko‘rsatishimiz o‘rinli. «O‘sha davrada Qaysin Shuvayevich «*Ona tilimiz tomirlarimizda oqib turgan qonimiz!*» degan edi» («Yangi O‘zbekiston», 2023.21.07;144-son). *Ona tilimiz* – *tomirlarimizda oqib turgan qonimiz* perifrazasi faol qo‘llaniladigan perifraza hisoblanadi. «Anjuman boshlandi. Xotira bobida men ham oddiy odamman. Uyg‘un Ro‘ziyev degan yosh ishtirokchining qo‘lida «Atirgul» degan satirik romanning qo‘lyozmasini ko‘rgan edim. U bugun nasrimizning bir boyteragi. Nodirjon Xolbo ‘tayev degan navqiron yigitga sherini ikki bora o‘qitishdi» («Yangi O‘zbekiston», 2023.21.07;144-son). *Bugun nasrimizning bir boyteragi* – *Nodirjon Xolbo ‘tayev* perifrazasi foydalilanigan. Perifraza axborot berilayotgan hududda so‘z etilayotgan mavzu yuzasidan qo‘llanilganligi ko‘zga tashlanadi. Chunki bugungi nasrimizning boyteragi, bugundi davr qahramonlari kabi perifrazalar mazkur obyektda qanday mavzu so‘z etilsa, shundan kelib shiqib, kontekstda foydalilanadi. «Farg‘onaning Uchko‘prigidan Shuhratjon Oripov degan o‘ninchisinf o‘quvchisi she’r o‘qidi. Ajoyib shoir *Shuhrat Orif* bugun elimizning ilg‘or so‘z san’atkori» («Yangi O‘zbekiston», 2023.21.07;144-son). Yaqinda ulug‘ *Rasul Hamzatov haqidagi «Dog‘iston donishmandi»* kitobim chiqdi» («Yangi O‘zbekiston», 2023.21.07;144-son). *Matnlardagi bugun elimizning ilg‘or so‘z san’atkori* – *Shuhrat Orif, Dog‘iston donishmandi – Rasul Hamzatov* perifrazalari ham aniq perifrazalar sifatida ta‘kidlab ko‘rsatishimizga bo‘ladi. Gazetxon uchun kim haqida so‘z etilayotganligini kontekst mazmuniga to‘liq e’tibor qaratilsa, aniq fakt ni olishi mumkin. Bu kabi perifrazalar gazetalarda faol qo‘llanilmoqda.

«Qaraqalpaq a‘debiyat» gazetasasi 2020-yil 9–10-sonlarida «Ádebiyattaniw» ruknida «Tulg‘anin taplanowi» mavzusida Qoraqalpog‘iston xalq yozuvchisi, filologiya fanlari nomzodi Allanazar Ábdiyevning maqolasi berilgan. Maqola lid matnida perifrazalardan ketma-ketlikda foydalilanigan. Masalan: «Xalqi, uli ushin hadal xizmet etkenler, mártlik kórsetken tulgalar hesh qashan umitilmaydi. Olar búgingi áwlad ushin *jol kórsetiwshi juldiz, qaharmanlıq, haqiyqatlıq, hadallıq timsali* sıpatında ulıglana beredi: mártlikleri, at-qarğan ullı xızmetleri tillerde dástan bolip aytila beredi: *jazıwshı-shayırlar tárepinen jazılıp, jırlana beredi*» («QÁ», 2020, 9–10-sonlar). Lid matnidagi mazkur misoldagi *jol kórsetiwshi juldiz, qaharmanlıq, haqiyqatlıq, hadallıq timsali* perifrazasi orqali *ullı jazıwshılar, shayırlar* so‘zi nazarda tutilgan edi. «Jaqında jazıwshı *xalqımız ómirinde belgili orni bar usinday tariixiy tulǵa* – Allayar Dosnazarov tuwrali «Allar Dosnazarovtın balalığı» atamasındaǵı povestin pitkerip, «Ámiwdárya» jurnalınıñ 2022-jılıgı sanlarında shıǵarmadan úzindi járiyaladı» («QÁ», 2020, 9–10-sonlar). Matndagi *xalqımız ómirinde belgili orni bar tariixiy tulǵa* perifrazasi orqali maqola qahramoning nomini takror qo‘llanishning oldi olingan. «Allayar Dosnazarov – *qaraqalpaq xalqınıñ mámlekетshiligin tiklewde qaharmanlıq xızmetler atqarğan belgili insan*» («QÁ», 2020, 9–10-sonlar). Keyingi misolda perifraza aniq ko‘rsatilib, kontekst orqali uning mazmuni tushuntirilgan. Bu ham gazetaning matnni yaxshi tushunchalar, faktlar orqali bayon qılısh shakli sıfatida diqqatga sazovor.

«Erkin Qaraqalpaqstan» gazetasining 2023-yil 7-oktabr 120-sonida «Kitap jańalığı» ruknida «Ámiw azamatları haqqında kitap» mavzusidagi xabar Kóbeysin Ernazarov tomonidan tayyorlangan. Kontekstdagi shaxs nomini bildirib keladigan perifrazalardan misol keltiramiz: «Kitaptın sonğı betlerindegi «Tariyxqa aylanǵan súwretler» rubrikasında *elimizge belgili ullı insanlardan Ózbekstan Qaharmanları İ.Yusupov, T.Qayipbergenov, A.Óteniyazov, G.Xojaniyazovlar* menen birge hárqıylı kásip iyeleriniň súwretlerin kórip erksiz ótmishimizdi eske túsiremiz» («EQ», 2023.07.10; 120-son). Misolda ko‘rsatib o‘tilganidek, *elimizge belgili ullı insanlar, Ózbekstan Qaharmanları* perifrazalari gazetada faol ishlitish natijasida, adabiy tilimizda avvaldan bor bo‘lgan so‘zlar yana ham ommalashmoqda. «Erkin Qaraqalpaqstan» gazetasida «Jańa jeńislerdiń bekkem tiykari» mavzusidagi maqola ÓzA muxbirlari Javohir Toshxo‘jayev va To‘lqin Ro‘ziyev tomonidan tayyorlangan. Maqolada sport mayzusiga oid perifrazalarni uchratish mumkin. Masalan: «Tórt jilliqtıñ en abiraylı kompleksli oyınlarında Ózbekstan sport delegaciyası 38 sport túrinde 370 ten aslam sportshi menen qatnasıp, 32 olimpiada, 6 olimpiadalıq emes sport túrlarinde medallar ushin gúres alıp bardı» («EQ», 2023.12.10;122-son). «Mámlekетtimizde hár tárepleme bárkamal áwladı kamalǵa keltiriwdıń áhmiyetli quralı sıpatında denetárbiya hám sporttı rawajlandırıwǵa ayriqsha itibar qaratılıp atırǵanınıň nátiyjesinde kontinent kóleminde ótkeriletugın hár tórt jilliqtıñ abiraylı jarısı – Aziya oyınlarında sportshilarıñ turaqlı joqarı nátiyjelerge erisip kelmekte» («EQ», 2023.12.10;122-son). Misollardagi *tórt jilliqtıñ en abiraylı kompleksli oyınları – XIX jazǵı Aziya oyınları, hár tórt jilliqtıñ abiraylı jarısı – Aziya oyınları singari ma’ nolarni bayon qılıb kelgan*. Sport sohasiga oid materiallar gazetalarda maxsus ruknlarda beriladi. Sportga oid perifrazalar mavzuning yana ham qiziqarli yetkazib berilishida ahamiyati katta.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Perifrazalar davriy matbuot tilida faol ishlataladi. Gazeta perifrazalari doimo aniq faktlarda namoyon bo‘lishi kerak. Biz o‘rgangan misollarda har bir mavzuni qiziqarli va ta’sirchan shaklda yetkazish maqsadida tasviriy vositalar jurnalistlar va tashqi mualiflar tomonidan faol foydalanilgan. Maqolalarda *sanoq sonlardan foydalanilgan perifrazalarni, shaxs nomini bildirib keladigan perifrazalarni, sohalarga oid perifrazalarni va sport mavzusiga oid perifrazalarni* faol uchratish mumkin. Tadqiqotchilar gazeta perifrazalarini janrlar asosida maxsus o‘rganishini taklif sifatida ta’kidlab ko‘rsatamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

- (1). Pirniyazova A., Kallibekova G. Jurnalist do‘retiwshiliginde perifrazalardin’ xizmeti. “Ilm hám jámiyet”, 2023, № 2, 80 – 83-betlar.
- (2). Kallibekova G. Perifrazalar gazeta tilining tasviriy vositasi sifatida. “Ilm sarchashmalari”, Urganch, 2023, 2-son, 141–145-betlar.
- (3). Kallibekova G. Medialingvistikani takomillashtirishda gazeta tilining ahamiyati. “Ilm sarchashmalari”, Urganch, 2023, 5-son, 157–160-betlar.
- (4). Marziyayev J.K., Kallibekova G. Media tili ha’m stili. O‘quv qo‘llanma, T., “Metodist”, 2023, 124-bet.
- (5). Kallibekova G.P. The role of paraphrases in the work of a journalist. International Scientific Journal. Theoretical and Applied Science. Philadelpiya. 2023, № 1 (117), p. 384 – 390.
- (6). Kallibekova G.P. The language use of the Daily press is one of the main tools that improves the literary languages. American Journal of Science and Learning for Development. 2023, № 2 (February), p. 52–58.
- (7). Kallibekova G., Allamuratova D. “Qaraqalpaqstan jasları” gazetasining qoraqalpoq adabiy tilini rivojlantirishdagi faoliyati. “Ilm sarchashmalari”, Urganch, 2023, 8-son, 156 – 160-betlar.
- (8). Kallibekova G. Baspasəz tiilinde қолланылып атырган periframalarдың изертленији. «Хәзирги қаракалпақ филологиясының әхмийетли мәселелері» атамасындағы (филология илимдеринин докторы П. Нуржановтың 60 жыллық юбилейине бағышланған) республикалық илимий-теориялық конференция макалалар топламы. Нөкис, “Arial Nukus”, 2023, 384–388-betlar.

Usmonova Odina Siddiqovna (Andijon davlat universiteti “Rus tili va adabiyoti” kafedrası katta o‘qituvchisi; @usmonovaodina_85)

“TAOM” KONSEPTINING MADANIYAT TUSHUNCHASI SIFATIDAGI TAVSIFI

Annotatsiya. Maqolada oziq-ovqat nomlarini o‘rganish tilning leksik tizimini boyitishga yordam berishi va “Taom” konseptining madaniyat tushunchasi sifatidagi tavsifi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kognitologiya, konsept, lingvokulturologiya, mentalitet, antropologiya, etnolingvistika, konstruksiya, estetika, paradigm, leksikologiya.

ОПИСАНИЯ КОНЦЕПТА «ЕДА» КАК ПОНЯТИЯ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В статье рассматривается, как изучение названий продуктов питания способствует обогащению лексической системы языка и описанию концепта «Еда» как понятия культуры.

Ключевые слова: когнитология, концепт, лингвокультурология, менталитет, антропология, этнолингвистика, конструкция, эстетика, парадигма, лексикология.

DESCRIPTION OF THE CONCEPT OF “FOOD” AS A CULTURAL CONSEPT

Annotation. The article discusses how learning the names of food helps to enrich the lexical system of the language and the description of the concept of “food” as a concept of culture.

Key words: cognition, concept, linguo-culturalism, mentality, anthropology, ethnolinguistics, construction, aesthetics, paradigm, lexicology.

Til millatning mentaliteti, urf-odat va xususiyatlarining eng muhim aksi sifatida tan olingan. U insonnинг butun mavjudligini, shu jumladan, uning moddiy hayoti, ruhiy holati, estetik didi, madaniy va ma’naviy hayotini qamrab oladi. Oziq-ovqat nomlari tilning leksik tizimida ham muhim o‘rin tutadi, tilshunoslikda bu sohada keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Oziq-ovqat iste’moli inson hayoti uchun muhim va har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi bilan chambarchas bog‘liq. Oziq-ovqat nomlarini o‘rganish milliy til haqida tasavvur beradi va uni kelajak avlodlarga yetkazishga xizmat qiladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, mahsulot nomlari nafaqat tilshunoslarni, balki boshqa soha mutaxassislarini ham qiziqtiradi, chunki ular tarix va etnografiyani o‘rganish uchun material tayyorlab beradi. Oziq-ovqat nomlari o‘rganish tilning leksik tizimini boyitishga yordam beradi va katta ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Har bir xalqning o‘z tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi o‘ziga xos oshxonasi bor. Ushbu oshpazlik an’analari o‘rganish va tushunish juda muhim vazifadir. Taom konseptini o‘rganish fanning turli sohalarda davom etmoqda. Olimlar oziq-ovqat, uning inson organizmiga ta’siri va ijtimoiy-madaniy ahamiyati haqida doimiy ravishda yangi faktlarni kashf etmoqdalar. Ushbu ko‘p qirrali yondashuv insonga oziq-ov-

qatni yaxshiroq tushunish va bu ma'lumotlardan hayot sifati, sog'lijni yaxshilash uchun foydalanish imkonini beradi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish jarayoni turmush tarzining madaniy guruhiga kiradi. Tavomni tanovul qilish jarayoni insonning madaniy va kundalik turmush tarzining muhim qismi sifatida belgilandi. Ovqatlanish jarayoni madaniy hodisa bo'lib, u orqali inson o'zini ma'lum madaniyatning bir qismi sifatida biladi. Til tizimidagi "taom" konseptini quyidagicha izohlash mumkin: 1) oziq-ovqatlarni tanovul qilish, hazm qilish jarayoni sifatida; 2) turli xil obyektlarning to'plami bilan o'zaro bog'liq bo'lgan jamaaviy tushuncha sifatida.

Ma'lumki, qadim zamonlardan buyon odamlar taom va uni qanday tayyorlash jarayoniga qiziqishgan. Taom pishirish va ovqatlanish madaniyat hamda turmush tarzining ajralmas qismidir. Ushbu jarayonlar nafaqat ovqatlanishni, balki ijtimoiy, iqtisodiy, hatto psixologik omillarni ham o'z ichiga oladi. Tarix davomida turli soha olimlari taom tushunchasini o'rganib, yangi yondashuvlarni taklif qilishdi, sog'lam ovqatlanish sirlarini va uning inson salomatligiga ta'sirini kashf etishdi. Jumladan:

1. Oziq-ovqat tadqiqotlarining kashf etilishi. Oziq-ovqat komponentining ilmiy sohaga kiritilishi zoologiya va botanika sohasidagi tadqiqotchilarining ishi bilan bog'liq. Ular hayvon va o'simliklarning tabiatini o'rganishdi, bu esa yangi taom turlarini aniqlash va ulardan foydalanish imkonini berdi.

2. Tibbiyotda oziq-ovqat fanlarining dolzarbli. Ko'plab shifokor va fiziologlar yillar davomida oziq-ovqat hamda inson salomatligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishdi. Ular ozuqa moddalarini, shuningdek, oziq-ovqat allergenlari yoki individual imtiyozlar kabi turli omillarning tananing faoliyatiga ta'sirini aniqladilar.

3. Taomning hissiyotlarga ta'sirini psixologik tadqiqotlar o'rgandi. Vaqt o'tishi bilan oziq-ovqat bizning hissiyotimizga ta'sir qilishi mumkinligini tushunish boshlandi va rivojlanishda davom etdi. Olimlar qaysi ovqatlar ijobjiy yoki salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqarishi ustida tadqiqot olib borishmoqda.

4. Madaniyatshunoslik va oziq-ovqat tadqiqotlari. Antropolog va madaniyat tadqiqotchilarini taomlaraga katta e'tibor berishadi, chunki ular jamiyat urf-odatlarini aks ettiradi. Ular turli mintaqalardagi oziq-ovqat tarixini, uning migratsiya va globallashuv jarayonidagi modifikatsiyasini, shuningdek, ramziy ahamiyatini o'rganadilar.

5. Oshpazlik san'ati tadqiqotlari va yangi texnologiyalar. Ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi oziq-ovqat tadqiqotlariga ham ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda pazandachilikka tadqiqot va ijodkorlik sohasi sifatida tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Olimlar pishirishning yangi usullarini ishlab chiqmoqdalar, turli xil mahsulotlarning xususiyatlarini va konservatsiya texnologiyalarini o'rganmoqdalar [1].

"Taom" konseptining madaniyat tushunchasi sifatidagi tavsifi bir qator dissertatsiyalarda ko'rib chiqilgan. Jumladan, O.G.Savelyeva "taom" konseptini, asosan, kognitiv tilshunoslikka muvofiq dunyoning lingvistik manzarasining bir qismi sifatida ko'rib chiqadi. U taom konseptining mazmuni va tuzilishini tilmadaniyat o'rtasidagi munosabatlar asosida ochib beradi [2]. Z.A.Gulovaning dissertatsiya tadqiqotida esa mazkur konsept qiyosiy tahlil doirasida (rus va polyak tillarida) tavsiflangan [3]. Ushbu konseptni tavsiflash uchun madaniy tashuvchilar sifatida ikki tilning katta miqdordagi lingvistik materiallari jalb qilingan. N.I.Kovalev tadqiqotiga ko'ra rus xalq og'zaki ijodiyotidagi taom konsepti quyidagi ma'nolarga ega: 1) odamlar uchun mos bo'lgan barcha taom mahsulotlarining umumiyligi ma'nosi; 2) ovqatlanish jarayoni; 3) ovqat, yegulik.

Ma'lum bo'ladiki, taom konsepti muhim madaniy tushuncha bo'lib, u turli tarkibiy qismlar – moddiy qatlam, passiv qatlam va ichki shakllardan iborat. Garchi bu konseptni universal deb hisoblash mumkin bo'lsa-da, u barcha madaniyatlarda turli yo'llar bilan namoyon bo'ladi, bu esa har bir madaniyat dunyoqarashining ajralmas qismi ekanligini ko'rsatadi [4].

Rus xalq ertaklarida taom konseptining asosiy xarakteristikasi madaniy jihatdan o'ziga xos bo'lgan turli xil oziq-ovqat, ichimlik va yeguliklarning nomlarini ochib beradi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu konsept milliy konsept vazifasini bajaradi va milliy dunyoqarashning bir qismini tashkil etadi.

Taom konseptining passiv qatlamiga ovqatlanish, urf-odat va an'analar bilan bog'liq madaniy belgilari kiradi. Masalan, u rus oshxonasining boy xilma-xilligini, jumladan, pirog, baliq va bo'tqa, o'zbek oshxonasining esa osh, lag'mon, manti, norin, hasip, moshxo'rda kabi taomlarini aks ettiradi.

Olamning konseptual manzarasining xususiyatlarini o'rganish til egalarining madaniyati va fikrlash shakllarini idrok etishning eng samarali usullaridan biridir, chunki, bir tomonidan, "lingvokultural barqaror konseptlar – ramzlar inson xulq-atvori va dunyoqarashining o'ziga xos regulatorlari bo'lib, odamlarning axloqiy yoki kategorik tasvirlarga nisbatan tajribasini ifodalovchi qat'iy fikrlarni ifodalaydi" [5]. Boshqa tomonidan, konseptlar etnosning dunyonidagi idrok etishdagi faoliyati qayd etilgan natijalardir [6].

Etnik guruhning o'ziga xos xususiyatlari kundalik hayotda muhim va keng tarqalgan bo'lib, tadqiqot obyektiida aniq aks etadi. Shuning uchun ham taom nomlarini bildiruvchi lingvistik vositalarga e'tibor qa-

ratish lozim, chunki bu insonning asosiy kundalik harakatlaridan biridir [7]. Shuni alohida qayd etish lozimki, ta'mni bildiruvchi leksik semalar bo'lgan birliklar yuqori foydalanish chastotasiga ega. Ular nafaqat taomning ta'm sifatlarini tasvirlash uchun ishlataladi, balki, ham o'z ma'noda, ham majoziy ma'noda qo'llanadi. Shuningdek, ular inson, narsa, hodisalarining ham xususiyatlarini bildiradi. Masalan, "shirin" odamlarga xos bo'lgan asosiy ta'mlardan biridir. Ko'pincha, odamlar uglerodga boy ovqatlar iste'mol qilganda shirinlikni his qilishadi (masalan, shakar). O'zbek va qirg'iz tillarida bu ta'm shirin, rus hamda ingliz tillarida esa sladkij/sweet leksemalari bilan ifodalanadi.

A.V.Kutsenko ingliz tilidagi *sweet*, *bitter*, *sour* (shirin, achchiq, nordon) so'zlarining semantik tuzilmalarini va ularning rus tilida ekvivalentlarining mosligini o'rganib chiqdi [8]. Y.Y.Yarovaya "shirinlik" konseptini rus, fransuz va ingliz konseptual dunyo manzaralarida taqqosladi. L.I.Ivanova va K.B.Kuznesovlar rus va ingliz tillarida shirin va sweet sifatlarining semantikasini tahlil qildilar [9].

Ko'rinaridiki, oziq-ovqat semantikasi zamonaviy filologiyada faol o'rganilmoqda. Yigirmanchi asrning oxirida zamonaviy madaniyatda taom nomlari mavzusiga e'tibor sezilarli darajada oshdi. Tilshunoslikda oziq-ovqat semantikasi turli tadqiqot paradigmalarida o'rganildi.

Taomning lingvistik konsepti bilimlarni umumlashtiradigan kognitiv konstruksiya sifatida madaniy va lingvokultural kompetensiyaning mavjudligini anglatadi. Bu ma'lum bir lingvistik belgiga biriktirilgan madaniy ma'noning mohiyatini, shuningdek, xalqning barcha madaniy munosabatlari va an'analarini churqur tushunishga yordam beradi. "Taom" konsepti murakkab hodisa. U uzoq vaqtidan beri moddiy madaniyat va kundalik hayotning asosiy qismi bo'lib kelgan lingvistik hamda madaniy tushunchadir. Tarixiy jihatdan u madaniy qadriyatlar ichida birinchi paydo bo'lgan va rivojlangan sohani anglatadi. Shuning uchun milliy oshpazlik an'analarini madaniyatning eng barqaror jihatlaridan biridir. Odamlar yangi joyga ko'chib o'tganda, ko'pincha, ular uchun turli xil taom va idishlarga moslashish qiyin bo'ladi. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot jarayoni milliy oshpazlik an'analarini chegaralarini "xiralashtirmoqda" va McDonald's kabi tez ovqatlanish tarmoqlari, Xitoy, Yapon, Italian oshxonalariga xizmat ko'rsatadigan restoranlar keng tarqalmoqda. Bu ba'zi milliy oshpazlik an'analarining inqiroziga olib keldi. Masalan, so'nggi o'n yilliklarda Rossiyada paydo bo'lgan ba'zi taomlar, masalan, tuzlangan bodring va kartoshka, hozirda milliy mahsulotlar hisoblanadi, "olive" salati esa butun dunyo bo'ylab "rus salati" sifatida tan olingen.

Turli xalq madaniyatlarini, shu jumladan, ularning lingvistik va oshpazlik an'analarini sezilarli darajada farq qiladi. Biroq ularning taomni nomlash usullarini o'rganayotganda, nom qo'yish tamoyillarida o'xshashliklarni topish mumkin. Masalan, o'zbek va qirg'iz tillarida "taom" konseptining lingvistik namoyishi leksik va frazeologik iboralarning keng doirasi bilan tavsiflanadi, ularning har birida ovqatga munosabat elementi mavjud. Lingvistik jihatdan ifodalangan "taom" tushunchasi "yeyish" va "ichish" kalit so'zlariga asoslangan barcha kommunikativ ahamiyatga ega ma'lumotlarni qamrab oladi.

Shu nuqtayi nazardan, taom nomlari milliy til madaniyatining ajralmas qismidir. "Taom nomlari" konsepti oziq-ovqat madaniyati va oshpazlik san'atining muhim jihatni hisoblanadi. Taom nomlari ularning kelib chiqishi, tarixi, tarkibi, pishirish usulini aks ettirishi, hatto madaniy yoki ramziy ma'noga ega bo'lishi mumkin. An'anaviy oshxonada taomlarning nomlari mahalliy mahsulot, urf-odat yoki an'analar bilan bog'-liq bo'lishi mumkin. Masalan, italyan oshxonasida ko'plab taomlar "Florentina pastasi" yoki "Toskan bifshteksi" kabi yaratilgan hududlar sharafiga nomlangan. Ba'zi hollarda taom nomlari tarixiy yoki afsonaviy kontekstga ega bo'lishi mumkin, bu ularga qo'shimcha ma'no qo'shadi.

Zamonaviy pishirishda taom nomlari ham e'tiborni jalb qilish va taomning o'ziga xos qiyofasini yaratish uchun ishlatalishi mumkin. Restoran va oshpazlar tashrif buyuruvchilarning qiziqishini uyg'otish maqsadida taomlari uchun o'ziga xos nomlarni yaratishi mumkin. Shuningdek, taom nomlari tushunchasi ularning madaniy, tarixiy va oshpazlik ahamiyatini aks ettiradi hamda muloqot qilish, e'tiborni jalb qilish uchun ishlatalishi mumkin. Taomlar nomlari ma'lum bir xalqning urf-odat va qadriyatlari haqida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan lingvistik va madaniy tushunchalarni ifodalaydi.

Birinchidan, taom nomlari milliy oshxonaning o'ziga xos xususiyatlarini – ingredientlarni, pishirish usullarini, tashqi ko'rinishini aks ettiradi. Masalan, "borsh", "kvas", "solyonoe ogursi" kabi ruscha tushunchalarning boshqa tillarda aniq o'xshashi yo'q.

Ikkinchidan, taom nomlarining etimologiyasi xalqning tarixi, turmush tarzi va urf-odatlari bilan bog'liq. Masalan, "borsh" ilgari sho'rvaga qo'shilgan begona o't nomidan kelib chiqqan. "Pirog" esa bayram so'ziga borib taqaladi.

Uchinchidan, taomlar milliy madaniyat ramzidir. Masalan, fransuzcha "baget", "kruassan" tushunchalari faqatgina fransuz, "osh", "tuxumbarak" o'zbek xalqiga xosdir.

Xulosa qilib aytganda, barcha xalqlarda taom konsepti muhim ahamiyatga ega, chunki u xalqning mentaliteti, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettiradi. Bu nafaqat ovqatlanish manbayi, balki muloqot, an'ana va mehmondo'stlik ramzi hamdir. Taomlarning tayyorlanishi, ko'pincha, oilaviy an'ana, bayram va

unutilmas voqealar bilan bog‘liq. Shuning uchun oziq-ovqat va turli xil taomlar madaniy meros hamda ijtimoiy urf-odatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Ковалев, Н.И. Русская кухня. Учеб. пособие для вузов, Н.И.Ковалев, М.Н.Куткина, Н.Я.Карцева. М., “Деловая литература”, 2000, с. 520; с. 7.
- (2). Савельева О.Г. Концепт «еда» как фрагмент языковой картины мира: лексико-семантический и когнитивно-прагматический аспекты (на материале русского и английского языков). Автореф. дисс. ...канд. филол. наук, Краснодар, 2006, 25 с.
- (3). Гулова З.А. Концепт «еда» в русском и польском языках. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук, Душанбе, 2013, 24 с.
- (4). Ковалев Н.И. Технология приготовления пищи. Учебник для сред. спец. Заведений, Н.И.Ковалев, М.Н.Куткина, В.А.Кравцова, ред. М.А.Николаев. М., “Деловая литература”, 2005, с. 467; с. 24.
- (5). Молчанова Г.Г. Концептосфера вывески английского паба как когнитивная память символов английской культуры. Вестн. Моск. ун-та., сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2017, № 4, с. 20–31.
